

U.M.Paxriddinov

JAHON TARIXI

2-qism

(Akademik litseylarning chuqurlashtirilgan fan yo'nalishlari uchun
darslik)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2021-yil " 23 " noyabrdagi "500"-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan

3930000 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar



Toshkent-2022

Muallif:

U.M.Paxriddinov – Farg’ona davlat universiteti akademik litseyi tarix fani bosh o’qituvchisi

Taqrizchilar:

A.A.Aloxunov – Tarix fanlari bo’yicha fanlari bo’yicha falsafa doktori, PHD Jahon tarixi kafedrası katta o’qituvchisi;

O.G’. Qo’chqorov – Farg’ona davlat universiteti akademik litseyi tarix fani bosh o’qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR



- Eslab qoling



- O'z-o'zini o'rganish uchun topshiriqlar



- Paragraf matniga savollar va topshiriqlar



- Tarixiy portret



- Tarixiy hujjat



- Biz muhokama qilishni taklif qilamiz



- Internet bilan ishlash



- Ilg'or o'quv materiallariga havolalar

Ro'yhatga olish raqami

500/4-005

So'z boshi

Aziz o'quvchilar!

Ushbu darslik jahon tarixining 1918-yil Birinchi jahon urushi tugaganidan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrini qamrab oladi. Bu vaqt oralig'ini tarixchi olimlar “eng yangi davr” deb atashayotgani bejiz emas. U ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ijtimoiy harakatlar va o'zgarishlar, urushlar va inqiloblarning muhim ko'lam bilan ajralib turadi. Shuningdek, sanoat, so'ngra axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, modernizatsiya jarayonlarining tezlashishi bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi an'anaviy va yangi turmush tarzining aralashib ketishiga, davlatlar, xalqlar, shaxslar o'rtasidagi aloqalarning kengayishiga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga olib keldi.


Har qanday tarixiy voqeaga munosabat bildirish uchun, eng avvalo, turli dalillar va fikrlarni tahlil qilish, solishtirish, tanqidiy baho berish zarur. Darslikning har bir bobida mavzu matni bilan bir qatorda “Bilimlarni sinash uchun savol va topshiriqlar” rukni berilgan. Unda bilimlarni sinash, guruh bilan ishlash va ijodiy fikrlash kabi topshiriqlar o'rin olgan. Bu o'ziga xos tadqiqot laboratoriyasi bo'lib, faktlarni mustaqil ravishda ko'rib chiqish va taqqoslash, mulohazalarni mustaqil ifodalash va asoslash qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Darslik 7 bob va 47 mavzu, shuningdek, umumlashtiruvchi savol va topshiriqlar, tarixiy atamalar va tushunchalar, jamoat va siyosiy arboblarning biografik lug'atidan iborat bo'lib, akademik litseylarning chuqurlashtirilgan fan yo'nalishlari uchun mo'ljallangan. Darslikdan o'quvchi mavzu yuzasidan yangi bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, mavjud bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan qo'llash, ijodiy vazifalarni hal qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shu bilan birga, darslikda umumiy va milliy tarix faktlarini taqqoslash ko'zda tutilgan, chunki eng yangi davrni O'zbekiston tarixiga murojaat qilmasdan yetarlicha anglab yetish mumkin emas. Qiyinroq vazifalar alohida belgi bilan belgilangan.

Darslikdagi mavjud atama va tushunchalar lug‘ati hamda biografik lug‘atdan to‘liq foydalanishingizni tavsiya qilamiz. Ular zamonaviy davrning bugungi kungacha davom etayotgan murakkab tarixini yaxshiroq tushunish va anglashga yordam beradi.

Sizga o‘qish va ishlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman!

I BOB. IKKI JAHON URUSHI ORALIG'IDA DUNYODA IJTIMOIY SIYOSIY VAZIYAT



1-§. Kirish. 1918-1939-yillarda xalqaro munosabatlar



Kirish. Insoniyat tarixining Birinchi jahon urushining yakuni - 1918-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bo'lgan davri «**Eng yangi tarix**» deb ataladi. «**Eng yangi tarix**» kishilik jamiyati rivojlanishida industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davri sifatida qoraladi.

Eng yangi davr tarixida nisbatan mustaqil bo'lgan uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. **Birinchi bosqich** 1918-1945-yillar - industrial jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimi inqirozining boshlanishi davri.

Bu inqiroz jahon urushlarida, sotsialistik va milliy-ozodlik inqiloblarida, Germaniya, Italiya, Yaponiya, SSSRda totalitar tuzumlarning qaror topishida, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvida namoyon bo'ldi. Bu bosqichning mazmunini jamiyat taraqqiyotining ikki asosiy modellari - liberal-demokratik va totalitar tuzumlar o'rtasidagi kurash tashkil qiladi.

Ikkinchi bosqich 1945-1991-yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich mazmunini mustamlaka tizimining qulashi va ko'plab mustaqil davlatlarning tashkil topishi, «sovuq urush», dunyoni yadroviy halokat yoqasiga olib kelgan qurollanish poygasi tashkil qiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan sotsialistik lager bilan G'arb mamlakatlari o'rtasidagi global qarama-qarshilik bu davrning xarakterli jihati hisoblanadi.

1918 - 1939-yillarda xalqaro munosabatlar

Parij tinchlik konferensiyasi. Urushdan keyingi xalqaro munosabatlar tizimi, asosan, Parij konferensiyasi (1919- yil 18- yanvar - 1921-yil 28- iyun) va Vashington konferensiyasi (1921 -yil 12- noyabrdan 1922- yil 6- fevralgacha) qarorlariga tayandi. Parij konferensiyasi ishida 27 mamlakat vakillari ishtirok etdilar. Ammo amalda barcha asosiy masalalar besh davlat tomonidan hal qilindi. Bular AQSh (Prezident **Vudro Vilson**), Angliya (Bosh vazir **David Lloyd-Jorj**), Fransiya (Bosh vazir **Jorj Klemanso**), Italiya (Bosh vaziri **Vittorio Orlando**), Yaponiya (baron **Makino**) davlatlari edi.



“Ko'zgular zali”- Versal saroyi 1919- yil 28 iyun.

Bu konferensiya “*ochiq diplomatiya*” namunasi sifatida keng miqyosda ko'z-ko'z qilindi. Parijga mingdan ortiq vakillar to'plandilar. Lekin Germaniya va Sovet Rossiyasining vakillari yo'q edi. “*Adolatli sulh*” va “*yashirin diplomatiya*” dan

voz kechish to'g'risidagi bayonotga qaramasdan, konferensiyaning asosiy qarorlari yirik mamlakatlarning, avvalo, Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyaning yashirin bitimlari natijasi edi.

1919- yil 28-iyunda Germaniya vakillari Versal saroyining oynavand zalida urushdan keyingi tinchlik yo'li bilan hal qilingan asosiy hujjat - sulh shartnomasini imzoladilar. Shundan keyin Germaniyaning ittifoqchilari bo'lgan Bolgariya, Turkiya bilan va Avstriya-Vengriya bo'linib ketganligi bois Avstriya va Vengriya bilan alohida sulh shartnomasi imzolandi.



Katta to'rtlik. Chapdan o'ngga: D. Lloyd Jorj, V. Orlando, J. Klemanso, V. Vilson.1919-y.



"Katta to'rtlik" a'zolari haqida qisqa tarixiy matn tuzing

Vashington konferensiyasi. Amerika diplomatiyasi qurollarni “cheklash”, Uzoq Sharqdagi va Tinch okeanidagi bahsli masalalarni hal qilish maqsadida Vashingtonda xalqaro konferensiya chaqirish tashabbusi bilan chiqdi. 1921-yil 12-noyabrda ochilgan Vashington konferensiyasiga 9 mamlakat: AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya , Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya, Xitoy davlatlari taklif etildi.

Shunday qilib, 1921-yil 13-dekabrda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya vakillari to'rt mamlakat xalqaro shartnomasini imzoladilar. Bu shartnoma uning ishtirokchilarini Tinch okeani havzasidagi orollarga egalik qilish

huquqini ta'minladi. 1922- yil 6 -fevralda besh mamlakat: AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya , Italiya o'rtasida "Dengiz qurollarini cheklash to'g'risida" xalqaro shartnoma imzolandi. Ular o'rtasida harbiy-dengiz kuchlarining ma'lum darajadagi mutanosibligi qaror topdi.



Versal-Vashington tartibi yaratilishining asosiy bosqichlari:

- 1919-yil yanvar — Versal tinchlik shartnomasining tuzilishi. Birinchi jahon urushi yakunlarining chiqarilishi;
- Xalqaro hamkorlik va xalqlarning xavfsizligi uchun kurash yo'lida birlashgan davlatlar minbari sifatida Millatlar Ligasining tashkil etilishi;
- Avstriya, Bolgariya, Vengriya va Turkiya bilan Versal tartibidagi shartnomalarning imzolanishi;
- AQShning Versal shartnomasini tasdiqlash va Millatlar Ligasiga kirishdan bosh tortishi;
- Vashington konferensiyasi, «to'qqiz davlat shartnomasi»ning imzolanishi. Uzoq Sharq va Tinch okeanida AQSh gegemonligini o'rnatish imkoniyatlarining paydo bo'lishi. Versal-Vashington tartibini yaratishning yakunlanishi;

Millatlar Ligasi Nizomi (26-modda):

- mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy hamkorlik;
- xalqaro nizolarni hal etishda urushdan vosita sifatida foydalanmaslik;

-agressor mamlakatga qarshi jazo choralarining qo'llanilishi.

Millatlar Ligasi- birinchi jahon urushi yakunida tashkil topgan. Urush yakunida olib borilgan tinchlik muzokaralarida AQSH prezidenti Vudro Vilsonning 14 moddadan iborat tamoyillariga tayanilgan. Millatlar Ligasi Pakti 1919-yil 28-iyun Versal shartnomasining 1-qismi sifatida imzolandi va boshqa shartnomalar bilan birgalikda Millatlar Ligasining 29 moddadan iborat nizomi tomonlar ratifikatsiya qilganlaridan so'ng 1920-yil 10-yanvarda kuchga kirdi. AQSHning o'zi Senatining qarshiligi tufayli Millatlar Ligasiga qo'shilmadi.

Millatlar Ligasining muvafaqiyatsizlik sabablari:

- Liganing mojarolarni oldini olishdagi kamchiliklar va sanksiyalarning yetarli emasligi.

-Nizomning 10-moddasida tajovuzkorlar aniqlanmaganligi sababli, ushbu modda tinchlikni saqlash uchun etarli emas edi.

- AQSHning Millatlar Ligasidan joy olmasligi muhim xalqaro kuchlarning yo'qolishiga va liganing samarasizligiga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan vaqtda 1933-yilda Yaponiya va Germaniya va 1937-yilda Italiya Ligadan chiqib ketdi.

Ikkinchi Jahon urushi boshlanishi bilan tashkilot deyarli o'z faoliyatini to'xtatdi.


Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topgandan so'ng, 1946- yil aprelda 21-assambleya chaqirilib, Millatlar Ligasi tarqatib yuborildi va uning vakolatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotiga o'tkazildi. Xalqaro sud va Xalqaro mehnat tashkiloti kabi quyi organlar ham Birlashgan Millatlar Tashkilotiga berildi.



Millatlar Ligasi-1919-yil 14-fevralda nizomi tasdiqlangan.1946-yilgacha faoliyat ko'rsatgan xalqaro tashkilot. Ikkinchi jahon urushini oldinini ololmagan. O`rnini BMT egalladi.

1923-yili Lozanna tinchlik shartnomasi imzolaniib, unda Turkiyaning urushdan keyingi chegaralari belgilab berildi va mustaqilligi tan olindi. U Birinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan hududiy o'zgarishlarga qonuniy tus bergan so'nggi yirik shartnoma bo'ldi.

1919-1923-yillari imzolangan shartnomalar va jahondagi kuchlarning yangi nisbati xalqaro munosabatlarning Versal-Vashington tizimi nomini oldi. Versal-Vashington tizimi bir guruh davlatlarning dunyoga hukmronligini o'rnatdi, dunyo siyosatida AQSH ta'sirining sezilarli kuchayganligini aks ettirdi.



Jorj Klemanso (1841-1929)- fransuz davlat arbobi, ma'lumoti bo'yicha vrach. 1906-yildan - Fransiya Vazirlar kengashi raisi, 1917-yildan -Fransiya Bosh vaziri va ayni paytda harbiy vazir. Mamlakatda diktatorlik tuzumi o'rnatishga urindi.1920-yildagi saylovlarda mag'lubiyatga uchradi.



Vashington konferensiyasidagi uchrashuv paytida. 1922-y.



Sizningcha Versal tinchlik shartnomasi adolatli imzolangan edimi?



Versal tinchlik shartnomasidan. 1919- yil 28 -iyun.

Barcha davlatlar qurollanishining umumiy chegarasini tayyorlashga imkon berish uchun Germaniya quyida keltirilgan qoidalarga qat'iy rioya qilishga majburdir. <...>

160-modda ... Shu paytdan boshlab Germaniyani tashkil etuvchi davlatlar armiyasining umumiy kuchi 100 ming kishidan oshmasligi kerak, shu jumladan ofitserlar va jangovar bo'lmaganlar va faqat hududda va chegarada tartibni saqlash uchun mo'ljallangan politsiya bo'lishi kerak. <...>

173 -modda. Germaniyada umumiy majburiy harbiy xizmatning barcha turlari bekor qilinadi. Nemis armiyasini faqat ixtiyoriy yollash orqali shakllantirish mumkin.



Industrial sivilizatsiya- bu sanoat va fan-texnika taraqqiyotiga asoslangan sivilizatsiya.

Postindustrial sivilizatsiya - bu iqtisodiyotda sanoatning yuqori unumdor innovatsion sektori, yalpi ichki mahsulotda fan yutuqlari va axborot texnologiyalari, iqtisodiy va boshqa faoliyat sohalarida raqobat ustuvor bo'lgan jamiyat. Bu sivilizatsiyaga nisbatan axborot jamiyati atamasi ham qo'llaniladi.

Konferensiya (konferentia - bir joyga to'playman) - davlat yoki partiya, jamoat va olimlar vakillarining muayyan masalani muhokama etish uchun yig'ilishi.

Millatlar Ligasi - Birinchi jahon urushidan keyin tuzilgan xalqlarning tinchlik va xavfsizlik yo'lidagi hamkorligini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot.

Fashizm (birlashma) - Italiyada paydo bo'lgan siyosiy oqim. Hokimiyat tepasiga kelgach, fashistlar zo'ravonlikning ashaddiy shakllarini qo'llovchi va jamiyat ustidan yalpi nazorat o'rnatuvchi terroristik diktaturani barpo etdilar.

Ratifikatsiya qilish (lotincha «ratificacio» — «tasdiqlayman») — davlatning oliy martabali vakili imzolagan xalqaro shartnomaning oliy hokimiyat organi tomonidan e'tirof etilishi.



I. Bilimlarni sinash

1. Qachon va qaysi mamlakatda tinchlik shartnomasini tuzish bo'yicha konferensiya o'tkazildi, bu konferensiyada qancha mamlakat ishtirok etdi?
2. Birinchi jahon urushida qatnashgan mamlakatlar o'rtasida 1919-yil yanvarida tinchlik shartnomasining imzolanishida qaysi mamlakatlar hal qiluvchi rol o'ynadi?
3. Tinchlik shartnomasini imzolash jarayonida Birinchi jahon urushidagi g'olib mamlakatlar o'rtasida qanday ziddiyatlar namoyon bo'ldi?
4. Versal tinchlik shartnomasi qanday shartlarda va qachon imzolandi?
5. Versal tinchlik shartnomasi Germaniyaga nisbatan qanday mohiyatda edi?
6. Germaniya hukumati nega Versal tinchlik shartnomasini imzoladi?
7. Millatlar Ligasi qanday maqsad bilan va qachon tashkil etildi?
8. Versal tartibidagi shartnomalarning mohiyati nimada va undagi asosiy ziddiyat nimadan iborat edi?
9. Urushdan keyingi ziddiyatlar qanday yo'l bilan hal etildi?

10. Vashington konferensiyasida qanday qarorlar qabul qilindi? Unda qaysi mamlakatlar ishtirok etdi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Versal-Vashington tartibi yaratilishining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
2. Mandat tizimi nima va u qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Versal-Vashington tizimining mustahkam emasligi sabablarini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun

Birinchi jahon urushini oldini olsa bo'larmidi siz bo'lganizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Sovuq urush", "ikki qutubli dunyo", "reparatsiya" atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan Versal-Vashington konferensiyalari ishtirokchi davlatlarini ko'rsating.

V. Ijodiy vazifa

Jadvalni to'ldiring.

Birinchi jahon urushidan keyin Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muammolar (ularni hal qilish yo'llarini taklif qiling)

Mamlakat	Iqtisodiy muammolar	Ijtimoiy muammolar	Siyosiy muammolar	Ularni hal etish yo'llari
----------	---------------------	--------------------	-------------------	---------------------------

2-§. 1918-1939-yillarda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar



Bu davrda dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'zgartirgan eng muhim omillardan biri ilmiy-texnik taraqqiyot bo'ldi. Fanni ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirishning uzoq davom etgan jarayoni yakunlanib, XX asr boshlarida ilmiy-texnik inqilobga olib keldi.

Aniq va tabiiy fanlardagi inqilob. Nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatga ega ekanligi yadro energiyasining kashf qilinishida yaqqol namoyon bo'ldi. Amerikalik Enriko Fermi va fransuz Frederik Jolio Kyuri uranning parchalanishi jarayonida yuz beradigan zanjirli reaksiya natijasida juda katta energiya ajralib chiqishi to'g'risidagi g'oyani shakllantirdi.

Hatto XIX asr oxiri-XX asr boshlarida tabiatshunoslikda ham inqilobiy burilish boshlandi. Bu ham ishlab chiqarish sohasida, odamlarning kundalik hayotida ham keskin o'zgarishlarga olib keldi. Ilm yangi bilim tarmoqlari bilan boyidi va texnik taraqqiyot buning asosi bo'ldi.



Ilmiy-texnik taraqqiyot ta'siri ostida kundalik hayotda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Yadro energiyasining olinishi va uning ahamiyati. Shu davrda fizikaning alohida yo'nalishi atom fizikasi ham shakllandi. 1938-yili nemis olimlari uran yadrolari ajralib chiqishining zanjirli reaksiyasini kashf etdilar. Insoniyat oldida atom energiyasidan foydalanishning murakkab muammosi paydo bo'ldi.

Atom bombasini yaratish ustida izlanishlar Germaniya, sobiq Sovet Ittifoqi va boshqa bir qator davlatlarda ham davom ettirildi. Ammo AQSH o'z raqiblaridan ancha oldinlab ketdi. Italiyalik olim E.Fermi (1901-1954) neytronlar vositasida yuzaga kelgan sun'iy radioaktivlikni kashf qildi, tarixda birinchi yadro reaktori barpo etdi va unda birinchi bo'lib zanjirli yadro reaksiyasini (1942-yil) amalga oshirdi, bu atom bombasining yaratilishiga yo'l ochdi. Fermi 1938-yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

Birinchi atom bombasi 1945-yil AQSHning Nyu-Meksiko shtatidagi poligonda portlatildi.

Nazariy fizika XX asrda aniq fanlarning rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Televideniya, rentgen nurlari, radiatsiya, elektronika fizikadagi buyuk kashfiyotlar sharofati bilan dunyoga keldi. 1939-yilda ingliz fiziklari tomonidan **radarning** kashf etilishi ayniqsa ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. 1940-yili insoniyat

kibernetikaga vo‘l ochdi, bu fan elektron hisoblash mashinalari, axborot olish, unga ishlov berish va saqlash tizimlarining yaratilishiga imkon yaratdi-ki, ularsiz bugungi kunimizni tasavvur qilishimiz mushkul.

Fizika sohasidagi yangi nazariyalarning amaliyotga tatbiq qilinishi ko‘plab yangi texnik ixtirolarga olib keldi. Tarixda ilk bor harakatlanuvchi tasvirni elektron-nurli trubka yordamida masofaga uzatishni 1928-yili ixtirochilar Boris Grabovskiy va Ivan Belyanskiy Toshkentda amalga oshirdilar. Toshkent tramvay trest bazasida o‘tkazilgan bu tajribani olimlar zamonaviy televideniyaning paydo bo‘lishi, deb hisoblashadi. Shu tariqa televideniya asri boshlandi.

1927-yili AQSh va Angliyada televizion apparatlar yaratildi. 1939-yilda bu mamlakatlarda uzatuvchi va qabul qiluvchi tarmoqlar ish boshladi. Faqatgina Britaniya orollarida yigirma ming radioproymnik ishlar edi.

Kino san'atining buyuk namunalarini yaratildi. Charli Chaplin ishtirokidagi filmlarni millionlab tomoshabinlar ko‘rdilar. Kinematografiya ulkan daromad manbai, sanoat va tijoratning bir qismiga aylandi. 1920-yillari ovozli kino ustida ishlash davri bo‘ldi. Ko‘plab tajribalardan so‘ng 1927-yili Nyu-Yorkda namoyish qilingan «**Jaz kuychisi**» filmini mutaxassislar birinchi ovozli kino deb tan olishgan. Tomoshalar ichida eng ommaviysi bo‘lgan ovozli kino o‘z davrini shunday boshladi.

XX asr boshlarida biologiya fani ham shiddat bilan rivojlandi. 1922-yili fiziolog olimlar Jon Makleod va Frederik Banting ko‘plab tajribalar jarayonida o‘t pufagi gormoni bo‘lgan insulinni olishga muvaffaq bo‘ldilar. Qandli diabet kasalligi endi bedavo dard bo‘lmay qoldi. Insulinning kashf etilishi XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri deb tan olindi.

Jon Makleod va Frederik Banting fiziologiya va tibbiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar.

1928-yili britaniyalik olim Aleksandr Fleming Londondagi Sent-Meri kasalxonasi laboratoriyasida bir qancha vaqtdan beri to‘planib qolgan idishlarni



Aleksandr Fleming

yig‘ishtirayotib, ulardan biridagi mog‘orga ko‘zi tushadi. Tekshirib ko‘rilganda bu juda noyob **Penicillium** turiga mansub mog‘or bo‘lib chiqdi. Penitsillin, keyin esa boshqa antibiotiklarning kashf etilishi yuqumli kasalliklarni davolashda haqiqiy inqilob bo‘ldi. 1945-yili Aleksandr Fleming Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ko‘pgina kasalliklarni Aleksandr Fleming kashf qilgan penitsillinsiz va antibiotiklarning yangi avlodisiz davolash bugungi kunda ham mumkin bo‘lmasdi.

1930-yillarga kelib fizika, kimyo kabi tabiiy fanlarning rivojlanishi yangi, o‘ta mustahkam materiallarni yaratish imkonini berdi. AQSH va Germaniyada kapron, perlon, neylon, sintetik qatron kabi sun‘iy tolalarning olinishi yangi, o‘ta sifatli konstruktiv materiallar olish imkonini yaratdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ularni ommaviy ishlab chiqarish boshlandi.

1930-yillar oxiriga kelib rivojlangan mamlakatlar sanoatining katta qismi elektrlashtirildi. Fuqaro aviatsiyasi, telegraf, radioeshittirishlar keng tarqaldi. 1927-yili Buyuk Britaniyaning mashhur radiokorporatsiyasi **Bi-bi-si** tashkil qilindi.

Fan va texnikadagi yangiliklar kishilarning kundalik turmushini ham o‘zgartirib yubordi. Aholining boy va o‘rtahol qismida shaxsiy avtomobillar paydo bo‘ldi. Ko‘plab ishchilar ishga mototsikl va velosipedlarda qatnay boshladi. Maishiy texnikalar - sovitkichlar, changyutgichlar, kir yuvish mashinalaridan, shuningdek, telefon va grammofondan foydalanish keng tarqaldi.

Xullas, fan-texnika inqilobi jamiyatda ham chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Fanning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati yuksaldi. Fanga va olimlarga munosabat o‘zgardi. Olimlar, aktyorlar va yozuvchilar singari, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taniqli shaxslarga aylandilar. Fanni rivojlantirish vazirliklari, hukumatlararo institutlar tashkil qilinib, olimlar hamma yerda faol shaxslarga aylanib bordilar



Kibernetika (yunoncha - boshqarish san‘ati) — axborotni qabul qilish, saqlash, uni qayta ishlash hamda undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shug‘ullanadigan fan.



I. Bilimlarni sinash

1. XX asrda ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvining sabablari nimadan iborat edi?
2. XX asrning birinchi yarmida fizika sohasidagi kashfiyotlarning asosiy natijasi nimalardan iborat bo'ldi?
3. Zamonaviy elektron televideniyaning paydo bo'lishi qanday ixtirolar bilan bog'liq bo'ldi?
4. Insulin va penitsillinning kashf etilishi qanday kasalliklarni davolash imkoniyatini yaratdi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Fan texnika taraqqiyotiga qaysi soha ko'proq qaysi fanlar ta'sir ko'rsatdi?
2. Fan va texnikadagi yangiliklar kishilarning kundalik turmushini qanday o'zgartirdi?
3. Atom bombasini yaratilishi sabablarini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun

Birinchi jahon urushini texnika taraqqiyotiga qanday ta'sir qilgan deb o'ylaysiz.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "sintetik qatron", "kapron", "ovozli kino" atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan kashfiyotlar amalga oshirilgan davlatlarni ko'rsating.

V. Ijodiy vazifa

Internetdan XX asrning birinchi yarmida yaratilgan kashfiyotlarga doir suratlarni izlab toping va rasmlari klaster tuzing.



Jadvalni to'ldiring

Kashfiyotchi	Kashfiyot	Davr
--------------	-----------	------



Test topshiriqlarini bajaring.

1. Mazmunini jamiyat taraqqiyotining ikki asosiy modellari – liberal – demokratik va totalitar tuzumlar o'rtasidagi kurash tashkil qiladigan davrni toping?
A) 1914-1918-yillar B) 1918-1945-yillar
C) 1945-1991-yillar D) 1991-yildan boshlangan davr

2. Quyidagilardan qaysi biri bir joyga to'playman degan ma'noni anglatadi? A) fashizm B) statut C) patefon D) konferensiya
3. Birinchi jahon urushi yakunida quyidagi qaysi imperiyalar tarqalib ketgan? A) Germaniya, Avstriya-Vengriya, Usmoniylar
B) Germaniya, Fransiya, Avstriya-Vengr7ikdfiya
C) Avstriya-Vengriya, Buyuk Britaniya, Germaniya
D) Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya

II BOB. IKKI JAHON URUSHI ORALIG'IDA YEVROPA VA AMERIKA DAVLATLARI

3- §. 1918-1939-yillarda Buyuk Britaniya



Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy harakatlar.

Birinchi jahon urushi Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Bir paytlar jahon sanoat bozorida hukmronlik qilgan Angliya dunyo «sanoat ustaxonasi» rolini to'liq qo'ldan boy berdi. Ingliz mahsulotlarining eksporti kamayib, import ko'paydi. Angliya harbiy xarajatlarni to'lashga majbur edi, shu sababli chet el zayom va kreditlaridan foydalanardi. Natijada Angliya AQShning asosiy qarzdoriga aylandi (urushgacha AQSh uning asosiy qarzdori edi). Buyuk Britaniya qarzdan qutulish uchun o'zining chet ellardagi mulklaridan chorak qismini sotib yuborishga majbur bo'ldi. Davlat subsidiyalari hisobiga eskirgan korxonalarning qo'llab-quvvatlanishi urushdan so'ng ingliz sanoatini texnologik qoloqlikka olib keldi.

Bir paytlar Britaniya sanoatining g'ururi bo'lgan va katta foyda keltirgan sohalarning eskirganligi, ishchi kuchining armiyaga va harbiy korxonalarga jalb qilinishi, xom ashyo yetishmasligi hamda uskunalarining ishdan chiqqanligi tufayli

ishlab chiqarish pasayib ketdi. Ko'mir qazib olish, cho'yan ishlab chiqarishning kamayishi, kemasozlikning qisqarishi bu sohalami ham turg'unlikka ohb keldi. Ammo bir paytning o'zida sanoatning yangi sohalari bo'lgan avtomobilsozlik, kimyo, aviatsiya, qurolsozhk va harbiy zavodlami ta'minlovchi po'lat quyish sohalarida o'sish ro'y berdi.



Buyuk Britaniyada o'tkazilgan parlament islohotlarining mohiyati nimalardan iborat bo'ldi?

1926-yil mayida kon egalari ish haqi pasaytirilishini e'lon qildi. Bunga javoban Tred-yunionlar Bosh kengashi (ingliz kasaba uyushmalarining rahbar organi) barcha ishchilami yalpi ish tashlashga chaqirdi.

Ish tashlash harakati jiddiy tus oldi. Ishchilar ish haqining oshirilishi va ish kunining qisqartirilishini talab qildilar. Shunday sharoitda shaxtyorlar ish haqining kamaytirilishi Buyuk Britaniya tarixidagi eng katta ijtimoiy mojarolardan biri - 1926-yil mayda ishchilarning umumiy ish tashlashini keltirib chiqardi. Jahon iqtisodiy inqirozi Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga juda katta ta'sir qilmadi. 1934-yildan boshlab mamlakat inqirozdan chiqa boshladi. 1937-yili Buyuk Britaniya sanoatning asosiy sohalari bo'yicha jahon iqtisodiy inqirozidan oldingi ko'rsatkichlarga yetib oldi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi, asosan, uy-joy qurilishining keskin oshishi va sanoatning avtomobilsozlik, samolyotsozlik, dvigatellar va radioapparaturalar ishlab chiqarish kabi yangi sohalari o'sishi hisobiga yuz berdi.

Buyuk Britaniya iqtisodining tiklanishida harbiy sanoatning jadal rivojlanishi ham katta rol o'ynadi.

Siyosiy hayot. Buyuk Britaniyada uzoq yillar **konservatorlar va liberallar** davlatni boshqarib, parlament saylovlari natijasida bir-birini almashtirib keldilar. Bu ikki partiyali siyosiy tizim jamiyatda barqarorlikni saqlab turdi.

Mamlakatdagi murakkab siyosiy va iqtisodiy holatda, keng mehnatkash omma ongida yuz bergan o'zgarishlar natijasida 1918-1924-yillari an'anaviy ikki

partiyali tizim jiddiy inqirozni boshidan kechirdi. Shu sababli 1920-yillar boshida leyboristlar Buyuk Britaniya siyosiy tizimida ikkinchi partiya sifatida oʻrnashib oldi. Ular 1924-yil yanvarda Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta hukumatni boshqardi. Jamoa palatasida koʻpchilik oʻringa ega boʻlmagan bu partiya ham bir yildan kamroq hokimiyatda turdi, ammo ishsizlar va pensionerlar ahvolini yaxshilash borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

1937 - 1940-yillari hukumatni konservatorlar yetakchisi Nevill Chamberlen boshqardi. 1938-yili Myunxen kelishuvining imzolanishi natijasida Nevill Chamberlen 1940-yili hukumat boshligʻi lavozimidan isteʼfoga chiqishga majbur boʻldi. Hukumatni XX asr Buyuk Britaniya tarixida juda katta rol oʻynagan siyosatchi Uinston Cherchill boshqardi.

Mustamlaka va dominionlar bilan munosabat. Buyuk Britaniyaning hukmron doiralari mustamlakalardagi milliy-ozodlik harakatlarini qurol kuchi bilan shafqatsiz bostirdi. 1919-yili Hindistonning Armitsar shahrida ingliz qoʻshinlari tinch namoyishchilarni oʻqqa tutdi. Misrda inglizlarga qarshi qoʻzgʻolonni bostirish maqsadida jazo operatsiyasi oʻtkazildi. Shunga qaramasdan, 1922-yili inglizlar Misrning mustaqilligini tan olishga, Buyuk Britaniya Afgʻoniston va Eronning tashqi va ichki siyosatini nazorat qilishdan ham voz kechishga majbur boʻldi. Nihoyat, irlandlarning ozodlik uchun olib borgan yuz yillik kurashi muvaffaqiyatli yakunlandi.

1918-yilgi saylovlarda «Shinnfeyn» ingliz parlamentining irlandiyaliklarga ajratilgan barcha oʻrinlarini olib qoʻydi. Irlandiyadan saylangan deputatlar parlament ishida qatnashishdan voz kechdilar va **1919-yil 21-yanvarda** oʻzlarini mustaqil Irlandiya parlamenti deb eʼlon qildilar. «Shinnfeyn»ning harbiylashgan qanoti Irlandiya respublikachilar armiyasiga (IRA) aylandi. Asli kelib chiqishi AQShdan boʻlgan **Edraon de Valeri** (1882-1975) Irlandiyaning birinchi prezidenti qilib saylandi. 1921-yil dekabrda Buyuk Britaniya dominion huquqiga ega boʻlgan «Ozod Irlandiya davlatini» tan oldi.

Bu davrda Buyuk Britaniya bilan uning dominionlari - Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika Ittifoqi, Yangi Zelandiya oʻrtasidagi munosabatlarni 1931-yili

qabul qilingan **Vestminster statuti** deb nomlangan hujjat belgilab berdi. Statutga ko'ra o'z ichki mustaqilligiga ega bo'lgan dominionlar bilan metropoliya birgalikda Britaniya Millatlar Hamdo'stligi nomli ittifoqni tashkil qildi.

Tashqi siyosat. 1930-yillarda o'zining iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy yutuqlarini namoyish qilayotgan Germaniyadan qo'rqish hissi Buyuk Britaniya siyosatini belgilab berdi. Buyuk Britaniyada, umuman Yevropaning boshqa davlatlarida ham fashizmdan qo'rqish hissi bo'lajak urushda fashistlarning kuchlari Sovet Ittifoqiga qarshi qaratiladi, degan umid bilan qo'shilib ketgan edi. Shu umid tufayli ular fashistlarning tajovuzkor siyosatiga faol qarshilik ko'rsatmadi. Bu siyosat tarixda **«tajovuzkorga yon berish»** siyosati nomini oldi.

Angliyaning Ikkinchi jahon urushga kirishi. Buyuk Britaniyada bu siyosat 1937-yili hokimiyatga kelgan bosh vazir Nevill Chamberlen nomi bilan bog'liq. Boshlanishi muqarrar bo'lib qolgan urushni sharqqa qarab yo'naltirish maqsadida Nevill Chamberlen Adolf Gitler, Benito Mussolini va Eduard Dalade bilan birgalikda 1938-yili Myunxen kelishuvini imzoladi. Kelishuv natijasida Chexoslovakiyaning, asosan, nemis millatiga mansub aholi yashaydigan Sudet viloyati Germaniyaga berildi.



Myunxen shartnomasini imzolash
paytida.

Chapdan o'ngga: N. Chamberlen,
E. Daladye, A. Gitler, B.
Mussolini.

1938- yil 30- sentabr

Ammo Germaniya bu bilan cheklanmadi. U 1939-yil 1-sentabrda Polshaga bostirib kirdi va Ikkinchi jahon urushini boshlab berdi. 3-sentabr kuni Polshaning ittifoqchisi bo'lgan Buyuk Britaniya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi va shu tariqa boshlanib ketgan ikkinchi jahon urushiga qo'shildi.



N. Chamberlen Myunxen shartnomasi imzolangandan keyin 1938-yil 30-sentabr kuni Londonga qaytgan Bosh vazir samolyot zinapoyasida inglizlarni ishontirdi: *"Men avlodimizga tinchlik olib keldim"*.



Konservatorlar partiyasi - Buyuk Britaniyadagi asosiy siyosiy partiyalardan biri (rasmiy nomi — konservativ va yunionistik tashkilotlarning milliy ittifoqi).

Statut (lotincha statutum - qarordan) - xalqaro tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi va unga o'z chora-tadbirlari va tartiblarini amalga oshirish huquqini beruvchi xalqaro shartnoma.



I. Bilimlarni sinash

1. Buyuk Britaniya Birinchi jahon urushidan qanday natijalar bilan chiqdi?
2. Buyuk Britaniya taraqqiyotidagi qanday muammolar 1926-yil maydagi eng yirik ish tashlashni keltirib chiqardi?
3. Bu davrda siyosiy rivojlanishdagi Buyuk Britaniyaga xos bo'lgan qanday asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
4. Buyuk Britaniyaning mustamlaka va dominionlar bilan munosabatida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
5. Ikkinchi jahon urushidan oldin Buyuk Britaniya tashqi siyosatining asosiy maqsadi nimadan iborat edi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Ikkinchi jahon urushidagi Buyuk Britaniya ishtiroki haqida ma'lumot to'plang.
2. U. Cherchilning hokimiyat tepasiga kelishi siyosiy sohaga qanday ta'sir qildi?
3. Nega aynan 1930-yillarda Germaniyadan qo'rqish hissi Buyuk Britaniya siyosatini belgilab berdi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Birinchi jahon urushi texnika taraqqiyotiga qanday ta'sir qilgan deb o'ylaysiz.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. 1918 - 1939-yillardagi Buyuk Britaniya tarixiga oid asosiy tushunchalarni ingliz tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.
2. Xaritadan foydalanib, Buyuk Britaniya imperiyasiga tegishli hududlarni maqomiga ko'ra tasniflang va izoh yozing.

V. Ijodiy vazifa



Internetdan foydalanib Buyuk Britaniya dominionlari ro'yhatini tuzing va ularni daftaringizga yozing.



Jadvalni to'ldiring

Partiya	Maqsadi	Bosh vazir
---------	---------	------------

4-§. 1918 – 1939-yillarda Fransiya



Iqtisodiy rivojlanish. Birinchi jahon urushini Fransiya g'alaba bilan yakunladi. U o'zining ashaddiy dushmani bo'lgan Germaniyani tor-mor qildi, qit'ada boshqa jiddiy raqibi qolmadi. Ammo bu g'alaba fransuz xalqiga juda qimmatga tushdi. Bevosita urush harakatlari bo'lib o'tgan Fransiya hududining uchdan bir qismidagi sanoat korxonalari vayron qilindi. Pul keskin qadrsizlandi, Fransiya AQSHdan qarzdor bo'lib qoldi.

Urush qishloq xo'jaligi, sanoat va kredit tizimiga jiddiy zarar yetkazdi, Fransiya dunyodagi kreditorlik pozitsiyasini qisman yo'qotdi. Kapitalning katta qismi kredit sohasidan ishlab chiqarish sohasiga ko'chdi.


Versal shartnomasiga binoan Fransiya Elzas va Lotaringiyani qaytarib oldi, 15 yilga Saar ko'mir havzasini egalladi, Germaniya mustamlakalari hisobiga o'z imperiyasini kengaytirib oldi. Germaniya Fransiya katta reparatsiya to'ladi.

Bularning hammasi 1920-yillari sanoatning o'sishi uchun qulay sharoit yaratdi. Sanoatning avtomobilsozlik, samolyotsozlik, neftni qayta ishlash, kimyo sanoati kabi yangi turlari paydo bo'ldi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi turg'unlik holatini boshdan kechirayotgan bo'lib, mahsulot yetishtirish urushdan oldingi holatida edi.



Buyuk fransuz burjua inqilobining yuzaga kelish sabablari nimalardan iborat edi?

1929 - 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Fransiya 1930-yili boshlandi. Shu yili ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari susayib, sanoat ishlab chiqarishi keskin pasayib ketdi. Metallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida inqiroz yuz berdi. Ishlab chiqarishning pasayishi ishsizlar sonining oshishi va ish haqining kamayishiga olib keldi.



Inqirozdan aholining barcha qatlamlari jiddiy zarar ko'rdi. Shahar mayda burjuaziyasining daromadlari keskin tushib ketdi, yuz minglab mayda savdogarlar xonavayron bo'ldi. Fransiyada sanoat ishlab chiqarishi 1930-yillar oxirida ham inqirozdan oldingi darajasiga yetmadi.

Ichki siyosat va ijtimoiy muammolar. Birinchi jahon urushidan keyingi og'ir ahvolga qaramasdan, Fransiya hukmron doiralari «Biz istaganimizning hammasiga, hatto undan ham ko'prog'iga erishdik» deya, xalqni xotirjam qilishga urindi. Germaniya ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng mamlakatda shovinistik kayfiyat keng tarqaldi. 1919-yil noyabrda saylov jarayoni millatchilik va «bolsheviklar xavfi» bilan qo'rqitish ruhi ostida o'tdi. Burjua partiyalaridan iborat Milliy blok guruhi tuzildi. Milliy blok saylovlarda 2/3 qismdan ko'proq ovoz oldi. Bu Fransiyadagi o'ng kuchlarning eng katta g'alabasi edi.

Ammo saylovlarda Milliy blok bergan va'dalar bajarilmadi, Fransiya 1930-yillarning o'rtalarigacha ijtimoiy qonunchilik sohasida bir qadam ham olg'a tashlamadi.

Shunday bo'lsa-da, 1926-1929-yillari hukumat pulning qadrsizlanishini to'xtatishga, kun kechirishni arzonlashtirishga erishdi. Ijtimoiy faoliyatga e'tibor qaratildi: 1926-yilda ishsizlik nafaqasi joriy etildi, keksalik nafaqasi, kasallik, nogironlik va homiladorlikda yordam puli beriladigan bo'ldi. Shunday holatda bo'lib o'tgan 1928-yilgi saylovlarda ham o'ng kuchlar g'olib chiqdi.

Fransiyada iqtisodiy inqiroz 1930-yil oxirida boshlandi. Uchinchi respublika jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi: 1929 - 1932-yillari bir nechta hukumat almasldi. Ammo ularning birortasi iqtisodiy inqirozni to'xtata olmadi.

1934-yili hokimiyatga yana o'nglar keldi. Fransiyada fashistik rejim o'rnatilishi real xavfga aylandi. Mamlakatda fashistlar faollashgan bir paytda hukumat aralashmaslik siyosatini olib bordi. Faqat Xalq fronti fashistlarga qarshi faol harakat qildi. Ammo o'nglar ularni Fransiyaning «sovetlashtirish»da aybladi. O'nglar yetakchisi Pyer Laval: «Xalq frontidan ko'ra Gitler ma'qul», - deya bayonot berdi. Bu shiorni o'sha davr fransuz siyosiy elitasining katta qismi qabul qildi. Aynan shu hol Uchinchi respublikani halokatga olib kelgan asosiy omillardan biri bo'ldi.



Tashqi siyosat. Versal shartnomasi shartlarining bajarilishi uchun kurash Fransiya tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallaydi.

1938-yil kuzida **Eduard Dalad'e** hukumati Buyuk Britaniya bilan birga Chexoslovakiyaning fashistik Germaniyaga topshirgan Myunxen kelishuvini ma'qulladi. Amalda Myunxen kelishuvi yangi jahon urushiga **Eduard Dalad'e** yo'l ochib berdi. Bu urushning birinchi qurbonlaridan biri Fransiyaning o'zi bo'ldi. 1940-yil 14-iyun kuni nemis qo'shinlari Parijga kirib keldi. O'shanda ko'pchilik faqat Chexoslovakiyaga - Fransiyaning ishonchli, sodiq ittifoqchisiga nisbatan xoinlik bo'ldi, deb o'ylagan edi. Ammo bu faqat Chexoslovakiyaga nisbatan emas, butun dunyoda tinchlikka nisbatan xoinlik bo'lib chiqdi. Bu xoinlik natijasida ilk jabr ko'rganlardan biri fransuz xalqi bo'ldi.

O'z yetakchilarining kaltabin siyosati Uchinchi respublika uchun juda qimmatga tushdi: u nemis qo'shinlarining oyog'i ostida barbod bo'ldi.



Shovinizm - bir irqning boshqalardan ustunligini da'vo qiluvchi, millatlar o'rtasida nizo urug'ini sochuvchi o'ta o'ng, ashaddiy millatchilik.



O'nglar - mavjud tuzumni keskin o'zgartirmaslik, uni konstitutsiya doirasida rivojlantirish tarafdorlari.

So'llar - mavjud tuzumni o'zgartirish, keskin islohotlar tarafdorlari.



I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushi Fransiya uchun qanday natijalarga olib keldi?
2. 1929 - 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozining Fransiya ta'siri haqida gapirib bering.
3. 1929 - 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Fransiya iqtisodi va siyosiy kuchlar muvozanatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Jahon urushlari orasida Fransiya tashqi siyosatining asosi nimadan iborat edi?
5. O'nglar yetakchisi Pyer Laval bayonoti nimadan iborat edi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Ikkinchi jahon urushidagi Fransiya ishtiroki haqida ma'lumot to'plang.
2. Nega Myunxen shartnomasini imzolanishi Fransiyaning butun dunyoda tinchlikka nisbatan xoinlik bo'lib chiqdi ?
3. Nega 1930-yillarda Fransiya fashistik rejim o'rnatilishi real xavfga aylandi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Nima deb o'ylaysiz, fransuz xalqining qaysi jihatlarida jahon urushlarida qo'l kelgan?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. 1918 - 1939-yillardagi Fransiya tarixiga oid asosiy tushunchalarni fransuz tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.
2. Xaritadan foydalanib, birinchi jahon urushidan so'ng, Fransiya tegishli hududlarni ko'rsating


V. Ijodiy vazifa



Internet vositasida 1918 - 1939-yillardagi Fransiya ko'chalariga virtual ekskursiya uyushtiring. Taassurotlaringizni daftaringizga qayd eting.



Ven diagrammasi asosida “o'nglar” va “so'llar” siyosatidagi umumiylikni III ga to'ldiring.



5-§. 1918 – 1939-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari



Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy muammolar.

Urushga boshqa davlatlardan keyin qo‘shilgan, harbiy harakatlardan uzoqda joylashgan AQSH ancha kam qo‘shin yo‘qotdi, ammo urushda ishtirok etish Amerika biznesi uchun juda katta foyda keltirdi.

Urushdan oldin Yevropadan qarzдор bo‘lgan AQSH endi uning kreditoriga aylandi. Urushdan keyin AQSH qashshoqlashgan va vayron bo‘lgan Yevropadan olimlar va ilmiy kashfiyotlarni yig‘ib oldi, yangi ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy qildi, yangi texnika va texnologiyalarning ajoyib muvaffaqiyatini namoyish etdi.



AQSHda 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi qanday natijalar bilan tugadi?

1924 - 1929-yillari jadal rivojlangan AQSH iqtisodiy jihatdan dunyoning eng rivojlangan mamlakatiga aylandi. AQSHda iqtisodning eng yangi sohalari: elektrotexnika, kimyo, aviatsiya, neft sanoati, avtomobilsozlik, kino sanoati, radiotexnika jadal rivojlandi. Kir yuvish mashinalari, sovitkichlar, fotoapparatlar, patefon va radiopriyomniklar ommaviy ishlab chiqarila boshlandi. 1920-yillar oxiriga kelib har ikki amerikalikning bittasida radiopriyomnik bor edi. Shu yillari yo‘lovchi aviatsiyasi davri boshlandi.

Bu davrda prezidentlik kursida **U. Garding** (1921—1923), **K. Kulij** (1923-1924 va 1925-1929) va **G. Guver** (1929-1932) o‘tirdi.

1929-yil 24-oktabrda Nyu-York fond birjasida boshlangan inqiroz tufayli barqaror rivojlanish davri tugadi. AQSHning ortidan butun kapitalistik dunyo jahon iqtisodiy inqirozi girdobiga sho‘ng‘idi. Bu inqiroz kapitalistik xo‘jalik

shaklining XIX asr oxiri - XX asr boshlari uchun xos bo'lgan tarixiy evolutsiyasini yakunladi.



Bepul oshxonalariga navbat. Chikago. 1929 y.

1930-yillarning boshiga kelib AQSH kapitalistik dunyoning tan olingan yetakchisiga, texnik taraqqiyotning yalovbardoriga aylandi. Iqtisodiy inqirozning butun qudrati ham shu yerda namoyon bo'ldi. Xo'jalikning an'anaviy tipi o'z imkoniyatlarini yakunladi. 1929 - 1932-yillari sanoat ishlab chiqarishi hajmi 50% ga qisqardi, 13 mln.ga yaqin kishi o'z ish joylaridan mahrum bo'ldi.

1929-1933 yillarda kapitalizm tarixida birinchi jahon iqtisodiy inqirozi yuz berdi. Bu inqiroz davomiyligi va chuqurligi bo'yicha tengi yo'q edi. Shuning uchun uning nomi - "Buyuk Depressiya" deb atalgan.

AQSH prezidenti Gerbert Guver Amerikacha individualizm va liberalizm tamoyillarini himoya qilib, hech qanday ijtimoiy choralar ko'rishga rozi bo'lmadi.

1932-yil noyabrdagi saylovlarda Guverga qarshi demokratik partiyadan Franklin Ruzvelt nomzodi qo'yildi. O'ta shuhratparast bo'lgan bu shaxs o'z umrini siyosiy faoliyatga bag'ishladi. U AQSH prezidentligiga qatorasiga to'rt marta (1932, 1936, 1940, 1944) saylangan yagona shaxs. Shuning o'zi ham uning AQSH tarixidagi g'oyat katta roldan dalolat beradi.

Franklin Ruzvelt umumiy muhit talabidan kelib chiqib, nutqlaridan birida: «Men Amerika xalqiga yangi kurs va'da qilaman», - dedi. «Yangi kurs» degan bu

jozibador soʻz ommaviy shior va siyosatning nomiga aylandi. «Yangi kurs» Amerika kapitalizmining xarakterini oʻzgartirib yubordi. U AQSH iqtisodini yangi, buyuk davlatchilik intilishlari avj olgan davrga mosladi.

Shu tariqa 1930-yillarning ikkinchi yarmida AQSH va uning ortidan butun kapitalistik dunyo iqtisodiy inqirozdan chiqib oldi. Ayni paytda ular boshqa bir, koʻproq tashqi siyosat bilan bogʻliq muammolarga duch keldi.

Tashqi siyosat. 1920 - 1930-yillari AQSH ning tashqi siyosatida juda muhim voqealar unchalik koʻp boʻlmadi. Ammo inqiroz tashqi siyosatga ham taʼsir koʻrsatdi. 1933-yili Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatildi, shu yillari neytralitet haqida hamda urushayotgan davlatlarga qurol yetkazib berish va kredit ajratishni taqiqlash toʻgʻrisida qonunlar qabul qilindi. Bu paytda Ispaniyada fuqarolar urushi ketayotgan edi va AQSH neytralitetga qatʼiy rioya qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlanguncha izolatsionizm AQSH hukumatining ustuvor siyosati boʻlib qoldi. Faqat 1941-yil 7-dekabr kuni Yaponiya floti Pyorl-Xarborga - AQSH flotining Tinch okeanidagi asosiy bazasiga hujum qilgandan soʻnggina AQSH Ikkinchi jahon urushiga qoʻshildi.

Keyinchalik Franklin Ruzvelt neytralitet haqidagi qonun va izolatsionizm siyosati xato boʻlganligini tan olgan edi.



Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tashqi siyosat bilan bogʻliq boʻlgan moddalarni yodlang.



Franklin Delano Ruzvelt (1882-1945) - AQSh davlat va siyosat arbobi.

1928-yilda Nyu -York shtatining gubernatori etib saylandi va u erda "yangi kurs" -ni kutayotgan bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Ishsizlarni sugʻurta qilish dasturi tasdiqlandi.

Uning soʻzlariga koʻra, ishsizlarga yordam berishni hukumat xayriya sifatida emas, balki jamiyat oldidagi burch deb bilishi kerak.

1932-yilda Demokratik partiyadan nomzod sifatida u prezident saylovlarida ajoyib g'alabaga erishdi. Qo'shma Shtatlarning 32-prezidenti bo'ldi. U bu lavozimga ketma-ket to'rt marotaba saylandi - bu AQSh tarixidagi yagona holat, prezident Jorj Vashington davridan beri shakllangan an'anaga zid ravishda, ikki martadan ko'proq muddatga saylangan. Saylangandan keyingi birinchi yuz kun ichida u "Yangi kurs" qonun loyihalarining muhim qismini qabul qildi.



Patefon - plastinkaga yozib olingan musiqa va qo'shiqni qayta eshittiruvchi qurilma.

Individualizm - alohida shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yishga qaratilgan nazariya.


Liberalizm - parlamentarizm, demokratik erkinliklar va xususiy tadbirkorlik tarafdorlarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy oqim.

Neytralitet - davlatlar o'rtasida olib borilayotgan urushga qo'shilmaslik imkonini ta'minlovchi huquqiy maqom.

Izolatsionizm - biron-bir davlatning xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishdan bosh tortish siyosati. Ko'pincha, AQSHning ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan siyosatiga nisbatan qo'llaniladi.



Quyidagi "Nilufar guli" ni har bir bargidagi so'zlarga tarif bering.





I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushining natijalari AQSHning iqtisodiy rivojlanishi va jahon siyosatidagi o'rniga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. 1929 - 1933-yillardagi iqtisodiy inqiroz AQSH iqtisodi va ijtimoiy siyosatida qanday iz qoldirdi?
3. AQSH inqirozdan chiqishning qanday yo'lini tanladi?
4. Inqirozdan so'ng AQSH tashqi siyosatida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Nega AQSH Ikkinchi jahon urushiga kech kirdi?
2. Nega AQSH Millatlar Ligasiga a'zo bo'lmadi ?
3. 1930-yillarda AQSH siyosatining yo'nalishini belgilab bergan "Yangi kurs" shartlari nimalardan iborat edi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Nima deb o'ylaysiz, AQSHdagi monopoliyalar jahon urushlarida qanday rol o'ynadi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. 1918-1939-yillardagi AQSH tarixiga oid asosiy tushunchalarni ingliz tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.
2. Google.map dan foydalanib, AQSH ning eng katta shtatlari ro'yhatini tuzing va ularni daftaringizga qayd eting.


V. Ijodiy vazifa



Internet vositasida Franklin Ruzvelt haqidagi ma'lumotlarni o'qing va tarixiy shaxsning faoliyatiga baho bering.



AQSH prezidentlarini qaysi partiyadan ekanligini quyidagi sxemada qayd eting.



6-§. 1918 – 1939-yillarda Germaniya



Germaniya inqilobi. Germaniya Birinchi jahon urushida magʻlubiyatga uchradi. Urushdan keyin bu yerda inqilobiy voqealar sodir boʻldi. Inqilob harbiy dengizchilarning Kil shahridagi qoʻzgʻolonidan boshlandi. 1918-yil noyabrga kelib gʻalayonlar Germaniyaning barcha yirik shaharlarini qamrab oldi. Noyabr inqilobi gʻalaba qozonib, Germaniya respublika deb eʼlon qilindi. Fridrix Ebert boshchiligida yangi hukumat tuzildi.

Taʼsis majlisiga oʻtkazilgan saylovlarda asosiy oʻrinlarni liberal va konservativ partiyalar vakillari egalladi.

1918-yil 9-noyabr kuni tushdan keyin, gavjum namoyishdan oldin, Davlat kotibi F. Sheydeman Germaniyani demokratik respublika deb eʼlon qildi



Birinchi jahon urushida Germaniyaning umumiy yoʻqotishlari nimalardan iborat edi?



1919-yil 31-iyul kuni Veymar shahrida Ta'sis majlisi inqilobiy ommaning demokratik talablarini qoniqtiruvchi konstitutsiyani qabul qildi. Germaniya tarixida yangi - Veymar respublikasi davri boshlandi.

Rur inqirozi. 1923-yili fransuzlar Germaniyaning Rur viloyatiga bostirib kirdi. Rur inqirozi Germaniyaning o'zida ham siyosiy noroziliklarni keltirib chiqardi. 1923-yil oxirida Yevropa mamlakatlari ichida eng qadrsiz pul Germaniyada edi.

Rur inqirozidan so'ng reparaatsiya va Yevropa qarzlari muammosini hal qilishning yechimi sifatida «Daues rejasi» qaralayotgan edi. 1924-yili amerikalik bankir Charlz Daues boshchiligidagi qo'mita xalqaro moliya-kredit va savdo munosabatlarini tiklashning strategik rejasini qabul qildi. Bu reja kapitalistik dunyoda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'ldi. Charlz Dauesga Nobel mukofoti berildi.

1925-yilda so'nggi fransuz askari Rurdan chiqib ketdi.



Fridrix Ebert (1871-1925) - siyosiy davlat arbobi, Germaniya sotsial -demokratiyasi rahbarlaridan biri. Geydelbergda tikuvchi oilasida tug'ilgan. Yoshligidan kasaba uyushmalari harakatida qatnashgan va Bremenda siyosatda faol bo'lgan.

U Milliy Assambleyaga umumiy saylovlar o'tkazilishini talab qildi. U Germaniya tarixida demokratik tarzda saylangan birinchi davlat rahbari bo'ldi. Ebertning vasiyatiga binoan, uning nomidan vaqf tashkil etilgan, u hozirgacha amalda.

Germaniya fashizmining o'ziga xos jihatlari. Germaniyada Adolf Gitler boshchiligidagi Germaniya natsional-sotsialistik ishchi partiyasi 1919-yili paydo bo'ldi. Aslida bu partiyaning Italiyada paydo bo'lgan fashizmga to'g'ridan to'g'ri aloqasi yo'q. Aytish lozimki, fashizm so'zi gitlerchilarga nisbatan faqat odat yuzasidan qo'llaniladi. U dunyodagi deyarli barcha xalqlar tillariga kirgan. Ammo

shuni inobatga olish lozimki, Germaniyada italyan tipidagi fashizm emas, **natsizm** shakllandi.

«Pivo isyoni». 1923-yil 8-noyabr kuni Myunxendagi juda bahaybat pivoxonaga 3000 ga yaqin odam yig'ildi. Bundan foydalangan Gitler boshchiligidagi bir guruh natsistlar Bavariyada hokimiyatni egallab, Berlinga yurish uyushtirishga urinib ko'rdilar. Ammo politsiya ularning yo'lini to'sib, natsistlarni quvib yubordi, o'nga yaqin natsist o'ldirildi. Gitler va boshqa tashkilotchilar turli muddatga qamoqqa tashlandi. Bu Germaniyada natsistlarning hokimiyatga kelish uchun birinchi urinishi edi. Muvaffaqiyatsizlik bilan tugashiga qaramasdan, aynan «pivo isyoni» natsistik partiyani umumgermaniya miqyosidagi siyosiy kuchga aylantirdi.

1932-yil aprelda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida Gindenburg g'olib chiqdi, Gitler undan sal ortda qoldi. Reyxstagga bo'lib o'tgan saylovlarda natsional-sotsialistlar g'olib chiqib, eng yirik parlament partiyasiga aylandi.

1933-yil 30-yanvarda prezident Paul fon Gindenburg reyxstagda (parlament) eng katta fraksiyaga ega bo'lgan natsional-sotsialistlar yo'lboshchisi Adolf Gitlerni reyxskansler (hukumat boshlig'i) lavozimiga tayinladi.


Veymar konstitutsiyasi bekor qilindi, 1934-yili prezident Gindenburg vafot et- gandan so'ng Gitler Germaniyaning **fyureri** (dohiysi) bo'lib oldi. Prezident lavozimi bekor qilindi, shu vaqtdan boshlab Veymar respublikasi amalda o'z faoliyatini yakunladi.

1935-yilda Germaniyada umumiy
harbiy xizmat joriy etish to'g'risidagi
qonun qabul qilindi.



Gitler totalitar rejimining asosiy maqsadi «noraso irqnlarni» bo'ysundirish, katta hududlarni egallash uchun Germaniyaning urushga tayyorlashdan iborat edi. 1936 -1939-yillari Germaniya iqtisodiyoti to'liq urush maqsadlariga bo'ysundirildi, harbiy xarajatlar 10 barobar oshirildi, qo'shinlar soni 1914-yil darajasiga yetkazildi,

harbiy-dengiz floti isloh qilindi. 1935-yili umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. Germaniya katta urushga tayyorlana boshladi. Germaniyadagi totalitar rejimga Italiya va Yaponiyadagi shunday rejimlar ittifoqchi bo'ldi.




1937 - 1938-yillari iqtisodiy o'sishda erishilgan yutuqlar va ijtimoiy siyosat gitlerchilar rahbariyatiga Germaniyada ichki holatni barqarorlashtirish imkonini berdi. Bu asosiy maqsad - natsional-sotsializm g'oyalari ruhidagi yangi jahon tartibini o'rnatish yo'lidagi ilk qadam deb qaraldi. 1937 - 1938-yillari gitlerchilar rejimining asosiy siyosati Germaniyani total ravishda urushga tayyorlash, mavjud mehnat va moddiy resurslarni to'liq safarbar qilish bo'lib qoldi. Harbiy kadrlarni tayyorlash jadallashtirildi, qurol ishlab chiqarish oshirildi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya Yevropada eng katta armiyani shakllantirdi.

Germaniyaning tashqi siyosati ham borgan sari tajovuzkor xarakter kasb etib bordi. 1938-yili Avstriya anshlyus qilindi, 1939-yili Chexoslovakiya ham Germaniyaga qo'shib olindi. «Polshadagi nemislarning taqdiri haqida g'amxo'rlik» Ikkinchi jahon urushining boshlanishi uchun bahona bo'ldi.

1939-yil 1-sentabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi.



Birinchi jahon urushi qaysi voqeadan boshlanganligini eslang.



Nega bu rejalarga bunday nom berilgan deb o'ylaysiz?



Fraksiya - biror-bir partiyaning parlamentdagi a'zolari yoki siyosiy partiya ichidagi alohida guruh.

Totalitarizm (umumiy, yalpi) - XX asr hodisasi bo'lib, butun siyosiy tizimning davlatga bo'ysunishini, jamiyat hayoti va fuqarolar ustidan to'liq davlat nazorati o'rnatilishini nazarda tutadi.



I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyat Germaniyada qanday iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi?
2. Germaniyada fashistlarning birinchi chiqishi - «Pivo isyoni» qanday natija bilan yakunlandi?
3. «Daues rejasi» qanday maqsadga qaratilgan edi? U kapitalistik dunyoda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga olib keldimi?
4. Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistlar hokimiyatga kelgandan keyin qanday siyosiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi?
5. Gitler totalitar rejimining asosiy maqsadi nimadan iborat edi? Germaniyadagi totalitar rejimga tavsif bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

- 1.Nega Germaniya birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan?
- 2.Nega Germaniya Millatlar Ligasidan chiqdi ?
- 3.1930-yillarda Germaniyaning siyosatining yo'nalishini belgilab bergan "Molotov-Ribentrop" shartlari nimalardan iborat edi?

III. Guruh muhokamasi uchun


Nima deb o'ylaysiz, nega aynan Germaniya jahon urushlarini boshlab bergan?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. 1918 - 1939-yillardagi Germaniya tarixiga oid asosiy tushunchalarni nemis tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.
2. Google.map dan foydalanib, Germaniyaning jahon urushlarida bosib olgan davlatlari ro'yhatini tuzing va ularni daftaringizga qayd eting.

V. Ijodiy vazifa

- 1.Internet vositasida Germaniya shaharlaridagi universitetlarga virtual sayohat uyushtiring
- 2."Biz irqchilik va millatchilikka qarshimiz" mavzusida insho yozing.
3. Qo'shimcha manbalardan foydalanib,Ven diagrammasida Italyan fashizmi va German natsizmini taqqoslang va o'xshash tomonlarini yozing.



- 1.Totalitar tipdagi siyosiy diktaturaga asoslangan hokimiyatning siyosiy konsepsiyasi.
- 2.Faqat yuqoridan pastga qarab buyruq beriladi.
3. Demokratiya tartibotlari va qadriyatlarini hech qachon e'tiborga olmaydi.
4. Millatning davlatda ustunligi haqidagi tezisdir.
- 5.Ma'lum bir millat manfaatlarini himoya qilishga intiladi.

6. Millatchilik odamlarni nafaqat bitta qon, balki hududiy mansublik tamoyili asosida ham shakllantirishi mumkin.



Test topshiriqlarini bajaring.

1. Germaniyada Veymar respublikasi qaysi yillarda faoliyat yuritgan? A) 1918-1933-y B) 1918-1934-y
C) 1919-1934-y D) 1919-1933-y
2. Kapitalistik dunyoda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni taminlashga assos bo`lgan narsa nima?
A) Veymar konstitutsiyasi B) NEP
C) “Yaxshi qo`shnichilik” siyosati D) Daues rejasi

7-§. 1918 – 1939-yillarda SSSR



1917-yil noyabrda Vladimir Lenin boshchiligida bolsheviklar hukumati - Xalq komissarlari soveti tuzilgandan so`ng Rossiyaning boshqa hududlarida ham sovet hokimiyatini o`rnatish boshlandi. Joylarda mahalliy hokimiyatlar tarqatib yuborildi, boshqaruv to`liq sovetlar qo`liga o`tdi. Yangi hokimiyatning muhim jihati shunda ediki, u partiyaviy rahbarlik asosida shakllandi va bolsheviklar partiyasining har qanday qarori sovet qarori sifatida qabul qilinishi mumkin bo`ldi.



Rossiya tarixida Romanovlar sulolasi birinchi hukmdori kim edi?

Partiya va davlat tashkilotlarining birikib ketishi shakllanayotgan bolsheviklar totalitar tuzumining muhim belgisi edi.

1918-yil martida Brest-Litovsk shahrida Germaniya bilan sulh tuzildi. Sulh natijasida bolsheviklar vaqtincha nafasni rostlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, Rossiya 56 mln. kishi yashaydigan juda katta hududidan va Qora dengiz flotidan ayrildi, Germaniyaga katta kontributsiya to'lash majburiyatini oldi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, sulh Rossiyaning butun tarixi davomidagi eng sharmandali shartnoma bo'ldi.


Fuqarolar urushi. Ko'pchilik tarixchilar Rossiyada Fuqarolar urushi 1917-yil oktabrda bolsheviklar hokimiyatga kelishi bilan boshlandi va 1922-yil kuzda Uzoq Sharqda «Oq gvardiya»ning tor-mor qilinishi bilan yakunlandi, deb hisoblaydi.

Fuqarolar urushining asosiy sabablari jamiyatni qayta qurishning ezgu maqsadlari bilan ularni amalga oshirishning radikal usullari o'rtasidagi nomutanosiblikdan iborat edi. Bu urushda turli xil ijtimoiy sinflar va guruhlar o'zaro muammolar va ziddiyatlarni qurol kuchi bilan hal qildilar.

Fuqarolar urushi davrida chet el, avvalo, Antanta davlatlarining Rossiyaga qarshi bosqinchilik harakatlari ham bo'lib, u chet el intervensiyasi nomini oldi. Chet el qo'shinlari bilan sovetlarning ichki dushmanlari birlashib, 1918-yili Rossiyaning Volgabo'yi, Ural, Sibir, Uzoq Sharq hududlarida sovet hokimiyatini ag'darib tashladi. Shunday holatda bolsheviklar juda katta tashkilotchilik ishlarini amalga oshirdi: qo'shinlar soni 1 mln. kishidan oshdi; armiyada qat'iy tartib o'rnatildi, Chor hukumatining ko'plab general va ofitserlari sovetlar tomoniga jalb qilindi; mamlakat «yagona harbiy lager» deb e'lon qilindi.

1918 - 1922-yillari Sovetlar respublikasida iqtisodni boshqarishning harbiy usuli - «harbiy kommunizm» siyosati o'rnatildi. U fuqarolar urushida g'alaba qozonish uchun mamlakat barcha resurslarini safarbar qilishning favqulodda tizimi edi.

Fuqarolar urushining yakunlovchi bosqichi sobiq Rossiya imperiyasining chekka o'lkalari - Kavkazorti, O'rta Osiyo va Uzoq Sharqda sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan xarakterlanadi. 1922-yil noyabrda Qizil armiya Vladivostok shahrini olib, Tinch okeaniga chiqishi bilan Rossiyada Fuqarolar urushi, asosan, yakunlandi.



SSSRning tashkil topishi. 1922-yili amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri SSSRning tashkil topishi bo'ldi. Millatlarning o'z huquqini o'zi belgilash tamoyilidan kelib chiqib, barcha respublikalar federativ davlatga teng huquqli a'zo bo'lib kirdilar. Natijada, 1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil qilindi.



Xaritadan Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tarkibiga kirgan davlatlar nomlarini mos ravishda raqamlar to'g'risiga yozing.

Bu yangi davlatda eski jamiyatning asoslari buzib tashlandi, «davlat sotsializmi» (davlatning iqtisodiyotga va ijtimoiy munosabatlarga aralashuvi) o'rnatildi

va iqtisod, jamiyat, davlat misli ko'rilmagan sur'atlarda isloh qilindi. Sovet tipidagi «davlat sotsializmi» jamiyatni industrlashtirishning kapitalistik usuliga muqobil yo'l edi.

Dastlab SSSRga Rossiya, Ukraina, Belorusiya va Kavkazorti respublikalari kirdilar. 1924-yili davlatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. 1924-yili Kavkazorti va O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi. Shu yillari SSSR Yevropa davlatlari tomonidan, 1933-yili oxirgi yirik davlat - AQSH tomonidan tan olindi.

Yangi iqtisodiy siyosat. 1921-yili sovet davlati kuchli iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirdi. Mamlakat vayron bo'lgan, sanoat ishlab chiqarishi keskin pasayib ketgan edi. Yuz bergan dahshatli qurg'oqchilik Ukraina, Kuban va butun Volgabo'yini qamrab oldi. Bu hududlarda ocharchilik boshlanib, sovetlarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarildi. Mashhur norveg sayyohi Fritof Nansen ochlarga amaliy yordam ko'rsatishni tashkil qilganlardan biri bo'ldi. Uning hurmati va qat'iy iltimosi tufayli G'arb davlatlari och Rossiyaga yordam ko'rsatdi, minglab odamlarni o'limdan qutqarib qoldi.

Mamlakatning og'ir inqiroz holati bolsheviklarni «harbiy kommunizm» siyosatidan voz kechib, yangi iqtisodiy siyosat (ruscha NEP) deb nom olgan kursga o'tishga majbur qildi. NEPning mohiyati bozor iqtisodiyotini qisman tiklash, uni iqtisodiy manfaatdorlik va xo'jalik hisobi asosida rivojlantirishdan iborat edi. NEP majburiy va vaqtinchalik tadbir bo'lib, bolsheviklar inqiroz tugashi bilan uni bekor qilishni ko'zlagan edi.

NEP xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirdi, iqtisodning o'sishiga ko'maklashdi. NEP mamlakat xalq xo'jaligini tiklash, ishlab chiqarish va savdoni yo'lga qo'yish, og'ir iqtisodiy holatdan chiqib olish imkonini berdi. Ammo NEP SSSRda «bozor sotsializmining» o'rnatilishiga olib kelmadi. 1924-yili Vladimir Lenin vafot etgandan so'ng davlatda Iosif Stalin va uning safdoshlari asosiy rol o'ynay boshladi. Ular NEP o'z rolini bajarib bo'ldi, deb hisobladi va 1927 - 1929-yillarda asta-sekin uni bekor qilish boshlandi. Iqtisodiy evolutsiya, iqtisodiy raqobat, iqtisodiyotga ta'sir qilishning iqtisodiy usullari o'rniga jamiyatni

boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik, favqulodda, noiqtisodiy usullari tanlandi. Stalin shaxsiga sig'inish, uni cheksiz ulug'lash jarayoni boshlanib, avval muxolifatchilar, keyin esa million- lab begunoh kishilar qatag'on qilindi.

Industriallashtirish. 1920-yillar oxiri - 1930-yillar boshida amalga oshirilgan eng muhim tadbir mamlakatni industriallashtirish bo'ldi. 1928 - 1932-yillarga mo'ljallangan birinchi besh yillik sovet rejali iqtisodiyoti davrini boshlab berdi. Besh yillikning asosiy vazifasi SSSRni agrar mamlakatdan sanoati rivojlangan va kuchli harbiy davlatga aylantirish edi. Juda katta kuch va mablag' og'ir sanoatni rivojlantirishga sarflandi. Shu yillari 1500 ta yirik sanoat korxonalari qurildi. Birinchi besh yillikda sovet og'ir sanoatining asoslari yaratildi.

Kollektivlashtirish. 1928 - 1933-yillari SSSRda kollektivlashtirish deb nom olgan siyosat amalga oshirildi. Buning natijasida qishloqdagi o'ziga to'q dehqonlar, yer egalarining barchasi mulkidan mahrum qilindi, ko'pchiligi quloq sifatida qamaldi, surgun qilindi, qatl etildi. Kollektivlashtirish oqibatida 15 mln. ga yaqin dehqon o'z yerlaridan surgun qilinib, bir necha millioni halok bo'ldi. Kollektivlashtirishning dahshatli oqibati shu bo'ldiki, SSSR tarixining oxirigacha mamlakat o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmadi. 1933-yilgi dahshatli ocharchilikda Ukraina, Kuban, Volgabo'yi, Qozog'istonda 7 mln dan ortiq kishi ochlikdan vafot etdi.

1933-1937-yillarni qamrab olgan ikkinchi besh yillikda sanoat gurkirab o'sib, SSSR uning ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

1938-yili boshlangan uchinchi besh yillikda, asosan, harbiy sanoat korxonalarini qurish rejalashtirildi.

Madaniy inqilob. Savodsizlikni tugatish, yangi tipdagi sovet maktablari tizimini yaratish, xalq ziyolilari kadrlarini tayyorlash, bolsheviklar nazorati ostida va markscha-lenincha mafkura asosida fan, adabiyot va san'atni rivojlantirish, xalqning turmush madaniyatini oshirish tarixda «madaniy inqilob» nomini oldi. Madaniy inqilobni amalga oshirish jarayonida ko'plab milliy ziyolilar qatag'on qilindi, milliy madaniyatlar zarar ko'rdi, dinga qarshi kurash avj oldi. Ayni paytda,

o'zining barcha ziddiyatlariga qaramasdan, madaniy inqilob bir qancha jiddiy muammolarni hal qildi.

Aholining turmush madaniyatini oshirish sari muhim qadam tashlandi. Savodsizlikka qarshi kurashda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Ta'lim tizimi to'liq isloh qilinib, 1930-yili majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilindi.

Tashqi siyosat. 1920-yillarda sovetlar tashqi siyosatining asosiy vazifasi yangi hokimiyatning xalqaro miqyosda tan olinishiga erishish bo'ldi.

1930-yillari jahonda yuz berayotgan jarayonlar SSSR xavfsizligiga katta tahdid solayotgan edi. 1931-1932-yillari Yaponiya Manchjuriyani bosib olib, ikki davlat o'rtasida keskinlikni yuzaga keltirdi.

1938-yili Hasan ko'li atrofida yaponlar SSSR hududiga bostirib kirdi. Shiddatli janglardan so'ng yaponlar sovet chegarasidan uloqtirib tashlandi. 1939-yili yaponlar Mo'g'ulistonga bostirib kirgandan so'ng, uning ittifoqchisi bo'lgan SSSR ham Mo'g'ulistonga qo'shin kiritdi. Xalxin-Gol daryosi yonidagi jangda yaponlar mag'lubiyatga uchradi. 1941-yil Moskvada o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida sovet-yapon shartnomasi imzolandi.


Yevropa yo'nalishida Germaniya solayotgan xavfni bartaraf etish maqsadida sovet hukumati Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa davlatlar orasida o'ziga ittifoqchilar izlay boshladi. 1934-yili Sovet Ittifoqi Millatlar Ligasiga a'zo bo'ldi. Ammo bu vaqtga kelib tinchlik va xalqaro tartibga xavf solayotgan Germaniya xalqaro munosabatlar va sovetlar tashqi siyosatining muhim omili bo'lib qoldi.

1922-yili imzolangan **Rapallo** shartnomasidan so'ng Sovet Ittifoqi bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanib bordi. Natijada 1939-yil 23-avgust kuni Moskvada SSSR va Germaniya o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnoma (Molotov - Ribbentrop pakti) imzolandi. Shartnomaga ilova qilingan maxfiy protokolda SSSRning geostrategik manfaatlari chegarasi aniqlandi. Unga ko'ra Finlandiya, Boltiqbo'yi davlatlari, Polshaning sharqiy qismi, Bessarabiya SSSR manfaatlari zonasi deb belgilandi. Ya'ni urush boshlanishi bilan SSSR shu hududlarni o'ziniki hisoblashi mumkin edi.

Xullas, bolsheviklar o'tkazgan juda katta miqyosdagi ijtimoiy tajriba jahon urushlari oralig'ida millionlab kishilarni halok qildi, o'n millionlab kishilarning odatiy turmush tarzini buzib tashladi, butun boshli millatlar taqdiriga ta'sir ko'rsatdi. Ular juda katta qurbonlar evaziga, ommaviy safarbarlik va zo'ravonlik usuli bilan iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlatni barpo qildilar.



Ushbu voqealarning bir-biriga bog'lanish sababini tushuntiring.



Radikal (tubdan) - keskin choralar va harakatlarga intilish tarafdorlari. Intervensiya - bir yoki bir necha davlatning boshqa davlat ichki ishlariga zo'ravonlik bilan aralashuvi, uning suverenitetini buzishi.

«**Harbiy kommunizm**» - Sovet davlatining fuqarolar urushi sharoitidagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosati. Unda tijorat taqiqlanadi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortiqchasini davlatga topshirish majburiy qilib qo'yiladi.

Pakt - xalqaro kelishuv, xalqaro shartnoma turi.

Natsionalizatsiya - xususiy mulkning, yirik korxonalar, yer, xalq xo'jaligi sohalarining davlat mulkiga aylantirilishi.



I. Bilimlarni sinash

1. 1917-yili Rossiyada bolsheviklar hokimiyatining o'rnatilishiga mamlakatda vujudga kelgan qanday iqtisodiy va siyosiy holatlar sabab bo'ldi?
2. SSSRdagi industrilashtirish va kollektivlashtirish siyosatlarining maqsadi nimadan iborat edi? Ular qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Madaniy inqilob nima maqsadlarni o'z oldiga qo'ydi va qanday natijalarga erishildi?
4. 1930-yillari sovetlar olib borgan tashqi siyosatning tajovuzkor jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Nega sovetlar birinchi jahon urushi yakunida To'rtlar ittifoqi bilan separat sulh shartnomasini tuzgan?
2. Nega Rapallo shartnomasi imzolangan?
3. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, 1920-1930-yillarda SSSRning tarkibiga qo'shilgan davlatlarning ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida ma'lumotlarni to'plang

III. Guruh muhokamasi uchun



Nima deb o'ylaysiz, nega aynan SSSR Gitlarga ishongan?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Google.map dan foydalanib, Germaniyaning jahon urushlarida bosib olgan davlatlari ro'yhatini tuzing va ularni daftaringizga qayd eting.

V. Ijodiy vazifa



“Yangi iqtisodiy siyosat” va “Harbiy kommunizm siyosati” o'rtasidagi farqlarni jadvalga yozing.

“Yangi iqtisodiy siyosat”

“Harbiy kommunizm siyosati”

8-§. 1918 – 1939-yillarda Italiya va Ispaniya



Italiya Birinchi jahon urushida uncha katta talafot ko'rmadi. Aksincha u Avstriya-Vengriya yerlarining bir qismini egallab, o'z hududini ancha kengaytirib oldi. Ammo shunga qaramasdan, urushdan so'ng mamlakat ichki ziddiyatlar girdobida qoldi. Bu ziddiyatlarning asosini ko'p sonli ishsizlar va iqtisodiy inqiroz tashkil qildi. O'ta dolzarb islohotlarni amalga oshirish uchun hukumat yetarli kuchga ega emasdi.

Fashistlarning hokimiyatga kelishi. Umumiy inqiroz sharoitida Benito Mussolini boshchiligida 1919-yilning mart oyida tuzilgan fashistlar partiyasi faollashib ketdi. 1921-yili fashistlar harakati bir qadar rasmiy tus olib, davlatning siyosiy qudratini mustahkamlashga qaratilgan millatchilik tashviqotini olib bordi. Ularni mamlakatdagi jiddiy kuchlar qo'llab-quvvatladi, aholining ham katta qismi xayrixohlik bildirdi.

Fashistlar 1921-yilgi parlament saylovlarida 36 ta o'ringa ega bo'ldi. 1922-yil oktabrda fashistik guruhlarining mashhur Rimga yurishidan so'ng qirol Viktor Emmanuil III Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinladi.



Vatikan davlatiga qachon boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga ruhsat berilganligini aniqlang

Fashistlar siyosati. Fashistlar hokimiyatda turgan dastlabki yillarda mamlakatda barqarorlashuv va iqtisodiy o'sishni ta'minladi. Mussolini dastlab mavjud siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarini taqiqlamadi. Parlament faoliyat yuritdi, partiyalarning gazetalari ham chiqib turdi. Iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri va har tomonlama aralashish yo'li bilan Italiya fashistik davlati mamlakat rivojlanishi sur'atlarini keskin oshirishga erishdi. 1938-yili Mussolini irqiy qonunlar chiqardi, 1939-yil boshida esa Deputatlar palatasini tarqatib yuborib, uning o'rniga Katta fashistik kengash tuzdi.

Italyan fashizmi maxsus totalitar diktatura sifatida totalitar va avtoritarlik belgilariga ega edi. Uning mafkuraviy tizimi katolitsizm, an'anaviylik, sotsializm g'oyalari bilan to'ldirilgan millatchilik poydevoriga qurildi.

Fashistlar barcha totalitar tuzumlarga xos bo'lgan tajovuzkor siyosatni avj oldirdi. 1927-yili Albaniya Italiyaning protektoratiga aylantirildi, keyin esa bosib olindi. 1935 - 1936-yillardagi Italiya - Efiopiya urushi natijasida Efiopiya, unga qo'shni joylashgan Eritreya va Somalining bir qismi Italiyaning mustamlakasiga aylantirildi. 1937-yil dekabrda Italiya Millatlar Ligasidan chiqdi.

Italiya Germaniya va Yaponiya bilan ittifoqqa birlashib, o'zining tajovuzkor siyosatini davom ettirdi va Ikkinchi jahon urushining sababchilaridan biriga aylandi.



Ispaniya. Bu yerda voqealar rivoji boshqacha yo'ldan bordi. Dastlab Ispaniya o'zining Birinchi jahon urushidagi neytraliteti bilan boshqa Yevropa davlatlaridan keskin ajralib turdi. Shunga qaramasdan, Ispaniya urushdan keyin ham ancha vaqt G'arbiy Yevropaning eng qoloq davlatlaridan biri bo'lib qolaverdi. Dunyoni larzaga keltirgan Rossiyadagi inqilobiy voqealar bu davlatga ham ta'sir ko'rsatdi. Kataloniya va boshqa viloyatlarda boshlangan ish tashlashlar hukumatni islohotlar o'tkazishga, 8 soatlik ish kuni, ijtimoiy sug'urta, ish haqi va pensiyalarning oshirilishi to'g'risida qonunlar qabul qilishga majbur qildi.

1923-yil sentabrda general Migel Primo de Rivera davlat to'ntarishi uyushtirdi. Barcha vazirlar va gubernatorlar harbiylardan tayinlandi, parlament tarqatib yuborildi, ko'plab partiyalar faoliyati taqiqlandi. De Rivera iqtisodiy islohot o'tkazib, xuddi Italiyadagi fashistlar singari iqtisodga davlat aralashuvini kuchaytirishga harakat qildi. Ammo mamlakatda boshlangan ish tashlash harakati, moliyaviy inqiroz butun Ispaniya bo'ylab diktatorga qarshi norozilikning kuchayishiga olib keldi. 1930-yili de Rivera iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

Yangi hukumat konstitutsiyani va burjua-demokratik erkinliklarini tikladi, ammo boshlanib ketgan jahon iqtisodiy inqirozi oldida bu hukumat ham ojizlik qildi.



Ispaniya fashizmi. Italiya fashistlaridan namuna olgan o'ng partiyalar 1933-yili ispan falangasini tashkil qildi. Shu davrdan boshlab bu falanga vujudga kelgan ispan fashizmining asosi bo'ldi. 1934-yili fashistlarning bir necha vakillari hukumat tarkibiga kirdilar. Shunday sharoitda so'l kuchlar Xalq frontini tuzdi. Ular 1936-yili korteslarga (parlament) o'tkazilgan saylovlarda g'olib chiqdi. Mamlakat prezidenti va hukumat boshlig'i shu front vakillaridan saylandi. Mamlakatda barcha siyosiy mahbuslar ozod qilindi, ilgari erishilgan barcha demokratik va ijtimoiy yutuqlar tiklandi. Ammo o'ng falanga xavfi bartaraf etilmadi. Ular davlat to'ntarishiga tayyorlanib, bunda asosiy rolni armiya va generallar o'ynadi.



1936-yil 18-iyul kuni falangachilar hamma joyda harbiy to'ntarishni boshlab yubordi. Ularga qarshi Xalq fronti jangga ko'tarildi. Shu tariqa Ispaniyada fuqarolar urushi boshlanib ketdi.

Shunday sharoitda Fransiya, Buyuk Britaniya va yana ko'plab davlatlar Ispaniyaga qurol yetkazib berishni to'xtatdi va o'zlarining fuqarolar urushiga aralashmasliklarini e'lon qildi. Dastlab bu kelishuvga qo'shilgan SSSR keyin o'z qarorini o'zgartirib, respublikachilarga yordam bera boshladi. Xuddi shunday Germaniya va Italiya falangachilarga yordam ko'rsatdi. Ispaniya dagi fuqarolar urushi ikki yarim yil davom etdi. Unda deyarli 1 mln. ispanlar halok bo'ldi. Falangachilar g'olib chiqdi va 1939-yil 1-aprelda Ispaniyada general F. Franko diktaturasi batamom o'rnatildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan gitlerchilar diplomatiyasining harakatlariga qaramasdan, Franko urushga kirishga shoshilmadi va 1939-yil sentabrda neytralitet haqida dekretni imzoladi.



Fyurer-duche so'zlarining qanday o'xshashligi bor?



Katolitsizm - xristian dinining asosiy mazhablaridan biri.

Avtoritarizm - siyosiy rejim, unda jamiyat davlat va uning boshlig'iga bo'ysundiriladi, hokimiyat tepasida turgan shaxs o'zini o'zi shu hokimiyatga haqli deb e'lon qiladi.

Kortes - Ispaniya va Portugaliyada parlamentning nomlanishi.

Dekret (decretum - qaror, decernere - qaror qilish) - davlat organi yoki lavozimdagi shaxsning huquqiy akti, qarori.

Kaudillo (ispancha caudillo - "yetakchi", ispan diktatori Frankoning rasmiy unvoni) - millatchi Ispaniya diktatori lavozimi, boshqa ispan diktatorlarining nomi, shuningdek Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarida diktatorlar nomi. Hokimiyatga harbiy to'ntarish orqali kelgan va to'g'ridan -to'g'ri harbiy kuchga tayangan. Shuningdek, "kaudillo" ni joylarda cheksiz kuchga ega bo'lgan siyosiy liderlar deb atash mumkin.



Fransisko Franko Baamonde (1892-1975) - Ispaniya diktatori. U Marokashda xizmat qilgan, u yerda yaxshi ofitser sifatida shuhrat qozongan. U 23 yoshida Ispaniya armiyasining eng yosh mayori, keyin esa eng yosh general bo'ldi. 1936-yilda u fuqarolik urushiga aylangan Ispaniya Respublikasiga qarshi harbiy-fashistik qo'zg'olonni boshqargan.

1939-yilda u Ispaniya davlatining umrbod kaudilosi deb e'lon qilindi. Shu bilan birga, u Ispaniya falangasining rahbari, Vazirlar Kengashi raisi va barcha qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni lavozimlarini egalladi. Ikkinchi jahon urushi paytida Berlining bosimiga qaramay, diktator Sovet Ittifoqiga urush e'lon qilishdan bosh tortdi, faqat "ko'k diviziya" ni (18 mingdan ortiq ko'ngilli) Sharqiy frontga yuborish bilan cheklandi.



I. Bilimlarni sinash

1. Nima uchun Italiyadagi siyosiy inqiroz fashistlarning hokimiyatga kelishi bilan yakunlandi? Italian fashizmining asosiy jihatlarini ta'riflang.
2. B. Mussolini haqida nimalarni bilasiz?
3. Italian fashistlarining militaristik va tajovuzkor tashqi siyosati nimalarda namoyon bo'ldi?
4. Birinchi jahon urushidan keyin Ispaniyada ichki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning kuchayishiga nima sabab bo'ldi? Nima uchun Primo de Rivera hokimiyatni o'zida saqlab qola olmadi?
5. Ispaniyada Xalq fronti hukumatining inqiroziga nimalar sabab bo'ldi?
6. Ispaniyada falangachilar g'alabasining va Franko diktaturasi o'rnatilishining sabablari nimada edi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Nega Italiya "Uchlar ittifoqi"dan chiqib "Antanta" tarkibiga qo'shilganligini aniqlang?
2. Nega Ispaniyada fuqorolar urushi yuz berdi? Busiz muommoni hal qilib bo'lmas edimi?
3. Jahon tarixi darsligidan foydalanib, XVI-XVII asrlarda Ispaniyaning mustamlalakalari ro'yhatini tuzib chiqing.

III. Guruh muhokamasi uchun

Nima deb o'ylaysiz, nega Ispaniya ikkinchi jahon urushi vaqtida betarafligini e'lon qildi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Xaritadan Ispaniya tomonidan mustamlakaga aylantirilgan davlatlarni toping va tarixiy voqelik bilan bog'lab izoh yozing.
2. "antikommentern" "duche" "katolitsizm" so'zlarining ma'nosini toping

V. Ijodiy vazifa



Venn diagrammasi yordamida Italiya va Ispaniya tashqi siyosatidagi umumiylik va farqli jihatlarni tahlil qiling va daftaringizga yozing.

9-§. 1918 – 1939-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari



1. Meksikada 1910-1917 yillardagi inqilobga nima sabab bo'ldi? Bu qanday oqibatlarga olib keldi?
2. Avtoritar siyosiy rejimning o'ziga xos xususiyatlari nimada?



Janubiy Amerikada va Shimoliy Amerikaning janubiy qismida joylashgan davlatlar, shuningdek, Karib dengizidagi orollar Lotin Amerikasi mamlakatlari deb ataladi. Bu nom yevropaliklar bosqinidan keyin mahalliy aholi lotin tilidan kelib chiqqan ispan, portugal, fransuz tillarida soʻzlasha boshlaganlari uchun berilgan.



Lotin Amerikasi xalqlari tarkibida mavjud boʻlgan metis va mulat atamalariga taʼrif bering.

Bugun xalqaro hujjatlarda bu hudud «Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari» deb yuritiladi.

XX asr boshlarida Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanishining muhim xususiyati siyosiy suverenitet va xorijiy kapitalga iqtisodiy qaramlikning mavjudligi edi. Birinchi jahon urushi Lotin Amerikasi mintaqasiga bevosita taʼsir qilmagan boʻlsa-da, iqtisodiy va siyosiy hayotga katta taʼsir koʻrsatdi.

Urush yillarida urushayotgan davlatlar anʼanaviy Lotin Amerikasi tovarlariga boʻlgan ehtiyojni oshirdilar, bu esa bu mahsulotlarning narxini oshishiga olib keldi. Bu tendentsiya urushdan keyingi yillarda ham davom etdi. Eksportdan tushgan daromad sanoatning rivojlanishiga sarflandi. Liberal islohotlar Argentina, Meksika,

Braziliya va Chilida olib borildi. Shu bilan birga, avtoritar siyosiy rejimlarning mavjudligi har doim ham iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan.

1920-yillarda mintaqadagi holat. Birinchi jahon urushi Lotin Amerikasi mamlakatlarida kapitalizm rivojlanishi jarayonini yanada jadallashtirdi.

Yevropadan keladigan tovarlar va kapital oqimi vaqtincha kamaydi. Jahon bozorida mintaqa mamlakatlarida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat va xomashyo mahsulotlarining narxi, xususan, Kuba shakarining narxi 11 marta oshdi. Bu kapitalning jamg'arilishi, mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi, iqtisodning nisbatan barqaror sur'atlar bilan o'sishi uchun imkoniyat yaratdi. Agroeksport, tog'-kon va yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlandi. Ammo 1920-yillar oxiriga kelib ekstensiv asosda iqtisodni samarali rivojlantirishning imkoniyatlari tugadi.

1920-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy jihatdan faqat nomigagina respublika edi. Aholining katta, ayniqsa, yirik iqtisodiy va madaniy markazlardan uzoqda joylashgan ko'pchilik qismi savodsiz yoki kamsavod bo'lib, saylovlarda qatnashmasdi va demokratik tuzum uchun ijtimoiy asos bo'la olmasdi.



1920-yillardagi liberal islohotchilik Lotin Amerikasida ancha oyoqqa turgan mahalliy burjuaziyaning, shuningdek, aholining keng qatlami manfaatlarini aks ettirardi. Shu sababli islohotchi hukumatlar ijtimoiy siyosatga katta ahamiyat qaratdi. Argentinada Ipolito Irigoyen hukumatining faoliyati bu davr liberal-islohotchilik siyosatiga yorqin misol

Ipolito Irigoyen bo'lishi mumkin. Uning hukumati milliy sanoatning rivojlanishini rag'batlantirdi, davlat neft sanoatini shakllantirdi. Qishloqda kuchli fermerlar qatlami shakllandi, ijarachilarning ahvoli yaxshilandi. Irigoyen 8 soatlik ish kuni to'g'risida qonun qabul qilinishiga erishdi. Ish haqi oshirildi, ishchi va xizmatchilarning katta qismi uchun pensiya belgilandi, o'smirlar va ayollar mehnati cheklandi. Irigoyen Argentinaning milliy suverenitetini qat'iy himoya qildi.

1930-yillarda Lotin Amerikasi. Iqtisodda davlat rolining oshishi. 1929 - 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Lotin Amerikasi mamlakatlarida qaror topgan

ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning salbiy tomonlarini, iqtisodning tashqi bozorga haddan tashqari qaramligining og‘ir oqibatlarini ochib tashladi. Inqiroz yillari Lotin Amerikasi mamlakatlarining an‘anaviy mahsulotlariga jahon bozorida talab kamayib ketdi. Minglab plantatsiyalar, zavod va fabrikalar to‘xtab qoldi. O‘z xaridorini topmagan millionlab tonna qahva, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yo‘q qilindi. Ko‘plab ishlab chiqaruvchilar xonavayron bo‘ldi. Yuz minglab kishilar ishsiz qoldi. Mehnatkashlar, aholi o‘rta qatlamining umumiy yashash darajasi yomonlashdi. Iqtisodiy inqiroz mintaqadagi hukmron rejimlarni jamiyatdagi tayanchidan mahrum qildi, ijtimoiy beqarorlikning o‘rishiga, jiddiy siyosiy o‘zgarishlarga olib keldi. Ayni paytda, har bir mamlakatda voqealar turlicha rivojlandi.

Masalan, aynan shunday holat tufayli Argentinada 1930-yili harbiy to‘ntarish amalga oshirilib, Ipolito Irigoyenning ikkinchi hukumati ag‘darib tashlandi, hokimiyatga konservator guruhlar qaytdi.

Braziliyada aksincha, inqiroz bu yerda hukmronlik qilayotgan «qahva oligarxiyasi»ning pozitsiyasini susaytirdi va bundan muxolifatchi burjua-millatchi doiralar foydalanib qoldi. 1930-yilgi burjua inqilobi oligarxiya rejimini ag‘darib tashladi.

Kolumbiyada ham shu yili konservativ oligarxiya rejimi o‘rniga liberal-islohotchilar keldi. Chili va Kubada ommaviy inqilobiy chiqishlar natijasida inqirozdan sal oldin hokimiyatga kelgan diktatorlik rejimlari ag‘darib tashlandi.

Shu tariqa, 1930-yillarda Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida ko‘pincha bir-birini almashtirgan turli siyosiy rejimlar - boshqaruv shakli bo‘yicha diktatorlik va konstitutsion, ijtimoiy mazmuni bo‘yicha konservativ, liberal islohotchi, millatchi va so‘l kuchlar hukmronlik qilishda davom etdilar.

Bu davrda davlatning iqtisodiy faollashuvi Lotin Amerikasida kapitalistik taraqqiyot yo‘lidan ancha oldinlab ketgan Argentina, Meksika, Braziliya, Chili va Urugvay kabi davlatlar uchun xos jarayon edi. 1930-yillarda Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy siyosatida yuz bergan o‘zgarishlar mahalliy ishlab chiqarishning o‘rishi va milliy kapitalning kuchayishiga olib keldi.

Lotin Amerikasi va AQSH munosabatlari. Jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi davlatlari uchun muhim muammolarning AQSH bilan munosabatlari bo'ldi. Birinchi jahon urushi yillarida Lotin Amerikasiga Yevropa davlatlari e'tiborining susayishidan foydalangan AQSH kapitali Markaziy va Janubiy Amerikaga kirib keldi. AQSHga qarshi kayfiyatlarning avj olishidan xavfsirab va mintaqada o'zining ta'sirini oshirish maqsadida 1933-yili AQSH prezidenti Franklin Ruzvelt o'z hukumatining Lotin Amerikasi davlatlariga intervensiya uyushtirmasligini va boshqa ko'rinishda bu davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligini hamda ular bilan «yaxshi qo'shnichilik» munosabatlari o'rnatishini e'lon qildi.

Bu Lotin Amerikasiga nisbatan AQSH siyosatining o'zgarganligini, ekspansiyaning yumshoqroq shakliga o'tilganligini anglatdi va Amerika qit'asi davlatlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning yaxshilanishida ijobiy qadam bo'ldi.



Kofening dengizga oqizilishi.

Kofe qiymatini oshirish maqsadida Braziliya hukumati qahva daraxtlari ekilishini kamaytirdi va qahva donalarini yo'q qildi.

1931-yildan 1943-yilgacha 77,8 million qop qahva yoqilgan yoki dengizda cho'kib ketgan



Plantatsiya - maxsus qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladigan katta xo'jalik.

Diktatura - hech qanday cheklovlersiz, hukmron sinfnig kuchiga tayanib ish yurituvchi hokimiyat.

Ekspansiya - bir davlatning o'zga mamlakatlar hududi va bozorini egallab olish maqsadida o'z siyosiy va iqtisodiy ta'sirini yoyishga qaratilgan siyosati.



AQSh Prezidenti F. D. Ruzveltning birinchi nutqidan. 1933-yil 4- mart

... Jahon siyosati sohasida men mamlakatimiz yaxshi qo'shnisi - o'zini qat'iyat bilan hurmat qiladigan va shuning uchun boshqalarning huquqlarini hurmat qiladigan qo'shnisi siyosatini olib borishini istardim. O'z majburiyatlarini hurmat qiladigan va butun dunyodagi qo'shnilar bilan tuzilgan shartnomalarning muqaddasligini hurmat qiladigan qo'shni ...



1.F. Ruzveltning ochilish nutqida Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan qanday siyosat e'lon qilindi?

2.Uning asosiy tamoyillari nima? AQSh bunday siyosatga o'tishda qanday maqsadni ko'zlagan?



I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushi Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

2. 1920-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarida qanday siyosiy tuzumlar shakllandi? Jamiyatda avtoritar va diktatorlik rejimlari uchun qanday asoslar mavjud edi?

3. 1920-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'tkazilgan islohotchilik qanday yo'nalishlarda olib borildi? Argentinadagi I. Irigoyen faoliyatiga baho bering.

4. 1929 - 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Lotin Amerikasi mamlakatlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?

5. 1930-yillarda AQSHning Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan munosabatida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Nega Lotin Amerikasi davlatlari birinchi jahon urushidan so'ng Yevropa va AQSHning yarimmustamlakasiga aylanib qoldi?
2. Nega Kubada inqilob yuz berdi? Busiz muommoni hal qilib bo'lmas edimi?
3. Ekstensiv rivojlanish nima?

III. Guruh muhokamasi uchun



Lotin Amerikasi davlatlarining ikkinchi jahon urushidagi ishtirokini muhokama qiling?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Xaritadan foydalanib «Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari» nomlarini daftaringizga yozing hamda matnda mazkur davlatlar bilan bog'liq voqelik mavjud bo'lsa izoh bering.
2. “Latifundiya” “plantatsiya” “liberal islohotchilik” so'zlarining ma'nosini toping

V. Ijodiy vazifa




Venn diagrammasi yordamida Lotin Amerikasi davlatlarining umumiylik va farqli jihatlarni tahlil qiling va daftaringizga yozing.

10-§. Takrorlash. Xaritalar bilan ishlash


Birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan davlatlar chegarasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Eng ko'p zarar ko'rganlar Rossiya imperiyasi, Avstriya-Vengriya imperiyasi va Germaniya edi.

Versal tinchlik shartnomasi natijasida Germaniya hududi faqat g'arbiy va shimolda Elzas va Lotaringiya hududlarini Fransiya, shuningdek Belgiya va Daniya o'tkazish yo'li bilan o'zgartirildi. Ushbu shartnoma bilan Fransiya Reynlandiyani oldi va Germaniya XV asr chegarasiga qaytarildi.


1925-yilda Germaniya, Fransiya va Belgiya Germaniya bilan g'arbiy chegaralarni tan olish uchun tuzilgan Lokarno shartnomasini imzoladilar. Bu shartnoma, garchi u g'arbiy chegaralarni o'rnatgan bo'lsa-da, Germaniyaning sharqiy chegaralarini belgilashga kafolat bermadi.



Birinci jahon urushidan keyin Yevropa qanday o'zgargan



Ikkinchi jahon urushidan oldin va keyin mamlakatlarning chegaralari



Italiya va Yaponiya mustamlakalarini yo'qotdilar (Germaniya Birinchi jahon urushidan keyin ham o'z mustamlakalarini yo'qotdi) Italiyaning yo'qotishlari orasida - Liviya 1, Eritreya 2, Somaliya 3, shuningdek, Efiopiya va Albaniya 30 - yillarda bosib olindi. Yaponiya Kuril orollarini va janubiy yarmini yo'qotdi.


Saxalin 4, Koreya 5, Tayvan 6 va qator Okeaniya orollari.



1. Quyidagi xaritada qaysi raqamdagi davlat 1922-yil Misrga mustaqillik bergan?



2.XIX asrda bu davlat 2 marta imperiya deb e'lon qilingan ? Ushbu davlatni xarita seriya raqamini ko'rsating.



III BOB. IKKI JAHON URUSHI ORALIG'IDA OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

11-§. 1918 – 1939-yillarda Yaponiya



Iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. XX asr boshlarida Yaponiya jahonning yetakchi davlatlariga qaram bo'lib qolmagan, nisbatan yuqori darajadagi iqtisodiy va harbiy rivojlanishga erishgan Osiyo mintaqasidagi yagona davlat edi.



Yaponiyada Meydzi islohoti qachon bo'lib o'tdi?

Birinchi jahon urushining yakunlanishi Yaponiyada qator iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashuvi, oddiy kishilarning hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada norozilik kuchayib bordi.

1920-yillar o'rtalariga kelib mamlakatda sanoat to'ntarishi yuz berdi. 1925-yili sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi 1919-yilgi darajasidan oshib ketdi. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash jarayoni davom etdi. Monopolistik kapital xalq xo'jaligining muhim sohalarini egallab ola boshladi. Og'ir sanoatda «Mitsui» «Mitsubisi» va «Sumitomo» konsernlari o'z pozitsiyasini mustahkamlab oldi.

1929 - 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi yapon iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi: u tinchlik sharoitida rivojlanishga moslashmagan, hali juda kuchsiz edi. Ish haqining pastligi tufayli ichki bozor juda sust, tashqi bozorda esa yapon mahsulotlari sifatining pastligi tufayli ular raqobatbardosh emasdi.

Yaponiya hukumati inqirozdan chiqishning yo'li sifatida iqtisodni militarizatsiyalash va tajovuzkorlikni tanladi. Yaponiya Xitoyni, Uzoq Sharqni, keyin esa butun Osiyoni bosib olishni, Tinch okeani havzasida o'z hukmronligini o'rnatishni rejalashtirayotgan edi.

Ichki siyosiy munosabatlar 1920-yillarda yangi siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi hamda saylovchilar sonini asta-sekin oshirib borgan qator islohotlar bilan xarakterlanadi. 1925-yildan sovet-yapon munosabatlari yo'lga qo'yilib, bu iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishida va yapon qo'shinlarining Shimoliy Saxalindan olib chiqib ketilishida aks etdi.

1920-yillar oxiriga kelib hukumatda harbiylarning roli kuchaydi va so'l kuchlar quvg'in ostiga olindi. Mamlakatda harbiylar, ayniqsa, «Yosh ofitserlar» deb ataluvchi radikal kayfiyatdagi guruhlar ta'siri keskin kuchaydi. Ular ko'ppartiyali parlament tizimidan voz kechishni, mamlakatda diktatura o'rnatishni, tashqi siyosiy ekspansiyani kuchaytirishni talab qildilar. Hukumat boshlig'i general

Giiti Tanaka ham ular tomonida bo'ldi va bu 1920-yillar oxiri 1930-yillar boshlarida «Yosh ofitserlar» tomonidan bir qator siyosiy terrorlar amalga oshirilishiga va, hatto, 1932-yil mayda isyon ko'tarilishiga olib keldi. Isyon muvaffaqiyat qozonmadi, ammo Yaponiya «Yosh ofitserlar» ta'siri ostida bosqinchilik yo'lidan jadal ketdi.

1926-yilda imperator **Xiroxito** Yaponiya taxtiga o'tirdi. Millionlab yaponlar an'anaviy ravishda yangi imperatorga "o'n ming yillik umr", uzoq va muvaffaqiyatli bo'lishini tilab qolishdi, biroq, Xiroxito hukmronligining dastlabki davrida Yaponiya o'z tarixidagi eng dahshatli to'ntarishlarni boshidan kechirdi. Militarizm siyosati uni Ikkinchi jahon urushida mag'lubiyatga olib keldi.

Yaponiyada shakllangan totalitar tizim o'ziga xos avtoritar-monarxistik shaklga ega edi. Osiyoda hukmronlik qilish uchun keng miqyosli urush sharoitida bu avtoritar-monarxistik rejim yangi jihatlar kasb etdi. Mamlakatning hukmron doiralari yangi siyosiy va iqtisodiy tizim yaratish siyosatini e'lon qildilar. «Yangi siyosiy tizim» deganda, jamiyat ustidan harbiy-davlat byurokratiyasining qattiq siyosiy nazorati tushunilar edi.

Shu tariqa, Yaponiyadagi hukmron rejim asta-sekin totalitar xarakter kasb etib bordi: parlament demokratiyasi belgilari bekor qilindi, iqtisod to'liq davlat nazorati ostiga o'tdi, yapon millatining buyukligi to'g'risidagi g'oyalar rejimning mafkuraviy tayanchi bo'lib xizmat qildi, aholining qo'llab-quvvatlashini ta'minladi.



Germaniya va Yaponiya
tomonidan imzolangan
Anti-Komintern pakti.
1936-yil 25-noyabr


Tashqi siyosat. Yaponiyada shakllangan militaristik totalitar rejim uning tajovuzkor tashqi siyosatini belgilab berdi. Bu siyosat 1931-yili Xitoyning Manchjuriya provinsiyasining bosib olinishiga va bu yerda yaponlar tomonidan

Manchjou Go qo'g'irchoq davlatining tuzilishiga olib keldi. Millatlar Ligasi bu qo'pol bosqinchilikka keskin qarshi chiqqanligi uchun Yaponiya 1933-yili bu tashkilotdan chiqdi. 1936-yil noyabrda Yaponiya va Germaniya antikomintern pakti deb ataluvchi hujjatni imzoladi va 1937-yili unga Italiya ham qo'shildi. Shu tariqa «Berlin - Rim - Tokio» uchburchagi deb ataluvchi tajovuzkor davlatlar ittifoqi vujudga keldi.

Afishada qanday voqea aks etgan? U qanday maqsad bilan chiqarilgan deb o'ylaysiz?



1937-yil yozida yaponlar Xitoyga qarshi keng miqyosdagi urush harakatlarini boshlab yubordi. 1938-yili general Fumimaro Konoe hukumati mamlakatning vazifasi Sharqiy Osiyoda yangi tartib o'rnatish ekanligini e'lon qildi.



Antikomintern pakti Yevropa. 1941-yil



Militarizatsiya - jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotini harbiy maqsadlarga bo'ysundirish.

Byurokratiya - xalqdan ajralib qolgan, hukmron guruh manfaatlarini himoya qiluvchi ma'muriyatchilik boshqaruv tizimi.



Xiroxito (so'zma-so'z "mo'l-ko'llik va fazilat") -1926 -yildan 1989-yilgacha Yaponiyaning 124-imperatori. "Syo'va" nomi bilan mashhur u "ma'rifatli dunyo" degan ma'noni anglatadi. 1945- yil 15- avgustda u Yaponiya qurolli kuchlarining so'zsiz taslim bo'lishi haqida radio xabar berdi. Bu Yaponiya imperatorining xalqqa birinchi marta murojaati edi. 1946-yil 1-yanvarda u o'zining ilohiy kelib chiqishi haqidagi g'oyadan voz kechdi.



I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushi Yaponiya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. Yaponiyadagi «Yosh ofitserlar» isyoni siyosiy rejim va tashqi siyosatda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
3. Yaponiyadagi totalitar rejimning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat edi?
4. Birinchi jahon urushi Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishiga, urushdan keyingi iqtisodiy inqirozga va 1920-yillar o'rtalaridagi sanoat to'ntarishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
5. Nima uchun Yaponiya tashqi siyosatda tajovuzkorlik va Yevropadagi fashistik davlatlar bilan yaqinlashish yo'lidan bordi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Nega uzoq vaqt davomida yapon xalqida "yaponcha milliy ruh" saqlanib qolgan?

2. Nega yosh ofitserlar isyon ko'tarishdi? Ularning talablari nimalardan iborat edi?

3. Sharqiy Osiyoda yangi tartib o'rnatish nima degani?

III. Guruh muhokamasi uchun



Nega Yaponiyaning birinchi va ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki boshqa ittifoqlarda bo'ldi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Xaritadan Yaponiyaning Xitoyga qo'shin kiritish yo'nalishini aniqlang va izoh yozing.

2. "Militaristik totalitar rejim" "avtoritar-monarxistik" so'zlarining ma'nosini toping

V. Ijodiy vazifa

1. Yaponiyaning Osiyoda bosib olgan davlatlarining mustamlakachilarga qarshi kurashgan qahramonlarini qo'shimcha adabiyotlardan qidirib topib, ularni ro'yhatini tuzing.

2. Quyidagi yulduzcha bilan berilgan davlat hududida «Yosh ofitserlar» tashkiloti qachon isyon ko'targan?



A) 1932-yil B) 1935-yil

C) 1936-yil D) 1933-yil

12-§. 1918 – 1939-yillarda Xitoy va Hindiston



Xitoy. Birinchi jahon urushi yillarida Xitoy amalda Yaponiyaga to'liq qaram bo'lib qoldi. Yerning taxminan 80% yirik mulkdorlar qo'lida edi.

Chet el kapitali o'z mablag'larini saqlab qoldi.

1919-yil Parij konferensiyasida Xitoy o'z talablari bilan ishtirok etdi. Bu talablar yapon qo'shinlari tomonidan Xitoy hududini bosib olishni to'xtatish, Shandun orolini ozod qilish, Xitoyning suvereniteti va hududiy yaxlitligini tan olishdan iborat edi. Talablar Xitoy ilgari G'arb davlatlari bilan imzolashga majbur bo'lgan shartnomalarning ham bekor qilinishini nazarda tutardi. G'arb davlatlari bunga rozi bo'lmadi va Xitoyga rasman rad javobi berildi.



Tyananmen maydonida talabalar siyosiy islohotlarni talab qilimoqda.
Pekin. 1919-yil 4-may.
Yetmish yil keyin 1989-yilda yana shu voqea qaytarilgan.



Ixetuan» qo'zg'oloni qachon bo'lib o'tgan va qanday shior ostida ko'tarilgan edi? "Xitoy inqilobining otasi" kim bo'lgan?



Pu I - Xitoyning oxirgi imperatori, 1934-yildan – Manchjou-Go imperatori

Bundan g'azablangan xitoylik talabalar 1919-yil 4-may kuni Pekinda namoyish boshladilar. Talabalar harakati butun Xitoyni larzaga soldi va juda katta ijobiy natijalarga olib keldi.

1920-yil iyulda Pekindagi hukumat ag'darilib, hokimiyatga Buyuk Britaniya va AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan **U Peyfu** keldi. Natijada, 1921 - 1922-yillari Vashingtonda bo'lib o'tgan konferensiyada barcha ishtirokchi davlatlar Xitoy ning suvereniteti va hududiy yaxlitligini kafolatladi. Yakkalanib qolgan Yaponiya Shandun viloyatini Xitoyga qaytarishga majbur bo'ldi. Umuman konferensiya Xitoyning xalqaro obro'si oshayotganligidan dalolat berdi.

Xitoy inqilobini tashkil qilishda **Sun Yatsenning** roli beqiyos. 1921-yili u Xitoy Respublikasi prezidenti lavozimiga saylandi. Biroq mamlakat shimoli va chet el davlatlari Sun Yatsenning hukumatini tan olmadilar. 1925-yil martda Sun Yatsen vafot etgandan so'ng mamlakatni tinch yo'l bilan birlashtirish imkoniyati yo'qqa chiqdi.

1920-yillardagi «Buyuk milliy inqilob». 1925-yil bahorda shanxaylik burjuaziya, talabalar va ishchilar vakillari mamlakatdagi inglizlarga qarshi harakat boshladi. Harakatga talabalarning tinch namoyishi ingliz politsiyachilari tomonidan o'qqa tutilishi sabab bo'ldi. Bu vatanparvarlik harakati «30 may harakati» nomini oldi va Xitoyning suverenitetini tiklash shiori ostida o'tdi. Inqilobga Gomindan partiyasi (Milliy partiya) rahbarlik qildi. 1926-yili general Chan Kayshi boshchiligidagi Gomindan milliy hukumati Milliy inqilobiy armiyaning Shimolga yurishini boshladi. Bu yurish davrida Markaziy Xitoyning ko'plab provinsiyalari, jumladan, Uxan, Nankin, Nanchan, Shanxay kabi yirik shaharlari gomindanchilar qo'lga o'tdi.



Xitoy va Hindiston

Shu davrda gomindanchilar bilan kommunistlar o'rtasida ajralish yuz berdi. Mamlakatda real hokimiyatni qo'lga olgan gomindanchilar inqilobni yakunlangan deb hisobladi, kommunistlar esa Xitoyda sotsializm qurish rejasini ilgari surdi. Ular 1931-yili Xitoy Sovet Respublikasini e'lon qildi va Mao Szedun uning raisi etib saylandi. Gomindan bilan kommunistlar o'rtasidagi kurash yigirma yil davom etgan fuqarolar urushiga aylanib ketdi.

Yaponiya bosqini. Yaponlar 1931-yil sentabrda Xitoyga qarashli Manchjuriyaga bostirib kirdi, bir kunda barcha yirik shaharlarini egalladi. Bu hududni himoya qilgan Gomindan armiyasi mamlakat ichkarisiga uloqtirib tashlandi. Chan Kayshi hukumati Yaponiya ustidan shikoyat qilib Millatlar Ligasiga murojaat qildi, ammo xalqaro hamjamiyatning e'tibori uncha kuchli bo'lmadi. Birorta yirik davlat Yaponiya bilan janjallashishni istamadi.

1932-yil 1-martda yaponlar Manchjuriyada Manchjou-Go davlati tuzilganligini e'lon qildi.



Yaponiya qo'shinlari Pekinga kirib kelmoqda. 1937-y.



Eslang! Qachon Koreya va Xitoy qo'shinlari Pxenyan va Seulni yaponlardan ozod qilgan edilar?



Chan Kayshi (1887-1975)-Xitoy davlat va siyosat arbobi. Harbiy martaba uchun oilaviy an'analardan voz kechdi.Yaponiya armiyasi davlat harbiy maktabida o'qigan u Tokioda Sun Yatsen bilan uchrashdi. O'z hayotini Xitoy manfaatlari uchun kurashga bag'ishlashga qaror qilgan. Sinxay inqilobida qatnashgan. 1927- yil 12-aprelda u o'z vatanida antikomunistik to'ntarish o'tkazdi.U mag'lubiyatga uchrab, qo'shinlarining qoldiqlari bilan Tayvanga qochdi.



Hindiston. Birinchi jahon urushidan keyin Hindiston "Britaniya tojining marvaridi" bo'lib qoldi. Angliya bilan yaqin aloqalar Hindiston jamiyatida yangi g'oyalar va tendensiyalarni tarqatishga yordam

berdi. Milliy ozodlik ham kuchayib bordi. Mahalliy ziyolilar va o'rta sinf vakillari ijtimoiy-siyosiy hayot maydoniga chiqishdi. Ular Hindiston milliy kongressi partiyasi (HMK) boshchiligidagi mustamlakalarga qarshi kurashning yangi shakllarini ishlab chiqdilar. Uning rahbari Mohandas Karamchand Gandhi ozodlik harakatining timsoliga aylandi.



Hindiston Milliy Kongressi qachon tashkil qilingan edi?

Shaharlarda zamonaviy madaniyat va sanoat jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, hind qishlog'ida kasta tizimi, qabilachilik va tabaqalarga bo'lish hukmron edi.

Shunga qaramasdan, jahon urushlari oralig'ida Hindiston milliy ozodlik harakatining asosiy kuchini hind dehqonlari tashkil qildi. 1920-1940-yillarda hindlarning zo'ravonliklarsiz ommaviy chiqishlarini tashkil qilishda hind xalqining buyuk farzandi **Maxatma Gandining** roli beqiyos bo'ldi. Jahon urushlari oralig'ida Gandhi Hindiston Milliy kongressi (HMK) partiyasining g'oyaviy rahbari, xalq harakatining yetakchisiga aylandi. U ishlab chiqqan zo'ravonliklarsiz qarshilik ko'rsatish taktikasi qurolli to'qnashuvlardan, millionlab kishilarni o'limdan saqlab qoldi.

Milliy ozodlik kurashining, zo'ravonliklarsiz qarshilik ko'rsatishning «**Gandizm**» deb nomlangan bu usuli Hindiston an'alarini va dehqonlar psixologiyasini chuqur bilishga asoslangan. Bu usulda sabr toqat va norozilik, konservatizm va inqilobchilik ajoyib bir tarzda uyg'unlashib ketgan edi. Gandizm dehqon-larni, hunarmandlarni, milliy burjuaziyani birlashtirdi va qon to'kiladigan qurolli kurashlarsiz mustamlakachilarning Hindistonni tark etishini talab qildi.

1939-yili Ikkinchi jahon urushi boshlanishi va Buyuk Britaniya Germaniyaga urush e'lon qilishi bilan Hindiston vitse-qiroli mamlakatni urush holatida deb e'lon qildi.



Mohandas Karamchand Gandhi (1869-1948) - Hindistondagi milliy ozodlik harakati rahbarlaridan biri. Angliyada yuridik diplom oldi. U Bombeyda advokatlik bilan shug'ullangan va Janubiy Afrikada yuridik maslahatchi bo'lib ishlagan.

Hindiston milliy ozodlik harakati, hind milliy kongressining mafkuraviy rahbari. Odamlar uni Mahatma - **Buyuk ruh** deb atashdi. U bir necha bor hibsga olingan va qamalgan, bir necha bor ochlik e'lon qilgan. U hind shovinistik tashkilotining a'zosi tomonidan o'ldirilgan.



Suverenitet - davlatning ichki ishlar va tashqi siyosatdagi to'liq mustaqilligi.

Provinsiya - ba'zi davlatlarda ma'muriy birlik, viloyat.

Konservatizm - an'anaviy qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy va diniy tartiblar tarafdori bo'lgan siyosiy oqim.



I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushidan so'ng Xitoyda boshlangan talabalar harakatining sabablari nimada edi va u qanday natijalarga olib keldi?
2. 1920-yillardagi «Buyuk milliy inqilob»ning xarakteri va o'ziga xos jihatlarini ta'riflab bering.
3. Xitoyda fuqarolar urushining sabablari nimada edi? Nima uchun XX asrning birinchi yarmidagi Xitoy tarixi to'xtovsiz urushlar davri deb ataladi?
4. Birinchi jahon urushidan so'ng Hindistonda mustamlakachilikka qarshi kurashning yangi davri boshlanishiga nima sabab bo'ldi?
5. Zo'ravonliklarsiz mustaqillik uchun kurash va mustamlaka hukumati bilan hamkorlik qilmaslik harakati natijasida qanday natijalarga erishildi?
6. HMK Hindiston mustaqilligi uchun kurashda qanday yo'nalishni egalladi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Nega uzoq vaqt davomida Hindistonda kastachilik saqlanib qolgan?
2. Nega Xitoyda talabalar namoyish o'tkazishdi? Ularning talablari nimalardan iborat edi?
3. Dehqonlar psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?

III. Guruh muhokamasi uchun



Nima deb o'ylaysiz, nima uchun zo'ravonlarsiz qarshilik taktikasi Hindistonga mustaqillikka erishishga imkon berdi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Xaritadan 1918-1939-yillarda Xitoy tarixida asosiy o'rin egallagan viloyatlarni toping va izoh yozing.
2. "Gandizm" "taktika" so'zlarining ma'nosini toping

V. Ijodiy vazifa

Moxandas Karamchand Gandining "Mening hayotim" asarini o'qing va fikr bildiring

13-§.1918-1939-yillarda Turkiya va Eron



Usmoniylar imperiyasi Germaniya va uning ittifoqchilari safida turib Birinchi jahon urushida qatnashdi va mag'lubiyatga uchradi. Imperiya hududi okkupatsiya qilindi. Antanta mamlakatlari Usmoniylar imperiyasiga qarashli yerlarni bo'lib olish rejasini tuza boshladilar. Imperiyaning o'z hududidan tashqaridagi barcha yerlari anneksiya qilindi va 1919-yili Parij konferensiyasi qaroriga ko'ra Millatlar Ligasining mandati ostiga o'tdi. G'arb davlatlari Turkiyaning hududiga ko'z tika boshladi. 1920-yilgi Sevr shartnomasiga ko'ra Turkiya hududi bir guruh Yevropa davlatlari o'rtasida bo'lib olinishi ko'zda tutildi. Ularning surbetlarcha harakati turk xalqining g'azabini

oshirdi. Mamlakatda qarshilik harakati boshlandi. Harakatga general Mustafo Kamol posho rahbarlik qildi.



Saljuqiylar davlati qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

G'arb davlatlari tomonidan qo'llab-quvatlangan Gretsiya armiyasi Turkiya hududiga kiritildi. Shu tariqa Turkiya-Gretsiya urushi boshlandi. Uzoq davom etgan janglardan so'ng 1922-yil oktabrga kelib M.Kamol qo'shinlari butun Turkiya hududini ozod qildi.

1922-yil 1-noyabr kuni Turkiya Buyuk Millat majlisi sulton hokimiyatini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Sulton Mexmed VI taxtdan ag'darildi va mamlakatni tark etdi. 1923-yili Lozannada Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan M. Kamol hukumati imzolagan yakuniy shartnomaga ko'ra, Turkiya o'z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.

1923-yil 29-oktabrda Turkiya respublika deb e'lon qilindi, M.Kamol respublika prezidenti etib saylandi. Mamlakatda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotlar boshlandi. Islohotlarning bosh maqsadi - mamlakatni modernizatsiya qilish deb e'lon qilindi. Bu Yevropa sivilizatsiyasining barcha taraqqiyparvar jihatlarini qabul qilish va ularni Turkiya sharoitiga moslashtirishni anglatar edi. Islohotlarning birinchi tamoyili dunyoviylik, dinni davlatdan ajratish bo'ldi. Arab alifbosidan voz kechib, lotin alifbosi joriy qilindi. Yevropacha nasab (familiya) kiritilib, Buyuk millat majlisi M. Kamolga rasman «Otaturk» (turklar otasi) degan nasabni berdi.




Xaritadan foydalanib Turkiya chegaralari Sevr va Lozanna tinchlik shartnomalari bilan qanday o'zgarganligini ko'rsating.

1920-yillari iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishini chet ellik mulkdorlardan sanoat korxonalari, infratuzilma obyektlari, temir yo'llarni sotib olish, milliy sanoatni yaratish tashkil qildi.

Tashqi siyosat. Otaturk tashqi siyosatining asosiy vazifasi Turkiyaning xalqaro obro'sini oshirishga qaratildi. 1932-yili Millatlar Ligasiga a'zo bo'lgan Turkiya barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga harakat qildi. M. Kamol Germaniya bilan munosabatlarga alohida e'tibor qaratdi. Turkiya tashqi savdosining katta qismi Germaniya hissasiga to'g'ri kelardi. 1941-yili Germaniya bilan do'stlik shartnomasi imzolandi. Turkiya Ikkinchi jahon urushida rasman betaraf qolgan bo'lsa-da, hukmron doiralarning katta qismi Germaniyaga xayrixoh edi.



Mustafo Kamol Otaturk (1881-1938) - turk siyosatchi va davlat arbobi. Kamol matematik qobiliyatlari uchun harbiy maktabga olindi. U fransuz va nemis tillarida gaplashardi. Harbiy yutuqlari uchun Birinchi jahon urushi paytida u general unvonini va hurmatli "Istanbul qutqaruvchisi" laqabini oldi. U Sevr tinchlik shartnomasi bo'yicha Usmonli imperiyasining taslim bo'lishini tan olmadi. Otaturk



Antanta davlatlarini Lozanna shartnomasini adolatli tuzishga majbur qildi, sultonlik va xalifalikni bekor qildi va respublikaga asos soldi.

Turkiyaning birinchi prezidenti etib saylandi. U mamlakatni G'arb modeliga ko'ra modernizatsiya qildi: Yevropa taqvimi va Yevropa kiyimlari joriy etildi, ta'lim tizimi isloh qilindi, ko'pxotinlilik taqiqlandi, islom huquqi institutlari bekor qilindi, ayollar ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar. Arab alifbosini lotin alifbosiga

almashtirdi. Familiyalarni kiritish to'g'risidagi qonun qabul qilingandan so'ng, u Buyuk Milliy Majlisdan Otaturk (so'zma -so'z turklarning otasi) familiyasini oldi.



Eron. 1918-yil avgustga kelib ingliz qo'shinlari butun Eronni o'z nazoratiga oldi. 1919-yil imzolangan Angliya-Eron shartnomasiga binoan Eron amalda Buyuk Britaniyaning protektoratiga aylantirildi. Bu eronliklarning g'azabini keltirdi. Butun mamlakatda tartibsizlik va qo'zg'olonlar boshlanib ketdi. Voqealarga armiya aralashib, 1921-yil fevralda kazaklar polki sardori polkovnik Rizoxon hukumatni ag'darib tashladi. 1925-yilning dekabr oyida chaqirilgan Ta'sis majlisi Rizoxonni Pahlaviylar sulolasining shohi deb e'lon qildi.



Rizo Shoh Pahlaviy (1878-1944 yy)

1925 yildan 1941 yilgacha

Pahlaviylar sulolasidan

Eronning o'ttiz to'rtinchi shohi.



Parij shartnomasi qachon imzolangan va uning mohiyati nimadan iborat?

M.Kamoldan o'rnak olib, shoh Eronda 1928-yildan yevropacha libos joriy qildi, feodal unvon va murojaat shakllari bekor qilindi, nasab joriy qilindi. 1935-yildan mamlakatning nomi o'zgartirildi: ilgari Fors o'rniga Eron deb ataladigan bo'ldi. Xotin-qizlarning huquqlari to'g'risida qonun qabul qilindi, ular maktablarda, oliy o'quv yurtlarida o'qish, davlat tashkilotlarida ishlash huquqiga ega bo'ldi. 1935-yili chodra o'rab yurishni bekor qilish to'g'risida qonun qabul qilindi.

Ta'lim sohasida katta o'zgarishlar yuz berdi. 1927 - 1934-yillardagi islohotlar davrida bepul majburiy boshlang'ich ta'lim hamda pullik o'rta va oliy ta'lim to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Yangi maktablar qurilib, o'quvchilar soni bir necha barobar oshdi. Oliy o'quv yurtlarining butun boshli tizimi yaratildi,

jumladan, Tehron universiteti ochildi. Yuzlab eronlik yoshlar har yili chet ellarga, dunyoning eng yaxshi universitetlariga o'qishga jo'natildi.

Agrar siyosatda Rizo shoh keskin o'zgarishlar qilmadi. Qabila boshliqlari va boshqa yer egalaridan yer-mulklari, jumladan, vaqf yerlari tortib olinib, mulozimlar va zobitlarga bo'lib berildi. Ammo dehqonlarning ahvoli o'zgarmadi, ular avvalgiday juda yuqori ijara haqi to'layverdi.

Hukumat sanoat sektorining rivojlanishini ham rag'batlantirdi. Mamlakatga mashina va uskunalarni litsenziyasiz olib kelishga ruxsat etildi, boj solig'ida imtiyozlar berildi. Mamlakatda inglizlarning ta'sirini kamaytirish maqsadida shoh Germaniya bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Eronga ko'plab nemis mutaxassislari va texnikasi kirib keldi.

Tashqi siyosat. Shoh tashqi siyosati SSSR bilan G'arb davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hisobga olib, ustalik bilan o'z manfaatlarini saqlab qolishga qaratildi.

SSSR Ikkinchi jahon urushiga qo'shilgandan so'ng 1941-yil avgustda sovet va ingliz qo'shinlari Eronga kiritildi. Taxtga kelgan Muhammad Rizo Pahlaviy 1942-yili SSSR va Buyuk Britaniya bilan shartnoma imzoladi. Butun mamlakat hududi urush davrida sovetlar va inglizlar ixtiyoriga o'tdi.



Anneksiya - bir davlat hududining yoki bir qismining boshqa davlatga zo'rlik bilan qo'shib olinishi.

Modernizatsiya - ishlab chiqarish, texnika, texnologik jarayon kabilarni zamonaviy talablarga moslash, yangilash jarayoni.

Infratuzilma - jamiyat yoki uning biron-bir sohasi faoliyatini ta'minlovchi muassasa, boshqaruv tizimi, aloqa vositalari va shu kabilar majmuyi.

Polk - harbiy qism.

Chodra - bir qator musulmon mamlakatlarida ayollar yopinib yuradigan diniy libos.

Sektor - iqtisodiyotning umumiy tavsifi, maqsadlari va vazifalari bir-biriga yaqin sohalaridan iborat bo'lgan yirik qismi.

Litsenziya - ma'lum muddatga belgilangan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun beriladigan huquqni tasdiqlovchi rasmiy hujjat.



I. Bilimlarni sinash

1. Birinchi jahon urushining yakuni Turkiya uchun qanday oqibatlariga olib keldi?
2. Mustafó Kamolning hokimiyatga kelishi Turkiyaning tarixiy taqdirida qanday rol o'ynadi?
3. Mustafó Kamol Otaturk islohotlarining asosiy maqsadi nimadan iborat edi? Otaturk tashqi siyosatda qanday asosiy maqsadlarni ko'zlab harakat qildi?
4. Shoh Rizo Pahlaviy islohotlari Eronni zamonaviy davlatga aylantirishda qanday rol o'ynadi?
5. Eronning tashqi siyosatida SSSR bilan munosabatlar qanday o'rin egallaydi?
6. Turkiya va Eronda amalga oshirilgan islohotlar haqida gapirib bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Usmoniylar davlatining Turkiyani uzoq vaqt boshqarganlik sababini toping?
2. Nega Fors davlatining nomi o'zgardi? Eron so'zining ma'nosi nima?
3. Nega Turkiya ikkinchi jahon urushida betaraf qoldi?

III. Guruh muhokamasi uchun

Nima deb o'ylaysiz, nima uchun Eronda 1927 - 1934-yillardagi islohotlar davrida bepul majburiy boshlang'ich ta'lim hamda pullik o'rta va oliy ta'lim joriy qilindi? O'sha davrdagi O'zbekiston ta'lim tizimi qanday bo'lgan?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Xaritadan foydalanib 1918 - 1939-yillarda Turkiya va Eron tarixidagi voqealar xronologiyasini tuzing.
2. "Otaturk" "davlat sektori" so'zlarining ma'nosini toping

V. Ijodiy vazifa

Turkiya va Eronda amalga oshirilgan islohotlar bilan 1930-yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan islohotlarni taqqoslang. O'xshash va farqli jihatlarini Venn diagrammasida aks ettiring.



Mustafo Kamol



Mao Szedun



Mahatma Gandi



Bu tarixiy shaxslar milliy ozodlik harakatida qanday rol o'ynagan?

14-§. 1918-1939-yillarda Afrika mamlakatlari



Afrika qit'asini keng ma'noda ikkita mintaqaga bo'lish mumkin: Shimoliy va Tropik Afrika. Afrika qit'asining shimoliy qismi arab-islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylandi. Bu hudud doim Yaqin Sharqqa intilib yashaydi va shu bilan Afrikaning qolgan qismidan farq qiladi. Shimoliy Afrikada Misr, Jazoir, Tunis, Marokash, Liviya joylashgan.



Afrikada joylashgan qaysi qadimgi davlatlarni bilasiz?

Misr. 1922-yili Buyuk Britaniya Misr ustidan o'z protektoratini bekor qilib, uning to'liq mustaqilligini tan oldi. 1923-yili qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra, Misr monarxiya deb e'lon qilindi.

1941-yili Misr hududiga Germaniya va Italiya qo'shinlari kiritildi.

Jazoir, Tunis va Marokash Fransiyaning mustamlakalari bo'lib, Birinchi jahon urushidan keyin ham shu holat saqlanib qoldi.

Jahon urushlari oraliq'ida Jazoir - *Farhod Abbos*, Tunis - *Habib Burg'iba*, Marokashda - *Abdul Karim* boshchiligida milliy-ozodlik harakatlari avj oldi. Bu harakatlar g'alaba qozonmagan bo'lsa-da, mintaqadagi arab xalqlari milliy va siyosiy ongining o'sishida katta rol o'ynadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'plab musulmonlar Fransiya qo'llab-quvvatladi, fransuz armiyasi safiga kirdi. 1940-yili Fransiya mag'lubiyatga uchragandan so'ng Jazoir va Tunis Germaniya va Italiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi.

Liviya. Birinchi jahon urushidan keyin Italiya Liviyaga ko'p ming kishilik qo'shin kiritdi. Liviya qarshilik harakati otryadlari Italiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. 1931-yili qarshilik harakati bostirilib, uning rahbarlari qatl qilindi. Liviya Italiyaning mustamlakasiga aylantirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillari Italiya Livianing qulay strategik joylashuvidan foydalandi: portlar, aerodromlar, yo'llar qurildi. Mamlakat hududi urush harakatlari maydoniga aylandi.

Tropik Afrika. Yaqingacha ko'pchilik yevropaliklar Afrika tarixini nazar-pisand qilmasdan, bu tarix umuman bo'lmagan deb hisoblardi. XX asr ning boshlarigacha Afrika tarixi yevropaliklar nazarida faqat qul savdosi va iqtisodiy talonchilik bilan bog'liq edi. 1926-yili Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan «Qullik haqida» konvensiyada qullik va qul savdosiga ta'rif berilib, ular qoralandi.



Qullik konvensiyasi

Jenevada imzolangan

1926-yil 25-sentabr

2 -modda.

Oliy Ahdlashuvchi tomonlar har biri o'z suvereniteti, yurisdiksiyasi, himoyasi, protektorat yoki vasiyligi ostidagi hududlarga nisbatan, agar ular zarur choralarni ko'rmagan bo'lsalar:

a) qul savdosining oldini olish va bostirish;

b) asta -sekin va imkon qadar tezroq qullikning barcha shakllarini butunlay bekor qilishni amalga oshirish.

4 -modda

Oliy Ahdlashuvchi tomonlar qullik va qul savdosiga barham berish maqsadida bir -birlariga har tomonlama yordam ko'rsatadilar.



«Qullik haqida» konvensiyadagi moddalarni tahlil qiling?

Birinchi jahon urushidan so'ng Afrikaning janubiy va markaziy qismida joylashgan hududlar Buyuk Britaniyaga qarashli bo'lib, uning mustamlakalarida Afrika umumiy aholisining katta qismi istiqomat qilardi.

Fransiya Afrika qit'asining katta hududini egallab olgan bo'lsa-da, Fransiya mustamlakalarining asosiy qismi G'arbiy va Ekvatorial Afrikada joylashgan va ancha qismi Sahroyi Kabirga to'g'ri kelardi.

Qolgan hududlarni Belgiya, Portugaliya, Ispaniya va Italiya o'zaro bo'lishib olgandilar. Afrikada metropoliyalar siyosatining o'ziga xos tomonlari. Birinchi jahon urushi dan so'ng Afrikada infratuzilma obyektlari:temiryo'llar, bandargohlar, aloqa tizimi, shuningdek, Yevropa tipidagi ma'muriy tashkil otlar, maktablar, kasalxonalar qurildi. Missionerlik faoliyati orqali xristian dini tarqaldi. Natijada Afrikani modernizatsiyalash uchun intilishlar paydo bo'ldi, an'anaviy jamiyatga yevropacha unsurlar kirib bordi.

Iqtisodda aholining katta qismi avvalgiday an'anaviy usulda kun kechirish bilan band edi, qishloq xo'jaligi ibtidoiy usulda olib borilardi, bir qism aholi hunarmandchilik, ovchilik bilan band bo'lib, muntazam mehnat qilish malakasiga ega emasdi.

Ijtimoiy sohada eski tuzum (katta oila, urug', jamoa, qabila), qabila va jamoa boshliqlarining avvalgi Iyerarxiyasi, urug'lar va qabilalar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tizimi, qulchilik saqlanib qoldi. Jamiyatda mahalliy tabib va kohinlarning obro'si hali ham juda yuqori edi.

Siyosiy sohada, hatto, yangi siyosiy institutlar paydo bo'lgan joylarda ham ular eski siyosiy tizim asosiga qurildi, ularda qabila boshliqlari, kohinlar va shu kabilar asosiy rol o'ynadi.

Madaniy sohadagi muvaffaqiyatlar ko'pincha faqat tashqi ko'rinish edi, xolos: xristianlik rasmiyat uchun qabul qilindi, mahalliy aholining ongi va xulqida avvalgiday an'anaviy madaniyat va ibtidoiy tasavvurlar hukmron bo'lib qolaverdi.



Afrikaning Yevropa davlatlari tomonidan bo'lib olinishi.

1920-yili Afrikada birinchi siyosiy partiya - **Afrika Milliy kongressi** (AMK) tashkil topdi. Shundan so'ng qit'aning barcha hududlarida partiyalar va kasaba uyushmalariga o'xshash tashkilotlar paydo bo'ladi.

Afrika xalqlarining siyosiy faollashuvida Panafrika kongresslari katta rol o'ynadi. Panafrika harakati **mahalliy aholining irqiy kamsitilishiga chek qo'yish, tan jazosini va majburiy mehnatni bekor qilish** kabi talablarni ilgari surdilar. Bu

davrda Panafrika harakatining koʻzga koʻringan arboblari, panafricanizmning «ota»lari Uilyam Dyubua va Markus Garvi edi.

1930-yillarning ikkinchi yarmidan Afrikada iqtisodiy rivojlanish surʼatlari jadallashdi. Ayni paytda mahalliy aholini majburiy mehnatga jalb qilish tartibga solindi.

1939-yili Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan urush ishtirokchilarining rejalarida Afrika muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Yuz minglab afrikaliklar Shimoliy Afrika, Gʻarbiy Yevropa va boshqa hududlardagi urush harakatlarida qatnashdi. Afrikaliklardan tashkil qilingan milliy harbiy qismlar keyinchalik mustaqillik uchun kurashda muhim rol oʻynadi.



Markus Garvi (1887-1940-yil) qora tanlilarning huquq va zulmdan ozod boʻlish uchun jahon boʻylab harakati faoli. Panafrika harakati asoschisi.



Sivilizatsiya - ijtimoiy taraqqiyot va moddiy madaniyat darajasining maʼlum bir ijtimoiy-siyosiy tizimga xos boʻlgan bosqichi.

Konvensiya - alohida masala boʻyicha xalqaro kelishuv, xalqaro shartnoma turi.

Missionerlik -oʻzga din vakillari orasida xristian dinini targʻib qilishga yoʻnaltirilgan faoliyat.

Iyerarxiya - pastdan yuqoriga qarab amal pillapoyasi boʻyicha boʻysunish tartibi.



I. Bilimlarni sinash

1. XX asr boshlarida Afrika xalqlari tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. 1926-yili Millatlar Ligasi tomonidan qanday mazmundagi konvensiya qabul qilingan?

3. Birinchi jahon urushi arafasida Afrika qit'asi, asosan, qaysi davlatlar o'rtasida bo'lib olingan edi?
4. Aholi orasida an'anaviylik qoldiqlarining kuchliligi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida qanday namoyon bo'ldi?
5. Afrika Milliy kongressi va Panafrika harakati haqida nimalar bilasiz?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Panafrika harakati "otalari" kimlar, ular haqida ma'lumot to'plang?
2. Nega Afrika davlatlari Yevropa davlatlarining mustamlakasiga aylanib qoldi?
3. Afrika davlatlarining birinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida ma'lumot to'plang?



III. Guruh muhokamasi uchun


Nima deb o'ylaysiz, nima uchun afrika xalqlarining mustaqilik uchun kurashi uzoq davom etdi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Xaritadan foydalanib Afrikaning Yevropa davlatlari tomonidan bosib olinishini tahlil qiling va ma'lumotlarni daftaringizga qayd eting.
2. "Katta oila" "panafrika xarakati" so'zlarining ma'nosini toping

V. Ijodiy vazifa

1. Afrikadagi davlatlarning rivojlanish darajasiga qarab, guruhlariga bo'lib chiqing
2. Jadvaldagi so'roq belgisiga mos yillarni yozing. Ushbu davlatlar qachon mustaqil bo'lgan?



IV BOB. IKKINCHI JAHON URUSHI VA URUSHDAN KEYINGI XALQARO MUNOSABATLAR

15-§. Ikkinchi jahon urushi



Ikkinchi jahon urushi, ***bir tomondan***, fashistlar Germaniyasining bosqinchilik siyosati, ***ikkinchi tomondan***, G'arbning yetakchi davlatlari tomonidan olib borilgan "tinchlantirish" siyosatining natijasi edi. Bu insoniyat tarixidagi eng uzoq va halokatli urush edi.

Ikkinchi jahon urushining asosiy sababi fashistik davlatlar - Germaniya, Italiya va Yaponiyaning dunyoni qayta taqsimlash va ulkan mustamlakachilik imperiyalarini yaratish istagi edi.

Ular tomondan, urush tajovuzkor va g'ayriinsoniy edi. Agressiv mamlakatlar "past" xalqlarni jismoniy yo'q qilish rejalarini tuzdilar.

Agressiya qurboniga aylangan mamlakatlar o'rtasidagi mafkuraviy va siyosiy qarama -qarshiliklarga qaramay, ularning rahbarlari asta -sekin umumiy dushmanga qarshi to'liq g'alabaga qadar birgalikda kurashish zarurligini anglab etdilar. Gitlarga qarshi koalitsiya davlatlari tomonidan urush mudofaa va ozodlik xarakteriga ega edi.

Germaniyada fashistlarning hokimiyatga kelishi va xalqaro munosabatlar. 1933-yil yanvarda Germaniyada A.Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistik ishchi partiyasi hokimiyatga keldi. U Germaniyaning Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyati uchun o'ch olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan urush partiyasi edi.




Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarini keltirib chiqargan umumiy jihatlar nimalardan iborat?

1938-yilgi Myunxen kelishuvi. Avstriya anshlyus qilingandan so'ng Germaniya Chexoslovakiyani bosib olishga tayyorlana boshladi. Chexoslovakiyaning Sudet viloyati aholisining ko'pchiligini nemis millatiga mansub kishilar tashkil qilardi. Gitler bu viloyatning Chexoslovakiyadan Germaniyaga o'tkazilishini talab qildi.

Buyuk Britaniya va Fransiya bosimi ostida Chexoslovakiya hukumati Germaniyaning talabini bajarishga majbur bo'ldi. Chexoslovakiyaning kapitulatsiyasi 1938-yil 29-sentabr kuni Myunxenda rasmiylashtirildi.

Myunxen kelishuvidan keyin ikkita frontda urush olib borishni istamagan SSSR bilan Germaniya manfaatlari vaqtincha mos tushdi. Bu 1939-yil 23-avgustda 10 yil muddatga o'zaro urush qilmaslik to'g'risida Sovet-German paktining (Molotov - Ribbentrop pakti) imzolanishiga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushi xronologik lentasi.



Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. 1939-yil 1-sentabr kuni Germaniyaning Polshaga bostirib kirishi bilan Ikkinchi jahon urushi boshlandi va 1945-yil 2-sentabrgacha davom etdi. Polshaga yordam berishni va'da qilgan Buyuk Britaniya va Fransiya 3-sentabr kuni Germaniyaga urush e'lon qildi.

Sovet rahbarlari paytdan foydalanib qoldi. 1939-yil 17-sentabr kuni Polshaga sovet qo'shinlari kiritildi. Germaniya bilan SSSR o'rtasida do'stlik shartnomasi imzolanib, unda Polsha davlati siyosiy xaritadan butunlay o'chirib tashlandi.

1939-1940-yillarda sovet-fin urushi bo'lib o'tdi. Sovetlar juda katta yo'qotishlar evaziga Kareliyani Viborg shahri bilan birga SSSR tarkibiga qo'shib oldi. Ammo tezkor g'alaba qilish va Finlandiyani qaram davlatga aylantirish rejasi amalga oshmadi. SSSR tajovuzkor davlat sifatida Millatlar Ligasi tarkibidan chiqarildi. 1940-yil martda SSSR Finlandiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi.

1941- yil 10-aprelda nemis bombardimon samolyotlari Britaniyaning bir qancha shaharlarini vayron qildi, 86 mingdan ortiq odam halok bo'ldi

1940-yil sentabrda Germaniya, Yaponiya va Italiya o'rtasida harbiy hamkorlik to'g'risida kelishuv-Uchlar pakti imzolandi. Tez orada bu paktga Vengriya, Ruminiya, Slovakiya va Bolgariya ham qo'shildi.



Fransiya vakillari 1940- yil 22 -iyunda Germaniya bilan sulh tuzish to'g'risida muzokara olib borish uchun "Marshal Fosh vagoni"ga yuborilgan. (yuqoridagi rasmda ana shu shtab-vagon tasvirlangan)

Aynan shu joyda, aynan shu mashinada, 1918-yil 11-noyabrda Germaniya uchun kamsitilgan Kompen sulh shartnomasi imzolangan edi.

[Germaniyaning SSSRga bostirib kirishi.](#) Germaniya bilan SSSR o'rtasidagi urush muqarrar bo'lib, G'arbiy Yevropaning egallanishini Gitler o'zining asosiy rejasi - Sharqqa yurish uchun tayyorgarlik sifatida qarayotgan edi. Gitler SSSRni shiddat bilan tor-mor qilishni ko'zda tutgan **«Barbarossa»** rejasini tasdiqladi.

1941-yili 22-iyunda Germaniya SSSRga bostirib kirdi. Germaniyaning hujumi SSSR uchun kutilmaganda yuz berganligi I. Stalinning eng yirik xatolaridan biri bo'ldi.

Urushning to'satdan boshlanishi shunga olib keldiki, sovet aviatsiyasining katta qismi havoga ko'tarilishga ulgurmasdan aerodromlarda yo'q qilindi, qo'shinni boshqarish va ta'minlash tizimi izdan chiqdi.

Antigitler koalitsiyaning tuzilishi. Germaniya SSSRga hujum boshlashi bilan Buyuk Britaniya bosh vaziri U. Cherrill va AQSH prezidenti F.D. Ruzvelt sovetlar bilan birdamligini e'lon qildi.

1941-yil avgustda AQSH va Buyuk Britaniya urush payti va undan keyingi hamkorlik tamoyillari to'g'risida deklaratsiyani - Atlantik xartiyanı imzoladi. Bu hujjatni imzolagan tomonlar hududiy va boshqa boyliklarni egallab olishga intilmaslik, xalqlarning o'z boshqaruv shaklini erkin tanlash huquqini hurmat qilish, zo'ravonlik yo'li bilan suverenitetidan mahrum qilingan xalqlarning o'z huquqlarini tiklashga intilishini qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oldilar. 1941-yil sentabrda SSSR Atlantik xartiyaning asosiy tamoyillarini qabul qildi.

Tinch okeanida Yaponiya boshlagan jangovar harakatlar AQSHning urushga qo'shilishini va antigitler koalitsiyaning batamom shakllanishini tezlashtirdi.



Yaponiya AQSh harbiy -dengiz bazasiga hujum qildi

Pearl -Harbor. 1941-yil 7- dekabr.




1941-yil dekabrda AQSHning urushga qo'shilishi bilan antifashistik koalitsiya tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. Koalitsiya a'zolari va Uchlar ittifoqiga qarshi urushayotgan boshqa davlatlar hukumatlari Deklaratsiya

imzoladilar. Unda dushman ustidan g'alabaga erishish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish, separat sulh tuzmaslik majburiyatlari yuklandi, urushdan keyin dunyo tartibi Atlantik xartiya tamoyillari asosida o'rnatilishi belgilab qo'yildi.

Urushning borishi. AQSH urushga qo'shilishi bilan antigitler koalitsiya davlatlari moddiy va insoniy resurslarda so'zsiz ustunlikka erishdi. Biroq, urushning borishida buriilish birdaniga yuz bermadi. 1941-yil dekabrda nemis qo'shinlari Moskva ostonalarida jangni boy berdi va urushdagi dastlabki jiddiy mag'lubiyatga uchradilar. Ammo ularning hujumkorlik ruhi hali sindirilmagan edi.

1942-yil bahor-kuzida nemis qo'shinlari Volga daryosiga va Shimoliy Kavkazga chiqdilar. Afrikada German - Italyan qo'shinlari hamon Misrga xavf solib turardi, Yaponiya Malayziya, Birma, Filippin, Indoneziyani bosib oldi, yapon



qo'shinlari Hindiston va Avstraliya bo'sag'asida turardi. 1942-yil noyabrda sovet qo'shinlari Stalingrad ostonalarida qarshi hujumga o'tib, Volgaga chiqqan German qo'shinlarining katta guruhi - 22 ta diviziyasini qurshab oldi va tor-mor qildi. 1943-yil fevralda qurshovdagi nemis qo'shinlari taslim bo'ldi.

Stalingrad ostonalaridagi mag'lubiyat Uchlar ittifoqi davlatlari uchun halokatli bo'ldi. Germaniya o'z armiyasining jangovar qobiliyatini tiklash uchun yalpi safarbarlik e'lon qildi. Germaniyaning zaxiradagi barcha qo'shinlari Sharqiy frontga jalb qilindi, natijada ittifoqchilar 1943-yil may oyida Italyan - German qo'shinlarini Afrikadan to'liq quvib chiqishga erishdilar.

1944-yili Sovet Ittifoqi o'z hududini to'liq ozod qildi, sovet qo'shinlari Sharqiy Yevropaga kirib keldi. 1944-yili ittifoqchilar Fransiyaning shimoli-g'arbga qo'shin tushirib, Fransiya va Belgiyani ozod qildi. Urush Germaniyaning o'z hududlariga yetib keldi.



G'arbiy Yevropa mamlakatlarining Germaniya tomonidan bosib olinishi



XRONOLOGIYASI

Sana	Davlat
1940-yil 9 aprel	Daniya
1940-yil 9-14 aprel	Norvegiya
1940-yil 10-11 may	Lyuksemburg
1940-yil 10-15 may	Niderlandiya
1940-yil 10-28 may	Belgiya
1940-yil 10 may - 22 iyun	Fransiya
1941-yil 6-17 aprel	Yugoslaviya
1941-yil 6-23 aprel	Gretsiya



G'arbiy Yevropani egallab olish uchun Germaniyaga bir yildan ko'proq vaqt kerak bo'ldi. Biroq, u oz sonli qo'shinlarini yo'qotdi. Nima uchun rivojlangan sanoati bo'lgan Yevropa davlatlari Germaniyaga qarshilik qila olmadi?



Bolalar maktab xarobalaridagi kitoblarni to'playaptilar. Koventri shahri (Angliya).

Fashizmga qarshi kurashda Italyan - German qo'shinlari tomonidan zabt etilgan hududlardagi milliy-vatanparvar kuchlari - general de Goll boshchiligidagi «Ozod Fransiya» Qarshilik harakati, I.B. Tito boshchiligidagi Yugoslaviyaning ozodlik harakati katta rol o'ynadi.



Gitlerga qarshi koalitsiya a'zolari I. Stalin, F. Ruzvelt, V. Cherrill Tehron konferensiyasida. 1943-yil

Urush yillari gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o'zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya liderlarining uchrashuvlarida hal qilindi. Urush davomida shunday uchrashuvlar uchta - Tehronda (1943), Qrim (Yalta)da (1945-yil, fevral), Potsdamda (1945-yil, iyul-avgust) bo'lib o'tdi.



Kapitulatsiya - urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko'rsatishni davom ettirishdan voz kechishi.

Koalitsiya - umumiy maqsadga erishish uchun ayrim shaxslar, siyosiy partiyalar, davlatlar o'rtasida tuziladigan ittifoq.

Xartiya - majburiy kuchga ega bo'lmagan xalqaro aktning umumiy qoidolari va maqsadlarini ifodalaydigan hujjat.

Deklaratsiya - qandaydir muhim ma'lumotlar bayon qilingan ayrim rasmiy hujjatlarning nomlanishi.

Diviziya - yirik harbiy qism.

Evakuatsiya - urush harakatlari bo'layotgan hududdan odamlar, muassasalar, korxonalar va boshqalarning urush bo'lmayotgan xavfsiz hududlarga ko'chirilishi.



I. Bilimlarni sinash

1. Tarixiy hodisalarning (urushlar, inqiloblar va boshqalar) xarakterini nima belgilaydi?
2. Qaysi davlatlar eng agressiv ekspansionistik rejalarga ega edilar?
3. Sovet-fin urushining borishi va natijalari haqida gapirib bering.
4. 1939-yil sentabr – 1941-yil may oylarida Germaniya tomonidan bosib olingan mamlakatlarni ayting.
5. Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniyaning ittifoqchisi bo'lgan Yevropa davlatlarini ayting.
6. Fashistlar Germaniyasining tor-mor qilinishida dunyo davlatlarining o'rni qanday?
7. SSSRning Yaponiyaga qarshi urushga qo'shilishi Ikkinchi jahon urushining yakunlanishida qanday rol o'ynadi? Xirosima va Nagasaki shaharlariga tashlangan atom bombalari urushning yakuniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdimi?
8. Ikkinchi jahon urushining asosiy natijalari haqida gapirib bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Ikkinchi jahon urushining asosiy shartlari nimalardan iborat.
2. Dunyoning yetakchi davlatlarining kelajakdagi urushidagi asosiy ustuvor yo'nalishlari va maqsadlari qanday edi?
3. Ikkinchi jahon urushining asosiy bosqichlari nimalardan iborat.
4. Fransiyaning mag'lubiyat sabablarini aniqlang. Bu qanday oqibatlarga olib keldi?
5. Nega Germaniya Angliya bilan urushda g'alaba qozona olmadi?

III. Guruh muhokamasi uchun



1. Ko'pgina tarixchilar va xalqaro tashkilotlar Stalin rahbariyat va fashistlar Germaniyasi rahbarlarining fitnasi asosan Ikkinchi jahon urushining boshlanishini oldindan belgilab qo'ygan deb hisoblaydilar. Siz bu nuqtai nazarga qo'shilasizmi?
2. Sizningcha, qizil armiyaning Boltiqbo'yi respublikalari hududiga kirishi tajovuzmi?
3. "Barbarossa" so'ziga tarif bering? Nega aynan Germaniyaning SSSRga hujum rejasi aynan shunday atalgan?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Genotsid", "anneksiya", "jahon urushi" "ekspansiya" atama va tushunchalarini izohlang.
2. Yevropaning qaysi davlatlari fashistlar Germaniyasi tajovuzi qurboni bo'lganligini xaritadan aniqlang.
3. 1939-1940-yillarda SSSR tarkibiga qo'shib olingan hududlarni xaritadan ko'rsating.

V. Ijodiy vazifalar

1. Darslik materialidan, qo'shimcha tarixiy adabiyotlardan foydalanib, G'arbiy Ukraina, G'arbiy Belorusiya, Shimoliy Bukovina, Bessarabiya, Boltiqbo'yi davlatlari hududlarini SSSRga qo'shib olishning ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlashga harakat qiling.
2. Fashistlar Germaniyasi urushning birinchi bosqichida Yevropaning katta qismini egallab oldi. Sizningcha, Germaniyaning harbiy muvaffaqiyatiga qanday omillar yordam berdi?

16-§. Ikkinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari



Germaniyaning taslim bo'lishi. 1945-yil 16-apreldan 2-maygacha Berlin operatsiyasi amalga oshirilib, shu vaqt ichida Uchinchi reyxning poytaxti o'rab

olindi va shturm bilan zabt etildi. Reyxstag ustida sovetlarning qizil bayrog‘i o‘rnatildi.

1945-yil 8-may kuni Oliy bosh qo‘mondon o‘rinbosari G.K.Jukov Sovet Ittifoqi nomidan Germaniyaning so‘zsiz taslim bo‘lganligi to‘g‘risidagi aktni imzoladi. 9-may SSSRda «G‘alaba kuni» deb e‘lon qilindi.

Urush yillari SSSR tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston ham fashizmga qarshi kurashda faol ishtirok etdi. Harbiy xizmatga chaqirilganlarning bir qismi halok bo‘ldi, o‘n minglab kishilar bedarak yo‘qoldi, nogiron bo‘lib qaytdi. Frontda qahramonlik ko‘rsatgan yuzlab o‘zbekistonliklar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, orden va medallarga sazovor bo‘ldilar. Urush yillari front oldi hududlaridan 1 mln. dan oshiq kishi O‘zbekistonga evakuatsiya qilindi, shundan 200 mingdan oshig‘i bolalar edi. Ular o‘zbek oilalarida boshpana va mehr topdi.

Bundan tashqari, SSSRning frontga yaqin hududlaridan bir qancha sanoat korxonalari O‘zbekistonga ko‘chirib keltirildi. Ular front uchun harbiy mahsulotlar yetkazib berdi. Urush yillari o‘zbek xalqi juda katta matonat namunasini ko‘rsatdi.



1945-yil 6-avgustdagi atom bombasidan keyin Xirosima.

Yaponiyaning tor-mor qilinishi. 1945-yil 6-avgust kuni AQSH Yaponiyaning Xirosima va 9-avgust kuni Nagasaki shaharlariga atom bombalarini tashladi. Atom bombalari portlashi natijasida, asosan, tinch aholi halok bo‘ldi.

1945-yil Sovet Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirdi. 1945-yil 2-sentabr kuni Yaponiya so‘zsiz taslim bo‘lish to‘g‘risidagi pakti imzoladi. Ikkinchi jahon

urushi tugadi. Asosini fashistik Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya tashkil qilgan tajovuzkor davlatlar bloki tor-mor qilindi.

Ikkinchi jahon urushining oqibatlari. Ikkinchi jahon urushi qariyb olti yil davom etdi va insoniyatga juda katta kulfatlar keltirdi. 110 mln. kishi urushga safarbar qilindi. 60 - 65 mln. kishi halok bo'ldi, ular orasida harbiy xizmatchilar bilan birga millionlab tinch aholi ham bor edi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi. Antifashist koalitsiya davlatlari urushdan keyingi dunyo tuzilishi tamoyillari to'g'risidagi o'z qarashlarini 1945-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavida bayon qildilar. BMT Ustavi ko'plab xalqlar kurashining mazmuniga aylangan va Yer yuzidagi barcha xalqlarning tinchlik va tenglikda yashash tamoyillari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni e'lon qildi.

Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari. Germaniyaning Nyurnberg shahrida 1945-yil noyabrdan 1946-yil oktabrgacha fashist rahbarlari ustidan sud jarayoni bo'lib o'tdi. Unda Germaniyaning asosiy siyosiy va harbiy rahbarlari jazoga hukm qilindi. Tribunal natsistlar partiyasining rahbariyatini, SS (qo'riqlash qo'shini), SD (razvedka va kontrrazvedka) kabi hujumkor otryadlarni va gestaponi (siyosiy politsiya) jinoyatchi tashkilotlar deb e'lon qildi.

1946-yil maydan 1948-yil noyabrgacha Yaponiya poytaxti Tokio shahrida yapon agressiyasidan aziyat chekkan davlatlar vakillaridan tashkil topgan Xalqaro harbiy tribunal urushda aybdor deb topilgan yapon harbiy jinoyatchilari ustidan hukm chiqardi.

Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari tajovuzkorlik, urushlar hamda tinchlik va insoniylikka qarshi boshqa jinoyatlarda aybdor bo'lgan bosh harbiy jinoyatchilar ustidan o'tkazilgan tarixda birinchi sud jarayoni bo'ldi. Tajovuzni, harbiy jinoyatlarni, tinch aholiga nisbatan terrorni qoralagan sud qarorlari faqat bosh harbiy jinoyatchilarni jazolab qolmasdan, xalqaro huquqning ham muhim manbayiga aylandi. Tarixda birinchi marta davlat, hukumat yoki armiya boshlig'i maqomi kishilarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmasligi xalqaro miqyosda tan olindi.



Gestapo - davlat maxfiy politsiyasi; fashistlar Germaniyasida o'zgacha fikrlovchilarga qarshi kurashish uchun tuzilgan kuch ishlatuvchi tashkilot.

Tribunal - favqulodda, ko'pchilik hollarda harbiy sud.

Anshlyus - qo'shib olish, ittifoq. Avstriyaning Germaniya tarkibiga qo'shib olinishiga nisbatan qo'llaniladi.



V. Cherhillning "Ikkinchi jahon urushi" (1948-1953) asaridan.

Sovetlar foydasiga shuni aytish kerakki, Sovet Ittifoqi nemis qo'shinlarining boshlang'ich pozitsiyalarini imkon qadar g'arbga surib qo'yishi, ruslar vaqt topishi va har tomondan kuch to'plashi uchun juda muhim edi.

1914-yilda nemislarga qarshi hujumga otlangan ularning qo'shinlari boshdan kechirgan falokatlar hali safarbarlikni tugatmagan ruslar ongiga qizg'in temir bilan muhrlanib qolgan edi. Va endi ularning chegaralari birinchi urush davridagidan ancha sharqda edi. Ularga hujum qilishdan oldin nemislar Boltiqbo'yi davlatlari va Polshaning ko'p qismini zo'rlik yoki hiyla yo'li bilan bosib olishlari kerak edi....



I. Bilimlarni sinash

1. Urush natijalari undan keyingi o'n yillar jahon taraqqiyotining qanday yo'nalishini belgilab berdi?
2. BMTning tuzilishi urushdan keyin dunyoda tinchlikni saqlashda qanday rol o'ynadi?
3. Nyurnberg va Tokio xalqaro sudlarining qarorlari qanday siyosiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1945-yil aprel oyida AQSHning yangi prezidenti kim bo'ldi?
2. Berlin operatsiyasining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat.

3. AQSH Xirosima va Nagasakini atom bombasi bilan bombardimon qilishdan qanday maqsadlarni ko'zlagan edi?
4. BMTni tuzishdan qanday maqsadlar ko'zlangan?
5. Tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun BMTning qaysi ixtisoslashgan organi asosiy mas'uliyatni zimmasiga oladi?
6. Qrim konferensiyasining asosiy qarorlarini ayting.

III. Guruh muhokamasi uchun



Nega O'zbekistonda 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanadi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Front" atamasiga ta'rif bering.
2. Xaritadan Ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasida Yevropa davlatlari hududi haqida sharh yozing.
3. 1944- yilgi asosiy urush frontlarini xaritadan ko'rsating.

V. Ijodiy vazifalar

1. Said Ahmadning «Ufq» romanining «Hijron kunlarida» deb nomlangan qismini o'qing va «Davr bilan dialog» mavzusida insho yozing.
2. Darslik materiallaridan, qo'shimcha tarixiy materiallardan foydalanib, Sovet-Germaniya frontining Ikkinchi jahon urushi borishi uchun ahamiyatini aniqlang.

17-§. O'zbekistonning fashizmga qarshi kurashda faol ishtiroki



O'zbekistonliklarning frontdagi qahramonliklari. 1941-1945-yillarda bashariyat boshiga mislsiz kulfatlar yog'dirgan Ikkinchi jahon urushi frontlarida O'zbekistonlik jangchilar ham tarifga sig'mas qahramonligini namoyon etgan.

O'zbekiston mudofaaning moddiy ehtiyojini ta'minlashda ham nimaiki zarur bo'lsa, barchasini ayamay sarfladi. Chunonchi, urush yillarida aholi tomonidan mudofaa jamg'armasiga 649,9 mln. so'm naqd pul, 4 mlrd. 226 mln. so'm zayom puli, 52,9 kg. oltin va kumush topshirildi.

Shuningdek, O'zbek xalqi Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldaviya va boshqa joylardan ko'chirib keltirilgan o'n minglab kishilarga boshpana berib, mehribonlik va g'amxo'rlik namunalari ko'rsatdi. Jang bo'layotgan hududlardan ko'chirilgan bir million shaxs boshpana, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta'minlandi. Minglab yetim bolalarni o'zbek oilalari o'z qaramog'iga oldilar, farzandlaridan kam ko'rmay tarbiyaladilar. O'zbek xalqi jangga ketgan turli millat vakillarining oilalaridan ham moddiy yordamini ayamadi.

1943-1944-yillarda ozod qilingan yerlarga O'zbekistondan 13 000 dan ortiq temiryo'l mutaxassisi, hunar bilim yurtlaridan 15 000 yosh yigit sobiq Leningrad, Kiyev va Dunayga yo'l oldi.



Mamlakat xo'jaligining harbiy izga o'tishi. O'zbekiston sanoat sohasida ham katta ishlarni amalga oshirib, Rossiya, Ukraina va boshqa joylardan ko'chirib keltirilgan o'nlab korxonalarni joylashtirib, ularning ishchi-xizmatchilarini boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minladi.

O'zbekistonda harbiy sohada ham beqiyos ishlar amalga oshirildi. Xususan, Respublikada 15 diviziya va brigada tuzilib, ularda o'zbeklar salmoqli o'rinni egaladilar. O'sha harbiy qismlardan tashqari o'n minglab navqiron yigit harakatdagi armiya saflariga yuborildi. Toshkentdagi harbiy bilim yurtlari front uchun bir necha ming komandir va siyosiy xodimlarni tayyorladi.

Urushning dastlabki oylarida Toshkent shahrining o'zidan 100 ming yigit va qisman ayollar harbiy xizmatga jalb qilindi. O'zbeklar Moskva, Stalingrad, Kavkaz, Qrim, Kursk, Dnepr, Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi janglarda qatnashib, Berlingacha bordilar. Shuningdek, Yaponiya bilan urushda ham ishtirok etishgan, partizan urushlarida mardonavor kurashdilar.

Shu tariqa O'zbek xalqi Ikkinchi jahon urushida fashistlarni tor-mor etishga molini ham, jonini ham tikdi. Bamisoli topgan bitta nonini to'rtga bo'lib, bittasini o'ziga, qolganini bevosita frontga, so'ng respublikaga ko'chirib keltirilganlarga, jangga ketganlarning oilalariga, harbiy gospitalarga, fashistlardan ozod qilingan hududlarning och-nochor aholisiga berdi.

Ayni paytda bir milliondan oshiq farzandlari fashistlarga qarshi janglarda mardonavor kurashdi. Ulardan bir necha yuz ming kishi halok bo'ldi va jarohatlandi.

Bevosita janglarda 27 mln.kishining yostig'i qurigan, boshqa talafotlarni ham qo'shganda 30 mln. kishi nobud bo'lgan Ikkinchi jahon urushi O'zbek xalqiga ham beqiyos katta talofat keltirdi. Minglab ayollar beva va bolalar yetim bo'lib qoldilar. Ota-onalar farzandlari dog'ida qayg'u-alam bilan bu dunyodan ko'z yumdilar.

Bu ma'lumotlar botir jangchilar, sabrli o'zbek xalqi Ikkinchi jahon urushida yuksak jasorat ko'rsatganligidan dalolat beradi.

1941- yilning oxirlariga kelib 300 zavod va fabrika front uchun mahsulot berayotgan edi. Bundan tashqari elektr energiyasi, yoqilg'i bazalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekiston mehnatkashlari milliy harbiy qismlarni respublika hududida tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941-yilning 13- noyabrida milliy harbiy qismlar tuzildi.

Shundan keyin respublikamizda ko'plab bunday qismlar tuzilib, ularning jangchilari jang maydonlarida mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatdilar.

Mehnatga yaroqli erkaklarning deyarli aksariyati frontga safarbar etilganligi uchun o'z mahsulotlari bilan front ehiyojlarini qondirishi havodek zarur bo'lgan respublika zavob va fabrikalarida ishchi kuchi, ayniqsa malakali injener-texnik xodimlar yetishmas edi. Bu muammoni hal qilish maqsadida respublikada bir qancha hunar bilim yurtlari qisqa muddatli kurslar, oliy o'quv yurtlari yangidan tashkil qilindi.

Shunday qilib,O'zbekiston aholisi Ikkinchi jahon urushi yillarida gitlerchilar Germaniyasining sobiq Sovet ittifoqiga qilgan yovuzlarcha hujumini, o'z boshiga tushgan fojia, og'ir hayot mamot sinovi deb baholab, o'zlarining barcha kuch va imkoniyatlarini Vatan himoyasiga qaratdilar.



Diviziya (lot. divisio — bo‘linish) — ko‘pgina davlatlarning turli xildagi qurolli kuchlari va qo‘shin turlarida asosiy taktik birlashma. Birinchi bo‘lib, diviziya XVII asrda Fransiya, XVIII asrning boshlarida Rossiyada paydo bo‘ldi. Diviziya polklar (brigadalar) yoki batalonlar, shuningdek, turli qo‘shin turlarining qism va bo‘linmalaridan va maxsus qo‘shinlaridan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida qo‘shinlarni diviziyaga ajratish yo‘q.



I. Bilimlarni sinash

1. O‘zbekistonlik jangchilar qayerlarda mardonavor janglarda qatnashganlar?
2. Milliy harbiy qismlar qachon tuzilgan?
3. Ikkinchi jahon urushida qancha o‘zbekistonlik jangchilar qatnashgan?

II. O‘quv materialini tizimlashtirish

O‘zbekiston tarixi darsligidan foydalanib, urushda O‘zbekistondan kimlar Sovet ittifoqi qahramoni ordenini olganligini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun



Nega birinchi jahon urushi boshlanganda Turkistondan armiyaga mahalliy aholi chaqirilmagan edi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “Front orti” “injener-texnik” atamalariga tarif bering.
2. Qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib, o‘zbekistonlik jangchilarning ikkinchi jahon urushida qaysi hududlarda janglarda qatnashganligini aniqlab, uni dunyo xaritasiga belgilang.

V. Ijodiy vazifalar

1. O‘tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan olingan quyidagi qatrani o‘qing va daftaringizga mavzu bilan bog‘lagan holda esse yozing: «Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g‘olib va baxtli davlat, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi. Negaki, urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘lmaydi».

2. “O‘zbekistonliklarning frontdagi qahramonliklari” mavzusida insho yozing

**18-§. Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlar:
«Sovuq urush»ning boshlanishi**



Antigitler koalitsiya a'zolari urushda g'alaba qozonib, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida yangi sahifani ochganlarida, bu sahifaga nimalar yoziladi-yu, uning mazmuni qanday bo'lishini hali hech kim ayta olmasdi. Ammo bor-yo'g'i 30 yil ichida insoniyat tarixidagi eng dahshatli ikkita urushga bevosita guvoh bo'lgan dunyo xalqlarini tinch-totuv yashash istagi, tinch rivojlanish orzusi birlashtirib turardi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng, SSSR va AQSh dunyodagi eng katta ta'sirga ega edi. Dunyoning urushayotgan ijtimoiy -siyosiy tizimlarga - kapitalistik va sotsialistik bo'linishi bilan tavsiflangan xalqaro munosabatlar tizimi shakllandi. Ular o'rtasidagi qarama -qarshilik va ziddiyatlar Sovuq urush nomi bilan tarixga kirdi. Va SSSR va sotsialistik tuzumning yo'q qilinishi bilan yakunlandi. Mustamlaka tizimining parchalanishi zamonaviy tarixda ajoyib voqeaga aylandi. Sobiq mustamlakachi mamlakatlar rivojlanayotgan yoki "uchinchi dunyo" davlatlari deb ataldi.



Birinchi jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlar qaysi shartnomalar asosida tartibga solingan edi?

«Sovuq urush»ning boshlanishi. Dunyoni hududiy qayta bo'lish uchun olib borilgan ikkita jahon urushlaridan so'ng dunyodagi kuchlar nisbatida katta o'zgarishlar yuz berdi. G'arbning liberal-demokratik davlatlari bilan SSSR o'rtasida ziddiyatlar kuchayib bordi. Urushdan so'ng AQSH sovet - Amerika munosabatlari tarixida birinchi marta SSSRga qarshi yadro qurolini qo'llashi mumkinligi bilan tahdid qildi. Iste'foda bo'lsa-da, urush yillari katta

obro‘ orttirgan U. Cherchill 1946-yil martda AQSHning Fulton shahrida Vestminster kolleji tinglov-chilari oldida so‘zga chiqib, AQSHga «tinchliksevar xalqlarning sovet tajovuziga» qarshi kurashiga boshchilik qilishni taklif qildi. U. Cherchill ushbu nutqida qo‘llagan «temir parda» iborasi uzoq vaqt G‘arb bilan Sharq o‘rtasidagi ramziy chegara bo‘lib qoldi.



V. Cherchillning Vestminsterdagi ma'ruzasi
Fultondagi kollej (AQSh). 1946 y.


AQSh ma'muriyati nomidan "Marshall rejasi" (yoki Yevropani qayta tiklash dasturi) 1947-yil 5-iyunda Garvard universitetida AQSh Davlat kotibi J. Marshall tomonidan e'lon qilingan. Unda:

- Yevropa davlatlariga yordam ko'rsatish;
- Yevropa davlatlari bilan savdo to'siqlarini kamaytirish va birinchi navbatda import uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha hamkorlik qilish;
- AQShning davlat va xususiy investitsiyalarini rag'batlantirish kabi rejalar kirar edi

Sovet diplomatiyasi «**Marshall rejasi**»ni rad etdi. Sovetlar «Mar shall rejasi»ni SSSRning Sharqiy Yevropadagi ta'siriga navbatdagi xavf, Amerika kapitalining Yevropani egallash uchun urinishi, deb baholadi. Voqealarning keyingi rivoji bu baho uncha to'g'ri emasligini ko'rsatdi. Yevropaning ikki guruhga, bir tomondan, «Marshall rejasi»ni qabul qilgan va AQSH bilan yaqinlashuv yo'lini tanlagan davlatlar, ikkinchi tomondan, taraqqiyotning sotsialistik yo'lini va SSSR bilan hamkorlikni tanlagan davlatlarga bo'linishi ancha uzoq davom etgan qarama-qar-shilikni boshlab berdi. Yevropa qit'asida, keyin esa butun dunyo miqyosida bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy

ittifoqlar tizimi shakllandi. Dunyoning eng katta davlatlari - AQSH va SSSR bu ittifoqlarning markazlariga aylandi.

1949-yil yanvarda SSSR va Sharqiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari iqtisodiy ittifoq - O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK) tuzilganligini e'lon qildilar. O'z navbatida G'arb davlatlari 1949-yil aprelda Shimoliy Atlantika Shartnomasi tashkiloti (NATO) deb ataluvchi harbiy-siyosiy tashkilotni tuzdilar. NATOga javob tariqasida 1955-yili SSSR va Sharqiy Yevropa davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqi - Varshava Shartnomasi Tashkiloti tuzildi.



Hozirda bu tashkilotlar mavjudmi? Bu zamonaviy dunyodagi geosiyosiy vaziyatga ta'sir qiladimi?

Mustamlaka tizimining qulashi. Mustamlaka tizimining qulashi va yangi, mustaqil davlatlarning tashkil topishi jahon taraqqiyotidagi ikki qutbli tizimga berilgan kuchli zarba bo'ldi. 1950-yillardayoq bu mamlakatlar o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlash uchun xalqaro maydonga chiqdilar va keyinchalik «uchinchi dunyo mamlakatlari» nomini oldi. Bu hol qo'shilmaslik harakati paydo bo'lishi uchun zamin yaratdi.

Yangi davlatlarning ko'pchiligi o'z taraqqiyot yo'lini na SSSR va na AQSH bilan qattiq bog'lashni istamadilar.

Keyin bu tendensiya yanada rivojlandi: Iosif Broz Tito, Javoharlal Neru, Jamol Abdul Nosir tashabbusiga ko'ra mustamlakachilikdan ozod bo'lgan mamlakatlar 1961-yili Qo'shilmaslik harakatini tashkil qildilar.



Chapdan o'ngga: G. A. Nosir, J. Neru, I. Broz Tito

1970-1980-yillardagi xalqaro munosabatlar. 1970-yillari xalqaro munosabatlardagi keskinlik biroz yumshadi. 1963- yil quruqlikda, havoda va suv ostida yadroviy sinovlarni taqiqlovchi shartnoma, 1968-yil Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma, 1972-yili SSSR bilan AQSH o'rtasida strategik qurollarni cheklash bo'yicha birinchi shartnoma (SQCH-1) va 1975-yili Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashining Yakunlovchi akti imzolandi. Bu hujjat shartnoma emasdi, ammo katta axloqiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi, zotan u xalqaro munosabatlarda yangi taraqqiyparvar normalarni o'rnatdi. Shunday holatda 1979-yili SSSR va AQSH o'rtasida SQCH-2 shartnomasi imzolandi.

1979-yil dekabrda Afg'onistonga sovet qo'shinlari kiritildi va xalqaro munosabatlarda yana keskinlik boshlandi. Bu keskinlikni yumshatish, ikki tomonni ham qanoatlantiradigan munosabatlar shaklini topish uchun ilk harakatlar SSSR va AQSH liderlari M.S.Gorbachev va R. Reyganning 1980-yillari Jeneva va Reykyavikdagi uchrashuvlarida boshlandi. Bu uchrashuvlar biron-bir shartnoma imzolanishi bilan yakunlanmagan bo'lsa-da, ikkala tomonning ham insoniyatni yadro urushi xavfidan xalos qilishga bo'lgan intilishini namoyon qildi.



Yevropada xavfsizlik va hamkorlik to'g'risida
yakuniy aktining imzolanishi
Xelsinki, 1975 yil 1 -avgust.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab 1990-yillarning boshlarigacha xalqaro munosabatlarda faollik va iliqlik davri bo'ldi.



V. Cherrillning "Dunyo mushaklari" nutqidan. 1946-yil 5-mart, Fulton (AQSh)

.....Hech kim yaqin kelajakda Sovet Rossiyasidan va u rahbarlik qilayotgan xalqaro kommunistik hamjamiyatdan nimani kutish mumkinligini va nima bo'lishini ayta olmaydi, ularning ekspansionistik intilishlarining chegaralari va butun dunyoni o'z e'tiqodlariga aylantirishga doimiy sa'y -harakatlari bo'lgan...

Boltiqbo'yidan Adriatikadagi Triestgacha butun qit'ada cho'zilgan temir parda Yevropaga tushdi.



V. Cherrillni nima tashvishga solgan? U qanday "temir parda" haqida gapirgan?



Marshall rejasi - Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH Davlat kotibi Jorj Marshall tomonidan Yevropa mamlakatlarini tiklash bo'yicha taklif qilingan reja.

NATO - Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti. Ayrim Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari tomoni dan Ikkinchi jahon urushidan so'ng tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq.

Varshava Shartnomasi Tashkiloti - Ikkinchi jahon urushidan so'ng SSSR va Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlar tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq.



I. Bilimlarni sinash

1. Sovuq urush davrining davriyligini keltiring.
2. Urushdan keyingi davrda AQSH va SSSRning tashqi siyosiy maqsadlari qanday edi?
3. Xalqaro keskinlikni yumshatish siyosatining zaruriy shartlari nimalardan iborat edi?
4. Urushdan so'ng SSSR va AQSH o'rtasidagi asosiy ziddiyatlar nimalardan iborat edi?
5. «Marshall rejasi» va AQSH bilan SSSRning Yevropadagi iqtisodiy raqobati qanday natijalarga olib keldi?
6. 1970 - 1980-yillarda xalqaro munosabatlardagi asosiy voqealar nimalardan iborat edi? AQSH va SSSR o'rtasida imzolangan shartnomalar jahonda tinchlikni saqlashda qanday rol o'ynadi?
7. «Sovuq urush»ga xotima yasagan yangicha siyosiy tafakkurning asosiy prinsiplari nimalardan iborat edi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. «Sovuq urush»ning vujudga kelishining asosiy shartlari nimalardan iborat.
2. 1945-1960-yillarda AQSH va SSSR o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday kuchaydi?
3. Xalqaro keskinlik pasayganligidan qanday faktlar guvohlik berdi?
4. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Xelsinki konferensiyasida xalqaro munosabatlarning qanday asosiy tamoyillari ishlab chiqildi?

III. Guruh muhokamasi uchun



1. Mavjud vaziyatni yumshatish siyosatining barbod bo'lishiga qanday omillar sabab bo'ldi?

2. Nima uchun, sizning nuqtai nazarangizdan, bu davrda bu qaytarib bo'lmaydigan jarayonga aylanmadi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “Sovuq urush”, “doktrina” atama va tushunchalarini izohlang.
2. 1980-yillar o'rtalarida NATO va Varshava shartnomasi mamlakatlarini xaritadan ko'rsating.

V. Ijodiy vazifalar

1. Ikkinchi jahon urushining asosiy natijalari nimalardan iborat? Sizningcha, insoniyat o'z tarixidan nimani o'rganishi kerak edi?
2. BMT zamonaviy dunyoda qanday rol o'ynaydi?



Sovuq urush haqida qisqacha

Sovuq urush atamasining birinchi bor ishlatilishi Jorj Oruellga borib taqalsa ham, sovuq urushning boshlanishi deb 1946-yil qaraladi. Uinston Cherchillning Fultondagi nutqi bu urushning boshlanish vaqti sifatida qabul qilinadi. Sovuq urush 1946-yildan boshlanib, SSSR ning parchalanish davrigacha davom etgan. Uinston Cherchill Fultondagi nutqida ingliz zabon xalqlarni yagona blokka birlashishga chaqirgan. U SSSR dunyoga hukmron bo'lishga urinayotgani va bunga qarshi birlashishga chaqirgan. Stalin esa bu nutqdan bir hafta keyin “Pravda” gazetasiga bergan intervyusida Cherchillni g'arb davlatlarini SSSRga qarshi urush ochishda targ'ib qilganlikda ayblab, uni Gitler bilan bir qatorda qo'ygan. Shu voqeadan so'ng SSSR va g'arb, asosan AQSH o'rtasida hamma sohada raqobat boshlanib ketadi.....

V BOB. 1946-1991-YILLARDA JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI

19-§. 1946-1991-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari



Ikkinchi Jahon urushi paytida AQSH boshqa G'arb davlatlariga qaraganda ozgina qurbonlarga uchradi. AQSH urushdan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli chiqdi. Ular kapitalistik dunyodagi sanoat ishlab chiqarishining yarmidan ko'pini tashkil etdi. AQSH atom qurollariga monopoliyaga ega edi. Amerika harbiy bazalari butun dunyo bo'ylab tarqalgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan AQSH uchun juda qulay sharoit vujudga keldi. Paydo bo'lgan qulay imkoniyatlardan foydalangan AQSH yangi bozorlarni egallab oldi. Tovarlar eksport qilishni, undan ham ko'proq ilmiytexnik imkoniyatini oshirdi. AQSH G'arb dunyosining siyosiy, iqtisodiy va harbiy yetakchisiga aylandi.



Birinchi jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlarda AQSH qay tariqa muhim o'rin tuta boshladi?

Iqtisodiy rivojlanish. Urushdan keyingi yillarda ilk bor AQSHda harbiy ishlab chiqarishning konversiyasi amalga oshirildi. 1940-yillarning oxiridan boshlab barqaror va to'xtovsiz o'sish AQSH iqtisodiy tizimining o'ziga xos jihati bo'lib qoldi. 1950-yillarda AQSH iqtisodiyoti boshqa G'arb davlatlari iqtisodiyotiga nisbatan sekin o'sganligiga qaramasdan, u barcha ko'rsatkichlar bo'yicha haqiqiy iqtisodiy yetakchi bo'lib qolaverdi.

1960-yillari prezidentlar Jon Kennedi va Lindon Jonson ma'muriyatlari iqtisodiy o'sishni jadallashtirish sari yo'l tutdilar. Ishlab chiqarishni ommaviy

avtomatlashtirish amalga oshirildi. Iqtisodning energetika, elektronika va kimyo sanoati, avtomatlashtirish va aloqa vositalarini hamda turli asboblarni ishlab chiqarish yetakchi sohalarga aylandi.

1970-yillar boshiga kelib iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashdi. Amerika valutasiga nisbatan ishonchsizlik kuchaydi. G'arb davlatlari jiddiy iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. Bu inqiroz boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan AQSHda ancha og'ir kechdi.

1980-yilgi prezidentlik saylovlarida g'alaba qozongan Ronald Reygan ma'muriyati inqirozdan chiqish yo'llarini topishga urinib, davlatning iqtisodga aralashuvini chekladi, sarmoya kiritish uchun katta soliq imtiyozlari joriy qildi. Xususiy tashabbus rag'batlantirildi. Bu va boshqa bir qator tadbirlar «Reyganomika» nomini oldi. «Reyganomika» AQSH uchun yaxshi natijalarga olib keldi. Inflatsiya pasaydi, ishsizlik kamaydi, iste'mol buyumlariga talab ortdi. Chet el kapitalining kirib kelishi ancha kuchaydi.

1990-yillar boshida AQSH iqtisodiyotida qisqa muddatli retsessiya kuzatildi. O'sish sur'atlarining pasayishi xo'jalikning hamma jabhalarini qamrab oldi.

Siyosiy rivojlanish. 1940-yillar oxiri - 1950-yillar boshi AQSHda siyosiy reaksiyaning avj olishi bilan xarakterlanadi. Bu ko'p jihatdan boshlangan «sovuq urush» bilan bog'liq edi. 1952-yilgi saylovlarda respublikachilar partiyasidan nomzod Duayt Eyzenxauer g'olib chiqdi. AQSH hukumatini u boshqargan dastlabki yillarda reaksiya yanada kuchaydi. Mamlakatda makkartizm avj oldi. Senator Jozef Makkarti davlat organlarida josuslar va kommunistlarni aniqlash uchun tekshiruvlar olib bordi. J. Makkarti faoliyatini ko'pgina reaksion tashkilotlar qo'llab-quvvatladi.

1960-yillari fuqarolar tengligi uchun harakat o'zining eng yuqori nuqtasiga yetdi. Ko'plab joylarda qora tanlilarning g'alayonlari bo'lib o'tdi. Bunga qarshi o'ta o'ng harakat vakillari siyosiy qotilliklarni amalga oshira boshladilar.

1963-yili AQSH prezidenti Jon Kennedi, 1968-yili qora tanlilar tengligi uchun harakatning eng mashhur arbobi, Nobel tinchlik mukofoti sovrindori, ruhoniylar Martin Lyuter King Memfisda o'ldirildi. 1960-yillardagi fuqarolar

huquqlari uchun harakatning o'ziga xos tomoni shundaki, u ommaviy ijtimoiy norozilik harakatlari bilan bir paytga to'g'ri keldi. Bu harakat vakillari, ayniqsa, AQSH Vyetnamda olib borayotgan urushga qarshi keskin norozilik namoyishlarini uyushtirdi. Shunday qilib, 1960-yillar ijtimoiy-siyosiy burilishlar davri bo'ldi.

Respublikachilarning hokimiyatga qaytishi Amerika jamiyatiga to'liq barqarorlik olib kelmadi. Demokratlar partiyasining Uotergeyt mehmonxonasidagi saylovoldi shtabiga respublikachilar vakillari tomonidan xufiya eshitish vositalarining o'rnatilishi «*Uotergeyt ishi*» nomli siyosiy janjalga aylanib, prezident Richard Niksonning impichmentiga (iste'fosiga) olib keldi. Hokimiyatning yuqori qatlamida korrupsiya hollari ko'paydi. Bularning hammasi ijro va qonunchilik hoki- miyatiga amerikaliklarning ishonchini so'ndirdi.

1980-yillar - 1990-yillarning boshlari neokonservatizm g'oyasi tantanasi davri bo'ldi. Bu yillarda AQSH ichki taraqqiyotda ham, xalqaro maydonda ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi.



***Jon Kennedi** (1917-1963) Bruklinda irland katoliklarining hurmatli oilasida tug'ilgan. London iqtisodiyot maktabi va Garvard universitetini tamomlagan. Urush paytida u Tinch okeanidagi AQSh dengiz flotida xizmat qilgan. 1953- yilda u senator bo'ldi. 1960- yil noyabr oyida u AQSh prezidenti etib saylandi. J. Kennedi tomonidan olib borilgan kurs AQShdagi o'ta o'ng irqchi doiralarning shiddatli hujumlarini keltirib chiqardi. 1963-yil 22-noyabrda J.Kennedi Dallasda (Texas) o'ldirildi.*

Tashqi siyosat. Jahonda yetakchilik mavqeyini egallab olgan AQSH Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda ikkita tamoyilning uyg'unligiga asoslangan faol tashqi siyosat olib bordi. **Birinchidan**, AQSH kuch yordamida o'zlariga ma'qul bo'lmagan o'zgarishlarga qarshilik qildi. **Ikkinchidan**, qarshilik qilish mumkin bo'lmagan hollarda ularga moslashib, bu o'zgarishlardan saboq olishga intildi. Jahonda o'z gegemonligini o'rnatishga uringan AQSH, yer yuzining

barcha mintaqalarida xalqaro munosabatlarga faol aralashdi. Ko'p marta o'z manfaatlarini ta'minlash uchun G'arb demokratiyasini himoya qilish bahonasida boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuchdan foydalandi. Masalan, 1965 - 1973-yillari AQSH Vyetnamda faol urush harakatlarini olib bordi.

SSSRni o'zining asosiy mafkuraviy, siyosiy va harbiy raqibi deb hisoblagan AQSH «sovuq urush» yillarida uzoq vaqt SSSRga va uning ittifoqchilariga qarshi harakat qilib, ko'plab iqtisodiy, siyosiy va harbiy ittifoqlarni tashkil qildi.

SSSRda M.S.Gorbachyov boshchiligida yangi siyosiy rahbariyatning hokimiyatga kelishi bilan sovet - Amerika munosabatlarida jiddiy ijobiy o'zgarishlar boshlandi. Ayniqsa, Strategik hujum qurollarini cheklash va qisqartirish to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Boshqa ko'plab sohalarda ham sovet - Amerika munosabatlari yaxshilandi. Shunday holat 1991-yil SSSR tarqalib ketgunga qadar davom etdi.



Martin Lyuter King nutqidan "Menda bor orzu ". 1963-yil 28 – avgust.

Yuz yil oldin buyuk amerikalik ... qora tanlilarning ozod qilinishi haqida Proklamga imzo chekdi ... Lekin yuz yildan keyin biz negrlarning hammasi fojiali haqiqatni tan olishga majburmiz hali ozod emas ... negrning hayoti, afsuski, hali hamon segregatsiya va kamsitilish kishanlari bilan nogiron qora tanli qashshoqlik orolida yashaydi moddiy farovonlikning ulkan okeani ... qora tanli odam hali ham Amerika jamiyatining chekkasida qolib, o'z yurtida quvg'inda ...



- 1.Qachon AQShda qullik bekor qilinganini eslang. Nega Qo'shma Shtatlardagi afroamerikaliklar huquqlaringizni himoya qilishga majbur bo'lishdi ?
- 2.AQShdagi afroamerikaliklar va boshqa milliy ozchiliklarning hozirgi holati haqida nima deya olasiz?
3. M. L. Kingning “Mening orzuim bor” (1963) nomi bilan tanilgan nutqida King qanday erkinlikni nazarda tutgan edi? Va u qanday jamiyatni orzu qilgan?



Inflatsiya - qog'oz pulning qadrsizlanishi.

Retsessiya (chekinish) - bu atama iqtisodiyotda ishlab chiqarishning nisbatan mo'tadil pasayishini yoki iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvini bildiradi.

Gegemon (rahbarlik, hukmronlik) - hukmron bo'lishga, boshqa davlatlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilish uchun intilishga asoslangan siyosat.

Konversiya (aylantirmoq, o'zgartirmoq) - harbiy sanoat komp leksi korxonalarini xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga o'tkazish. Urushdan keyin sanoatni tinchlik davriga moslab qayta qurish.



I. Bilimlarni sinash

1. Ikkinchi jahon urushi tugagach, AQSH G'arb dunyosida yetakchi davlatga aylandi. AQSh ta'sirining kuchayishini qanday izohlash mumkin?
2. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin AQSH tashqi siyosatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat edi?
3. Nima uchun "Marshall rejasi"ning amalga oshirilishi AQSHning jahondagi rolini sezilarli darajada kuchaytirdi?
4. AQSH prezidenti lavozimida ishlashning to'g'ri ketma-ketligini ko'rsating: L.Jonson, R.Nikson, J.Kennedi, J.Karter, J.Ford.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Urushdan keyin AQSH iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos tomonlari to'g'risida gapirib bering.
2. AQSHda makkartizm siyosati nimaga qaratilgan edi?
3. Prezident R. Nikson qanday islohotlarni amalga oshirdi?
4. «Reyganomika» nima va R.Reygan davridagi iqtisodiy o'sishning sabablari nimada edi?
5. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH tashqi siyosati qanday asosiy prinsiplarga tayandi?

6. XX asrning 80-yillarida Sovet Ittifoqi va AQSH munosabatlari haqida nimalar bilasiz?

III. Guruh muhokamasi uchun



1950-yillarda AQShda “kommunistik tahdid” haqiqatan ham mavjudmi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Atamalarni izohlang: “makkartizm”, “segregatsiya”, “impichment”
2. Xaritadan Marshall rejasi bo'yicha yordam olgan Yevropa mamlakatlarini ko'rsating.

V. Ijodiy vazifalar

1. Mavzuga doir asosiy tushunchalarni lug'at yordamida ingliz tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.
2. Amerika Qo'shma Shtatlarining siyosiy xaritasi bilan tanishing va tarixiy voqealar bilan bog'liqlikda sharh yozing.
3. n.ziyouz.com saytidan Teodor Drayzerning «Amerika fojeasi» romanini ko'chirib oling va o'qing hamda mustaqil ravishda «Amerika» mavzusida besh qatorli she'r (sinkveyn) tuzing.

20-§.1946-1991-yillarda Sovet Ittifoqi



Urushdan keyin SSSRda totalitar tuzumning kuchayishi. Sovet xalqlariga juda katta kulfat olib kelgan Ikkinchi jahon urushi yakunlandi. Urushda 27 mln. sovet fuqarolari halok bo'ldi, 12,5 mln. kishi nogiron bo'lib qoldi, mamlakat juda katta moddiy zarar ko'rdi.

Xalqaro miqyosda SSSRning roli keskin oshganligiga, u dunyoning qudratli davlatlaridan biriga aylanganiga qaramasdan, urush sovet xalqi uchun juda qimmatga tushdi. Shunchalar ko'p hudud vayron qilindiki, ularni tiklash bir necha o'n yillarga cho'zilishi mumkin edi. Deyarli har bir sovet oilasi yaqin kishisidan ayrildi.



Birinchi jahon urushidan keyin Sovet Ittifoqi mamlakat ichki siyosiy hayotida qanday islohotlarni amalga oshirdi?

«Marshall rejasi» bo'yicha AQSHdan yordam olgan G'arb davlatlaridan farqli ravishda SSSR iqtisodiyotni to'liq ichki resurslar hisobiga, o'z kuchi bilan tikladi. Sovet kishilarining matonatli mehnati tufayli vayron bo'lgan zavodlar, shaharlar qayta qurildi, infratuzilma tiklandi. Xalqning mehnat ishtiyoqi chin dildan bo'lib, ular farzandlari uchun tinch va farovon hayotni ta'minlash yo'lida turmush qiyinchi-liklariga ham tayyor edi.

Juda katta siyosiy-ma'muriy bosim, yengil sanoat va qishloq xo'jaligini talash hisobiga hamda mehnatkash ommaning tashabbusini mafkuraviy rag'batlantirish tufayli 1950-yili sanoat ishlab chiqarishi hajmi urushdan oldingi darajasidan oshib ketdi.

«Iliqlik» davri. 1953-yil 5-mart kuni I. Stalin vafot etdi. Stalinning o'limidan so'ng hokimiyat uchun kurashda Nikita Xrushchyov g'olib chiqdi.

N. Xrushchyov hokimiyatda turgan yillar (1953 - 1964) tarixda «iliqlik» davri degan nom olgan. Bu davrda sovet totalitar tuzumini isloh qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Iqtisodiy sohada sovet davlati tarixida birinchi marta yengil sanoatning, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishning ustuvorligi belgilandi. Xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish ko'paydi, uy-joylar qurilishi jadallashdi, maoshlar oshirildi. Oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun qishloq xo'jaligi solig'ini pasaytirish, boqimanda qarzlardan voz kechish, kolxozchilarning tomorqa-larini kengaytirish, qishloq xo'jalik mahsulotlariga davlat xarid narxlarini va kolxoz bozori imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, qishloqqa texnika yetkazib berish uchun kapital mablag'larni ko'paytirish ko'zda tutildi.

Qozog'iston, Sibir va Volga bo'yidagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish g'alla yetishtirishni tez ko'paytirishning muhim omili sifatida qaraldi. Natijada

1950-yillarning ikkinchi yarmida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish keskin o'sib, kolxozlarning pul daromadlari 3 martadan ko'proqqa oshdi.

Jamiyatni siyosiy liberallashtirish ham boshlandi. 1956-yil fevralda KPSS XX syezdida N. Xrushchyov «Shaxsga sig'inish va uning oqibatlari to'g'risida» nutq bilan chiqdi. Bu nutq o'zining barcha kamchiliklariga qaramasdan, sovet totalitar davlatining xarakterini, Stalin va uning sheriklari amalga oshirgan jinoyatlarni ochib tashladi, shaxsga sig'inishning mohiyati va ko'lamini anglash jarayonini boshlab berdi. Jamiyatda o'ta ochiq bo'lmasa-da, bu muammolar keng miqyosda muhokama qilina boshlandi. Stalin davrida qatag'on qilinganlarni oqlash jarayoni ommaviy tus oldi. Ayni paytda, XX syezd xalqaro kommunistik harakatning inqirozini boshlab berdi va sotsialistik tizim oxirigacha bu inqirozdan chiqa olmadi.

Shu tariqa, 1950-yillar o'rtalariga kelib mamlakatda mavjud totalitar tuzum bir qadar liberallashtirildi. Ammo bu harakatlar o'tish davriga xos xarakterga ega edi.

1958-yil martda N. Xrushchyov KPSS MK Birinchi sekretari lavozimiga SSSR Ministrlar Sovetining Raisi lavozimini ham qo'shib oldi. Shu tariqa N. Xrushchyov mamlakatda yagona liderga aylanib qoldi. I. Stalin o'limidan so'ng boshlangan mamlakat hayotini demokratizatsiyalash jarayoni ham vaqtincha to'xtatildi.

1950-yillar oxiridan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari ancha susaydi. Oqibatda oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi yuzaga kelib, SSSR borgan sari chetdan ko'proq g'alla sotib olishga majbur bo'ldi. Qishloq aholisi, birinchi navbatda yoshlarning shaharlarga ko'chib ketishi kuchaydi.

[Global inqiroz yo'lida: SSSR 1964 - 1985-yillarda.](#) Mamlakatdagi ahvol N. Xrushchyovning mavqeyini tushirdi. 1964-yili oktabrda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumi uni bir qator xato va kamchiliklarda ayblab, lavozimlaridan ozod qildi. N. Xrushchyov o'rniga KPSS MK Birinchi kotibi qilib Leonid Brejnev, SSSR Ministrlar Soveti Raisi etib Aleksey Kosigin saylandi.

L.Brejnev hokimiyatda turgan yillar (1964 - 1982)ning dastlabki o'n yili iqtisodiy islohotlarni davom ettirish va jadal rivojlanish yillari bo'ldi. Ammo 1970-yillarning ikkinchi yarmidan jamiyatda boshlangan inqiroz sovet davlati tarixida «turg'unlik» davri nomini olgan.

N. Xrushchyovdan farqli ravishda L. Brejnev o'z hokimiyatidan juda ehtiyotkorlik bilan foydalandi. U murakkab muammoga duch kelganda yaxshisi hech narsa qilmaslikni ma'qul ko'rardi. Unda boshqalarning xushomadiga, turli xil unvonlar va ordenlarni yig'ishga moyillik kuchli edi. Uni maqtash, ulug'lash jarayoni 1970-yillardan boshlandi va keyingi yillari borgan sari kulgili tus olib bordi. Ayniqsa, uning tushunib bo'lmaydigan nutqlari aholining keng qatlami orasida kulgi aralash nafrat, buyuk mamlakat uchun achinish va uyat hissini uyg'otdi.

1980-yillarga SSSR jamiyatning chuqur inqirozi holatida kirib keldi. N.S.Xrushchyovning 1980-yillarda kommunizm qurish to'g'risidagi rejasi barbod bo'lgan, odamlar endi kommunizm safsatasiga deyarli ishonmay qo'ygan edi. Shunday holatda 1982-yil 10-noyabrda L.Brejnev vafot etdi. Undan keyin hokimiyatga kelgan Yuriy Andropov va Konstantin Chernenko keksa, kasalmand kishilar bo'lib, ularning hokimiyatga kelishi tugab borayotgan sovet tuzumining ramzi edi.

Qayta qurish. 1985-yil martda KPSS MK Plenumi Mixail Gorbachyovni Bosh kotib qilib sayladi. KPSS MKning 1985-yil aprel Plenumida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish kursi yangi rahbariyat va butun sovet jamiyatining maqsadi deb e'lon qilindi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, mashinasozlikni texnik qayta qurollantirish va inson omilini faollashtirish, ya'ni mehnat intizomini va ishchilarning tashabbuskorligini oshirish bu kursning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi sifatida qaraldi.

1987-yili M. Gorbachyov e'lon qilgan «qayta qurish», ijtimoiy hayotni demokratizatsiyalash va «oshkoralik» siyosati ommaning siyosiy faolligini keskin oshirdi. Oshkoralik tufayli o'zgarishlarning muhim omiliga, g'oyalar va orzularning ifodachisiga aylangan matbuot jamiyatning ma'naviy ozod bo'lishida,

o'tmishni va yuz berayotgan hodisalarni anglashida juda katta rol o'ynadi. Ayni paytda, bu hodisalar sovet xalqlarining milliy o'zlikni anglash, milliy mustaqillikka intilish jarayonini jadallashtirdi, SSSR ning tarqalib ketishini tezlashtirdi.

Tashqi siyosat. Ikkinchi jahon urushidagi g'alaba SSSRga juda katta xalqaro obro' keltirdi. SSSR boshchiligida sotsialistik tizim vujudga keldi. Bu davrdagi sovet tashqi siyosatining asosini AQSH bilan dunyoda gegemonlik uchun kurash tashkil qildi.

1959-yili inqilob natijasida Kubada hokimiyatga kelgan F.Kastro rejimiga qarshi AQSH olib borgan tajovuzkor siyosat va bunga SSSRning aralashuvi ikki buyuk davlatlar o'rtasida yadro urushi xavfini keltirib chiqardi. Bu xavf «Karib inqirozi» nomini oldi va faqat AQSH prezidenti J. Kennedi bilan sovet rahbari N. Xrushchyov o'rtasidagi kelishuv dunyoni yadro urushi halokatidan asrab qoldi.

«Iliqlik» davrida kapitalistik mamlakatlar bilan tinch-totuv yashash tamoyili ilgari surilib, bu SSSR bilan kapitalistik mamlakatlar, avvalo, AQSH o'rtasida munosabatlarning ham iliqlashuviga olib keldi.

«Turg'unlik» davrida ham kapitalistik mamlakatlar bilan tinch musobaqa davom ettirilib, bu jarayon 1979-yili Afg'onistonga sovet qo'shinlari kiritilgunga qadar davom etdi.

«Qayta qurish» davrida M.Gorbachyov ilgari surgan «yangicha siyosiy tafakkur» tashabbusi SSSRning AQSH va butun kapitalistik dunyo bilan munosabatlarida keskin ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Avgust inqirozi. SSSRning tarqalishi. 1991-yil 19-avgustga o'tar kechasi Favqulodda holat davlat komiteti (GKCHP) tuzilganligi to'g'risida e'lon qilinib, unga SSSRning vitse-prezidenti, bosh vaziri kabi yuqori lavozimli kishilar kirdi. GKCHP mamlakatning bir qator hududlarida favqulodda holat e'lon qildi, 1977-yilgi konstitutsiyaga xilof ravishda faoliyat yuritayotgan hokimiyat tizimlari tarqatib yuborildi, muxolifatdagi partiya va harakatlar faoliyati to'xtatildi, ommaviy axborot vositalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi, Moskvaga qo'shin kiritildi.

GKCHPga qarshi harakatga demokratik kuchlar yetakchilik qildi. Ular 19-avgust kuni Rossiya fuqarolariga murojaat qilib, GKCHP harakatlari g'ayri-konstitutsion to'ntarish, uning qarorlari noqonuniy, deb e'lon qilindi. 19-avgust kuni minglab moskvaliklar Rossiya Oliy Soveti binosini himoya qilishga kirishdi. Tanklarda kelayotgan qo'shinni to'xtatishga harakat qilgan bir necha yoshlar halok bo'ldi. 21-avgust kuni Rossiya Oliy Sovetining favqulodda sessiyasi ochildi. 22-avgust kuni GKCHP a'zolari qamoqqa olindi. Avgust voqealaridan keyin obro'si tushib ketgan KPSSning faoliyati to'xtatildi. Uning mulki natsionalizatsiya qilindi.

Avgust davlat to'ntarishidan keyin barcha respublikalar birin-ketin o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1991-yil 8-dekabr kuni Minsk shahrida Rossiya, Ukraina, Belorussiya rahbarlari 1922-yilgi Ittifoq shartnomasini bekor qilib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilganligini e'lon qildi. Unga Gruziya, Latviya, Litva va Estoniyadan boshqa barcha sobiq sovet respublikalari a'zo bo'ldi. Shu tariqa SSSR tarqalib ketdi.



Syezd - tashkilotlar, partiyalar, aholining ma'lum guruhlar vakillarining yig'ilishi, anjuman.

Plenum - biror tashkilotga saylangan rahbar organlari yoki sud a'zolarining yig'ilishi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi.

Korrupsiya - mansabdor shaxs tomonidan o'z lavozimini, vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki o'z lavozimidan davlat va jamiyat manfaatlariga zid ravishda foydalanish, pora olish va berish.



I. Bilimlarni tekshirish uchun

1. Urushdan keyingi davrda SSSR iqtisodiyotining tiklanishi haqida gapirib bering.
2. SSSRda N. Xrushchev qachon hokimiyat tepasiga keldi?
3. KPSS XX qurultoyida qanday voqea yuz berdi?
4. Nima uchun 1954-1964 yillar davri "iliqlik" deb ataladi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Ikkinchi jahon urushi SSSR uchun qanday yakunlandi?
2. KPSSning XX syezdida Stalin shaxsiga sig'inishning fosh etilishi ijtimoiy ongga qanday ta'sir ko'rsatdi?
3. «Iliqlik» davrida SSSR iqtisodiy rivojlanishida qanday yangi tendensiyalar paydo bo'ldi?
4. «Turg'unlik» davrining sovet davlati tarixidagi rolini qanday baholash mumkin?
5. Sovet rahbariyatini qayta qurishni boshlashga nima majbur qildi?
6. Nima uchun sovet jamiyatini demokratlashtirish SSSRning parchalanishiga olib keldi?

III. Guruh muhokamasi uchun



1. N. Xrushchev tomonidan olib borilgan islohotlarning qarama-qarshiligi nimada edi?
2. Stalinning “shaxsga sig'inish”ni yo'q qilish mamlakat va dunyo uchun qanday oqibatlarga olib keldi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “Qayta qurish”, “liberallashtirish”, “ixtiyoriylik”, “turg'unlik” atamalarini tushuntiring.
2. Xaritadan Varshava shartnomasiga a'zo mamlakatlarni ko'rsating.
3. «SSSRning parchalanishi» xaritasi asosida mustaqillikni e'lon qilgan sanasiga mos ravishda davlatlar ro'yxatini tuzing.

V. Ijodiy vazifalar

1. «Yadro urushi» va «psixologik urush» tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish asosida hozirgi kundagi axborot xurujlarini chizma ko'rinishida daftaringizga yozing.
2. Shuhrat Ergashevning «Erk istar ko'ngil» kitobining «Turg'unlik va taraqqiyot» deb nomlangan bo'limini o'qing va matn asosida ikki qismlik kundalik tuzing.

21-§.1946-1991-yillarda Buyuk Britaniya va Fransiya



Buyuk Britaniya. Buyuk Britaniya iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchsizlangan holda urushdan chiqdi. Savdo flotining katta qismi yo‘qotildi, mustamlaka va dominionlardagi obro‘sigam ham putur yetdi. Mamlakatning AQSHga qaramligi asta-sekin ortib bordi. Keng ijtimoiy o‘zgarishlar dasturini e‘lon qilgan leyboristlar partiyasi urushdan keyingi dastlabki saylovlarda g‘olib chiqdi. O‘z dasturini hayotga tatbiq qilib, hukumat iqtisodda va ijtimoiy sohada qator islohotlarni amalga oshirdi. Biroq leyboristlar islohoti kutilgan natijalarni bermadi. Davlatning moliyaviy ahvoli og‘irligicha qoldi. Shunday iqtisodiy va moliyaviy og‘ir sharoitda mamlakat «Marshall rejasi»da ishtirok etishga qaror qildi. 1949-yil Buyuk Britaniya NATOga a‘zo bo‘ldi.

Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan so‘ng, Buyuk Britaniyada va Britaniya mustamlakalari xalqlari orasida milliy ozodlik uchun jiddiy o‘zgarish istagi paydo bo‘ldi. Mamlakat ichki siyosatda o‘zgarishlarga duch keldi. Tashqi siyosatda u sotsialistik lager va milliy ozodlik harakatlariga qarshi kurashish uchun kapitalistik mamlakatlarni birlashtirishga harakat qildi. Keyin ingliz tili hamma joyda paydo bo‘ldi, bu ingliz madaniyatining dunyodagi ta‘sirining oshishiga olib keldi.



Ikkinchi jahon urushi Buyuk Britaniya uchun qanday natijalar bilan tugadi?

1951-yili o‘tkazilgan saylovlarda konservatorlar g‘alaba qozondi. U. Cherchill yana bosh vazir lavozimini egalladi. Konservatorlar Buyuk Britaniyani 13 yil boshqardi. Bu davrda iqtisodning barqaror o‘sinh sur‘atlariga erishishning iloji bo‘lmadi.

Natijada 1964-yili hokimiyatga kelgan leyboristlar bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Bu aholining turmush sharoitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. 1970-

yillarga Buyuk Britaniya iqtisodiy holatning keskinlashuvi bilan kirib keldi. Jahon iqtisodiyotida uning roli pasayishda davom etdi.

1979-yilgi parlament saylovlari keskin siyosiy kurashlar ostida o'tdi.

Saylovchilar konservatorlarga ovoz berdi. Margaret Tetcher bosh vazir bo'ldi. Ichki siyosatda asosiy e'tibor xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratildi. Iqtisodga davlat aralashuvini kamaytirish sari dadil qadamlar tashlandi. Soliqlar kamaytirildi. Inflatsiyaga qarshi kurash bosh vazifa qilib belgilandi.

1979 - 1990-yillar Buyuk Britaniya tarixida «**Tetcher davri**» nomini oldi. Bu davrda M. Tetcher hukumati Yevropada eng ko'p ish o'rinlari yaratdi. Umuman 1980-yillar Britaniya iqtisodiyotida chuqur tizim o'zgarishlari yuz berdi. Davlat sektori qisqartirildi, uning samaradorligi oshirildi.

1990-yili M. Tetcher bosh vazir lavozimidan iste'foga chiqdi. Uning o'rniga ilgari moliya vaziri lavozimida bo'lgan J. Meyjor keldi. J. Meyjor hukumatning neokonservatizm siyosatini davom ettirdi.

Tashqi siyosat. Tashqi siyosatda Buyuk Britaniya AQSHga tayandi, o'zining

NATOdagi ishtirokini faollashtirdi, AQSHning Hindixitoydagi tajovuzkor siyosatini, Janubiy Afrika va Janubiy Rodeziyadagi irqchilik rejimlarini qo'llab-quvvatladi. 1969-yili Shimoliy Irlandiya muammosi yana keskinlashdi va Buyuk Britaniya u yerga qo'shin kiritdi. Britaniya imperiyasining qoldiqlarini saqlab qolishga intilib, 1982-yili Folklend orollari uchun Argentina bilan urush olib bordi. Bu urushda «*imperiya*chilik tafakkur»ini namoyon qilgan Buyuk Britaniya g'alaba qozondi.



Margaret Xilda Tetcher (1925-2013), Buyuk Britaniyaning davlat va siyosat arbobi. U har doim uning fe'l -atvorining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan otasi haqida g'ayrat bilan gapirib, hayotda erishgan hamma narsada uning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan. Besh yoshidan u pianino chalishni o'rgandi, 9 yoshida esa she'rlar tanlovi g'olibi bo'ldi. U

otasiga do'konda uy boshqarishga yordam berdi, buning natijasida u tadbirkorlik faoliyatini o'zlashtirdi. Oksford universitetini tamomlagan.

1970-1974 yillarda. Ta'lim vazirligini boshqargan, hukumatdagi yagona ayol.

1974-yildan - Konservativ partiya rahbari. Bosh vazir bo'lganidan so'ng, u neokonservativ usullar yordamida Britaniya iqtisodiyotini faol ravishda isloh qildi.

Bir nechta kitoblar muallifi.

Uning hayotligidayoq Britaniya parlamentida yodgorlik o'rnatilgan.



Fransiya. Ikkinchi jahon urushi Fransiya nihiyatda katta zarar yetkazdi. 1945-yili sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi darajasining yarmiga ham yetmadi. Moliya tizimi izdan chiqqan edi. Aholi asosiy qismining moddiy ahvoli keskin yomonlashdi.

Ikkinchi jahon urushi paytida Fransiya iqtisodiyoti katta zarar ko'rdi. Urush tugagandan so'ng, mamlakatning ichki siyosiy ahvoli o'ta og'ir bo'lib chiqdi. Vishi rejimi tomonidan yaratilgan davlat tuzilmalari vayron qilindi. Urush yillarida fransuz qarshiliklarining lideri general Charlz de Goll ozod qilingan Parijga qaytib, "Hammasi joyida, faqat davlat yo'qolgan", deb ta'kidlagan.

To'rtinchi respublika. 1946-yili Fransiyaning yangi konstitutsiyasi kuchga kirdi. Bu Yevropadagi eng demokratik konstitutsiyalardan biri bo'ldi.

Boshqa G'arb davlatlari singari Fransiya ham «Marshall rejasi»ga qo'shildi. Xo'jalik katta tezlik bilan tiklandi. 1950-yillari iqtisodiy o'sish boshlandi. To'rtinchi respublika yillarida sanoatning zamonaviy sohalari paydo bo'ldi. Ammo ichki siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning murakkabligi siyosiy va ijtimoiy holatning keskinlashuviga olib keldi. 1958-yili Fransiya navbatdagi siyosiy inqiroz boshlandi. Hokimiyatga kelgan Sharl de Goll Milliy majlisni tarqatib yubordi. To'rtinchi respublika barham topdi.



Sh. de Goll Jazoirida. 1958- y.

Beshinchi respublika. "Shaxsiy kuch" rejimi. De Goll tomonidan ishlab chiqilgan yangi konstitutsiya 1958-yil sentabrda bo‘lib o‘tgan referendumda ishtirokchilarning 79%i tomonidan ma’qullandi. Uning asosida Milliy Majlisga saylovlar o‘tkazildi. Saylovlar arafasida de Goll tarafdorlari yangi siyosiy partiya – “Yangi respublikani mudofaa ittifoqi”ni tuzdilar, u “mustaqillar” bilan birgalikda - assambleyada ko‘pchilikni qo‘lga kiritdi. Dekabr oyida de Goll prezident etib saylandi.

1962-yilda prezidentni saylash tartibiga o'zgartirish kiritildi. Yangi qonunga ko‘ra, prezident umumxalq ovoz berish yo‘li bilan saylanib, uni Milliy - Assambleyadan yuqori qo‘yadi. De Goll butun hokimiyatni o'z qo'lida to'pladi. Asosiy masalalar bo'yicha u bir qator muhim qarorlarni umumxalq ovoziga qo'yib, referendumga murojaat qildi. U shaxsan tashqi va harbiy siyosatni, shuningdek, Jazoirga nisbatan siyosatni boshqargan. Shunday qilib, "shaxsiy hokimiyat" rejimi o'rnatildi.

Fransiyaning 14 ta Afrika koloniyalariga mustaqillik berildi. O'ta mustamlakachilarning qarshiligini yengib, Jazoirdagi armiya qo'mondonligining isyonini bostirgandan so'ng, de Goll Jazoir Respublikasi bilan muzokaralarni boshladi va 1962-yil mart oyida Evian shahrida Jazoirga **mustaqillik berish to'g'risida shartnoma imzolandi** .

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish. Fransiyaning buyukligini tiklash g'oyasini amalga oshirgan de Goll **iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning** keng dasturini amalga oshirdi . Shu bilan birga, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hududlardagi davlat korxonalari (ko'mir konlari, metallurgiya korxonalari, transport, elektr stansiyalari va boshqalar) faoliyatini vazirlik tomonidan qat'iy tartibga solish - amalga oshirildi. Shu bilan birga, modernizatsiya xususiy tadbirkorlar oldiga davlat korxonalari bilan birgalikda, davlat tashkiliy-moliyaviy ko'magida samolyotsozlik, atom energetikasi, kosmik texnologiyalar va raketsozlik sohalarini tubdan yangilash vazifasini qo'ydi.

Fransiya iqtisodiyotni chuqur qayta qurishni amalga oshirdi, texnologik modernizatsiyani amalga oshirdi, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat unumdorligini o'rtacha G'arbiy Yevropa darajasidan yuqoriga ko'tardi.

Ammo 1960-yillar oxirida Beshinchi respublikada inqiroz boshlandi. Davlatning qat'iy tartibga solish siyosati fransuz jamiyatining ko'plab qatlamlarini norozi qildi. 1968-yil mayda Parij talabalarining namoyishi boshlandi. Prezident tashabbusi bilan o'tkazilgan referendumda saylovchilarning ko'pchiligi prezidentni qo'llamadi. Sh. de Goll iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

Tashqi siyosat. Mustamlakachilik urushlariga chek qo'ygan de Goll va Fransiya hukumati de Gollning asosiy g'oyasini - mustaqil tashqi siyosat va iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiya **yo'lida Fransiyaning buyukligini tiklashni amalga oshirishga kirishdilar.**

Xalqaro munosabatlarda Fransiya Sh. de Goll tomonidan belgilab berilgan tashqi siyosiy kursni davom ettirdi. Fransiya Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Xelsinki kengashini o'tkazishda katta rol o'ynadi. YIH (Yevropa iqtisodiy hamjamiyati) doirasida G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan faol hamkorlik qildi. Atlantika yo'nalishidagi an'analar kuchaydi. AQSH bilan aloqalar ancha faollashdi.

1970-yillarning oxirida Fransiya iqtisodiyoti juda murakkab holatda edi. 1981-yilgi prezidentlik saylovlarida Fransua Mitteran sotsialistik partiyasi (1981–

1995). g'alaba qozondi. Sotsialistik partiya ham parlamentda ko'pchilikni qo'lga kiritdi.

1981-1982-yillarda Mitteran Fransiyada bir qator ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Hukumat yirik banklar va sanoat korxonalarini milliyalashtirdi. Biroq inflatsiyani to'xtatishning iloji bo'lmadi. Ishsizlik ham oshib bordi. Bu siyosat kichik o'zgarishlar bilan 1992-yilgacha saqlab qolindi.

Fransiyada 1789-yilgi inqilobning ikki yuz yillik yubileyi munosabati bilan so'rov o'tkazildi, unda fransuzlardan eng inqilobiy, tarixiy shaxslarni nomlash so'raldi. So'rov natijalariga ko'ra, de Goll birinchi o'rinni egalladi.



Nega fransuzlar Charlz de Gollni o'z milliy qahramonlaridan biri deb bilishadi? Uning zamonaviy Fransiya uchun ahamiyatini aniqlang.



Sharl de Goll (1890-1970) - fransuz harbiy va davlat arbobi, beshinchi respublika asoschisi. Zodagon oilada tug'ilgan.

U bolaligidan o'qishni, ayniqsa tarixga oid kitoblarni juda yaxshi ko'rar edi. Oilada katoliklik va vatanparvarlik ruhi hukm surdi.

Birinchi jahon urushi paytida Charlz de Goll uch marta yaralangan, olti marta qochishga uringan nemislar tomonidan ushlangan.

Ikkinchi jahon urushi paytida u Londonda "Fransiyaga qarshi kurash" qo'mitasini boshqargan, fransuz qarshiliklarining ramziga aylangan. U Fransiyaning buyuk davlat sifatida obro'sini tiklashga harakat qildi. "Urush xotiralari" va "Umid xotiralari" kitoblari muallifi.



Neokonservatizm - AQSHning harbiy va iqtisodiy qudratidan dushman rejimlarga qarshi va ularda demokratik tizimni o'rnatish uchun foydalanish tarafdorlari bo'lgan bir qism konservativ siyosatchilar mafkurasi.

Eksport - mahsulot, xizmat yoki kapitalni o'z mamlakatidan tashqariga chiqarish.

Referendum - umumxalq so'rovi, davlat ahamiyatidagi muhim masalani hal qilish bo'yicha o'tkaziladigan umumxalq ovoz berishi.



I. Bilimlarni sinash

1. Britaniya Millatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarni ayting.
2. Buyuk Britaniyaning pul-kredit va moliyaviy siyosatini aytib bering.
3. Buyuk Britaniya ishtirok etadigan asosiy xalqaro tashkilotlarni ayting.
4. Ikkinchi jahon urushi davrida Fransiyada qarshilik ko'rsatish harakatiga rahbarlik qilgan va mamlakat ozod bo'lgach, mamlakat davlatchiligi tiklanganida qaysi siyosatchining nomi bog'langan?
5. Yevropa Ittifoqiga asos solgan mamlakatlarni ayting.
6. Maastricht shartnomasining asosiy mazmuni nimadan iborat?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1940-1970-yillarda konservatorlar va leyboristlar o'rtasidagi raqobatning asosiy yo'nalishlari qaysilar edi?
2. M. Tetcher hukumati qanday islohotlarni amalga oshirdi?
3. Ikkinchi jahon urushi Buyuk Britaniya uchun qanday natijalar bilan tugadi?
4. 1970-yillarda Buyuk Britaniya iqtisodiyotidagi pasayish nimalarda namoyon bo'ldi?
5. Buyuk Britaniyada hukumatni konservatorlar boshqargan yillarda qanday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi?
6. Fransiyaning urushdan keyingi ahvoli va rivojlanish yo'nalishlari to'g'risida gapirib bering.
7. Fransiyada To'rtinchi respublikaning tarqalib ketishiga qanday holatlar sabab bo'ldi?
8. Fransiyada Beshinchi respublikaning paydo bo'lishi va mamlakat iqtisodiy hamda siyosiy holatining barqarorlashuvida Sh.de Gollning yetakchilik roli qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
9. XX asrning 80 - 90-yillarida Fransiya tashqi siyosati haqida nimalarni bilasiz?

10. 1960-yillar oxirida Fransiyada yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy inqirozning asosiy sabablari nima edi? Bu qanday boshlandi?

II. Guruh muhokamasi uchun

1. Britaniya mustamlaka imperiyasining parchalanishining asosiy sabablari nimada? Bu mamlakat uchun qanday oqibatlarga olib keldi?
2. De Gollning “Har bir fransuz gollist bo‘lgan yoki bo‘ladi” degan so‘zlarini qanday tushunasiz?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

- 1 “Dominion”, “neokonservatizm”, “Tetcherizm” atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan Britaniya Hamdo‘stligi va Yevropa Ittifoqi kiruvchi davlatlarni ko‘rsating

V. Ijodiy vazifalar

1. Buyuk Britaniya bir paytlar ona davlatga qarshi siyosiy va iqtisodiy mustaqillik uchun kurashgan sobiq mustamlakalarini Millatlar Hamdo‘stligi mamlakatlariga qanday jalb etishga muvaffaq bo‘ldi? Bu tajribaning ahamiyati nimada?
2. Yevropa Ittifoqining keyingi o‘n yillikda rivojlanishi prognozini ishlab chiqish.
3. Kutubxona.com. saytidan Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonovning «Cho‘qqida qolgan ovchining ohizori» kitobining 2-qismini o‘qing hamda Margaret Tetcher tomonidan aytilgan fikrlarni ajratib daftaringizga yozing

22-§. 1946-1991-yillarda Germaniya va Italiya.




Ikkinchi jahon urushini boshlagan Germaniya boshqa Yevropa mamlakatlariga qaraganda ko'proq zarar ko'rdi. Inson va iqtisodiy yo'qotishlar juda katta edi. 13 milliondan ortiq nemislar urushdan qaytmagan. Bundan tashqari, Germaniya suveren davlat sifatida mavjud bo'lishni to'xtatdi. U anti-Gitler koalitsiyasi mamlakatlarining ishg'ol zonalariga bo'lingan.

G'arbiy qismida hokimiyat AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya harbiy ma'muriyatlariga tegishli edi. Sharqiy qismida esa SSSR harbiy ma'muriyati qo'lida edi.



Germaniya va Italiya uchun ikkinchi jahon urushi qanday oqibatlarga olib kelganligini eslang.



SSSR Buyuk Britaniya AQSH Fransiya
--- Berlin devori

Berlin devori 1961 yildan 1989 yilgacha mavjud bo'lgan.
Uning umumiy uzunligi 155 km, shu jumladan Berlinda 43,1 km

Germaniya Federativ Respublikasi. 1949-yil mayda AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya okkupatsiya zonalarida Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashkil qilindi. U G'arbiy Germaniyani demokratik, federativ davlat deb e'lon qildi. Germaniyaning ko'zga ko'ringan siyosiy arbobi Konrad Adenauer kansler qilib saylandi. U Germaniya Federativ Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. 1949-yil 7-oktabrda sovetlar okkupatsiya zonasi bo'lgan sharqiy qismida Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) tashkil qilindi. Sharqiy Berlin bu davlatning poytaxti deb e'lon qilindi. Germaniyaning ikkita davlatga bo'linishi qariyb yarim asr davom etdi.


GFRda 1950 - 1960-yillari iqtisod jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

GFR siyosiy raqiblarining qarama-qarshiliklarini yengib, 1955-yili NATOga a'zo bo'ldi, Parij ahdlashuvining kuchga kirishi tufayli GFR uchun okkupatsiya davri tugadi.

Sharqdan ko'chib kelayotganlar oqimi va kansler K.Adenauerning qulay iqtisodiy siyosati GFR « Marshall rejasi» doirasida olgan salmoqli moliyaviy

«darmon» bilan qoʻshilib shunga olib keldiki, 1955-yildayoq misli koʻrilmagan taraqqiyotga erishildi. Germaniya eng qisqa tarixiy muddatda urush qoldirgan yaralarni tuzata oldi. Butun 1960 - 1970-yillar iqtisodning jadal oʻsish davri boʻlib, «nemis iqtisodiy moʻjizasi» nomini oldi.

Germaniyaning iqtisodiy oʻsishi va uning sabablari



1980-yillar boshida siyosiy kuchlarda oʻzgarish yuz berdi. 1982-yili xristian-demokrat Gelmut Kol GFR kansleri qilib saylandi. Uning davrida soliqlar qisqartirildi va davlat xarajatlari tartibga solindi, davlatning biznesga aralashuvini kamaytirish, raqobatni ragʻbatlantirish boʻyicha tadbirlar amalga oshirildi.

GDRda 1990-yil mart oyida birinchi marta xalq palatasiga saylovlar boʻlib oʻtdi. Unda koʻpchilik ovozlarni GFRda oʻxshashi boʻlgan va u yerdan katta qoʻllab-quvvatlangan partiyalar: Xristian-Demokratik Ittifoqi va Sotsial-demokratlar qoʻlga kiritdi. May oyida GDR va GFR oʻrtasida iqtisodiy va moliyaviy ittifoq tuzish toʻgʻrisida shartnoma, avgust oyida Germaniyani birlashtirish toʻgʻrisidagi shartnoma imzolandi.

Ammo nemis masalasini hal qilish nafaqat nemis xalqi, GDR va GFR fuqarolarining pozitsiyasiga, balki toʻrtta gʻolib davlatga ham bogʻliq edi. Sentabr oyida Moskvada 4+2 konferensiyasi boʻlib oʻtdi, unda toʻrtta gʻolib davlat: SSSR,

Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya hamda GFR va GDR tashqi ishlar vazirlari ishtirok etdi. Ular Germaniyaga nisbatan yakuniy kelishuv shartnomasini imzoladilar. Shartnoma Yevropa chegaralarining daxlsizligini tan olishni belgilab berdi.

1990-yil 3-oktabrda Germaniyani birlashtirish shartnomasi kuchga kirdi: GDR o'z faoliyatini to'xtatdi va yagona Germaniya davlati qayta tashkil etildi. O'shandan beri 3-oktabr Germaniyada milliy bayram sifatida nishonlanadi. Germaniya poytaxti Berlinga ko'chirildi.

1990-yil dekabrda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari saylovlarda yana G. Kol boshchiligidagi koalitsiya g'alaba qozondi.



Berlin devorining qulashi ramziy ma'noga ega edi. Sovuq urushning tugashi.

1989 -yil 11- noyabr



Germaniyaning birlashishining ijobiy va salbiy oqibatlari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?



Helmut Kol (1930-2017)-nemis davlat va siyosat arbobi, XDP a'zosi, Germaniya Federativ Respublikasi federal kansleri (1982-1998). Yoshligida u pul ishlashning turli usullarini sinab ko'rdi: quyon boqishdan, ipak qurti etishtirishdan tortib, qurilish maydonchasida yuklovchi va yuk mashinasi haydovchisi bo'lib

ishlashgacha. Frankfurt va Geydelberg universitetlarida ijtimoiy va siyosiy fanlarni o'rgangan. Kol o'zining yaqin ittifoqchisi Fransiya prezidenti Fransua Mitteran bilan birgalikda Yevropa Ittifoqining konturlarini aniqlab, yagona Yevropa valyutasini joriy etish uchun asos yaratdi. SSSR Sharqiy Germaniya ustidan nazoratdan voz kechgach, Germaniyani birlashtirish tashabbusi bilan chiqdi. Mixail Gorbachyov va Boris Yelsin bilan hamkorlik o'rnatildi. 1999- yilda u XDPni noqonuniy moliyalashda ayblangan va partiya rahbari lavozimini tark etishga majbur bo'lgan.

Italiya uchun Ikkinchi jahon urushi to'liq mag'lubiyat bilan yakunlandi. Biroq, qarshilik harakati tufayli, mamlakat - fashistlar Germaniyasining ittifoqchisi, davlatchiligini yo'qotmadi. Urushdan keyingi Italiya uchun muhim muammo bu uning davlat tuzilishi shakli masalasi edi.

Ko'p partiyali tizim shakllandi, bu jamiyatning ijtimoiy xilma-xilligi, tarixiy va siyosiy sabablari, shuningdek mafkuraviy an'analari bilan izohlandi.

Italiya Respublikasi. Fashistik rejim va Ikkinchi jahon urushi italyan xalqiga juda katta musibatlar keltirdi. Yuz minglab kishilar halok bo'ldi, millionlab odamlar boshpanasiz qoldi. Pulning qadrsizlanishi o'ta yuqori darajaga yetdi.



Ikkinchi jahon urushi Italiya uchun qanday natijalar bilan yakunlangan edi?

1948-yil 1-yanvardan Italiyaning yangi konstitutsiyasi kuchga kirdi. Hukumat G'arbning yetakchi davlatlari bilan ittifoqchi bo'lishga intildi. Italiya «Marshall rejasi»ga qo'shildi, NATOga a'zo bo'ldi, uning hududida AQSHning harbiy bazalari joylashtirildi. Italiya hukumati Yevropa integratsiyasi g'oyasini faol hayotga tatbiq qilib bordi. 1957-yili Yevropa iqtisodiy hamkorligini (YIH) tuzish to'g'risida Rim shartnomasi imzolandi.

Urushdan keyingi o'n yillikda Italiya G'arbning boshqa davlatlari sin gari jadal iqtisodiy o'sish davrini boshdan kechirdi. Ammo bu jarayon uzoq davom etmadi. 1950-1960-yillardagi jadal rivojlanishga qaramasdan, ishchilar harakati

avvalgi darajasida qoldi, ba'zan hatto faollashdi ham. Ish tashlash harakati bo'yicha Italiya boshqa mamlakatlardan ancha oldinlab ketdi. 1974-yili Italiyada chuqur iqtisodiy inqiroz boshlandi. Ishlab chiqarishning o'sishi deyarli to'liq to'xtadi, ishsizlar soni ko'paydi, tashqi savdoda defitsit oshib ketdi. Narx-navo ko'tirilib bordi. Bularning barchasi, ayniqsa, aholining kam daromadli qismi uchun juda og'ir bo'ldi.

1980-yillarga kelib koalitsion hukumat shakllandi. Biroq u barqaror emasdi va hukumatning tez-tez almashishi Italiyaning o'ziga xos an'anasiga aylanib qoldi. Italiyada davlat institutlarining chuqur inqirozi, shuningdek, mafiya tizimlarining faoliyati bilan ham bog'liq edi. Davlat tizimidagi korrupsiyalashgan unsurlar bilan qo'shib ketgan mafiya Italiyada katta kuchga aylandi. Mafiya aholiga dahshat soladi, uni qo'rqitadi, talonchilik va qotillik qiladi, pul undiradi, doimiy pul to'lab turgan boylarning daxlsizligini ta'minlaydi. Kim mafiya bilan kelishmasa uni doimiy ta'qib qiladi, o'ldiradi. 1980 - 1990-yillar boshlari Italiyada mafiyaga qarshi kurash davri bo'ldi.



Kansler - Germaniya va Avstriyada hukumat boshlig'i, bosh vazir shunday ataladi.

Defitsit - taqchillik, biron-bir narsaning yetishmasligi. Masalan, chetga tovar sotish

- eksportga nisbatan chetdan tovar olib kirish

- importning oshib ketishi tashqi savdo defitsiti deb ataladi.

Mafiya - zo'rlik, qo'rqitish, terror, qotillik, ig'vogarlik usullari bilan iqtisodiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun tuziladigan maxfiy uyushma; uyushgan jinoyatchilik tashkiloti.



Nima uchun ba'zida Italiya siyosiy rejimi "barqaror beqarorlik" deb nomlanadi?



Aldo Moro (1916-1978) - Italiyaning davlat va siyosat arbobi. Maktab inspektori va boshlang'ich sinf o'qituvchisining dindor oilasida tug'ilgan. Shiller asarlarini asl tilida o'qish uchun mustaqil ravishda nemis tilini o'rgangan. 25 yoshida u huquq falsafasi professori bo'ldi. Moro mashhurligi uning fe'l - atvoriga aql, ishontirish, o'zgarmas xotirjamlik va tenglik, shaxsiy joziba, do'stlik, odamlarni tinglash va tushunish qobiliyati kabi fazilatlarni olib keldi.

Italiya Respublikasi e'lon qilinganidan keyin A. Moro yangi konstitutsiya loyihasini tuzish komissiyasi a'zosi bo'lgan. 1948- yilda u parlamentga saylandi. Vazir o'rinbosari bo'lib ishlagan



I. Bilimlarni sinash

1. Marshall rejasining mohiyati nimadan iborat edi?
2. “Marshall rejasi” Germaniyaning taraqqiyotiga qanday ta'sir qildi?
3. Yevropa Ittifoqini tashkil etishda Italiyaning o'rni qanday bo'lgan?
4. Italiyaning “iqtisodiy mo'jizasi” va GFRning “iqtisodiy mo'jizasi” zaruriy shartlari qanday edi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Urushdan keyingi Germaniyaning ahvoli to'g'risida gapirib bering.
2. GFRda K. Adenauer siyosati va «Marshall rejasi» mamlakat iqtisodiyotining tiklanishi va o'sishida qanday rol o'ynadi?
3. Berlin devorining qulashi va Germaniyaning birlashishi haqida nimalar bilasiz?
4. 1950 - 1960-yillardagi Italiya taraqqiyoti to'g'risida gapirib bering. Bu davrda Italiyaning rivojlanishi Germaniyaning shu davrdagi rivojlanishidan nimasi bilan farq qiladi?
5. 1970-yillarda Italiyadagi siyosiy beqarorlikning sabablari nimada edi?

6. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Italiya taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

III. Guruh muhokamasi uchun



1. 1960-1980 yillardagi mamlakatlar taraqqiyotining xususiyatlarini aytib bering. Bu davrda GFR va GDRning ichki siyosiy yo'nalishini amalga oshirishda qanday farqlar bor edi?
2. Asr boshidagi Italiyaga xos bo'lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ayting.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Toza qo'llar", "integratsiya", "mafiya" atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan foydalanib Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi hududiga kiruvchi yerlarni daftaringizga yozing.

V. Ijodiy topshiriqlar

1. «Berlin devorining qulashi» mavzusida kichik o'quv loyihasini tayyorlang va to'garak mashg'ulotida taqdimot qilishga tayyorgarlik ko'ring.
2. facebook.com saytidan Zarif Sultonning «Berlin devoriga chizgilar» («Tugamagan qo'shiq») she'rini ko'chirib oling, o'qing hamda «Insert» chizmasi yordamida she'r matnini tahlil qiling.

23-§. 1946-1991-yillarda Yaponiya va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari



Kvantun armiyasi mag'lubiyatga uchragach, Yaponiyaning hukmron doiralari Potsdam konferentsiyasining so'zsiz taslim bo'lish shartlarini qabul qildilar. Shundan so'ng, Yaponiya ittifoqchi kuchlar nomidan harakat qilgan Amerika qo'shinlari tomonidan bosib olindi. O'sha paytdan boshlab 1952-yilda San-Fransisko tinchlik shartnomasi kuchga kirgunga qadar mamlakatda oliy hokimiyat AQSh qo'lida edi.

Yaponiyada demokratiyaning shakllanishi. Ittifoqchi davlatlarning Yaponiyaga nisbatan siyosati 1945-yil 26-iyuldagi Potsdam deklaratsiyasida shakllantirildi. Deklaratsiyada Yaponiyada militarizmni abadiy yo‘q qilish, demokratik tendensiyalarni qayta tiklash va mustahkamlash yo‘lidagi barcha to‘siqlarni bartaraf etish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini o‘rnatish talablari bor edi. So‘z, din va fikr erkinligi hamda inson huquqlarini hurmat qilish. Unda yapon xalqining erkin ifodalangan irodasiga muvofiq tinch, mas’uliyatli hukumatni shakllantirish ko‘zda tutilgan edi. Biroq, AQSH asosan Yaponiya imperatori boshchiligidagi eski davlat apparatini saqlab qoldi, uni biroz tikladi.

AQSH barcha muhim davlat funksiyalarini o‘z zimmasiga oldi. Ular moliya, byudjet, tashqi savdoni o‘z qo‘liga oldilar, sudlar va politsiya apparatlarini nazorat qildilar, parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyatini chekladilar. Yaponiya hukumati boshqa davlatlar bilan munosabatlar o‘rnatish huquqidan mahrum qilindi. 1945-yil sentyabr oyidayoq armiya va jazo organlari, millatchilik tashkilotlari tarqatib yuborildi. Buning ortidan mehnatkashlarga kasaba uyushmalarini tuzish huquqini berish, ta’lim tizimini demokratlashtirish, absolyutizmga barham berish, ayollar huquqlarini tenglashtirish, iqtisodiyotni demokratlashtirish yo‘lga qo‘yildi. Sanoat-moliya konsernlari tarqatib yuborildi, yer islohoti o‘tkazildi, yer egaligi tugatildi. Sintoizm dini davlatdan ajralib chiqdi va 1946- yil 1- yanvarda imperator hukmron sulolaning ilohiy kelib chiqishi haqidagi afsonadan ommaviy ravishda voz kechdi. Bu tadbirlar 1950-1960-yillarda Yaponiyaning to‘liq iqtisodiy tiklanishiga olib keldi.



Ikkinchi jahon urushi Yaponiya uchun qanday natijalar bilan yakunlangan edi?

Yaponiyada demokratik jarayonlarni boshlagan amerikaliklar ikkita maqsadni: **birinchidan**, Yaponiyaning demokratik davlatga aylanishi va hech qachon boshqalarga xavf solmasligini;

ikkinchidan, yaponlarda o‘zining ming yillik jangchilik an‘analariga ega bo‘lgan jangovarlik ruhini sindirishni ko‘zlagan edilar.



«Yaponcha milliy ruh» tushunchasiga ta'rif bering.



AQShning Okinava orolidagi harbiy bazasi.

Yaponiya iqtisodiy mo'jizasi. Butun dunyoda «yapon iqtisodiy mo'jizasi» deb iqtisodning nihoyatda jadal - yiliga 11 % dan rivojlanish davriga aytiladi. Bu davr 1956 - 1970-yillarni o'z ichiga oladi. Unda ayniqsa, sanoatning o'sish sur'atlari juda yuqori bo'lib, bu, asosan, og'ir sanoat va kimyo ishlab chiqarishini rivojlantirish hisobiga yuz berdi. 1960-yillarning oxiriga kelib Yaponiya yalpi ichki mahsulotning hajmi bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Yaponiya o'z yutuqlarini Tokioda bo'lib o'tgan «EKSP-70» ko'rgazmasida muvaffaqiyatli namoyish qildi.

Postindustrial modelning shakllanishi. Yapon «iqtisodiy mo'jizasi» arzon neftga asoslangan bo'lib, 1970-yillardagi neft inqirozi Yaponiyani o'z iqtisodiy tizimini keskin o'zgartirishga majbur qildi. Sanoatda ilmtalab ishlab chiqarish sohalariga asosiy e'tibor qaratildi. Mahsulot qiymatining asosiy qismini ilmiy yangiliklar, xodimlarning texnik malakasi, dizayn, nou-xau va shu kabilar tashkil qildi. 1980-yillardan Yaponiyada 26 ta texnopolislar tashkil qilindi. Shu yillari Yaponiya jahon bozoriga yangi turdagi mahsulotlar - mikroprotsesszorlar, personal kompyuterlar, sanoat robotlari va tez o'zgaruvchan ishlab chiqarish tizimlari bilan chiqdi. Mamlakatda postindustrial iqtisodiy model shakllandi va u postindustrial sivilizatsiyaga asos bo'ldi.

1980-yillarda Yaponiya jadal rivojlanayotgan mamlakat bo'lib, uchta davlatdan biri (1980-1990-yillarda AQSH va YeIH bilan birga) sifatida zamonaviy kapitalizmning asosiy kuch markazlaridan biri bo'lib qoldi. Oltin-valyuta zaxiralari hajmi bo'yicha u birinchi o'rinda egallab turgan. Yaponiyada aholi jon boshiga daromad yiliga 18 ming dollardan oshdi (AQShda - 15,5 ming dollar). Mehnat unumdorligi bo'yicha Yaponiya 1991-yilda G'arbiy Yevropa mamlakatlarini ortda qoldirdi va AQSh darajasining 90% ga ko'tarildi (1975 yilda - 50%). Asta-sekin sanoat jamiyatidan bilim asosiy qadriyatlarga aylangan axborot jamiyatiga o'tilmoqda. 1980-yillarning o'rtalariga kelib yaponiyaliklarning 93 foizi to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lgan, 25 yoshga to'lgan yoshlarning 40 foizi oliy ma'lumotga ega. AQShda bu ko'rsatkich 20 foizni tashkil etgan.



Osiyoning yangi industrial mamlakatlari. XX asrning 60-80-yillarida Osiyoning bir qator mamlakatlari jadal modern izatsiyalashni amalga oshirish orqali taraqqiyotning yuksak sur'atlarini ta'minlashga erishdi. Masalan, **Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong** kabi davlatlarni «Osiyo yo'lbarslari», «yangi industrial davlatlar» deb atay boshladilar. XX asrning ikkinchi yarmida «yangi industrial davlatlar» Osiyo qit'asida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning timsoliga aylandi. Bitta avlodning ko'z o'ngida mamlakat qoloqlikdan taraqqiyotning yuqori darajasiga erishdi. Bunga Janubiy Koreya yaqqol misol bo'lishi mumkin.

1960-yillarning o'rtalaridan boshlab Janubiy Koreya birinchi navbatda yengil, so'ngra og'ir sanoatni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish sohasi va savdoni yaxshilash orqali o'z iqtisodiy rivojlanishida keskin yutuq yaratdi. Qishloq aholisining ish o'rinlari ko'proq bo'lgan shaharlarga ketishi tufayli aholining ijtimoiy tarkibi asta-sekin o'zgarib bormoqda.

An'anaviy turmush tarzi bo'lgan psixologiyada katta o'zgarishlar ro'y bermoqda, o'sib borayotgan sanoat talablari ta'sirida o'rta va oliy ta'lim tizimi takomillashtirilib, kengaytirilmoqda.

Tashqi savdoda ham shunga mos o'zgarishlar yuz berdi. Janubiy Koreya po'lat, dengiz kemalari, avtomobillar, uy-ro'zg'or elektronikasi va boshqa shu kabi mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyo liderlari safidan o'rin egalladi.

1990-yillarga kelib Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlangan industrial davlat sifatida shakllandi va postindustrial taraqqiyot elementlariga ega bo'lib, jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egalladi.

Tayland, Malayziya, Indoneziya, Filippin Yaponiya modeli asosida kapitalistik taraqqiyot yo'lidan rivojlanayotgan va bunda yuqori natijalarga erishayotgan ikkinchi to'lqin davlatlari hisoblanadi.

Osiyodagi yangi industrial davlatlarning barchasini parlament demokratiyasi va ko'ppartiyaviylik tizimi, xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlikni va erkin bozorni taraqqiy ettirish, rivojlangan mamlakatlarning yordamiga tayanish va tashqi investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish kabi umumiy jihatlar birlashtirib turadi.



Direktiva - yuqori tashkilotning unga bo'ysunuvchi tashkilotlarga beradigan ko'rsatmasi, bajarilishi lozim bo'lgan hujjat.

Militarizm - jamiyatda harbiylar qatlami va harbiy ruhning ustuvorligiga, harbiy kuchga tayanuvchi siyosiy tizim. Bu tizimda davlat xarajatlarining katta qismi harbiy maqsadlarga yo'naltiriladi.

Texnopolis - texnologik yangiliklarni samarali qo'llash maqsadida tashkil qilingan erkin iqtisodiy hudud. Faoliyatining asosini ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi.

Investitsiya - iqtisodiyotning biron-bir sohasiga uzoq muddatli kapital kiritish.

Dizayn - loyihalash, chizish, o'ylab topish. Dizayn - bu loyihalash tafakkuri va ijodning uyg'unligiga asoslangan faoliyat turi.

Nou-xau - biron turdagi ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan texnik, tijorat va boshqa bilimlar majmuyi. Bu atama hujjatlar almashinuvi, ishchilarni o'qitish, mutaxassislar ishtiroki ko'zda tutilgan xalqaro kelishuv va shartnomalarda qo'llaniladi.



I. Bilimlarni sinash

1. Zamonaviy dunyoning yangi sanoat mamlakatlarini ayting.
2. Dunyoda qanday yapon tovarlariga talab katta?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. "Yangi industrial mamlakatlar" paydo bo'lishining asosiy shart-sharoitlari nimalardan iborat.
 2. Yapon "iqtisodiy mo'jizasi"ning asosiy shartlarini aniqlang.
- Osiyo va Afrika mamlakatlarini modernizatsiya qilishda qanday qiyinchiliklar bor?
3. Urushdan keyingi Yaponiyaning ahvoriga umumiy ta'rif bering.
 4. Yaponiyada demokratik jarayonlarni boshlagan amerikaliklar o'z oldilariga qanday maqsadlarni qo'ygan edi?
 5. 1970-yillarda Yaponiya iqtisodi duch kelgan muammolar nimalardan iborat edi?
 6. Yaponiyada postindustrial iqtisodiy moliyaning shakllanishiga qanday omillar turtki bo'ldi?
 7. Osiyoning «Yangi industrial davlatlari» atamasi qachon paydo bo'lgan?
 8. Osiyoning «Yangi industrial davlatlari»ni qanday umumiy jihatlar birlashtirib turadi?



III. Guruh muhokamasi uchun

G'arb va Sharq modelining farqlari haqida fikr yuriting

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Sotsialistik yo'nalish yo'li", "postindustrial jamiyat" va "modernizatsiya" atamalarini tushuntiring.
2. Jahon xaritasidan Osiyoning "yangi sanoatlashgan mamlakatlari"ni ko'rsating. Rivojlanayotgan mamlakatlarning modernizatsiyasi ularning madaniy an'alariga bog'liqmi?

V. Ijodiy topshiriq

1. Yapon yozuvchisi Yasusi Inouening «G'arb o'lkasi haqidagi xotiralar» kitobining «G'arb o'lkasi haqidagi birinchi xotiralar» qismini o'qing hamda

O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlari haqidagi ma'lumotlarni qisqacha konspekt qiling.

24- §. 1946-1991-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi



XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida Xitoy tarixini ikkita asosiy davrni ajratish mumkin. **Birinchi davr** (1949-1978) sotsialistik tajribalarni qamrab oladi. **Ikkinchi davr** (1978-yildan) XXRning bozor iqtisodiyotiga o'tishi xisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Xitoyda rasmiy hokimiyat Chan Kayshi boshchiligidagi Gomindan partiyasi (Milliy partiya)ga tegishli edi. 1945-yili mamlakat hududi va aholisining katta qismi gomindanchi Chan Kayshi hukumati tomonidan nazorat qilinardi.



Xitoyda Gomindan partiyasi qachon tuzilgan edi?

Chan Kayshi hukumati BMTni tuzishda faol qatnashdi va buyuk davlat sifatida Xavfsizlik Kengashining beshta doimiy a'zolaridan biri bo'ldi. 1945-yil avgustda SSSR va AQSH vositachiligida Xitoy Kommunistik partiyasi bilan Gomindan o'rtasida muzokaralar bo'lib, o'zaro dushmanlik harakatlarini to'xtatishga kelishildi.

Fuqarolar urushi. Ammo dunyoda «sovuq urush» boshlanib ketgan, SSSR va AQSH endi Xitoyda voqealarning tinch rivojlanishidan manfaatdor emasdi. Bu vaqtga kelib kommunistlar bilan gomindanchilar o'rtasidagi munosabatlar ham yomonlashib bordi. Hech kim kutmagan holda 1946-yil iyunda Xitoyda fuqarolar urushi qaytadan boshlandi.

AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan Chan Kayshi armiyasi 1947-yili kommunistlarning poytaxti Yanan shahrini egallab oldi. Ammo bu fuqarolar urushida gomindanchilarning oxirgi g'alabasi bo'ldi.

Hukumat tomonidan nazorat qilinayotgan hududlarda AQSH yordamiga qaramasdan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol borgan sari yomonlashib bordi. Uzoq urush tufayli iqtisod izdan chiqdi, ishsizlar soni muttasil ortib bordi, odamlar norozilik bildirib boshladi. Bir qator hududlarda gʻalayonlar boshlandi.

Ayni paytda Mao Szedun boshchiligidagi kommunistlar nazorat qilayotgan hududlarga SSSR juda katta yordam koʻrsatdi. SSSRning iqtisodiy yordami va quroli bilan Xalq-ozodlik armiyasi qayta tuzildi, armiyada qatʼiy tartib oʻrnatildi. Bu harakatlar urush taqdirini keskin oʻzgartirish imkonini berdi.

1947-yil iyulda Xalq-ozodlik armiyasi hujumga oʻtdi. Bir necha hujumlar natijasida Shimoliy va Markaziy Xitoyning keng hududlari kommunistlar nazorati ostiga oʻtdi. Gomindan armiyasida toʻliq tushkunlik boshlandi. Gomindan rejimi iqtisodiy va moliyaviy halokat yoqasida turardi. AQSH uni saqlab qolishga harakat qildi.

Ammo tez orada kommunistlar butun Xitoyni egallab oldi. 1949-yil sentabrda Pekinda Milliy siyosiy maslahat konferensiyasi ochildi. 1-oktabr kuni Xitoy Xalq Respublikasi eʼlon qilindi.

1952-yil dekabrda Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti mamlakatda «sotsializm qurish» toʻgʻrisida qaror qabul qildi. Unda jadalashtirish, ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurish, siyosiy demokratiyani rivojlantirish koʻzda tutildi. Bu vazifalarni bajarish uzoq muddatga, 15 yilga moʻljallangan boʻlib, bu muddatda ularning aksariyati amalga oshmay qoldi.

1960-yillarda Xitoyni rivojlantirishning «Katta sakrash», 1970-yillarda «Madaniy inqilob» deb nomlangan oʻta ziddiyatli siyosatlari amalga oshirilib, ular Xitoyga hech qanday iqtisodiy va siyosiy foyda keltirmadi. Aksincha, mamlakatning ahvolini ogʻirlashtirdi.

Yangi islohotlarning boshlanishi. Mao Szedun vafotidan soʻng hokimiyatga kelgan Den Syaopin va boshqa pragmatiklar 1970-yillarning oxiridan Xitoyda islohotlarning yangi strategiyasini ishlab chiqdi. 1981-yildan qishloq xoʻjaligini keng miqyosda qayta qurish boshlandi. Natijada Xitoy oʻzini oziq-ovqat

mahsulotlari bilan ta'minlash muammosini hal qilib, mahsulotlarni chetga eksport qila boshladi.

1982-yil kuzida XKPning XII qurultoyida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bilan bir qatorda XXRni 2000-yilgacha "yuqori darajada rivojlangan demokratiya"ga ega bo'lgan davlatga aylantirish XXRning asosiy vazifasi deb e'lon qilindi.

Siyosiy rivojlanishda kommunistik rejimning asosiy jihatlari saqlab qolindi. 1989-yil bahorda Pekin talabalarining norozilik namoyishiga boshqa shaharlarda millionlab ziyolilar qo'shildi. 1989-yil mayda Pekinda favqulodda holat e'lon qilindi. Den Syaopin Tyananmin maydonidagi namoyishni kuch bilan tarqatib yuborishni buyurdi. Talabalarga qarshi qurolli kuch ishlatildi, yuzlab yoshlar halok bo'ldi, ko'plab kishilar qamoqqa olindi. AQSH Kongressi Xitoyga qarshi sanksiya e'lon qildi. Ammo industrial mamlakatlar bilan munosabatlarning yomonlashuvi yuz bermadi. Chunki bu paytga kelib Xitoy juda katta ta'sirga ega mamlakatga aylangan edi. Bu voqealarga qaramasdan, Xitoyda islohotlar davom ettirildi.



Birinchi jahon urushidan oldin ham talabalar namoyishi bo'lganmi-di, agar bo'lgan bo'lsa u qanday sabab bilan yuz berganligini aniqlang?



Tyananmen maydonda norozilik namoyishlari.1989-yil

Tashqi siyosat. Xalqaro munosabatlarda Xitoy uzoq yillar o'zini ikkinchi darajali davlat sifatida his etib keldi. Xitoy BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda o'z o'rniga ega emasdi, uning o'rnini Tayvanda joylashib olgan Chan Kayshi boshchiligidagi gomindanchilar egallagandi. Ko'plab G'arb davlatlari bilan normal munosabatlar mavjud emasdi.

1970-yillardan boshlab holat o'zgardi. G'arb davlatlari bilan diplomatik munosabatlar tiklandi, 1971-yilda Xitoy Xalq Respublikasi vakili Tayvan o'rniga BMTda o'rin oldi va ikki tomonlama hamkorlik istiqbollari tahlil qilish boshlandi. AQSH bilan munosabatlar yaxshilandi, 1972 yilda AQSh prezidenti R.Niksonning Xitoyga birinchi rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi, faqat SSSR bilan murakkabligicha qoldi. 1980-yillari Xitoy yadro quroliga ega bo'lgan davlatga aylandi va xalqaro munosabatlarda shunga yarasha o'rin egallashga intildi.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan SSSR bilan ham munosabatlar yaxshilandi.



Mao Szedun (1893-1976) *XKP asoschilaridan biri, 1943-yildan XKP Markaziy qo'mitasi raisi. O'qituvchilar kollejini bitirgan, Pekin universiteti kutubxonasida ishlagan. U Gomindan guruhiga qarshi kurashda va XXRning tashkil etilishida hal qiluvchi rol o'ynadi.*

XXR tashkil etilgach, u mamlakat hukumatini boshqargan. Mao qurolli kurash, terror va zo'ravonlik tarixda hal qiluvchi rol o'ynashiga ishongan. Bu usullar bilan u Xitoyda sotsializm va kommunizmni tez qurishga harakat qildi. Mao sinfiy qarama-qarshiliklar sotsializmni qurish jarayonida yanada kuchaygan deb hisoblardi va shuning uchun raqiblariga qarshi doimiy mafkuraviy kurash olib borardi.

U, shuningdek, xitoy millatchiligini qo'llab-quvvatlagan va dunyoni inqilobiy o'zgartirishda xitoy millatining yetakchi rolini ta'kidlagan.



Pragmatik - pragmatizm tarafdori, falsafiy tizim. Maishiy ma'noda pragmatik - hayotga nisbatan o'z qarashlari va amallarini foydali natijalarga qarab shakllantiruvchi kishi.

Strategiya - hukumatning ishlab chiqarish, daromad va xarajat, budjet, soliq, kapital kiritish, narx-navo, ijtimoiy himoya borasidagi uzoq muddatli, eng muhim tadbirlari rejasi.

Sanksiya - xalqaro kelishuv va normalarni buzgan bir guruh shaxslar yoki butun boshli davlatga nisbatan qo'llaniladigan cheklov chorasi. Sanksiya iqtisodiy, harbiy, siyosiy va boshqa turda bo'lishi mumkin.

Katta sakrash - 1960-yillari Xitoyda sotsialistik iqtisodni shakllantirish uchun qo'llanilgan siyosat.



I. Bilimlarni sinash

1. 1940-yillardagi Gomindan va Xitoy Kommunistik partiyasi rahbarlarini ayting.
2. «Madaniy inqilob»ning maqsadlari nimalardan iborat edi?
3. Xitoyda Den Syaopin boshchiligida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1945-1949 yillarda XKP va Gomindan o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday bo'ldi?
2. XX asrning 50-yillarida XXRning tashkil topishi qanday kechdi?
4. XXRning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini tavsiflab bering asr boshi.
5. Xitoyda fuqarolar urushining boshlanishiga nima sabab bo'ldi va u qanday yakunlandi?
6. Xitoyda amalga oshirilgan «Katta sakrash» siyosatining mohiyati nimada edi?
7. Madaniy inqilob va uning Xitoy uchun oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi?
8. Xitoyda yangi islohotlarning boshlanishiga qanday sabablar turtki bo'ldi?
9. XX asrning 80 - 90-yillarida Xitoy tashqi siyosati haqida nimalar bilasiz?

10. Xitoydagi islohotlar XXI asr boshlariga kelib qanday natijalarga olib keldi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Xitoyning eng yangi tarixida "madaniy inqilob" qanday rol o'ynadi?

IV. Tarixiy atama va tushunchalar bilan ishlash

“Buyuk sakrash”, “madaniy inqilob” atama va tushunchalarini izohlang.

V. Ijodiy vazifalar

Xitoyning boshqa davlatlar uchun tajribasi qanday?

25-§. 1946-1991-yillarda Hindiston va Pokiston



Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin Hindistonda milliy ozodlik harakatining yuksalishi boshlandi. Hind milliy kongressi rahbarlari Angliyadan to'liq mustaqil bo'lishni talab qilishdi. Mustamlakachi hokimiyatga qarshi kurash haqiqiy milliy xarakterga ega bo'ldi. Zo'ravon qarshilik kampaniyalari mamlakatni tom ma'noda qamrab oldi. Hindistonda Britaniya hukmronligi kunlari sanoqli qolgandi.

Hindistondagi hind va musulmon diniy jamoalari o'rtasida kelishmovchiliklar yanada keskinlashdi. Buning ustiga urushdan keyingi oziq-ovqat inqirozi Hindistonni deyarli ocharchilik holatiga olib kelib, ahvolni juda murakkablashtirdi. Bu holat Buyuk Britaniyani tezroq Hindistonni tark etishga majbur qildi.



Hindiston milliy mustaqilligi uchun kurashgan qaysi vatanparvarlarni bilasiz?

Mustaqillikning e'lon qilinishi. 1946-yil 9-dekabrda Ta'sis majlisi ochildi. Inglizlar Hindistonni ikkita davlatga - Hindiston va Pokistonga bo'lish rejasini ishlab chiqdi. Aholining hind va musulmon diniy jamoalariga mansubligi bo'linish uchun asos qilib olindi.

1947-yil 15-avgust kuni ikkita mustaqil davlat - Hindiston va Pokiston tashkil topganligi e'lon qilindi. Hindiston hukumatini Javaharlal Neru, Pokistonnikini esa Liikat Alixon boshqardi.

Hindistonning bo'linishi ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Bo'linish paytidagi mojarolarda odamlarning ommaviy o'ldirilishi uzoq yillarga Hindiston va Pokiston o'rtasida o'zaro dushmanlik hissini shakllantirdi. O'z yurtini tashlab, boshqa hududlarga ko'chish ham millionlab kishilar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Musulmonlarni himoya qilganlikda ayblangan Maxatma Gandi hind-mutaassibi tomonidan o'ldirildi.

M. Gandining o'limi hindlar uchun juda katta milliy fojia bo'ldi. Bu fojia jazavaga tushgan olomonni biroz jilovladi, o'ylab ko'rishga, qon to'kishni to'xtatishga majbur qildi.

Iqtisodiy rivojlanish. Mustamlakachilikning iqtisodiy qoldiqlarini yengib o'tish oson kechmadi. Hukumat keng islohotlar olib bordi. Iqtisodning barcha sohalari erkin bozor siyosatiga jalb qilinib, ular asosini xususiy tadbir korlik va xususiy investitsiyalar tashkil qildi.

Eng katta islohot agrar sohada o'tkazildi. Yer unda mehnat qiladigan dehqonlarga tarqatildi. Yerni ijaraga berib, undan foyda olishga asoslangan tizim bekor qilindi. Biroq mehnat unumdorligi o'smadi, hosildorlik juda sekin o'sdi, oziq-ovqat muammosi yana uzoq vaqt saqlanib qoldi.

1950-yillarning ikkinchi yarmi- 1960-yillar Hindistonda jadal industrlashtirish boshlandi. Davlatga qarashli yirik sanoat korxonalari qurildi. Ammo iqtisodiy o'sish natijalari aholining o'sish sur'atlari oldida juda past bo'lib, yalpi milliy mahsulotning yarmidan ko'pi ichki iste'molga sarf qilinar edi. Natijada 1960-yillarda sog'liqni saqlash, ta'lim, fan va madaniyat sohalarida erishilgan muvaffaqiyatlarga, iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga qaramasdan, aholining yashash darajasi, turmush madaniyati pastligicha qolaverdi.

Zamonaviy siyosiy tizimning shakllanishi. XX asrda mustaqillikka erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlari ichida Hindiston muqim parlament demokratiyasini shakllantira olgan yagona davlat bo'ldi. 1949-yili Hindistonning yangi Konsti-

tutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya asosiy demokratik erkinliklar, inson huquqlari, kastalar tengligini, hokimiyatning bo‘linishi prinsipini e’lon qildi.

1960 - 1970-yillardagi inqiroz. 1965-yil Hindiston bilan Pokiston o‘rtasida boshlangan urush Hindistonda ichki siyosiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Urushni to‘xtatish uchun 1966-yili Toshkentda Hindiston va Pokiston o‘rtasida muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlanib, Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Shu davrda iqtisodiy qiyin chiliklar ham ortib bordi. 1966 - 1967-yillarda iqtisodda turg‘unlik yuz berdi. Keyingi yillarda ham sanoat o‘ssishi past darajada bo‘ldi. Mamlakatga ochlik doimiy xavf solib turdi. 1960-yillarda agrar islohot o‘tkazildi. Ammo u ahvolni sezilarli yaxshilamadi. Hind dehqonlari hali ham ochlik darajasida kun kechirardi.



n.ziyouz.com saytidan Sharof Rashidovning «Kashmir qo‘shig‘i» qissasini ko‘chirib oling va o‘qing hamda kichik o‘quv loyihasini tayyorlab, to‘garak mashg‘ulotida taqdimotini o‘tkazing.

Shunday holatda bosh vazir Indira Gandi 1970-yillarda bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Ular, asosan, iqtisodga davlat aralashuvini kamaytirishga qaratilgan edi. Natijalar yomon bo‘lmadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi- ning yillik o‘ssishi keskin oshdi. 1980-yillar o‘rtalaridan mamlakat g‘alla bilan o‘zini o‘zi ta’minlay boshladi. Chet el investitsiyalari ham ko‘paydi.

Ammo 1990-yillar boshida Hindistonning iqtisodiy ahvoli yana yomonlashdi. Iqtisodiy o‘ssish deyarli to‘xtadi, inflatsiya kuchaydi, ishsizlik oshdi.



Javaharlal Neru qizi Indira Gandhi bilan

Tashqi siyosatda. 1950-yillari «J. Neru kursi» shakllandi. Bu buyuk davlatlar o'rtasidagi mojarolardan chetda turish siyosati edi. J.Neru Qo'shilmaslik harakatining tashab buskorlaridan biri bo'ldi. Qo'shilmaslik harakati Hindistonning butun XX asrdagi tashqi siyosatini belgilab berdi.



Indira Gandhi (1917-1984) - davlat arbobi, hind milliy kongressi rahbari, Hindistonning yagona ayol bosh vaziri. Javaharlal Neruning qizi. Uning bobosi Mahatma Gandining yaqin hamkori bo'lgan. 12 yoshida u Hindiston uchun mustaqillikni orzu qilgan bolalar harakatini boshqargan. Indira Gandhi Hindiston, Shveytsariya, Buyuk Britaniyada ta'lim olgan. An'anani buzgan holda, u o'z tabaqasidan bo'lmagan odamga uylandi. Mamlakatning faol rivojlanishiga hissa qo'shdi. Uning davrida birinchi atom elektr stansiyasi ishga tushirildi, mamlakat nihoyat oziq-ovqat importidan mustaqil bo'ldi. Britaniyaning "BBC" radioeshittirish korporatsiyasining 1999- yildagi so'roviga ko'ra, Indira Gandhi "Mingyillik ayoli" bo'ldi.



Pokiston. Islom dini Pokiston uchun millatni jipslashtiruvchi omil bo‘lib keldi. Ammo mustaqillikdan so‘ng mamlakat murakkab siyosiy jarayonlarni boshidan kechirdi. Diniy va hududiy mojarolar barqaror siyosiy tizimning shakllanishiga, iqtisodning rivojlanishiga xalaqit berdi. Pokistonda mehnatkashlarning ahvoli og‘irligicha qoldi.

1971- yilda Sharqiy Bangladesh Bengaliyaning Pokistondan chiqib ketishi natijasida mustaqil Bangladesh Xalq Respublikasi davlat sifatida tashkil topdi.

1977-yili harbiy to‘ntarish ro‘y berdi - hokimiyatga general Ziyo ul Haq keldi. U parlamentni tarqatib yubordi, premyer-ministrni vazifasidan ozod qildi va erkin saylovlar tayinladi. 1988-yilgi saylovlar natijasida hokimiyatga Benazir Bxutto bosh chiligidagi Pokiston xalq partiyasi keldi. B. Bxutto mamlakatning bosh vaziri bo‘ldi.

Ziyo ul-Haq davrida qamoqqa olingan barcha siyosiy arboblarga amnistiya berildi. 1990-yili Pokiston prezidenti B. Bxutto hukumatini korrupsiyada ayblab, bosh vazirni lavozimidan ozod qildi, yangi saylov o‘tkazdi va unda B. Bxutto mag‘lubiyatga uchradi.



Amnistiya - hokimiyatning oliy organi tomonidan ji noyat sodir etganlarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoiy jazodan qisman yoki to‘liq ozod etish usuli.

Kurs - siyosat yo‘nalishi, yo‘l.



I. Bilimlarni sinash

1. J. Neru hukumati islohotlarining mohiyati nimadan iborat edi?
2. I. Gandi hukumati ichki siyosatining xususiyatlarini aniqlang.
3. Ukraina-Hindiston munosabatlarining rivojlanishini tavsiflab bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1947-yilda Buyuk Britaniya Hindistonni ikki dominionga – Hindiston ittifoqi va Pokistonga bo‘lishga qaror qildi. Ushbu qaror qanday oqibatlarga olib keldi?
2. 1950-yillarda suveren Hindiston davlatining tashkil topishi qanday sodir bo‘ldi?

3. 1980-1990-yillarning ikkinchi yarmida Hindistonning rivojlanishini tavsiflang.
4. Hindiston modernizatsiya yo‘lida erishgan asosiy yutuqlari nimalardan iborat?
5. Pokiston mustaqillikka erishgandan so‘ng 1950 - 1960-yillarda qanday siyosiy holat vujudga keldi?
6. Pokistonda 1977-yilgi harbiy to‘ntarish qanday natija bilan tugadi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Hindistonning hozirgi bosqichdagi tashqi siyosatini tahlil qiling.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. «Separatizm» atamasini tushuntiring.
2. Hindistondagi ingliz mustamlakachiligida tugatilgandan keyin tuzilgan mustaqil davlatlarni xaritadan ko‘rsating

V. Ijodiy vazifa

Hindistonning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi qanday?

26-§. 1946-1991-yillarda Turkiya, Eron va Afg‘oniston



1946 - 1980-yillarda Turkiya. Turkiya prezidenti Ismet Inyonyu Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Otaturkning yo‘lini davom ettirdi, mamlakatda bitta partiya diktaturasi saqlanib qoldi.



Usmoniy turklar davlati haqida nimalar bilasiz?

«Sovuq urush» yillarida Turkiya G‘arb bilan birga bo‘ldi. Buyuk Britaniya, keyin AQSH Turkiyaga moliyaviy va iqtisodiy yordam ko‘rsatdi. Turkiya «Marshall rejasi»ga kiritildi, NATOga a‘zo bo‘ldi.

G‘arb davlatlari bilan hamkorlikka, ularning yordamiga qaramasdan, 1980-yillargacha Turkiyada iqtisodiy o‘rish sur‘atlari past bo‘ldi. Demokratik jarayonlar

sekin rivojlanib, siyosatda armiyaning roli yuqoriligicha qoldi. Bu 1960-1970-yillarda bir qator harbiy to'ntarishlarga olib keldi.

1980-yil sentabrda general Kenan Evren navbatdagi harbiy to'ntarish o'tkazib, yana harbiylar hokimiyatni qo'lga oldi. O'ta qattiq, hatto, dahshatli usullar bilan bo'lsa-da, mamlakatda tartib o'rnatildi. 1982-yil noyabrda o'tkazilgan referendum yangi konstitutsiyani tasdiqladi.

1983-yili Turkiya bosh vaziri bo'lgan Turg'ut O'zol Turkiyada XX asrning oxirlarida amalga oshirilgan islohotlarda juda katta rol o'ynadi. U Turkiyada zudlik bilan iqtisodiy islohotlar boshlab yubordi.

Iqtisodda davlatning roli pasaydi, davlat sektorini keng xususiylashtirish boshlandi, eksportni rag'batlantirish to'g'risida, erkin iqtisodiy zonalarini tuzish to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Natijada Turkiya jadal rivojlanish yo'liga tushdi. Iqtisodda davlat sektorining ustunligi urushdan keyingi Turkiyaning xarakterli jihati edi. Faqat T.O'zol islohotlari bunga chek qo'ydi, mamlakatda siyosiy holatning ham ijobiy tomonga o'zgarishi yuz berdi. 1989-yilgi saylovlarda T.O'zol Turkiya Respublikasi prezidenti qilib saylandi. 1990-yildan bosh vazir lavozimini boshqa bir tajribali siyosatchi Sulaymon Demirel egalladi.

Tashqi siyosatda Turkiya uzoq yillardan beri Yevropa Ittifoqiga kirish uchun harakat qilib kelmoqda. Turkiyaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan Yevropa bilan bog'langanligi, NATOning a'zosi bo'lganligiga qaramasdan, hamon Yevropa Ittifoqiga qabul qilinmadi.



Eron. 1946-yili ingliz va sovet qo'shinlari Erondan olib chiqib ketildi. 1950-yillarning birinchi yarmida Eron siyosati, asosan, mamlakat neft sanoatini natsionalizatsiya qilishga bag'ishlandi.



Safaviylar davlati haqida nimalar bilasiz?

Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy zamonaviy, o'qimishli kishi edi. U mamlakatda korrupsiyaga qarshi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. 1963-yil referendum o'tkazilib, unda shoh mamlakatda islohotlar o'tkazish taklifini kiritdi. Referendumda aholi shoh takliflarini qo'lladi. Bu islohotlar umumiy nom bilan «oq inqilob» deb ataldi. «Oq inqilob»ning o'n yilida Eron iqtisodiy o'sish bo'yicha dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Eronning neftdan oladigan daromadi ham keskin oshdi. Sanoatning mashin asozlik, stanoksozlik va boshqa sohalari jadal rivojlandi.

Shoh hokimiyatining ag'darilishi. Shoh islohotlari natijasida mamlakat ning zamonaviylashuvi Erondagi dindor mutaassiblarni qattiq tashvishga soldi. Ular shohga qarshi tashviqot olib bordi. Bu tashviqot dindorlar boshchiligidagi xalq g'alayonlariga olib keldi. Oqibatda 1979-yil fevralda hukumat iste'foga chiqdi. Shoh rejimi ag'darildi, Eron Islom Respublikasi deb e'lon qilindi. Dindor shaxslardan tuzilgan Kengash yangi konstitutsiyani ishlab chiqishga kirishdi. Zudlik bilan xulq-atvorning diniy normalari joriy qilindi: alkogol iste'mol qilish, musiqa, raqs, kino shaxmat o'yini, kitoblar taqiqlandi, barcha kinoteatrlar yopildi. Ayollar islom an'analari bo'yicha kiyinishga, chodra o'rab yurishga majbur qilindi.

G'arb mamlakatlari Eronga qarshi sanksiyalar e'lon qildi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli og'irlashib bordi. Shunday holatda 1980-yili Iroq qo'shinlari Eronga bostirib kirdi. Boshlangan Eron-Iroq urushi 1988-yilgacha davom etdi. Eronda oziq-ovqat qiyinchiligi boshlanib, kartochka tizimi joriy qilindi, iqtisod tanazzulga yuz tutdi. Butun dunyoda Eron xalqaro terrorizm va islom fundamentalizmi o'chog'i deb qaraladigan bo'ldi. Shunday holatda inqilob yetakchisi, Eron Islom Respublikasi diniy rahbari Oyatilloh Ruhulloh Humayniy 1989-yili vafot etdi.

1990-yillarda iqtisod barqarorlashib, YIM (yalpi ichki mahsulot) ning o'sish sur'atlari jadallashdi. Shu yillari islom radikalizmi ham biroz susaydi.



Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasidan. 1979- yil

O'tgan asrda Eronda sodir bo'lgan boshqa inqilobiy harakatlardan farqli o'laroq, bizning inqilobimizning o'ziga xos xususiyati uning diniy, islomiy xarakteridir. Konstitutsiyaviy monarxiya uchun despotik harakatdan neftni milliylashtirish harakatigacha Eron xalqi bebaho tajriba orttirdi, bu esa yuqorida sanab o'tilgan harakatlar diniy bo'lmaganligi tufayli muvaffaqiyatli bo'lmagani haqida guvohlik berdi ...



Eronda inqilobiy harakatning o'ziga xos xususiyati nimada?

Afg'oniston. Afg'oniston shohi Muhammad Zohirshoh ilimli kishi bo'lib, afg'on jamiyatini yaxshi bilar va modernizatsiyalashning muhimligini chuqur his etardi.



Afg'oniston hukmdori Ahmadxon qachon hokimiyat tepasiga kelgan edi?

Bu davrda Afg'onistonga SSSR, Fransiya, Xitoy yordam ko'rsata boshladi, nemislar, yaponlar, hindlar hamkorlikdagi korxonalar qurdi. Ammo Ijtimoiy hayotda o'zgarishlar sekin kechdi, keskin islohotlar amalga oshirilmadi. Shunga qaramasdan, bu o'zgarishlar shohni ag'darish tarafdorlarini faollashtirib yubordi. Natijada 1973-yili shoh taxtdan ag'darildi. Muhammad Dovud prezident deb e'lon qilindi.

M. Dovud bir qator islo hotlarni amalga oshirdi. Ammo bular afg'on xalqi ning juda kam qismiga ta'sir qildi, xolos. Eng muhim tadbirlardan biri savodsizlikni tugatish bo'yicha davlat boshqarmasini tuzish bo'ldi. Davlat ta'limni to'liq o'z nazoratiga oldi, barcha maktablar va o'quv yurtlari Maorif vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi.

1977-yili yangi Konstitutsiya qabul qilinib, unga ko'ra M. Dovud umrbod prezident deb e'lon qilindi. Ammo M. Dovud armiya ustidan o'z hukmronligini o'rnatolmadi.

1978-yil 27-aprelda Afg'oniston harbiy-havo kuchlari qo'mondoni polkovnik Abdul Qodir boshchiligidagi harbiylar davlat to'ntarishini amalga oshirib, M. Dovudni hokimiyatdan chetlatdi. Inqilobiy kengash tuzilib, u o'zini Afg'onistondagi oliy hokimiyat deb e'lon qildi. Kengashga Nur Muhammad Tarakiy boshchilik qildi.

Hokimiyatga kelgan guruh ichida ham birlik yo'q edi. Natijada N.M.Tarakiy o'ldirildi. Hokimiyatni Hafizullo Amin o'z qo'liga oldi. U SSSRga murojaat qilib, Afg'onistonga sovet qo'shinlarini kiritishni so'radi.

Shunday sharoitda 1979-yil dekabrda Afg'onistonga sovet qo'shinlari kiritildi. H. Amin o'ldirildi. Mamlakatda ahvol og'irlashib, deyarli ocharchilik boshlandi. Millionlab kishilar mamlakatni tark etib, qo'shni mamlakatlarda qochoqqa aylandi. Hokimiyatda turgan Afg'oniston xalq demokratik partiyasi (AXDP)ga raqib bo'lgan jangari mujohidlar mamlakatning katta qismini nazorat qilardi.

1986-yili hokimiyatga Muhammad Najibullo keldi. U xavfsizlik xizmatining boshlig'i bo'lib, qat'iyatli va jasur kishi edi. Uning siyosati ancha muvaffaqiyatli bo'ldi. 1989-yili SSSR o'z qo'shinlarini olib chiqib ketdi, AQSH va Pokiston esa isyonchilarga qurol yetkazib berishni to'xtatdi. M. Najibullo hokimiyatni saqlab qoldi, ammo bu uzoq cho'zilmadi. 1991-yil oxiriga kelib SSSR tugatilgandan so'ng M. Najibullo hukumati og'ir ahvolda qoldi.



Terrorizm - tinch aholini qiynash, qo'rqitish, jismonan yo'q qilishga asoslangan siyosat.

Fundamentalizm - eskirib qolgan tushunchalarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishga keskin qarshi chiquvchi, an'anaviy qadriyatlarni tiklash uchun kurashuvchi o'ta konservativ diniy oqim.

Islom radikalizmi - diniy-siyosiy mafkura va amaliy faoliyat bo'lib, u musulmon aholi yashaydigan davlatlarning ichki va ular ishtirokidagi xalqaro muammolarni, shuningdek, davlatlararo munosabatlarni shariat asosida hal etish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan.

Mujohid - jihodda ishtirok etuvchi musulmon.



I. Bilimlarni sinash

1. Turg'ut O'zol hukumati islohotlarining mohiyati nimadan iborat edi?
2. Paxlaviy hukumati ichki siyosatining xususiyatlarini aniqlang.
3. Avg'oniston-SSSR munosabatlarining rivojlanishini tavsiflab bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Turkiyada 1945 - 1980-yillarda amalga oshirilgan islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
2. Turkiyani jadal rivojlanish yo'liga tushirgan T. O'zol islohotlari haqida gapirib bering. Bu islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
3. Erondagi «Oq inqilob» qanday maqsadlarni ko'zlagan edi va u qanday natijalarga olib keldi?
4. 1979-yili Eronda shoh rejimining ag'darilishi va Eron Islom Respublikasining e'lon qilinishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
5. Eron-Iroq urushi qanday natijalar bilan tugadi?
6. Afg'onistonda 1979-yili amalga oshirilgan «inqilob» afg'on jamiyatida qanday o'zgarishlarga olib keldi?
7. Afg'onistondan sovet qo'shinlari olib chiqilgandan so'ng mamlakatda qanday jarayonlar yuz berdi? Mamlakatning tinch rivojlanish yo'liga o'tishi qanday kechmoqda?

III. Guruh muhokamasi uchun



Eronning hozirgi bosqichdagi tashqi siyosatini tahlil qiling.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. «Oq inqilob » atamasini tushuntiring.

2. Turkiya, Eron va Afg'oniston mustaqil davlatlarini xaritadan ko'rsating

V. Ijodiy vazifa

1.1979-yil dekabrda Afg'onistonga sovet qo'shinlari kiritilishi sababini aniqlang

2.Quyidagi yetishmayotgan tarixiy faktlarlar ro'yxatidan foydalani, jadvalning bo'sh kataklarini to'ldiring: harf bilan belgilangan har bir bo'shliqni tanlang va jadvalga yozing.

Davr	Voqea	Ishtirokchi
_____A	Afg'onistonga sovet qo'shinlari kiritilishi	_____C
1973-yili	_____D	Muhammad Dovud
_____B	_____E	T. O'zol

1. 1979-yil dekabrda

3. Afg'oniston shohi taxtdan ag'darildi

2. Muhammad Najibullo

4. Turkiya Respublikasi prezidenti qilib saylandi.

5. Hafizullo Amin

6.1989-yil

27-§. 1946-1991-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari



Lotin Amerikasi - Shimoliy Amerikaning janubi, Markaziy va Janubiy Amerika va Karib dengizi orollari hududlarini o'z ichiga olgan mintaqaning umumiy nomi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiy islohotlar o'tkazishi uchun qulay sharoit vujudga keldi: ular ancha katta valuta zaxirasiga ega bo'ldi, jahon savdosida ulushi oshdi. Bu hol Lotin Amerikasi mamlakatlarida ommabop, lekin avtoritar rejimlarning shakllanishi uchun qulay muhit yaratdi.



Ikkinchi jahon urushida Lotin Amerikasi ishtiroki haqida nimalar bilasiz?

1970-yillar oxiri-1980-yillar boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida diktatorlik rejimlariga qarshi kurash faollashdi. Bu 1979-yili Nikaraguada inqilobga, Salvador va Gvatemalada isyonchilik harakatining kuchayishiga olib keldi. Janubiy Amerika davlatlari - Ekvador, Peru, Boliviya, Argentina, Braziliya va Urugvayda harbiy rejimlar fuqarolik hukumatlari bilan almashtirildi.

XX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan modernizatsiyalashning uchta - **inqilobiy, neokonservativ va islohotchilik** variantlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu variantlarni uchta mamlakat misolida ko'rib chiqamiz.



Kuba: modernizatsiyalashning inqilobiy varianti. 1950-yillar oxirida Karib dengizidagi kichikina orol - Kubada yuz bergan voqealar butun dunyoning e'tiborini o'ziga jalb qildi. Kuba jamiyatni modernizatsiya qilishning inqilobiy yo'lini tanladi.

1959-yil 1-yanvar kuni Fidel Kastro boshchiligida qo'zg'olonchilar Kuba poytaxti Gavana shahriga kirib kelishdi, inqilob g'alaba qozondi. F. Kastro hukuma- ti faqat keskin sifat o'zgarishi Kubani qoloqlikdan olib chiqadi, jamiyatni taraqqiyot ning zamonaviy darajasiga ko'taradi, deb o'ylab, keskin ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirdi. AQSHning Kubadagi yangi hukumatga dushmanlarcha munosabati aniq bo'lgach, F. Kastro hukumati SSSR bilan kelishuv orqali mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlay boshladi. Bu esa 1962-yilgi Karib inqiroziga olib keldi.

Kuba dastlabki davrda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini modernizatsiya qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Sof agrar mamlakat bo'lgan Kubani agrar-industrial mamlakatga aylantirish kursi tanlandi.

Ammo 1980-yillardan jamiyatni modernizatsiya qilishning Kuba variantida ma'lum kamchiliklar ko'zga tashlana boshladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholining yashash darajasi pasaydi. SSSRning parchalanishi Kuba uchun juda katta zarba bo'ldi. 1990-yillarda ko'pchilik F. Kastro rejimining qulashini bashorat qilgan edi. Ammo bu rejim saqlanib qoldi.



Chili:modernizatsiyaning neokonservativ varianti. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tgan vaqt davomida Lotin Amerikasi mamlakatlari jamiyatni modernizatsiya qilishning optimal variantini izladilar. 1960-yillari Chilida hukumat mamlakatni modernizatsiyalashga harakat qildi. Bunda u ilgari ilg'or mamlakatlarda sinovdan o'tgan islohotchilik

tizimlariga tayandi. Ammo boshlangan islohotlar borgan sari jamiyatdagi bo'linishni kuchaytirdi, mamlakat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohalarida keskinlikni yuzaga keltirdi. Navbatdagi prezident saylovlaridan oldin Xalq birligi bloki tashkil qilinib, unga kommunistlar, sotsialistlar, radikallar va Xalq faoliyati yagona harakati kirdi. 1970-yili shu blok nomzodi Salvador Alyende Chili prezidenti qilib saylandi.

S. Alyende hukumati chuqur islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Ammo jamiyat manfaatlariga ta'sir qiladigan, odatdagi hayot tarzini, an'anaviy ijtimoiy aloqalarni buzadigan har qanday tadbir singari S. Alyende hukumati boshlagan islohotlar ham mamlakatda turli qarashlar, qarshiliklarni keltirib chiqardi. 1973-yili davlat to'ntarishi amalga oshirilib, hokimiyatga general Augusto Pinochet boshchili- gidagi harbiy xunta keldi. Chilida qamal holati e'lon qilindi. Konstitutsiya va deyarli barcha demokratik erkinliklar bekor qilindi.

Pinochet hukumati tanlagan modernizatsiyalashning neokonservativ varianti katta ijtimoiy muammolarga olib keldi. Avvalo, ish haqi, ayniqsa, islohotlarning dastlabki yillarida, sezilarli darajada kamaydi, ishsizlik keskin oshdi.

Neokonservativ modernizatsiyalashning bunday ziddiyatli natijalari mamlakatdagi umumiy siyosiy muhitga ham ta'sir ko'rsatdi. 1989-yili o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida Xristian-demokratik partiya yetakchisi P. Eylvin g'olib chiqdi. Diktatura davri tugadi.



Meksika: **modernizatsiyalashning islohotchilik varianti.** 1958-yili Meksika sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'ringa chiqdi. Mamlakatning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishida davlat sektori asosiy rol o'ynadi.

Lotin Amerikasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan Kuba inqilobi Meksika rahbarlarini ham ijtimoiy sohaga jiddiy e'tibor qaratishga undadi. Ammo modernizatsiyalashning Kuba variantini qabul qilmasdan, Meksika ayni paytda Chili variantiga ham o'ta ishonchsizlik bilan qaradi. Meksika hukmron doiralari rivojlanishning liberal-islohotchilik yo'lidan chekinmadi.

1980-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Meksika uchun katta sinov bo'ldi. Inqiroz yengib o'tilgan bo'lsa-da, ishsizlik, tashqi qarz keskin oshdi, tashqi dunyoga, birinchi navbatda AQSHga qaramlik ham ortdi.



Harbiy rejim - davlatni boshqarish shakli bo'lib, unda butun hokimiyat harbiylarga tegishli bo'ladi. Odatda, harbiy rejimlar harbiy to'ntarish orqali o'rnatiladi.

Agrar-industrial mamlakat - asosiy boyligini qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil qiladigan, sanoati qishloq xo'jalik mahsulotlari va tabiiy boyliklarni qayta ishlashga yo'naltirilgan mamlakat.

Harbiy xunta - davlat to'ntarishi orqali hokimiyatga kelgan, odatda zo'ravonlik va diktatorlik usullari bilan davlatni boshqaradigan harbiylar hokimiyati.



I. Bilimlarni sinash

1. 1945-1960 yillarda AQSHning mintaqadagi ta'sirining kuchayishiga nima sabab bo'ldi?
2. Kuba inqilobi yetakchisini ayting.
3. Braziliya, Chilining asr boshidagi rivojlanish xususiyatlarini aytib bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Lotin Amerikasi davlatlarining 1945-1960 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlarini aytib bering.
2. Asr boshida Lotin Amerikasidagi ichki siyosiy jarayonlarning xususiyatlari qanday edi?
3. Kuba inqilobi haqida ma'lumot bering.
4. Chilidagi inqilobiy jarayonlarning xususiyatlarini aniqlang.
5. 1950 - 1980-yillar birinchi yarmida Lotin Amerikasi mamlakatlarida yuz bergan asosiy siyosiy o'zgarishlar haqida gapirib bering.
6. Modernizatsiyalashtirishning Kubaga xos bo'lgan inqilobiy yo'li qanday keskin o'zgarishlarni nazarda tutadi?
7. Chilida S. Alyende hukumatining islohotlari ma'lum yutuqlarga qaramasdan nima uchun ommalashmadi?
8. Meksikada modernizatsiyalashning islohotchilik varianti Kuba va Chili variantlaridan nimasi bilan farq qiladi?
9. XXI asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari jahon siyosatida katta ta'sirga ega emasligining sabablari nimada?

III. Guruh muhokamasi uchun



Lotin Amerikasi mamlakatlarida harbiy diktatura tuzumlarini tugatishning asosiy shartlari qanday edi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Lotin Amerikasi", "xunta" atamalarini tushuntiring.
2. Internet vositasida Lotin Amerikasi davlatlari yozuvsiz xaritasiga davlatlarning nomlarini yozib chiqing.



V. Ijodiy vazifalar

1.1963-yilda Kuba rahbari Fidel Kastroning O‘zbekistonga tashrifi haqidagi ma’lumotlarni izlab toping hamda «Sharof Rashidov va Fidel Kastro» mavzusida taqdimot tayyorlang.

2. ziyouz.uz saytidan Alvaro Yunkening «Muallima uchun atirgul» hikoyasini ko‘chirib oling va o‘qing, muallimlar haqida yozilgan boshqa hikoyalar bilan qiyoslab, tahlilini daftaringizga yozing.

28-§. 1946-1991-yillarda Afrika mamlakatlari



Ikkinchi jahon urushi va uning oqibatlari. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Afrikada milliy-ozodlik harakatining xarakteri o‘zgardi. 1945-yil Manchester shahrida V Panafrika kongressi bo‘ldi. U Afrika xalqlari kurashida sifat jihatidan yangi davr boshlanganligini aks ettirdi. Bu kongressda oldingilariga nisbatan juda ko‘p Afrika tashkilotlari qatnashdi. Kongressda mustamlakachilikka va imperializmga qarshi ruh ustuvor bo‘ldi. Afrikaning barcha mintaqalari va mamlakatlaridagi ahvol muhokama qilindi. Kongress butun qit‘aga va barcha yirik mintaqalar hamda mamlakatlarga qaratilgan yangi inqilobiy talablarni ilgari surdi.




Ikkinchi jahon urushida Afrika xalqlarining ishtiroki haqida nimalarni bilasiz?

Ko‘plab Afrika mamlakatlari uchun urushdan keyingi yillar siyosiy partiyalarni tuzish, mustamlaka rejimlarini qulatish uchun kurash davri bo‘ldi. Afrikaliklar ongida mustamlakachilik tushunchasi Yevropaning hukmronligi bilan bog‘liq edi. Shu sababli mustaqillik uchun kurash ko‘pincha barcha yevropacha narsalarni rad qilishga aylanib qoldi.

Metropoliyalar ham asta-sekin hukmronlikning avvalgi usullaridan voz kechib bordi.

«**Afrika yili**». Mustamlakachilikdan ozod bo‘lish jarayonining eng yuqori nuqtasi 1960-yilga to‘g‘ri keldi. U tarixga «Afrika yili» sifatida kirdi. Shu yili

jahon xaritasida 17 ta yangi Afrika davlatlari paydo bo'ldi. Ularning ko'pchiligi fransuz va ingliz mustamlakalari edi. Afrikaning eng katta davlatlari Nigeriya va Kongo o'z mustaqilligini e'lon qildi. Mustamlakachilik davrida ikkiga bo'linib ketgan Somali birlashib, mustaqil Somali Demokratik Respublikasi nomini oldi.



«Afrika yili» qit'adagi holatni o'zgartirib yubordi. Boshqa mamlakatlarda ham mustamlaka tuzumining qulashi muqarrar bo'lib qoldi. Keyingi yillarda Buyuk Britaniyaga qarashli deyarli barcha davlatlar o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1975-yili Portugaliyada inqilob yuz bergandan so'ng uning mustamlakalari ham mustaqil davlatlar sifatida tashkil topdi.

Shu tariqa, 1990-yillarga kelib, Sahroyi Kabirdan janubda 40 dan oshiq siyosiy mustaqil davlatlar tashkil topdi. Ularning ko'pchiligi o'zlarini respublika deb e'lon qildi.

Afrika davlatlari muammolari. Mustamlakachilik rejimining ag'darilishi va siyosiy hokimiyatning afrikaliklarga o'tishini butun Afrika juda katta yutuq deb hisobladi. Ular o'zlarining ulkan umidlarini mustaqillik bilan bog'ladilar. Deyarli birdaniga hayot tubdan yaxshilanadi, degan ishonch keng tarqalgan edi. Bu quvonchli umidlarga aholining katta qismi singari soddadillik bilan bo'lmasa-da, har qalay afrikalik liderlarning ham ko'pchiligi ishonar edi.

Hayot yaxshilanib bordi. Afrikaliklar davlat apparatining barcha bo'g'inlarini, armiya, politsiyani o'zlari shakllantira boshladi. Afrikaliklar madaniyatining rivoji uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ishida teng huquq bilan ishtirok etish, yangi davlatlar va ular fuqarolarining o'zligini namoyon qilishida katta rol o'ynadi. Yosh davlatlar dunyoning ko'plab mamlakatlaridan, BMTning ixtisoslashgan organlaridan, xalqaro fondlar va banklardan sezilarli yordam ola boshladi.

«Sovuq urush» sharoitida qarama-qarshi bloklar o'rtasida Afrika davlatlariga ta'sir ko'rsatish uchun kurash boshlandi. Mustaqillikka erishgan davlatlarning bir qismi sotsialistik davlatlar, avvalo, Sovet Ittifoqiga ergashib, «nokapitalistik taraqqiyot yo'li»ni tanladi. Ko'pchilik hollarda nokapitalistik yo'lni tanlagan mamlakatlarda mushkul holatlar vujudga keldi, mustaqillik uchun kurashgan kechagi liderlar va hukmron partiyalar hokimiyatga kelgach, zolim va diktatorlarga aylandilar, fuqarolar urushlari esa ko'plab qon to'kishlarga olib keldi. Ammo kapitalistik yo'lni muqarrar deb bilgan boshqa bir qator davlatlarda ham shunday, deyarli bir xil muammolar paydo bo'ldi.

Ko'plab Afrika davlatlari mustaqillik e'lon qilingandan keyin ham dunyoning eng kambag'al davlatlaridan bo'lib qolaverdi. Mustaqil davlatni qurish juda murakkab jarayon bo'lib chiqdi. Qiyinchiliklarning ko'pchiligi o'tmishdagi mustamlakachilik bilan, yana bir qismi esa mustamlakachilikdan oldingi an'analar bilan bog'liq edi.

Mustamlakachilik tuzumi ag'darilgandan so'ng mustamlaka boshqaruv tuzumi ham bekor qilindi va hokimiyatga yangi, davlatni boshqarish tajribasiga ega bo'lmagan kishilarning kelishi ham ahvolni ancha murakkablashtirdi. Bir qator Afrika davlatlarida ko'p sonli, tajribasiz va samarasiz, qulog'igacha korrupsiyaga botib qolgan, davlat boyligini talon-taroj qiluvchi va shu asosda bir-birini qo'llab-quvvatlovchi byurokratik apparat vujudga keldi. Bunday sharoitda yagona tartib va kuchga ega bo'lgan tashkilot armiya bo'lib qoldi. Natijada to'xtovsiz harbiy to'ntarishlar yuz berdi. Hokimiyatga kelgan diktatorlar cheksiz boyliklarni egallab oldilar. Iqtisodiyotning yomon faoliyat yuritishi narkotiklar ishlab chiqarish va

tarqatish, noqonuniy ravishda oltin va olmos qazib olish va, hatto, odam savdosi kabi salbiy holatlarning keng tarqalishiga olib keldi.

Davlat chegaralarining o'ta sun'iyligi ham Afrika davlatlarining shakllanishini juda qiyinlashtirdi. Chegaralar mustamlakachilik davridan meros qolgan bo'lib, mustaqil davlatlar tashkil bo'lishida aholining etnik mansubligi inobatga olinmagan edi. Bu hol doimiy etnik mojarolarni keltirib chiqardi va millionlab qochoqlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Davlatlararo va bir davlat doirasidagi etnik mojarolar Afrika uchun haqiqiy kulfatga aylandi.

Qashshoqlikdan, urush va genotsiddan, sanoatning yo'qligi tufayli ishsizlik va ilojsizlikdan qutulish uchun millionlab afrikaliklar o'z qit'asini tashlab ketdilar. Hozir Buyuk Britaniya, Fransiya kabi Yevropa davlatlarida millionlab afrikaliklar istiqomat qilmoqda. Nolegal immigrantlar ham ko'p bo'lganligi uchun ularning aniq sonini hech kim bilmaydi. Ko'plab afrikaliklar o'z vatanlariga qaytish uchun emas, Yevropada o'z huquqlariga ega bo'lish uchun kurashmoqdalar.

Davlatlar va etnoslar o'rtasidagi ko'plab ziddiyatlarga qaramasdan, barcha afrikaliklar qit'adagi oxirgi mustamlaka rejimi - Janubiy Afrika Respublikasidagi aparteid tuzumini qoralashda yakdil edilar.



Armiya - davlatning qurolli kuchlari. Uning asosiy vazifasi mamlakatni tashqi dushmandan himoya qilish.

Politsiya - bir qator mamlakatlarda davlat boshqaruv organi bo'lib, asosiy vazifasi mavjud tuzumni himoya qilish va jamoatchilik tartibini saqlashdan iborat.

Genotsid - aholining ayrim guruhlarini yoki butun boshli xalqlarni siyosiy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilar asosida qirg'in qilish.

Aparteid (apartheid - alohida-alohida yashash) - irqiy kamsitishning eng ashaddiy ko'rinishi.



I. Bilimlarni sinash

1. Afrika davlatlarining mustaqilligi haqida gapirib bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Afrika davlatlarining mustamlakachilikdan ozod qilinishi qanday kechdi?
2. Afrika mamlakatlari iqtisodiyotida qanday salbiy omillar mavjud.
3. Birinchi jahon urushi urushdan keyingi Panafrika kongressi Afrika xalqlari mustamlakachilikka qarshi kurashining xarakteri o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Qit'aning mustaqillikka erishish ramzi bo'lgan 1950-yillar oxiridagi dastlabki mustaqil davlatlar va «Afrika yili» haqida gapirib bering.
5. Mustaqillikka erishgan ko'plab Afrika davlatlari nima uchun «nokapitalistik taraqqiyot» yo'lini tanladi?
6. Afrika davlatlari mustaqillikka erishgandan so'ng qanday muammolarga duch keldilar?
7. Afrika mamlakatlarida etnik muammolarning doimiy paydo bo'lishiga mustaqillikdan oldingi qanday omillar sabab bo'ldi?
8. Aparteid qanday tuzum? Genotsid nima?
9. Afrika xalqlari oldida XX asrning 90-yillarida qanday muammolar mavjud edi?

III. Guruh muhokamasi uchun

Afrika mamlakatlari siyosiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalarini tavsiflang.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “Iyerarxiya”, “aparteid”, “katta urug’” atama va tushunchalarini izohlang.
2. «Afrika davlatlari» yozuvsiz xartasiga davlatlarning nomlarini yozib chiqing.

V. Ijodiy vazifa

1. ziyouz.com saytidan Ernest Xemingueyning «Chol va dengiz» qissasini ko'chirib oling va o'qing, kichik o'quv loyihasi tayyorlab, to'garak mashg'ulotida taqdimotini o'tkazing.
2. Mavzu matni asosida «Afrika» mavzusida besh qatorli she'r «Sinkveyn» tuzing va daftaringizga yozing.

29-§. XX asrning ikkinchi yarmida fan va madaniyatning rivojlanishi.



Ilmiy-texnik inqilob va uning natijalari. So‘nggi yuz yil davomida fanning rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilobga olib keldi. Bu inqilobning asosiy belgilari tabiiy va sintetik materiallardan tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish, mashinalardan keng foydalanish, ishlab chiqarishning konveyerli liniyalarini, zavod avtomatlarni va sanoat robotlarini yaratish bo‘ldi. Ilmiy-texnik inqilob jahon iqtisodiyotini kapitalizmning postindust rial davriga olib chiqdi.


Ikkinchi jahon urushidan keyin boshlanib ketgan «sovuq urush» hamda AQSH va SSSR o‘rtasidagi qurollanish poygasi kosmos sohasiga ham ko‘chdi. 1957-yili 4-oktabr kuni Sovet Ittifoqida dunyoda birinchi Yerning sun‘iy yo‘ldoshi uchirildi. Akademik S.P.Korolyov boshchiligidagi guruh tomonidan Oyga kosmik kema uchirish borasida tadqiqotlar olib borildi. Ular natijasida 1961-yil 12-aprel kuni dunyoda birinchi marta Yuriy Gagarin «Vostok» kosmik kemasida koinotga parvoz qildi. 1969-yilda Neyl Armstrong (AQSH fuqarosi) Oyga qadam qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi. Kosmonavtika davri boshlanib, u koinot haqidagi bilimlarimizni kengaytirdi.



Dunyoda birinchi airoplan qachon va qaysi davlatda ixtiro qilingan edi?

Aniq fanlardagi kashfiyotlar. Bu yillari aniq fanlar erishgan eng katta yutuqlardan biri lazerning kashf etilishi bo‘ldi. Bu kashfiyot XX asr fizika fanidagi eng yorqin kashfiyotlardan biri sifatida tan olingan. 1960-yili sovet fiziklari N.G. Basov, A.M. Proxorov va amerikalik olim Ch. Tauns lazer (bu so‘z inglizcha Light Amplification bu Stimulated Emission of Radiation - majburiy nurlanish natijasida yorug‘likning kuchaytirilishi iborasining bosh harflaridan olingan) - nurning mutlaqo yangi turini yaratdilar. Bu uchala olimlarga fizika sohasida Nobel mukofoti berildi.

Yevropada temir yo'l tarmog'ini kengayishi km hisobiga.



Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq yana bir yangilik kompyuterning ixtiro qilinishi bo'ldi. Kompyuter (inglizcha computer - «hisoblagich») dastlab axborotni qayta ishlash va hisoblash uchun yaratilib, elektron hisoblash mashinasi - EHM deb yuritilar va juda katta hajmga ega edi. 1946-yilda amerikalik olimlar J. Mashli va J. Ekkert birinchi kompyuterni yaratdilar. 1959-yili amerikalik injenerlar D. Kilbi va R. Noys tomonidan yarimo'tkazgichli integral mikrosxemalarning yaratilishi kompyuter va boshqa asboblarning hajmining keskin qisqarishiga, faoliyat sohasini keskin kengaytirishga olib keldi. Integral mikro- sxemalarning yaratilishini olimlar XX asrning so'nggi 50 yili ichida qilgan eng mashhur ixtiro deb atadilar.

Hozir deyarli barchamiz foydalanadigan uyali telefonlar ham XX asr ixtirosi. Shvetsiyaning Televerket kompaniyasi 1940-yillar oxiridayoq uyali telefonlarni yaratish ustida ish boshlagan edi. Shvedlar tomonidan taklif qilingan birinchi ommaviy uyali telefon aloqasi MTS - Mobil telefon sistem (mobil telefon tizimi) deb ataldi. 1970-1980-yillari Ericsson, Philips va boshqa ko'plab mashhur kompaniyalar tomonidan uyali telefon apparatlarining yangi turlari yaratildi. Shu yillari zamonaviy ko'rinishga yaqin apparatlar paydo bo'ldi. Massachuset texnologiya instituti xodimlari uzoq masofadan turib kompyuter orqali aloqa o'rnatish mumkinligini asosladi va internetning yaratilishini yaqinlashtirdi. 1969-yili Internetning o'tmishdoshi ARPANET yaratildi. 1972-yili E-mail (elektron

pochta) paydo bo'ldi. 1989-yil World Wide Web (www) yoki Internet g'oyasi ishlab chiqildi.

San'at. XX asrning ikkinchi yarmida san'atda abstraksionizm (abstraksiya-mavhum) yo'nalishi keng ommalashdi. Abstraksionizm fotografiya san'atining rivojlanishiga o'ziga xos javob tarzida paydo bo'ldi. Abstraksionizm vakillari endi tasvirda harakatni, hissiyotni ifodalashga intildilar, zotan, ularning fikricha, aynan shu jihatlarni fotografiyada aks ettirishning iloji yo'q edi.

Abstraksionizmga qarama-qarshi ravishda pop-art (ommaviy san'at) paydo bo'ldi va tezda Yevropaga tarqaldi. Pop-art ixlosmandlarining fikricha, dunyodagi har qanday buyum o'zining dastlabki iste'molchilik ahamiyatini yo'qotib, badiiy, estetik sifat kasb etishi mumkin.

San'atning bu yo'nalishlarida olam qiyofasidagi mantiq va aniqlikning yo'qligi san'atdagi modernizm bosqichi o'z imkoniyatlarini tugatga nidan dalolat edi. Endi G'arb va Sharq san'ati, o'tmish va zamonaviy uslublar, folklor va ommaviy madaniyat elementlarini o'zida jamlagan postmodernizm uslubi paydo bo'ldi.

Adabiyot. Ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlangan «sovuq urush» badiiy ijodga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu — ijodning g'oyaviylik tomoni badiiylilikdan ustun kela boshlashida o'z ifodasini topdi. Bu davr badiiy madaniyatida XX asr ikkinchi yarmi adabiyoti neorealizm (yangi realizm) oqimi paydo bo'ldi. U adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. Neorealizm — o'z oldiga «bo'yab-bezalmagan», haqiqiy hayotni ko'rsatishga intiluvchi oqim edi. Neorealistlar (adabiyotda ham, tasviriy san'atda ham) tomoshabin yoki o'quvchi ko'z o'ngida qashshoqlikda hayot kechiruvchi insonlarning butun hayotiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlab berdilar. Asarlarida ijtimoiy adolat uchun kurashni aks ettirishni o'zlarining burchi, deb bildilar. O'z asarlari qahramonlariga samimiy muhabbatlarini izhor eta oldilar.

Ulardan so'ng nemis adabiyotining asosiy mavzusi Ikkinchi jahon urushi bo'ldi. Fashistlar targ'ibotiga aldangan, ma'naviy va jismoniy ezilgan avlod taqdiri taraqqiyparvar adiblar ijodini chetlab o'tmagan. Chunonchi, adib X. Byoll va

haykaltarosh F. Kremerlar urush yillaridagi konslager o'rnida kompozitsiya bunyod etdilar. Kompozitsiyada mahbuslarning ruhiy holati, tug'yoni va kuchi haqqoniy aks ettirildi. «Kichkina» insonda insonparvarlik qarashlari boshlanishining tantanasi E. Xeminguey ijodida bosh mavzu bo'ldi. Uning bu mavzuga bag'ishlangan «Chol va dengiz» (1952) qissasi XX asr ikkinchi yarmi badiiy adabiyotining yuksak namunasi bo'ldi. Bu asar Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.



Konveyer (convey - uzatmoq) - sochiluvchan, bo'lakli yoki donali yuklarning joyini o'zgartirishga mo'ljallangan to'xtovsiz uzatib turish mashinasi.

Postmodernizm - madaniyatda modernizmning asosiy prinsiplarini rad etuvchi va o'tmishdagi uslub va yo'nalishlardan ba'zan istehzo bilan foydalanuvchi XX asrning ikkinchi yarmiga mansub yo'nalish.

Patsifizm (pacificus - tinchliksevar) - zo'ravonlikni bartaraf etish uchun unga qarshi kurash mafkurasi. Patsifistik harakat, tinchlik uchun - urushga qarshi ijtimoiy harakat bo'lib, asosan, tinch vositalar bilan, urushning g'ayriaxloqiy xarakterini fosh etuvchi qarshilik harakati.



Jadvalni to'ldiring. Qaysi yozuvchilarning asarlarini o'qidingiz

Yozuvchining nomi	Asarning nomi	Qisqacha bayoni
-------------------	---------------	-----------------



I. Bilimlarni sinash

Mavzudan tashqari yana qanday kashfiyolarni bilasiz gapirib bering.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Kapitalizmning postindustrial davrida ilmiy-texnik taraqqiyot qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
2. «Sovuq urush» davridagi musobaqa ommaviy qirg'in qurollarining qanday yangi turlari yaratilishiga va koinotni zabt etish uchun qanday tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo'ldi?

3. Zamonaviy EHMLar, kompyuterlar va uyali aloqa tarmog'ining yaratilishida integral mikrosxemalarning ixtiro qilinishi qanday rol o'ynadi?
4. Internet tarmog'ining paydo bo'lishiga qanday nazariya asos bo'ldi?
5. Abstraksionizm nima va unga qanday ta'rif berish mumkin?
6. XX asr adabiyoti va san'atidagi qanday yo'nalishlarni ta'riflay olasiz? Adabiyot va san'atning ijtimoiy hayotga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Fan-texnika rivojlanishi qanday oqibatlarga olib keladi fikr bildiring.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Neorealizm", "abstraksionizm", "konslager" atama va tushunchalarini izohlang.

V. Ijodiy vazifa

1. zyouz.com saytidan «Jahon adabiyoti» jurnalida nashr ettirilgan badiiy-tarixiy asarlarni ko'chirib oling va ta'til davrida ularni o'qib chiqing, «Ta'til va mutolaa» mavzusida o'quv portfoliosi tayyorlang.

2. Internet vositasida XX asrda ilm-fan va texnika taraqqiyotiga doir materiallarni izlab toping hamda o'quv loyihasi tayyorlang.



3. «Kosmosga sayohat» mavzusida taqdimot tayyorlang va videorolik ko'rinishida to'g'arak mashg'ulotida namoyish qiling.

4. Ikkinchi jahon urushi yillarida gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o'zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya liderlarining qaysi shaharlarda bo'lib o'tgan uchrashuvlarida hal qilingan?

1) Yalta; 2) Minsk; 3) Potsdam; 4) Gdansk; 5) Bag'dod; 6) Tehron.

A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5

C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

5. Qachon Internetning o'tmishdoshi ARPANET yaratildi?

A. 1969-yili B. 1970-yil C. 1971-yil D. 1972-yil

6. Elektron pochta qachon yaratildi?

A) 1969-yili B) 1970-yil

C) 1971-yil D) 1972-yil

7. Qaysi kashfiyot uchun uch olim biryo'la Nobel mukofotini oldi?

- A) kosmosning zabt etilishi
 - B) integral sxemalarning yaratilishi
 - C) kompyuterning ixtiro qilinishi
 - D) lazerning ixtiro qilinishi
8. Yuriy Gagarin „Vostok kemasida ” kosmosga parvoz qilgan sanani aniqlang.
- A) 1957-yil 4-oktabr B) 1961-yil 12-aprel
 - C) 1957-yil 12-aprel D) 1961-yil 4-oktabr
9. “Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation” iborasi qanday qo'llanadi?
- A) yarim o'tkazgichli integrallar
 - B) integral mikrosxemalar
 - C) elektron hisoblash mashinasi
 - D) lazer
10. Yuriy Gagarin koinotga parvoz qilgan kosmik kemaning nomi nima?
- A) Konveyer B) Vostok
 - C) Rostok D) Kosmos

VI BOB. XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHLARIDA DUNYO MAMLAKATLARI

30-§. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar



Jahon tarixi eng yangi davrining uchinchi bosqichi 1991-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bo'lgan voqealarni o'rganadi. Bu davrda sotsialistik tizimning barbod bo'lishi, SSSRning tarqalib ketishi jahon miqyosida kuchlar nisbatiga, qudratli davlatlar o'rtasida shakllangan muvozanatga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda iqtisodiy va madaniy hayotning globallashuvi, ekologiya muammolarining keskinlashuvi, jahonning juda katta qismida modernizatsiya jarayonlarining tugallanmaganligi bilan bog'liq ziddiyatlarning kuchayishi

xalqaro barqarorlikka jiddiy xavf sola boshladi, ko'plab mamlakatlardagi murakkab muammolarning manbayiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi ko'pqutbli dunyo shakllanishi va globallashuv jarayonida O'zbekistonning o'rnini belgilab berishga qaratildi. Uning Markaziy Osiyoni tinch va gullab yashnayotgan hududga aylantirish, Orol muammosini hal qilishda umumjahon ishtiroki, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va butun dunyo yoshlarini terrorchilik xavfidan asrab qolish zarurligi haqidagi takliflari jahon jamoatchiligi tomonidan qiziqish bilan kutib olindi.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Jahonda yangi paydo bo'lgan qudratli mamlakatlar 2008 —2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi YI va AQSHga jiddiy ta'sir ko'rsatganidan foydalanib, jahon iqtisodiyotida kuchlar nisbatini o'zgartirishga intilmoqdalar. Ayni paytda jahon iqtisodiyotining boshqaruvchanligini oshirish maqsadida G'arb davlatlarining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqinlashuvi yuz bermoqda. Shu maqsadda jahonning 20 ta iqtisodiy eng yirik mamlakatlari vakillarini birlashtirgan «Katta yigirmalik» — G-20 klubi tashkil qilindi. G-20 mamlakatlari jahon iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Zero, jahon YIMining 80%i shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi, Yer yuzi aholisining 2/3 qismi shu mamlakatlarda istiqomat qiladi.

1980-yillar oxiri - 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlarda yuz bergan tub o'zgarishlar. SSSR parchalanishi bilan birga ikki qutubli tizim mavjud bo'lishni to'xtatdi. Bu holat xalqaro munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi.

Xususan, AQSh va uning ittifoqchilarining roli sezilarli darajada oshdi, Rossiyaning xalqaro nufuzi pasaydi. NATO va Varshava shartnomasi o'rtasidagi qarama-qarshilikning tugashi Yevropada integratsiyaning yangi bosqichini boshlash imkonini berdi.

Sovuq urush tugaganidan keyin quolsizlanish muammosi endi u qadar keskin emas edi. Ammo bir qator yangi muammolar paydo bo'ldi. Sobiq ittifoq respublikalari - Belarus, Ukraina va Qozog'iston Sovet Ittifoqi yadro qurolining bir

qismini meros qilib oldi. 1992 -yilda bu davlatlar Rossiya va AQSh bilan birgalikda Lissabon protokolini imzoladilar.

Uning shartlariga ko'ra, Belarus, Ukraina va Qozog'iston hududidagi barcha yadro qurollari yo'q qilingan yoki Rossiyaga berilgan.

1993-yilda Rossiya va AQSh Strategik qurollarni qisqartirish bo'yicha shartnomasini imzoladilar. Biroq, u hech qachon kuchga kirmagan.

To'g'ri, istisnolar ham bor edi. Misol uchun, 1994-yilga kelib, Janubiy Afrika Respublikasi yadroviy qurolini yo'q qildi va dunyoda yadro qurolidan foydalanishdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan birinchi davlatga aylandi.

Sovuq urushning tugashi global mojaro xavfini yo'q qildi. Ammo dunyoning ba'zi mintaqalarida u hali ham notinch edi. Yaqin Sharqdagi vaziyat keskinligicha qoldi.

Ammo xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari tufayli ba'zi qarama-qarshiliklarga barham berildi. 1991-yilda Madrid konferensiyasi bo'lib o'tdi. Uning yo'nalishida Isroilning qo'shni arab davlatlari bilan munosabatlarini normallashtirish uchun asoslar yaratildi.



Madrid konferensiyasi.

Keyinchalik Isroil Falastin hududida o'zini o'zi boshqarishni kengaytirishga rozi bo'ldi.

Afrika. 1988-yildan beri Somalidagi mojaro to'xtamadi. Ruandadagi fuqarolar urushida (1990-1994) tutsi xalqining genotsidi - qurbonlar soni 1 million kishidan oshdi.



Afrikadagi qonli mojarolar bo'lib o'tgan davlatlar joylashuv xaritasi.

1998-2002 yillardagi Ikkinchi Kongo urushi Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng qonli to'qnashuvlardan biri bo'ldi. Bunga u yoki bu darajada 12 Afrika davlati jalb qilingan. Qurbonlar soni 5 milliondan oshdi.

Afrikadagi ko'plab mojarolar va Yevropa davlatlari va AQShning aralashuvi e'tibordan chetda qolmaydi.

Misol tariqasida 2011-yilda Liviyaga aralashuvni keltirish mumkin. Afrikaga ta'sir qilgan zamonamizning muhim voqealaridan biri Arab bahoridir. 2010-2011 yillarda Tunis va Misrda davlat to'ntarishlari sodir bo'ldi. Jazoir, Marokash, Mavritaniya va Sudanda hukumatga qarshi ommaviy namoyishlar.

1990-yillar va 2000-yillarning boshlarida Afrikadagi bir qator mojarolarga barham berildi. 1991- yilda Efiopiya, 1992 -yil - Mozambik, 2002 yilda - Angola va Syerra-Leoneda fuqarolar urushi tugadi. Biroq, Afrika qit'asida tinchlik bo'lmadi.

Zamonaviy dunyoda BMT muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Bu tashkilot 1990-2000 yillardagi mojarolarni hal qilishga katta hissa qo'shgan.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mandati sof harbiy sohadan tashqariga chiqadi. U gumanitar, ijtimoiy, jamoat muammolarini hal qilish uchun javobgardir.



BMT ning Nyu-york shahridagi shtab-kvartirasi

Xususan, Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari sonini ko'paytirish masalasi kun tartibida turibdi. Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Braziliya, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqa bir qator mintaqaviy yetakchilar bu nomga da'vogarlar.

Ammo BMT har doim ham mojarolarning oldini olishga qodir emas. Bolqondagi urushlar bunga misoldir. Yugoslaviyaning parchalanishi bir qator qonli urushlarga olib keldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Yugoslaviyaning respublikalarga bo'linishi har doim ham etnik chegaralarga to'g'ri kelavermaydi. Bu holat faqat bahsni yanada kuchaytirdi. Mojaro tomonlari tomonidan amalga oshirilgan etnik tozalashning asosiy sabablaridan biriga aylandi. Faqat Makedoniya Yugoslaviyadan urushlarsiz chiqib ketdi. 1993 -yilda u BMT a'zoligiga qabul qilindi.

1990-yillardagi bir qancha shov-shuvli "voqealar"ga qaramay, dunyoda integratsiya jarayonlari haligacha hukmronlik qilmoqda.

1995-yilda Jahon savdo tashkiloti paydo bo'ldi. Uning maqsadlari quyidagilar edi:

-xalqaro savdoni liberallashtirish;


-JSTga a'zo mamlakatlarning savdo-siyosiy munosabatlarini tartibga solish.

2016-yilda JSTga allaqachon 164 davlat a'zo bo'lgan. 2006-yilda Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy o'rtasida iqtisodiy va siyosiy hamkorlik yo'lga qo'yildi.

2011-yilda Janubiy Afrika Respublikasi ushbu guruhga qo'shildi. Tashkilot ishtirokchi mamlakatlarning inglizcha nomining birinchi harflaridan BRICS nomini oldi.

Shunday qilib, sovuq urushdan keyin dunyo bir qutbli bo'ldi. Birgalikda sa'y-harakatlar orqali biz Yaqin Sharqdagi mojarolarni yumshatishga va Afrikadagi vaziyatni qisman hal qilishga muvaffaq bo'ldik. Biroq, bu qit'ada vaziyat hamon tarangligicha qolmoqda. Yugoslaviyaning parchalanishi Bolqonda bir qator qonli urushlarga olib keldi.

XX-asr oxiri - XXI-asr boshlari jahonda integratsiya jarayonlarining rivojlanish davri bo'ldi.



BRICS ga kiruvchi davlatlar xaritasi

AQSh - Rossiya munosabatlari. Ikki yetakchi yadroviy davlat - AQSH va Rossiya o'rtasidagi murakkab munosabat jahon jamoatchiligi oldida turgan bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga xalaqit bermoqda. Shunday muammolar ichida eng xavfli xalqaro terrorizmdir. U hozir global jahon sivilizatsiyasining shakllanish jarayoni o'z yakuniy pallasiga o'tayotgan davrda yangi sifat kasb etdi va jahon siyosatida katta muammoga aylandi.

1985-yilda Jenevada Sovet-Amerika sammiti bo'lib o'tdi. 1986-yilda ular Islandiya poytaxti Reykyavikda, 1987-yilda Vashingtonda va 1988-yilda Moskvada yadroviy qurollarni qisqartirish masalalarini muhokama qildilar. Ikki tomonlama muzokaralar davomida ijobiy natijalarga erishildi. Shunday qilib, 1987-yil dekabr oyida SSSR va AQSh o'rtasida o'rta va qisqa masofali raketalarining raketalarini yo'q qilishni bartaraf etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. 1989-yilda Sovet qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqilishi jahon demokratik hamjamiyatini mamnun qildi va bu mintaqaviy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilishda muhim qadam sifatida baholandi.

«Sovuq urush» yakunlangandan so'ng xalqaro munosabatlarda, avvalo AQSH va Rossiya o'rtasida vujudga kelgan hamkorlik holati 2014-yilgacha davom etdi. Shu yili Ukrainada boshlangan siyosiy inqiroz Rossiya va G'arb davlatlari o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshilikning yangi bosqichiga olib keldi.

XXI asrga kirib kelgan insoniyat nafaqat global davatlarga, balki geosiyosiy holatning o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga ham duch kelmoqda. Yagona buyuk davlat bo'lib qolgan AQSH o'zining yetakchilik rolini jahon hamjamiyatining xohish-irodasi sifatida taqdim etib keldi. Iroq va sobiq Yugoslaviya, Afg'oniston va Suriyada harbiy kuchning qo'llanilishi, Shimoliy Atlantika ittifoqining kengayishi, sayyoramizning boshqa mintaqalarida ham kuchdan keng foydalanish AQSHning jahonda mutlaq gegemonligini namoyish qildi. Ammo bugun xalqaro munosabatlarda tobora katta rol o'ynayotgan Xitoy, Rossiya, Hindiston kabi davlatlarning bunga rozi bo'lishi qiyin. Vujudga kelgan sharoitda insoniyatning haqiqiy xavfsizligi mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi qarama-qarshilikning chuqurlashuvi bilan emas, sivilizatsiyani saqlab qolish va



uning gullab-yashnashini ta'minlashga qodir bo'lgan o'zaro hamkorlik bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.



BRICS (ingl. BRICS — Brazil, Russia, India, China, South Afrika) — Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika mamlakatlaridan iborat ittifoq.

Protokol- Turli diplomatik hujjatlarni amalga oshirish tartibini boshqarib turuvchi qoidalar majmui.

Globalashuv - bu jahon mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy jihatdan birlashishi yoki yaqinlashish jarayoni.

Modernizatsiya - bu ijtimoiy tizimni jadal rivojlantirish maqsadida uni to'liq yoki qisman yangilash, an'anaviy jamiyatdan yangilangan jamiyatga, agrar sivilizatsiyadan industrial sivilizatsiyaga o'tish jarayoni.

Totalitar mafkura - mafkuraviy rejim shakli bo'lib, totalitar jamiyatda aholini keng miqyosda ommaviy ravishda mafkuraviy qayta tarbiyalash vositasidir.

Ko'pqutbli dunyo - jahonda bir-biridan ustun bo'lmagan bir nechta siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy markazlarning (qutblarning) mavjudlik holati.

Uchinchi dunyo - XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan siyosiy atama. U «sovuq urush»da va u bilan bog'liq qurollanish poygasida bevosita ishtirok etmayotgan davlatlarga nisbatan qo'llanilgan. Dastlab AQSH tarafdorlari va sotsialistik lagerga kirmagan barcha mamlakatlar «uchinchi dunyo» deb atalgan.

ITI (ilmiy-texnik inqilob) - fan va texnika taraqqiyotida yangi sifat bosqichiga o'tish, katta sakrash va uning asosida ishlab chiqaruvchi kuchlarni tubdan qayta qurish.

Integratsiya - bu suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni.



I. Bilimlarni sinash

Jahonda yuz berayotgan integratsiya jarayonlarini eng muhimlarini sanang

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Ikki qarama-qarshi harbiy-siyosiy bloklar barham topgandan keyin xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolari nimalardan iborat bo'lib qoldi?
2. 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlarda yuz bergan tub burilish nimalarda namoyon bo'ldi?
3. XXI asrda ko'pqtubli dunyo modelining shakllanishi xalqaro munosabatlardagi qanday jarayonlarda ko'zga tashlanmoqda?
4. Darslikdagi materiallardan foydalanib XX asr oxiri - XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatayotgan muhim omillarning ro'yxatini tuzing.

III. Guruh muhokamasi uchun

Sizningcha ayrim davlatlar nega «Katta yigirmalik» klubiga kiradi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “YIM”, “global”, “integratsiya” atama va tushunchalarini izohlang.
2. Internet vositasida JST ga kirgan davlatlar ro'yhatini tuzing va ularni xaritadan toping 

V. Ijodiy vazifa

“Uchunchi dunyo davlatlari taraqqiyoti” mavzusida o'z qarashlaringizni daftaringizga yozib, uni darsda taqdimot qiling. Siz Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun qanday ishlarni amalga oshirasiz.

31-§. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi



Sotsialistik tuzumning parchalanishi. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning birinchi yarmida sotsialistik mamlakatlarni qamrab olgan inqiroz hodisalari islohotlarga olib keldi, ularning birinchisi SSSRda 1985-yilda Mixail Gorbachevning hokimiyatga kelishi bilan boshlandi. SSSRdagi qayta qurish va tashqi siyosatdagi yangi siyosiy tafakkur Sharqiy Yevropa mamlakatlarida jamiyat

hayotining barcha sohalarida chuqur o'zgarishlar uchun imkoniyatlar ochdi. Bunday keng ko'lamli o'zgarishlarning dastlabki shartlari bir necha o'n yillar davomida shakllangan:

- rejali-yo'naltirilgan iqtisodiyot fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga to'sqinlik qildi, sotsialistik mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi postindustrial davrga kirgan kapitalistik kuchlardan sezilarli darajada orqada qoldi;

- Sharqiy Yevropa jamiyati kommunistik rejimlarni saqlab qolgan holda demokratlashtirish va fuqarolik huquqlari va inson erkinliklariga rioya qilish imkoniyatiga ishonishni to'xtatdi;

- Sharqiy Yevropa mamlakatlari aholisi o'z davlatlarining SSSR bilan o'ta chambarchas bog'liqligidan norozi bo'lib, sotsialistik tuzumni tashqaridan o'rnatilgan deb qabul qildilar, o'z davlatlarining haqiqiy milliy mustaqilligi va mustaqilligini yoqlab chiqdilar.

Polshada 1980-yildagi ish tashlash harakati fonida muxolifat ishchilari va ziyolilari Gdanskdagi kemasozlik zavodida elektromontyor bo'lgan **Lex Valensa** boshchiligidagi mustaqil "Birdamlik" kasaba uyushmasiga birlashdilar. Bu harakatga 10 millionga yaqin polyaklar qo'shildi (u rasman kasaba uyushmasi deb atalardi), katolik cherkovi ham uni qo'llab-quvvatladi. Muxolifatning asosiy talabi "Birdamlik" va mustaqil kasaba uyushmalarini tan olish edi, bu esa siyosiy tizimda tub o'zgarishlarni anglatardi. Ommaviy namoyishlar va noroziliklar mamlakatdagi vaziyatni beqarorlashtirdi.

1989-yili bo'lib o'tgan saylovlar hukmron Polsha birlashgan ishchi partiyasining (PBIP) obro'yi tushib ketganligi, ayni paytda, muxolifatdagi «Birdamlik» kasaba uyushmasining ommalashib borayotganini ko'rsatdi. Yangi tarkibdagi parlament konstitutsiyaga o'zgarish kiritib, Polshani demokratik huquqiy davlat deb e'lon qildi. PBIP o'z faoliyatini to'xtatdi. 1990-yili navbatdan tashqari prezidentlik saylovlarida Lex Valensa g'alaba qozondi.

1980-yillarning oxirlarida Ruminiya elektr ta'minotidagi uzilishlar, oziq-ovqat va iste'mol tovarlarining katta taqchilligi bilan keng ko'lamli iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. Mamlakat konchilarning ish tashlashlari va milliy ozchiliklarning namoyishlaridan larzaga keldi. Ruminiyadagi siyosiy rejim Sovet davridan ancha qattiqroq edi.

Prezident **Nikolay Chaushesku** (1918-1989) Sovet qayta qurish siyosatini qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdi. Namoyishlar shafqatsizlarcha bostirildi. Bir shaharda armiya hatto namoyishchilarga qarata o't ochdi.

1989-yil dekabr oyida Buxarestda hukumat tarafdorlari namoyishi to'satdan hukumatga qarshi tus oldi. Davlat rahbari poytaxtdan qochib ketdi, u yerda maxfiy politsiya va xalq tomoniga o'tgan armiya o'rtasida janglar boshlandi. Muvaqqat hukumat tuzildi. Hibsga olingan va hokimiyatdan ag'darilgan prezident "xalqqa qarshi jinoyatlar" uchun qatl etilgan. 1990-yil may oyida bo'lib o'tgan birinchi erkin prezidentlik va parlament saylovlaridan so'ng hokimiyat Ion Iliesku boshchiligidagi Milliy Najot fronti qo'liga o'tdi. Ruminiya Kommunistik partiyasi o'z faoliyatini to'xtatdi, ko'ppartiyaviylik tizimi o'rnatildi. Iqtisodiy islohotlar boshlandi, ammo "shok terapiyasi" dan farqli o'laroq, yangi Ruminiya hukumati allaqachon kambag'al aholining ahvolini keskin yomonlashtirmaslik uchun bosqichma-bosqich islohotlarni boshladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng muhim voqealardan biri Germaniyaning birlashishi bo'ldi. 1980-yillar oxirida Germaniya Demokratik Respublikasida ijtimoy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz avj olib, 1989-yil noyabrda ikki nemis davlatini ajratib turgan Berlin devorining qulashiga olib keldi. Bu amalda ikki Germaniya o'rtasidagi chegaraning ochilishi edi. 1990-yil sentabr oyida Moskvada ikki nemis davlatini bitta - Germaniya Federativ Respublikasiga birlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi.



Sharqiy Yevropa davlatlari.

1980-yillarda Chexoslovakiyaning iqtisodiy ahvoli doimiy ravishda yomonlashdi. Narxlarning oshishi va real ish haqining pasayishi iste'mol talabining pasayishiga olib keldi. 1989-yil davomida mamlakatda hukumatga qarshi namoyishlar kuchaygan, ular xavfsizlik kuchlari tomonidan tarqatilgan. Sentabr oyida muxolifat partiyalari ittifoqi, V.Gavel boshchiligidagi Fuqarolik forumi tomonidan qo'llab-quvvatlangan umummilliy ish tashlash boshlandi. Isyonchilar bosimi ostida prezident Gustav Gusak hukumat a'zolari bilan birga o'z lavozimini muddatidan oldin tark etdi .

Shunday qilib, Chexoslovakiyada tinch "baxmal" inqilob g'alaba qozondi. 1989-yil dekabrda V.Gavel prezident, A.Dubchek esa parlamentga rahbarlik qildi. Konstitutsiyaning XKPning yetakchi roli haqidagi moddasi bekor qilindi, haqiqiy ko'ppartiyaviylik tizimi tiklandi. Bozor islohotlari boshlandi. Chexiya va Slovakiya siyosatchilari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar mamlakatning tinch yo'l bilan ikki davlatga bo'linishiga olib keldi. 1992-yil 31-dekabrda Yevropa xaritasida Chexiya va Slovakiya Respublikasi paydo bo'ldi.

Yugoslaviyada 1980-yillarda mamlakatni qamrab olgan chuqur iqtisodiy inqirozga qo'shimcha ravishda, bu yerda Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi tarkibiga kirgan respublikalar o'rtasida siyosiy qarama-qarshiliklar

paydo bo'ldi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Sloveniya mustaqillikni talab qildi. Boshqa respublikalar rahbarlari ham ajralib chiqish kursiga kirishdi, ayniqsa 1990- yilda Sloveniya, Xorvatiya, Makedoniya va Bosniyada o'tkazilgan erkin saylovlarda millatchi partiyalar g'alaba qozondi. 1990-yil yanvar oyida Yugoslaviya Kommunistlari Ittifoqi yagona partiya sifatida o'z faoliyatini to'xtatdi. Serbiya va Chernogoriyada hokimiyat sotsialistlar (sobiq kommunistlar) qo'lida qoldi, lekin ular uchun ham milliy masala birinchi o'ringa chiqdi.

1991- yilda Makedoniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina o'z suverenitetini e'lon qildi. 1992-yilda Serbiya va Chernogoriya Yugoslaviya Federativ Respublikasi deb nomlangan yangi davlatni tuzdilar.

1991-yil iyun-iyul oylaridagi o'n kunlik urush paytida Sloveniya Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi tarkibidan chiqdi.

Xorvatiyaning 1991-yilda Yugoslaviyadan chiqishi keng ko'lamli harbiy mojaroga olib keldi. Xorvatiyaning serb aholisi o'z hududida o'z davlatini - Serb Krajina Respublikasini e'lon qildi.

Faqat 1995-yilda xorvatlar Krajinani bosib olgandan keyingina Serbiya va Xorvatiya o'rtasida tinchlik o'rnatildi.

1992-yilda Bosniya va Gersegovinada urush boshlandi. Bu respublika hududida bosniyaliklar (ko'pchilik), serblar va xorvatlar yashagan.

Serbiya va Xorvatiya o'z vatandoshlari yashaydigan Bosniya va Gertsegovina yerlariga da'vo qildilar va shuning uchun ularga harbiy yordam ko'rsatdilar. Natijada Bosniyada "hammaga qarshi" urushi boshlandi. Bu mojaro BMT va NATOning aralashuvidan keyingina tugatildi.

1995-yilda Dayton kelishuvi imzolandi. Bosniya va Gersegovina mustaqilligi tasdiqlandi. Yugoslaviya tarkibiga Serb Respublikasi va Bosniya va Gersegovina Federatsiyasi kirdi.

1998-yilda Kosovo urushi boshlandi. Serbiyada Kosovo va Matoxin viloyatlarida yashovchi albanlar mustaqillik talablarini ilgari surdi. Ular serblarni bu muxtoriyatlardan siqib chiqara boshladilar. Serbiya rahbariyati ayirmachilarga

qarshi harbiy amaliyotlarni boshladi. Kosovodagi voqealar xalqaro hamjamiyat tomonidan tanqid qilindi.

Natijada, 1999-yilda AQSh boshchiligidagi NATO kuchlari Yugoslaviyaga qarshi harbiy amaliyotlar boshladi. Ittifoqchi kuchlar operatsiyasining maqsadi Kosovodagi etnik mojaroga barham berish deb ataldi. Bu Slobodan Miloshevich hukumatidan serb qo'shinlarini mintaqadan olib chiqishga majbur bo'lishini talab qildi. Serbiya katta bombardimonlarga uchradi. Natijada NATO boshchiligidagi xalqaro kuchlar Kosovoga kiritildi. Hudud BMT nazoratiga o'tdi. Urushning oqibatlaridan biri 2000 -yilda Slobodan Miloshevichning hokimiyatdan ag'darilishi edi. Biroq, yangi Serbiya hukumati Kosovoning ajralib chiqishi haqidagi talablarni ham rad etdi. Kosovo maqomi bo'yicha keyingi muzokaralar muhim natija bermadi.



Natijada, 2008-yil fevral oyida Kosovo parlamenti bir tomonlama ravishda viloyat mustaqilligini e'lon qildi. Bolqondagi mojarolar va Yugoslaviyaning parchalanishi natijalaridan biri 6 ta mustaqil davlat va bir qisman tan olingan davlatning paydo bo'lishi bo'ldi.

Ular Serbiya, Sloveniya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya, Xorvatiya, Chernogoriya, Kosovo edi.

2006-yilda Chernogoriya va Serbiya mustaqillikka erishdilar. Yugoslaviya dunyoning siyosiy xaritasida mavjud bo'lishni to'xtatdi.

Shunday qilib, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 1980-1990 yillar oxirida siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda inqilobiy xarakterga ega bo'lgan tub

o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu inqiloblar odatda "baxmal" deb ataladi, chunki ular ko'pincha tinch qonsiz xarakterga ega edi. Ularning asosiy mazmuni kommunistlarni hokimiyatdan chetlatish va erkin saylovlar o'tkazish edi.

O'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq muammolari 1990-yillarning o'rtalarida ayniqsa keskinlashdi. 1990-yillarning oxiriga kelib deyarli barcha mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Polsha, Vengriya, Chexiya va Sloveniya ishsizlikning o'sishini to'xtatishga, inflyatsiyani yengib o'tishga va YaIMni oshirishga muvaffaq bo'ldi. Slovakiya va Bolgariya islohotlar qiyinroq kechdi, ammo bu mamlakatlarda ular oxirigacha amalga oshirildi. Ruminiya islohotlarning nomuvofiqligi to'liq bartaraf etilmagan ijtimoiy inqirozlarga olib keldi.

1990-yillarda Yevropaning sobiq sotsialistik davlatlarining aksariyati Yevropa Ittifoqiga (EI) a'zo bo'lishga intildi. 1993- yilda Yevropa Ittifoqi ularni qabul qilish shartlarini ilgari surdi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining ichki siyosati jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi talablarini qondirishga qarata boshladi. Qonunchilikka va muayyan siyosatga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. Natijada, 2004-yilda Vengriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va Sloveniya Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'ldi. Bolgariya va Ruminiya Yevropa Ittifoqiga 2007- yilda, Xorvatiya esa 2013-yilda qo'shilgan.

NATOga Polsha, Chexiya va Vengriya 1999-yilda, Slovakiya, Ruminiya, Bolgariya va Sloveniya 2003-yilda, Albaniya va Xorvatiya 2009-yilda, Chernogoriya 2017- yilda a'zo bo'lgan.

Ammo bu mamlakatlarning ko'pchiligida ishsizlik ancha yuqori, bir qism aholi G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlariga chiqib, ish izlashga majbur bo'lmoqda. Shunga qaramasdan, Markaziy va Sharqiy Yevropa G'arbiy Yevropa bilan iqtisodiy va madaniy tenglik sari dadil qadam tashlamoqda. Bu davlatlarning eng katta muammolaridan biri jamiyatda korrupsiya darajasining yuqoriligi bo'lib qolmoqda.



Ko‘ppartiyaviylik prinsipi - bu zamonaviy demokratik mamlakatlarda siyosiy hayotni tashkil qilishning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri bo‘lib, mafkuraviy plyuralizm (ko‘pxillik)ning yorqin ifodalangan ko‘rinishidir.

Etnik mojaro - odatda, bir-biri bilan qo‘shni yashaydigan turli etnik guruhga mansub jamoalar o‘rtasidagi to‘qnashuv.



I. Bilimlarni sinash

1. Nima uchun Polshada L.Balserovich boshchiligidagi iqtisodiy islohotlar dasturi “shok terapiyasi” deb ataldi?
2. Nima uchun 1989 -yil Chexoslovakiyadagi inqilob “Baxmal” deb ataldi?
3. Yugoslaviya parchalanishining asosiy sabablari nimada?
- 4.Sharqiy Yevropa davlatlarini poytaxtlari bilan aytib bering

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsialistik tuzumning parchalanishi qanday ko‘rinishl arda amalga oshirildi?
2. Sharqiy Yevropa mamlakatlari NATOga a‘zo bo‘lishda o‘z xavfsizligining kafolatidan tashqari yana qanday afzalliklarni ko‘rdilar?
3. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsializm parchalangandan so‘ng qanday muammolar paydo bo‘ldi?

III. Guruh muhokamasi uchun



- 1.Sizningcha ayrim Sharqiy Yevropa davlatlari nega NATO va YIga kirgan?
- 2.Chexoslovakiyaning parchalanishi nima uchun sodir bo'ldi? Unda boshqa davlatlar uchun nimani ibratli deb hisoblash mumkin?
3. Sizningcha, Yugoslaviya federatsiyasini saqlab qolish mumkinmidi?


IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “NATO”, “sotsialistik tuzum”, “"baxmal" inqilobi” atama va tushunchalarini izohlang. 

2. Internet vositasida YI ga kirgan Sharqiy Yevropa davlatlar ro‘yhatini tuzing va ularni xaritadan toping

V. Ijodiy vazifa

Matndan foydalanib sotsializm parchalangandan so'ng Sharqiy Yevropa va G'arbiy Yevropaning NATO ga a'zo bo'lgan davlatlarini ven diagramasiga joylashtiring.



32-§. Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi



1990- yil mart oyida bo'lib o'tgan Butunittifoq referendumida ko'pchilik fuqarolar SSSRni saqlab qolish va uni isloh qilish zarurligini yoqladilar.

1991- yil yoziga kelib, federal davlatni yangilash imkoniyatini beradigan yangi Ittifoq shartnomasi tayyorlandi. Ammo birlikni saqlab qolishning iloji bo'lmadi.

Hozirgi vaqtda tarixchilar orasida SSSR parchalanishining asosiy sababi nima bo'lganligi, shuningdek, SSSR parchalanishi jarayonining oldini olish yoki hech bo'lmaganda to'xtatish mumkinmi degan yagona nuqtai nazar mavjud emas. Mumkin sabablarga quyidagilar kiradi:

- SSSR 1922-yilda federal davlat sifatida tuzilgan.Biroq, vaqt o'tishi bilan u tobora markazdan boshqariladigan va federal munosabatlar sub'ekti bo'lgan respublikalar o'rtasidagi tafovutlarni tekislaydigan davlatga aylandi. Qarama-qarshiliklarning to'planishi parchalanishni muqarrar qildi;
- SSSR xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tan olish asosida tuzilgan, federatsiya hududiy emas, balki milliy-hududiy tamoyil asosida qurilgan edi;

- SSSRda tuzilgan yagona xalq xo‘jaligi majmuasi respublikalarning iqtisodiy integratsiyalashuvini ta’minladi. Biroq , iqtisodiy qiyinchiliklar kuchayib, iqtisodiy aloqalar uzila boshladi, respublikalar o'zini-o'zi izolyatsiya qilish tendensiyasini ko'rsatdi va markaz voqealarning bunday rivojlanishiga tayyor emas edi;

- Sovet siyosiy tizimi hokimiyatning qattiq markazlashuviga asoslangan edi, uning haqiqiy tashuvchisi davlat emas, balki kommunistik partiya edi ;

- Ittifoqning birligi va yaxlitligi asosan uning mafkuraviy birligi bilan ta’minlandi. Kommunistik qadriyatlar tizimidagi inqiroz millatchilik g'oyalari bilan to'ldirilgan ma'naviy bo'shliqni yaratdi ;

- SSSR o'z mavjudligining so'nggi yillarida boshidan kechirgan siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy inqiroz markazning zaiflashishiga, respublikalar va ularning siyosiy elitalarining kuchayishiga olib keldi

SSSR parchalinishi oqibatlari:

- SSSRning parchalanishi mustaqil suveren davlatlarning vujudga kelishiga olib keldi;

- Yevropa va butun dunyoda geosiyosiy vaziyat tubdan o‘zgardi;

- Iqtisodiy aloqalarning uzilishi SSSR merosxo'rlari - Rossiya va boshqa mamlakatlarda chuqur iqtisodiy inqirozning asosiy sabablaridan biriga aylandi;

- Rossiyadan tashqarida qolgan ruslar, umuman, milliy ozchiliklar taqdiri (qochoqlar va muhojirlar muammosi) bilan bog'liq jiddiy muammolar paydo bo'ldi.

MDHning tashkil topishi. 1991-yilning oxiriga kelib barcha sobiq respublikalar SSSR tarkibidan chiqqanligini e’lon qildilar. 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlari yig‘ilib, SSSR siyosiy birlik sifatida tugatilganligini va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tuzilganligini tasdiqladilar.

1991-yil 25-dekabr kuni SSSR prezidenti M. Gorbachyov davlat boshlig‘i vakolatlarini o‘zidan soqit qilganligi to‘g‘risida bayonot berdi.

1991-yil dekabrda Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida beshta Markaziy Osiyo respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib, unda a’zo davlatlarning tengligi va barchasining MDH ta’sischisi sifatida ittifoqqa qo‘shilishi

ma'lum qilindi. 1991-yil dekabrda Qozog'istonning Olmaota shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda Deklaratsiya qabul qilinib, SSSR xalqaro huquq subyekti va geosiyosiy reallik sifatida o'z faoliyatini tugatganligi ta'kidlandi.



Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi.

Shu yil oxirigacha Boltiqbo'yi respublikalari - Latviya, Litva, Estoniyadan tashqari barcha sobiq sovet respublikalari MDH tarkibiga kirdi. Ammo Gruziya 2008-yili, Ukraina esa 2014-yildan MDH faoliyatida qatnashmasligini ma'lum qildi. Mo'g'uliston MDHning bir qator tuzilmalarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etib kelmoqda. 2008-yili Afg'oniston MDHga kirish istagini bildirib, hozir MDH parlamentlararo assambleyasida kuzatuvchi sifatida ishtirok etmoqda.

MDHning tuzilishi SSSR parchalangandan so'ng sobiq sovet respublikalari o'rtasida iqtisodiy va gumanitar aloqalarni saqlab turishda, ijtimoiy va gumanitar halokatlarning oldini olishda, paydo bo'lgan muammo larni hamkorlikda hal etishda muhim rol o'ynadi.

SSSR tarqalgandan keyingi muammolar. SSSR parchalangandan keyin tashkil topgan mustaqil davlatlarda bir qator muammolar vujudga keldi. Shulardan birinchisi siyosiy rivojlanish bilan bog'liq edi. Sobiq SSSR hududida tashkil topgan mustaqil davlatlarda siyosiy jihatdan demokratik tizimning qaror topishi

juda og'ir kechdi, aksariyat davlatlarda avtoritar rejimlar o'rnatildi. Buning bir qancha sabablari mavjud. Eng asosiysi, demokratik tamoyillarning e'lon qilinishiga qaramasdan, rahbarlik usullarida, ijtimoiy ongda sovet davridan beri yashab kelayotgan totalitar tafakkur ustunlik qildi. Natijada, sobiq sovet respublikalarida nisbatan demokratik yo'l bilan hokimiyatga kelgan rahbarlar shu yo'lni davom ettirmadi, turli xil usullar va bahonalar bilan o'z shaxsiy hokimiyatini mustahkamlash va uni saqlab qolish yo'lidan bordi. Muxolifat shafqatsiz bartaraf qilindi va oqibatda avtoritar rejimlar shakllandi.

Sobiq sovet respublikalarining iqtisodiy rivojlanishi biroz boshqacha kechdi. Ularning bir qismida sovet rejali iqtisodiyotining belgilari saqlanib qolgan bo'lsa-da, asosiy qismi bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi.

SSSRning tarqalib ketishi sobiq respublikalar o'rtasidagi an'anaviy iqtisodiy aloqalarning buzilishiga olib keldi. Mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalari qaytadan Rossiya ta'siriga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qildilar. Rossiyaning iqtisodiy, texnologik va harbiy imkoniyatlari pasayishi sababli uning xalqaro maydondagi obro'yi ham tushib ketdi. XX asrning so'nggi o'n yilida Rossiyaning jahon xo'jalik aloqalarida ishtiroki keskin qisqardi.

SSSRning parchalanishi Rossiya uchun geostrategik holatning jiddiy o'zgarishiga olib keldi. Rossiyaning xalqaro obro'yi ham pasayib, Yugoslaviya, Iroqdagi kabi keskin xalqaro muammolarni hal qilishda deyarli ishtirok etmadi.

1990-yillarning ikkinchi yarmida Rossiyadagi iqtisodiy-ijtimoiy holat va Rossiyadan tashqaridagi ruslar muammosi alohida dolzarblik kasb etdi. Bunga sobiq SSSRning turli hududlaridan Rossiyaga ko'chib kelayotganlar muammosi ham qo'shildi. Shu davrda ruslar dunyodagi eng katta bo'lingan millat bo'lib qoldi. SSSR tarqalib ketgandan so'ng 80 mln rus Rossiya hududidan tashqarida qolib ketdi.

1999-yil oxirida B. Yelsin prezidentlik vakolatlarini V. Putinga topshirdi. 2000-yil mart oyida bo'lib o'tgan saylovlarda V. Putin Rossiya prezidenti etib saylandi. U davlatni boshqarish tizimini isloh qildi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlab, joylardagi o'zboshimchalikka chek qo'ydi. O'ylab olib borilgan

iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy siyosat tufayli 2000-yillar boshlariga kelib, Rossiya og‘ir ahvoldan chiqib oldi. Tashqi siyosatda AQSH va G‘arbning yetakchi davlatlari bilan munosabatlar tarangligicha qoldi. Ayniqsa, 2014-yili Ukrainada yuz bergan navbatdagi «rangli inqilob» tufayli hokimiyat almashgandan so‘ng Qrimning Rossiyaga qo‘shilishi ortidan G‘arb davlatlari Rossiyaga qarshi iqtisodiy sanksiyalar e‘lon qildi, u «Katta sakkizlik»-G-8 dan chiqarildi. Rossiya iqtisodiyotida bir qator muammolar paydo bo‘ldi, rublning qiymati tushib ketdi. Hozir Rossiya BRIKS va SHHT doirasida hamkorlikni kuchaytirmoqda. MDH davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham oson kechmadi. Rossiya bilan Ukraina o‘rtasida Qora dengiz flotini bo‘lib olish, Qrim yarimorolidagi Sevastopol shahrining maqomi to‘g‘risida keskin bahslar ketdi. Rossiya bilan Boltiqbo‘yi davlatlari o‘rtasida ham u yerda yashovchi ko‘p sonli rusiyazon aholi huquqlari va hududiy masalalar bo‘yicha qattiq tortishuvlar bo‘lib o‘tdi. Tojikiston va Moldova respublikalarida fuqarolararo mojarolar yuz berganda, Rossiya o‘zining iqtisodiy va strategik manfaatlari yuzasidan bu muammolarni bartaraf qilishda qatnashdi.

XXI asr boshlarida Rossiya tashqi siyosatida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. MDH davlatlari bilan ham munosabatlarga katta e‘tibor berila boshladi. Masalan, 2017-yili O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarilib, ikki tomonlama yirik hamkorlik kelishuvlari imzolandi.

2000-yillardan boshlab MDH davlatlari yaxshi iqtisodiy o‘rish sur‘atlarini ko‘rsatib kelmoqda. 2012-yil natijalari bo‘yicha MDH davlatlarida YIMning o‘rishi 4 % ni tashkil qildi. Aholi jon boshiga YIMning hajmi bo‘yicha MDH mamlakatlari Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq kabi mintaqalarni quvib o‘tdi.

Bugungi kunga kelib, MDHdan tashqari mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham paydo bo‘ldi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT), Bojxona Ittifoqi shular jumlasidan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bu tashkilotlar faoliyatida o‘zaro manfaatdorlik va tenglik asosida qatnashib kelmoqda. 2020-yil 1-yanvardan MDHga raislik O‘zbekiston Respublikasiga o‘tadi.



Geostrategiya- davlatning xalqaro maydonda olib boradigan tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyati yo‘nalishlari. Geostrategiya milliy xavfsizlik doktrinasining ajralmas qismi bo‘lib, geosiyosiy yoki geoiqtisodiy makonda o‘z maqsadiga erishish uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan harakat texnologiyalarini ham o‘z ichiga oladi.

«**Rangli inqilob**»- bu XX asr oxiri- XXI asr boshlaridagi norozilik namoyishlari va ular natijasida yuz bergan hokimiyat almashinuvlarining umumiy nomi.



I. Bilimlarni sinash

SSSR qachon tuzilgan?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. SSSR parchalangandan so‘ng sobiq sovet davlati hududida MDH qanday rol o‘ynadi?
2. Mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalari rivojlanishida qanday siyosiy va iqtisodiy muammolar vujudga keldi?
3. 2010-yillardan keyin Rossiya va MDH davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
4. 2000-yillardan boshlab MDH davlatlari rivojlanishida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?

III. Guruh muhokamasi uchun

Nega SSSRni saqlab qolishning imkoni bo‘lmadi?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “MDH”, “SSSR”, “sotsialistik davlatlar” atama va tushunchalarini izohlang.
2. Internet vositasida SSSRga kirgan davlatlar ro‘yhatini tuzing va ularni xaritadan toping 

V. Ijodiy vazifa

MDH davlatlarining xozirgi poytaxtlarini daftaringizga yozing.

VII BOB 1991-2017-YILLARDA DUNYO MAMLAKATLARI

33-§. 1991-2017-yillarda Rossiya Federatsiyasi. Ukraina, Belarusiya va Moldova respublikalari



1991 - 2017-yillarda Rossiya Federatsiyasi

Rossiya Federatsiyasi— Yevropaning sharqida, Osiyoning shimolida joylashgan mamlakat. Maydoni jihatidan dunyoda eng katta mamlakat.

Maydoni—17,1 mln. km².

Aholisi —145,3 mln. kishi (2002).

Poytaxti – Moskva shahri.

Iqtisodiy islohotlar. 1991-yilgi avgust inqirozidan so‘ng Rossiyada asosiy lavozimlarga demokratik kuchlar vakillari emas, kommunistik partiya faollari keldi. Qayta qurish yillarida bu faollarning ko‘pchiligi kommunistik partiya bilan aloqalarini uzgan bo‘lsa-da, ularning islohotchilik imkoniyatlari cheklangan edi. B.Yelsin tomonidan Bosh vazir lavozimiga taklif qilingan Y. Gaydar Rossiyadagi islohotlarning «arxitektori» bo‘ldi.



«Qayta qurish» ning bosqichlarini bilasizmi?

Islohotlar juda og‘ir kechdi. Milliy daromad va sanoat ishlab chiqarish pasayib ketdi. 1992-yil 1-yanvardan erkin qo‘yib yuborilgan narxlar keskin ko‘tarildi. Ko‘pchilik oilalarda oziq-ovqat xarajatlari oila daromadining asosiy qismini tashkil qildi. Oqibatda urushdan keyingi davrda birinchi marta Rossiya aholisi kamaya boshladi. Inflatsiya va siyosiy beqarorlik investitsiyalarning kirib kelishiga to‘sqinlik qildi. 1999-yilga kelib Rossiyaning tashqi qarzi 130 mlrd

dollardan oshib ketdi. Xalqaro moliya tashkilotlari qarz bermay qo'ydi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli ijtimoiy holatga ham ta'sir ko'rsatdi. Ishsizlar, qochoqlar, qashshoqlar va boshpanasizlar soni keskin ko'paydi.

Ichki siyosiy hayot. Siyosiy jabhada ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. 1991-yilgi avgust voqealari, SSSRning tarqalishi va «shok terapiyasi» jamiyatda ijtimoiy tanglikni oshirdi. Ish tashlashlar va siyosiy namoy ishlar keng quloch yoydi. 1993-yili prezident B. Yelsin Xalq deputatlari syezdi va Oliy Sovetni tarqatib yubordi, davlat hokimiyatining yangi organlari - Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasiga saylovlar hamda mamlakatning yangi kons titutsiyasi haqida referendum o'tkazish to'g'risida farmonni imzoladi. Oliy Sovet rahbariyati va Konstitutsion sudning ko'pchilik a'zolari prezident farmonini konstitutsiyaga xilof deb hisoblab, unga qarshi chiqdi.

SSSR parchalanishi davrida yuzaga kelgan Rossiya Federatsiyasining parchalanish jarayonlari o'sishda davom etdi. Avtonom respublikalar tomonidan suverenitetning e'lon qilinishi boshqa hududlarni Federatsiyaning teng huquqli sub'ektlari sifatida tan olishga intilishlariga turtki bo'ldi. Davlatning parchalanishi xavfi ostida Rossiya Federatsiyasi rahbariyati federal tuzilmaning yangi shaklini izlashga majbur bo'ldi. Siyosiy murosaga kelish varianti 1992-yil 31-martda federal markaz va mintaqalar o'rtasida imzolangan Federal shartnomada imzolandi.

Etnosiyosiy munosabatlarning beqarorligi bir qator respublikalardagi siyosiy vaziyatning rivojlanishiga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, 1991-yil oktabr - noyabr oylarida Checheniston Respublikasida ayirmachi kuchlar hokimiyat tepasiga keldi.

1993-yilda Rossiya Federatsiyasi Kommunistik partiyasi (KPRF) tuzildi, u yil oxiriga kelib mamlakatdagi eng ommaviy partiyaga aylandi.

2000-yildan beri prezident va hukumatning, shuningdek qonun chiqaruvchi hokimiyatning eng muhim ichki siyosiy yo'nalishi mintaqaviy mustaqillik talqin qilina boshlagan sharoitda Rossiya Federatsiyasining butun hududida yagona iqtisodiy va huquqiy makonni ta'minlashga qaratilgan.

Hukumat xususiy kapitalning bevosita ta'siridan mustaqilligi tiklanganidan so'ng davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo'yicha izchil yo'lni amalga oshirish mumkin bo'ldi. 2000-yilda saylangan V.V.Putin eng yirik moliyaviy-sanoat korporatsiyalari rahbarlari bilan uchrashdi, unda prezident hokimiyat va yirik kapital o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy prinsipi - davlatning noqonuniy munosabatlardan ("teng masofa") voz kechishini e'lon qildi.



2000-yil may oyida 7 ta federal okrug tashkil etildi va federal okrugda prezidentning vakolatli vakili lavozimi joriy etildi .

2005-yilda sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi sohasida ustuvor milliy loyihalar qabul qilindi.

2008-yilda davlat rahbari etib D.A Medvedev saylandi ,Rossiya Federatsiyasining 2-prezidenti esa hukumat boshlig'i bo'ldi (2012-yilgacha).

2008- yilda boshlangan global iqtisodiy inqiroz Rossiya uchun jiddiy sinov bo'ldi. 2009-yilda uning sanoat ishlab chiqarishi 15 foizdan ko'proqqa kamaydi. Neft narxining keskin pasayishi, kapitalning sezilarli darajada chiqib ketishi, Rossiya kompaniyalarining qarz muammolarini kuchaytirdi.

Inqirozga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlar, davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy zaxiralardan foydalanish imkoniyati, qulay tashqi savdo holati va jahon moliya bozorlarining tiklanishi Rossiya iqtisodiyotiga yana ijobiy turtki berdi.

2014-yildan beri Rossiya ham tashqi siyosiy inqiroz sharoitida yashab kelmoqda, bu u yoki bu tarzda Rossiya jamiyatining holatida aks etadi. Bu inqirozning vujudga kelishi Ukrainadagi davlat to'ntarishi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida prezident V.F.Yanukovich ag'darilganidan so'ng hokimiyat tepasiga millatparvar va faqat yo'naltirilgan g'arb siyosatchilari keldi.

Qrim Avtonom Respublikasi va Sevastopol shahri aholisining umumqrim referendumida o'z taqdirini mustaqil hal qilish. 2014- yil 16-martdagi referendum natijalariga va Rossiya Federatsiyasi bilan 2014- yil 18 -martdagi kelishuvga ko'ra, Qrim Respublikasi va federal shahar Sevastopol Federatsiyaning yangi sub'ektlari sifatida Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirdi.



Rossiya Prezidenti V. Putin
qasamyod qilmoqda. 2018-yil

2020-yil 15-yanvarda Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisiga murojaatnomasida V.V.Putin Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga Rossiyada xalqaro huquqqa nisbatan konstitutsiyaning ustuvorligini birlashtirishi va konstitutsiyaning o'zgartirishi kerak bo'lgan bir qator fundamental tuzatishlar kiritishni taklif qildi.

Tashqi siyosatda Rossiya hal qilishi lozim bo'lgan masalalardan biri Suriya muammosi bo'ldi. Rossiyaning harbiy-kosmik kuchlari 2015-yil sentabrdan boshlab Suriyadagi janglarda ishtirok etmoqda. Suriyada ISHID (Iroq va Shom islom davlati) va boshqa xalqaro terrorchi tashkilotlarga qarshi kurashda Rossiya bir qator yutuqlarga erishdi. Bu unga o'zining geosiyosiy mavqeyini mustahkamlash imkonini berdi.



1991 - 2017-yillarda Ukraina, Belarus va Moldova respublikalari

Ukraina- Yevropaning janubi-sharqida joylashgan davlat.

Maydoni- 596,06 ming km².

Aholisi- 45 million. kishi (2013).

Poytaxti – Kiyev shahri.

1991-yil 24-avgustda Ukraina o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1991-yil dekabrda o'tkazilgan referendumda mutlaq ko'pchilik aholi Ukraina mustaqilligi uchun ovoz berdi.

Referendum bilan birga Ukraina prezidentligiga o'tkazilgan saylovlarda Leonid Kravchuk Ukrainaning birinchi prezidenti etib saylandi. Mustaqillik e'lon qilindi. Ammo yuqori samarali, barqaror milliy iqtisodni tashkil qilmasdan real siyosiy mustaqillikni qaror toptirish mumkin emasdi. SSSRni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz, umumittifoq iqtisodiy kompleksining barbod bo'lishi boshqalar qatori Ukrainaga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik e'lon qilinishi paytida Ukraina iqtisodiyoti kuchsiz holatda edi.

Inqiroz sanoat va qishloq xo'jaligini qamrab oldi. Inqirozdan chiqishning ko'plab dasturlari ishlab chiqildi, ammo ulardan birortasi ham oxirigacha amalga oshirilmadi.

XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmidan ish haqidan qarzdorlikni bartaraf qilish, chet el kreditlari va valuta bozorini tartibga solish hisobiga iqtisodiy holat o'zgardi, 1996-yili milliy valuta - grivna muomalaga kiritildi. Ammo kutilganidek, chet el investitsiyasi mamlakatga oqib kelmadi, grivna tez qadrsizlanib bordi.

XX asr oxiriga kelib, ko'plab korxonalarda mulkdorlar almashdi, yangi xo'jayinlar ishlab chiqarishni tiklashga kirishdi. Yuqori malakali va juda arzon ishchi kuchi hamda qudratli sanoat bazasi Ukraina iqtisodiga mablag' kiritishni foydali qilib qo'ydi. Bu o'zgarishlar iqtisodning barqarorlashuvini, keyin esa iqtisodiy o'sishni ta'minladi. Ammo bu ko'pchilik MDH mamlakatlaridagi singari Ukrainada ham rahbar elitaning korrupsiyalashuviga, aholi katta qismining esa qashshoqlashuviga olib keldi.

Ukrainada davlat qurilishi va siyosiy jarayonlar. Mustaqillikning dastlabki yillarida Ukraina oldida turgan eng muhim vazifalardan biri davlat qurilishi muammosi edi. 1996-yili qabul qilingan Ukraina konstitutsiyasi bu jarayonning huquqiy asosi bo'ldi.

Ammo siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar uzoq yillardan beri hal qilinmay kelinayotgan ijtimoiy muammolar bilan qo'shilib, bir qator siyosiy inqirozlarga olib keldi. 2004-yilgi saylovlarda Viktor Yanukovichning g'olib deb e'lon qilinishi ko'pmingkishilik norozilik namoyishiga sabab bo'ldi. Natijada, o'tkazilgan uchinchi tur saylovlarida «Bizning Ukraina» bloki yetakchisi Viktor Yushchenko Ukraina prezidenti etib saylandi. Lekin V.Yushchenko mamlakatda katta ijobiy o'zgarishlar qilishga erisha olmadi. Shu sababli 2010-yilgi saylovlarda V. Yanukovich g'olib chiqdi. U mamlakatdagi ijtimoiy tizimni to'liq isloh qilishga kirishdi. Ammo uning 2013-yili Yevroittifoq bilan hamkorlik to'g'risida kelishuvni imzolashdan bosh tortishi siyosiy inqirozga sabab bo'ldi. Kiyev va boshqa shaharlarda ommaviy norozilik chiqishlari bo'lib, ular ijtimoiy tarmoqlarda «Yevromaydan» nomini oldi. V. Yanukovich Ukrainani tark etdi. 2014-yil bo'lib o'tgan saylovlarda Pyotr Poroshenko Ukraina prezidenti etib saylandi.

Qrim Avtonom respublikasi va Sevastopol shahri Rossiyaga qo'shib olingandan so'ng esa Ukraina bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar o'ta keskinlashdi.

Ukrainadagi yangi hokimiyatni jahon jamoatchiligi tan oldi. Agar poytaxtda, shimoliy, markaziy va g'arbiy mintaqalarda Yevrointegratsiya tomon intilayotgan yangi hukumat tezda tan olinib, aholining xayrixohligiga erishgan bo'lsa, janubi-sharqiy hududlarda rusiyzabon aholining norozilik chiqishlari kuchayib bordi. Bu hudud aholisi tarixan Rossiya bilan bog'liq bo'lgani uchun ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni saqlab qolishni talab qildi va o'ta o'ng, ekstremistik, millatchi guruhlarning o'z mintaqasida tarqalishiga qarshi chiqdi.

Ukraina aholisining milliy tarkibi

(1959-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra)

Millati	Ulushi, %
ukrainaliklar	76,8
ruslar	16.9
boshqa	6.3



Rossiyaparast yetakchilar boshchiligidagi bu harakatlar Donetsk va Lugansk viloyatlarida qurolli qarama-qarshilikka aylanib ketdi. Ukraina rahbarlari bu hududlarda antiterror operatsiya boshlanishini e'lon qildi, bu esa ikki tomon o'rtasida keng miqyosdagi urush harakatlariga olib keldi. 2014-yil sentabr oyida Belarus Respublikasi poytaxti Minsk shahrida Rossiya, Ukraina hamda Donetsk va Lugansk viloyatlari vakillari o'rtasida harbiy harakatlarni to'xtatish to'g'risida kelishuv imzolandi. Ammo 2015-yil yanvar oyining o'rtalaridan janglar yana boshlanib ketdi. Shu yil fevral oyida Germaniya, Fransiya, Rossiya va Ukraina davlat rahbarlari Minsk shahriga yig'ilib, Ukraina sharqida harbiy mojaroni hal etish to'g'risida yangi kelishuv imzoladi (Minsk-2). Ammo urush to'xtamayapti. 2017-yil noyabr oyida artilleriyadan o'zaro otishmalar yangidan boshlanib ketdi. G'arb davlatlari va Ukraina bu mojaroda Rossiyani isyonchilarni qo'llab quvvatlashda ayblab kelmoqda. Rossiya esa buni rad etib, mojaro Ukrainaning ichki ishi ekanligini ta'kidlamoqda.



Aleksandr Zelenskiy.

Belarus Respublikasi-Yevropa markazidagi davlat. Sharqiy Yevropa tekisligining g'arbida joylashgan.

Maydoni -207,6 ming km².

Aholisi - 9 463 300 kishi (2013).

Poytaxti - Minsk shahri.

Belarus poytaxti Minsk shahrining 1944-yili nemis fashistlaridan ozod qilingan kuni-3-iyul Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi.

1994-yil qabul qilingan konstitutsiyaga binoan Belarus Respublikasi unitar demokratik ijtimoiy-huquqiy davlat deb e'lon qilindi. 1994-yil bo'lib o'tgan saylovlarda Aleksandr Lukashenko mamlakat prezidenti etib saylandi. Uning tashabbusi bilan referendum o'tkazilib, belarus tili bilan bir qatorda rus tiliga ham davlat tili maqomi berildi, davlat bayrog'i o'zgartirildi, prezidentning vakolatlari kengaytirildi.

Belarus va Rossiya o'rtasida Do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risida, keyin esa Rossiya va Belarus o'rtasida Ittifoq davlatni tuzish to'g'risida shartnomalar imzolandi. Shartnoma Rossiya va Belarus o'rtasida yaqinlashuv va huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, bojxona va boshqa tizimlarini birlashtirishni, davlatlararo hokimiyat tizimlarini shakllantirishni, ayni paytda davlatlar mustaqilligi va suvereniteti saqlanib qolishini ko'zda tutadi.

1996-yili birinchi Umumbelarus xalq yig'ini mamlakatning 1996-2000-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosiy yo'nalishlarini tasdiqlagandan so'ng Belarusda asta-sekin iqtisodiy yuksalish kuzatildi. 2000-yilga kelib sanoat hamda xalq iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholining real daromadlari inqirozdan oldingi darajadan oshib ketdi. Fuqarolarning o'rtacha oylik daromadi MDH davlatlari orasida eng yuqorilaridan biri bo'lib qoldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha ham Belarus MDH davlatlari orasida oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Belarus sut va sut mahsulotlari yetkazib beruvchi dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiradi.

1994-yildan prezident Aleksandr Lukashenko, 2020-yilda bosh vazir Roman Golovchenko hisoblanadi.

Moldova Respublikasi- Yevropaning janubi-sharqiy qismidagi davlat.

Maydoni- 33 846 km².

Aholisi - 3,557,600 kishi (2014).

Poytaxti - Kishinyov shahri.

Moldaviya 1991-yil 27-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Moldova Respublikasi nomini olgan davlatning birinchi prezidenti etib Mircha Snegur saylandi.

1990-yili Moldovaning Ruminiya bilan integratsiyalashuvi jarayonida respublikaning janubi-sharqiy mintaqalaridagi mahalliy rusiyzabon aholi orasida ayirmachilik kayfiyatlari kuchaydi. Ular o'zlari yashaydigan hududni Dnestrbo'yi Moldaviya Respublikasi deb e'lon qildi. Bu qonli to'qnashuvga olib keldi va Rossiya armiyasi aralashgandan so'ng urush to'xtatildi.

Moldova iqtisodiy jihatdan agrar-industrial mamlakatlar qatoriga kiradi. Uning iqlimi qishloq xo'jaligi uchun juda qulay. Mamlakatda mineral resurslar zaxirasi yo'q, shu sababli iqtisodiyot qishloq xo'jaligiga asoslangan. Aholining yarmidan ko'pi qishloqlarda yashaydi. Eksportning asosiy qismini oziq-ovqat va to'qimachilik mahsulotlari tashkil qiladi.

Moldova - Yevropaning eng kambag'al mamlakatlaridan biri. Ammo 2009-yilgi inqirozdan so'ng Moldova jadal rivojlanishni boshlab yubordi.

Shunday bo'lsada, holat beqarorligicha qolmoqda. 2017-yil may oyida bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida Rossiya bilan yaxshi munosabatlar tarafdori bo'lgan Igor Dodon g'olib chiqqan edi.



Mayya Sandu

2020-yilda "Harakat va birdamlik partiyasi"dan nomzodini ko'rsatgan Mayya Sandu amaldagi Prezident Igor Dodonning 42,2 foiziga qarshi 57,7% ovoz bilan

saylovlarda g'alaba qozondi, bu esa uni mustaqil Moldova respublikasi tarixida birinchi ayol prezidentga aylantirdi.



Shok terapiyasi- bu iqtisodiy nazariya, shuningdek, shu nazariyaga asoslangan keskin iqtisodiy islohotlar

Korrupsiya - bu amaldor shaxs tomonidan o'z vakolatlarini va unga ishonib topshirilgan huquqlarni, shuningdek, rasmiy lavozim bilan bog'liq obro'yi va aloqalarini qonunga va axloq me'yorlariga xilof ravishda o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida suiiste'mol qilish.

Antiterror operatsiya - bu terroristik aktni bartaraf qilish, aholi, tashkilot va muassasalarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, terroristik aktning oqibatlarini bartaraf qilish uchun o'tkaziladigan maxsus tadbirlar (jangovar, harbiy) kompleksi.



I. Bilimlarni sinash

1. Rossiyada Y. Gaydar hukumati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
2. 1990-yillari Rossiyada amalga oshirilgan eng muhim siyosiy islohotning mohiyati nimadan iborat edi?
3. Rossiyada 1990-yillari vujudga kelgan millatlararo tanglik qanday usullar bilan hal etildi?
4. XXI asrda Rossiya tashqi siyosatda qanday muammolarni hal qilishga e'tibor berdi.
5. V.Putin Rossiya Prezidenti etib saylanganidan keyin siyosiy jarayon va davlat qurilishida qanday asosiy o'zgarishlar ro'y berdi?
6. 1991-2011 yillarda Rossiya tashqi siyosatining asosiy maqsadlari, tendensiyalari va xususiyatlarini tavsiflang.
7. Belarusning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini tavsiflang.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1994-yilda chechen inqirozining yuzaga kelishi uchun qanday shart-sharoitlar mavjud edi?
2. SSSR parchalanganidan keyin Ukraina-Rossiya munosabatlari qanday rivojlandi? XXI asr boshlarida ulardagi asosiy muammolar qanday edi?
3. Sizningcha, hozirgi Ukraina sobiq SSSRning qaysi davlatlari bilan samarali hamkorlik qilish uchun eng yaxshi imkoniyatlarga ega? Javobingizni asoslang.
4. V.Putin Rossiya Prezidenti etib saylanganidan keyin siyosiy jarayon va davlat qurilishida qanday asosiy o'zgarishlar ro'y berdi?
5. 1991-2011 yillarda Rossiya tashqi siyosatining asosiy maqsadlari, tendentsiyalari va xususiyatlarini tavsiflang.
6. XX asr oxiriga kelib qanday o'zgarishlar Ukrainada kapitalistik iqtisodning shakllanishiga olib keldi?
7. Ukrainada 2014-yilgi siyosiy inqiroz natijasida qanday muammolar paydo bo'ldi?
8. Belarus Respublikasi mustaqillik yillari iqtisodiy rivojlanishda qanday yutuqlarga erishdi?
9. Moldova Respublikasi oldida mustaqillik yillari qanday siyosiy va iqtisodiy muammolar paydo bo'ldi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Ukraina, Belarus va Moldova respublikalari rivojlanishidagi umumiy jihatlarni ko'rsatib bering.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Davlat Dumasi" tushunchasini tushuntiring.
2. Xaritadan Donetsk va Lugansk viloyatlarini toping.

V. Ijodiy vazifa

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiyaga tashrifi qachon bo'lganligini va unda qanday bitimlar imzolanganligini aniqlang.



34-§.1991-2017-yillarda Boltiqbo‘yi va Kavkazorti davlatlari

1991 - 2017-yillarda Boltiqbo‘yi davlatlari

Boltiqbo‘yi respublikalari deganda, odatda, Latviya, Litva va Estoniya tushuniladi.

Mustaqillik e‘lon qilingandan boshlab Boltiqbo‘yi respublikalari jadal ravishda bozor iqtisodiyotini joriy qilishga, o‘zlarining G‘arb davlatlari bilan munosabatlarini mustahkamlashga kirishdi. Uchala davlat ham 2004-yilda NATOga, shu yili YIga a‘zo bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida obro‘li xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lgan bu davlatlar shiddat bilan iqtisodiy rivojlanish yo‘liga kirdi. Shu jadal rivojlanish tufayli ular «Boltiq yo‘lbarlari» deb ataldi. Ammo bunday shiddatli rivojlanish 2008 - 2009-yillardagi inqirozgacha davom etdi.

Latviya -Yevropaning shimoli-g‘arbida, Boltiq dengizi bo‘yida joylashgan davlat.

Maydoni — 64,589 ming km².

Aholisi — 2, 385 mln. kishi (2001).

Poytaxti — Riga shahri



1988-yili tuzilgan Latviya Xalq fronti mustaqillik uchun kurash boshladi. Natijada 1990-yil 4-mayda Latviya o‘z mustaqilligini e‘lon qildi.

Mustaqillik yillarida Latviya sovet davrida qurilgan yirik sanoat korxonalarini, jumladan, elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqaruvchi eng yirik VEF, mikro avtobuslar ishlab chiqaruvchi RAF zavodlarini yopdi. Bu ko‘plab tajribali ishchi-mutaxassislarning qisqarishiga, ishsizlar sonining keskin oshishiga olib keldi. Baliq mahsulotlarini qayta ishlash zavodi ham katta zarar ko‘rdi. Hokimiyatga kelgan yangi siyosiy kuchlar bank sektori va logistikani rivojlantirishga qaror qildi. Dastlab G‘arb davlatlarining investitsiyalari jadal

iqtisodiy o'sishga olib keldi. Ammo 2008-yilgi inqiroz chet el investitsiyalariga to'liq qaram bo'lgan mamlakat iqtisodining o'ta beqarorligini ko'rsatdi va katta zarar yetkazdi. Shu davrdan Latviyada iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tushib ketdi. 2010-yilga kelib mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmi 1990-yilgi ko'rsatkichga ham yetmadi.

Ishsizlikning yuqori darajasi tufayli aholi ish izlab ommaviy ravishda G'arb davlatlariga ketishga majbur bo'lmoqda. SSSR tarqalgandan so'ng Latviya aholisi 400 ming kishiga kamaydi.



Raymond Veyonis

Mamlakat oldida turgan muammolardan yana biri etnik muammodir. Mustaqillik yillarida sovetlar davrida bu yerga ko'chib kelgan rusiyzabon aholiga va ularning avlodlariga Latviya fuqaroligi berilmadi. Rusiyzabon aholi hozir Latviya aholisining 30% ini tashkil qilmoqda. Mamlakatda latish va rus millatiga mansub fuqarolar o'rtasida munosabat ham tarangligicha qolmoqda.

Litva-Sharqiy Yevropada, Boltiq, dengizi bo'yida joylashgan davlat.

Maydoni- 65,2 ming km².

Aholisi -2,986 ming kishi (2012).

Poytaxti - Vilnyus shahri

1988-yil iyunda Litvada «Sayudis» («Harakat») tashkiloti tuzildi va o'z olidiga Litvaning mustaqillikka erishishini ta'minlash vazifasini qo'ydi.

1990-yil 11-martda Litva Oliy Soveti Litva Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. Ammo mustaqillik osonlikcha qo'lga kiritilmadi. 1991-yil 13-yanvar kuni Vilnyusda mustaqillikni qo'llab o'tkazilgan namoyishda teleminora va parlament binosini sovet qo'shinlaridan himoya qilgan 14 nafar namoyishchi halok bo'ldi. Shu davrdan Litva bilan tugab borayotgan SSSR rahbarlari o'rtasidagi



Dalia Gribauskay.

munosabatlar deyarli uzildi.

Bu respublikaning etnik tarkibi Latviya va Estoniyaga nisbatan bir xilligi bilan ajralib turadi.

Aholining 90% ga yaqinini litvaliklar tashkil qiladi. Shu sababli mustaqillikdan so'ng mamlakatda yashovchi barcha aholiga millatidan qat'i nazar Litva fuqaroligi berildi.

Litva ham 2008-yildan keyin og'ir ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. 2010-yili ishsizlar soni 20% ga yaqinlashdi. Odamlarning ish izlab ko'plab Yevropa mamlakatlariga ko'chib ketishi oqibatida aholi soni umuman o'smayapti, aksincha, kamaymoqda. Inqiroz tufayli ko'plab litvaliklar G'arbga ko'chib ketdi.

Estoniya Respublikasi — Sharqiy Yevropada, Boltiq dengizi bo'yidagi davlat.

Maydoni - 45,2 ming km².

Aholisi - 1,408 mln. kishi (2003).

Poytaxti- Tallin shahri.

Estoniyada «Xalq fronti» 1988-yili tashkil qilindi. U qayta qurishni qo'llab-quvvatlashini e'lon qilib, respublikaning SSSR tarkibidan chiqishini o'zining ochiq vazifasi qilib qo'ymadi.

Shunday bo'lsa-da, 1988-yil 16-noyabrda Estoniya Oliy Soveti «Estoniya SSRning davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya»ni qabul qildi.

Boltiqbo'yi respublikalari ichida eng shimoliysi bo'lgan Estoniya ham sovet davrida jadal industrilashtirildi. Ko'plab malakali ishchilarning jalb qilinishi mamlakatdagi demografik va etnik holatni o'zgartirdi. Mamlakat aholisida estonlarning ulushi qisqarib bordi, aholining ancha qismini ruslar tashkil qildi. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng Estoniya ruslarning fuqarolik olishlariga to'siq bo'luvchi qat'iy qonunlar qabul qildi. Bu ruslarning Estoniyani tark etishiga olib kelmadi, ammo millatlararo munosabatlarni murakkablashtirdi. Buning ustiga, Estoniyada (umuman Boltiqbo'yi davlatlarida) sovet davri, ayniqsa, urush davridan qolgan yodgorliklarni yo'q qilish yoki shahar chekkasiga ko'chirish Rossiyaning noroziligiga sabab bo'lib, ikki tomon munosabatlarida katta muammolarni keltirib chiqarmoqda. 2011-yili rusiyzabon aholi vakillari bilan eston politsiyasi o'rtasida bo'lib o'tgan to'qnashuvda 1 kishi halok bo'ldi, ko'plar yaralandi.

Qiyinchiliklarga qaramasdan, Boltiqbo‘yi mamlakatlari Yevroittifoqqa integratsiyalashuv yo‘lidan ketmoqda. Ularning barchasi yevro pul birligi hududiga kirgan.

Ukrainadagi inqirozdan keyin Rossiyaning tajovuzkor siyosatidan xavotirga tushgan Boltiqbo‘yi davlatlari va NATO rahbarlari bu mamlakatlardagi NATO harbiy kuchlarini ko‘paytirishga kirishdi.



Toomas Hendrik Ilves.

2016-2017-yillari Boltiqbo‘yi mamlakatlariga NATOning kichik sonli harbiy texnikasi va qo‘shinlari joylashtirildi. Ayniqsa, Rossiya va Belarus tomonidan hamkorlikda o‘tkazilgan «G‘arb-2017» harbiy mashqlaridan so‘ng Boltiqbo‘yi mamlakatlarida Rossiyaning bu yerdagi siyosatidan xavotir va g‘ayrirus tashviqot kuchayib ketdi. Bunday holat, o‘z navbatida, Rossiyaning ham noroziligiga sabab bo‘lmoqda.

1991- 2017-yillarda Kavkazorti davlatlari

Ozarbayjon Respublikasi — Kavkazortining janubi-sharqiy qismida joylashgan mamlakat.

Maydoni- 86,6 ming km².

Aholisi- 9,5 mln. kishi (2015).

Poytaxti - Boku shahri

1991-yil 18-oktabr kuni o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. Ozarbayjon 1991-yildan beri o‘tgan vaqt davomida o‘zining mustaqil yo‘liga ega davlat ekanligini isbotlab kelmoqda. U mintaqa siyosatida muhim rol o‘ynaydi. Ozarbayjon katta neft va gaz zaxiralariga egaligi, strategik joylashuvi bois Rossiya va G‘arb manfaatlar orasida mohirlik bilan muvozanatni saqlab, o‘z manfaatlarini ta‘minlab kelmoqda.

Ammo, tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlarga qaramasdan, bir qator ichki muammolar saqlanib qolmoqda. Bular qatoriga, birinchi navbatda, Tog‘li Qorabog‘ muammosini kiritish mumkin.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida Ozarbayjon bilan Armaniston o'rtasidagi azaliy muammo -Tog'li Qorabog' muammosi yana ko'tarildi. Tog'li Qorabog' Ozarbayjon hududida joylashgan va asosan arman millatiga mansub aholi yashaydigan avtonom viloyat edi. Tog'li Qorabog' avtonom viloyati rahbarlarining viloyatni Armaniston tarkibiga qo'shishini so'rab qilgan murojaati mintaqadagi milliy muammolarni chigallashtirib yubordi.

1990-yili Boku shahrida muxolifatchi siyosiy tashkilot - Ozarbayjon Xalq frontining namoyishi boshlandi. Xalq fronti Abulfayz Elchibey boshchiligida Milliy mudofaa kengashi tuzilganligini e'lon qildi. Xalq frontining millatchilik ruhida mitinglari Bokudagi armanlar qirg'iniga bevosita turtki bo'ldi. Bunga qarshi Bokuga Sovet armiyasi qo'shinlari kiritildi. Mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. Armiyaning kiritilishi Ozarbayjon uchun katta fojia bo'ldi. To'qnashuvlarda yuzlab kishilar halok bo'ldi.

1992-yil mayda Bokuda davlat to'ntarishi amalga oshirilib, prezident Ayaz Mutalibov hokimiyatdan ag'darildi va A. Elchibey boshchiligidagi Xalq fronti hokimiyatga keldi. Ammo Xalq fronti mamlakatda tinchlik va totuvlikni ta'minlay olmadi. Natijada Milliy Majlis A.Elchibeyni lavozimidan mahrum qilib, uning vakolatlarini Ozarbayjon Milliy Majlisi raisi bo'lgan Geydar Aliyevga topshirdi. 1993-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida G. Aliyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

G. Aliyev hokimiyatga kelgandan keyin respublikadagi ziddiyatli ahvolni yumshatishga erishdi. U prezidentlik qilgan o'n yil Ozarbayjonda unchalik demokratik bo'lmasa-da, mamlakatning tinch taraqqiyotini ta'minladi, qo'shnilar bilan yaxshi hamkorlik munosabatlari o'rnatildi. Tog'li Qorabog' masalasi hal qilinmagan bo'lsa ham, faol jang harakatlari to'xtatildi, muzokaralar boshlandi.

2003-yil dekabrda G. Aliyev vafot etganidan so'ng mamlakat prezidenti etib uning o'g'li Ilhom Aliyev saylandi. I.Aliyev otasining siyosatini davom ettirib kelmoqda.



Ilham Aliyev

Gruziya Respublikasi- Kavkazortining markaziy va g'arbiy qismlarida, Qora dengizning sharqiy qirg'og'ida joylashgan mamlakat.

Umumiy maydoni- 69 700 km².

Aholisining umumiy soni- 3 729 500 kishi (2015).

Poytaxti -Tbilisi shahri.

1991-yil mart oyida o'tkazilgan referendumda Gruziya aholisining mutlaq katta qismi mamlakat mustaqilligi uchun ovoz berdi. 1991-yil 9-aprel kuni Gruziya o'z mustaqilligini e'lon qildi. Ayni paytda prezident lavozimi joriy qilindi. Shu yili bo'lib o'tgan prezident saylovlarida muxolifat yetakchisi Zviad Gamsaxurdiya mamlakat prezidenti etib saylandi. Boshqaruv tajribasiga ega bo'lmagan Z.Gamsaxurdiya o'zining sakkiz oylik prezidentlik davrida mamlakat elitasi, ziyolilar bilan munosabatlarini buzdi, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirib, gruzin-abxaz mojarosini keltirib chiqardi. 1991-yili Gruziya xalq demokratik partiyasi rahbarlari Z. Gamsaxurdiyaning iste'foga chiqishini talab qildi. Mamlakatda isyon boshlanib, Tbilisida haqiqiy janglar bo'lib o'tdi. Z.Gamsaxurdiya o'z tarafdorlari bilan Tbilisini tark etdi.

Z. Gamsaxurdiya prezidentlikdan chetlashtirilgandan so'ng hokimiyat Eduard Shevardnadze boshchiligidagi Davlat kengashiga o'tdi. Bu paytda mamlakatda ahvol og'ir, gruzin-osetin urushi davom etayotgan edi. E. Shevardnadze bu urushni to'xtatishga erishdi.

Shu yil oktabrda o'tkazilgan saylovlarda E.Shevardnadze Gruziya Oliy Kengashi raisi etib saylandi. Ammo mamlakatda yig'ilib qolgan muammolar, ayniqsa, iqtisodiy ahvolning og'irligi E.Shevardnadze boshqaruviga nisbatan aholining noroziligini kuchaytirdi. 2003-yili o'tkazilgan parlament saylovlaridan so'ng E.Shevardnadze iste'foga chiqqanligini e'lon qildi. Yangi saylovlarda Mixail Saakashvili g'olib chiqdi. Bu jarayonlar Gruziya va G'arb matbuotida «Atirgullar inqilobi» nomini oldi. Hokimiyatga ko'pchiligi G'arb davlat larida ta'lim olgan «yangi demokratlar» keldi.



M. Saakashvili hukumati Gruziyada fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilishini yengillashtirish, soliqlarni kamaytirish, davlat mulkini xususiyashtirish kabi muhim islohotlarni amalga oshirdi. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash e'lon qilindi. Ammo M. Saakashvili davrida ham Gruziya bilan Mixail Saakashvili Janubiy Osetiya o'rtasidagi mojaro o'z yechimini topmadi. 2008-yil avgustda Gruziya, Rossiya, Janubiy Osetiya va Abxaziya ishtirokida bo'lib o'tgan harbiy to'qnashuv oqibatida Rossiya Abxaziya va Janubiy Osetiyaning mustaqilligini tan olib, ular bilan ikki tomonlama munosabatlar o'rnatdi.

2012-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida muxolifatchi «Gruziya orzusi» partiyasi g'olib chiqdi. Shu partiya vakili Georgiy Margvelashvili Gruziya prezidenti etib saylandi.

2016-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida ham «Gruziya orzusi» g'alaba qozondi.

Armaniston Respublikasi– Kavkazortining janubiy qismida joylashgan mamlakat.



Salome Zurabishvili

Maydoni- 29,8 ming km².

Aholisi - 3,277 mln (2012). kishi.

Poytaxti -Yerevan shahri.

1991-yil 21-sentabrda Armanistonda respublika maqomi bo'yicha referendum o'tkazildi. Unda qatnashganlarning mutlaq ko'pchiligi Armanistonning SSSR tarkibidan chiqishi uchun ovoz berdi. Shundan so'ng «Armanistonning davlat mustaqilligi to'g'risida deklaratsiya» qabul qilindi. Shu tariqa referendum Armanistonda respublika tuzumini o'rnatdi. 1991-yil oktabrda bo'lib o'tgan saylovlarda Levon Ter-Petrosyan Armanistonning birinchi prezidenti etib saylandi.

Armanistonning mustaqil davlatga aylanishi boshqa respublikalarga nisbatan o'zgacha asosda yuz berdi. XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidayoq mustaqillik uchun kurash tashqi omil - Tog'li Qorabog' muammosi qizigan bir paytda boshlandi. Tog'li Qorabog'ni qo'shib olish arman jamiyatida etnik birlashish, tarixiy adolatning qaror topishi sifatida qaraldi. Bu kurash jarayonida kommunistik partiya rahbarlari o'rniga kelgan milliy siyosiy elita shakllandi. Shu elita bugun ham Armanistonning rivojlanish yo'nalishini belgilab kelmoqda.

SSSRning so'nggi yillarida birinchilardan bo'lib ittifoq markaziga qarshi kurash boshlagan Armaniston, mustaqillikdan so'ng Moskva bilan munosabatlarini aniq belgilab oldi. Ayrim sobiq respublikalar qatorida sovetlarning aybi uchun zamonaviy Rossiyaning ayblamadi. Buning sabablaridan biri Tog'li Qorabog' masalasida Armanistonning Rossiyaga tayanishi edi.

Chunki Armanistonning Ozarbayjon va Turkiya bilan chegaralari amalda yopiq, Gruziya bilan munosabatlari murakkab, Eron bilan ancha jiddiy geosiyosiy kelishmovchiliklar mavjud. Shu tariqa Rossiya Armanistonning mintaqadagi yagona ittifoqchisi bo'lib qolmoqda. 2008-yili Armaniston prezidenti etib saylangan Serj Sargsyan shu siyosatni ustalik bilan davom ettirib kelmoqda.

Armaniston sanoati asosan sovet davrida yaratilgan. U SSSRning ichki bozoriga dastgohlar, uskunalar, to'qimachilik va boshqa sanoat mahsulotlari yetkazib berib, o'rniga xomashyo va elektr energiyasi olardi. Qishloq xo'jaligi yirik agrosanoat komplekslari bazasida rivojlandi.

Armaniston - industrial-agrar mamlakat. Uning yerosti qazilma boyliklari ancha katta miqdorni tashkil qiladi. Sintetik kauchuk, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va mashinasozlik rivojlangan.



Demografiya - bu aholi va uning ko'payish qonuniyatlari to'g'risidagi fan. U aholining son jihatidan tarkibi, uning o'zgarishi, joylashishi va shu kabilarni o'rganadi.

Logistika - bu tovarlar, yuklar va shu kabilarni bir hududdan boshqasiga yetkazib berishning tizimini tashkil qilish.

Milliy siyosiy elita (elita - eng yaxshisi, saralangani) - bu jamiyatni boshqarishning ma'lum layoqatiga ega bo'lgan shaxslar guruhi bo'lib, ular siyosiy hokimiyatni o'z qo'llarida jamlaydi, rahbar lavozimlarni egallaydi, jamiyatni boshqaradi.



I. Bilimlarni sinash

1. Boltiqbo'yi respublikalaridagi millatlararo muammolarni aytib bering.
2. Qorabog' mojarosida urushayotgan tomonlarni ayting.
3. Mustaqillik yillarida Boltiqbo'yi davlatlari G'arb bilan munosabatlarda qanday yo'ldan bordi?
4. Mustaqillik yillari Latviya qanday iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch keldi?
5. Litva Respublikasi qanday jihatlari bilan Latviya va Estoniyadan farq qiladi?
6. Estoniya bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda qanday muammolar mavjud?
7. Ozarbayjonda A.Elchibey boshchiligidagi Milliy mudofaa kengashining millatchilik chiqishlari qanday oqibatlarga olib keldi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. G.Aliyev prezident etib saylangandan so'ng Ozarbayjonning ichki va tashqi siyosati qanday o'zgardi?
2. Gruziyada M.Saakashvili olib borgan islohotlar qanday natijalarga olib keldi?

3. Armanistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida qanday omil asosiy rol o'ynaydi?
4. Matndan foydalanib, Kavkazorti mamlakatlaridagi etnik muammolar ro'yxatini tuzing.
5. Nima uchun, sizningcha, Boltiqbo'yi davlatlarida bozor munosabatlariga o'tish eng muvaffaqiyatli bo'ldi?
6. Asr boshida Tog'li Qorabog'da, Dnestrbo'yida sodir bo'lgan voqealar haqida gapirib bering.
7. Kavkazorti davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlarini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun




Qanday omillar 1999-yilda Shimoliy Kavkazda yangi urushga olib keldi?

IV. Geografik xaritalar va tarixiy atamalar bilan ishlash

1. "Davlat Dumasi" tushunchasini tushuntiring.
2. Xaritadan XX asr oxiri – boshlarida Kavkaz mamlakatlarini ko'rsating.

V. Ijodiy vazifa

1. Mavzuning asosiy mazmuni qayerda deb o'laysiz? Matnni alohida ko'rsating.
2. Ven diagmasining III qismiga umumiy jihatlarni yozib chiqing.



35-§.1991-2017-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari

Markaziy Osiyo mamlakatlariga, odatda, O'zbekistondan tashqari Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston kiradi.

Aholining 48 foizi shaharlarda istiqomat qiladi, bu esa Markaziy Osiyoni asosan qishloq aholisi yashaydigan mintaqaga sifatidagi tasavvurni o'zgartiradi.

Iqtisodiyotda asosiy e'tibor sanoatlashtirish va eksportni xomashyodan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga yo'naltirishga qaratilgan.



Qozog‘iston Respublikasi — O‘rta Osiyoda joylashgan mamlakat.

Poytaxti — Nur-Sulton shahri.

Qozog‘iston **yer maydoni** bo‘yicha (2 million 724,9 ming km²) jahonda 9-o‘rinda turadi.



Aholisi — 19,17 mln. kishi (2022-yil).

1991-yil 16-dekabrda Qozog‘iston o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Shu yili bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlarida Nursulton Nazarboyev Qozog‘istonning birinchi prezidenti etib saylandi. 1993-yil Qozog‘istonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda eng katta vakolatlar prezidentga berildi. Hukumat iqtisodiy islohotlarni boshlab yubord .

1993-yil noyabrda milliy valuta - tenge muomalaga kiritildi. Shu yil dekabrda Qozog‘iston hukumati yirik neft konsernlari bilan Kaspiy dengizining shimoliy qismida qidiruv o‘tkazish to‘g‘risida kelishuv imzoladi. Yirik korxonalarni xususiylashtirish amalga oshirildi. Shu yili parlament mamlakat poytaxtini Akmola shahriga ko‘chirish to‘g‘risida qaror qildi. U 1998-yildan «Ostona» deb ataladigan bo‘ldi.

O'tgan davrda Qozog'iston iqtisodiyotining asosiy sohalari neft, gaz va metallurgiya bo'lib qoldi. Aynan shu sohalarning hisobiga iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham jadal o'sishga erishildi.

2007-yil fevralda N. Nazarboyev prezidentning vakolat muddatini yetti yildan besh yilga o'zgartirish, parlament deputatlari sonini oshirish tashabbusi bilan chiqdi. Bu MDH davlatlarida keng tarqalgan siyosiy texnologiya bo'lib, konstitutsiyada bir kishining ikki muddatdan oshiq prezident bo'lishiga qo'yilgan taqiqni chetlab o'tishning yo'li bo'lib qoldi. N. Nazarboyev ham konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishdan so'ng prezidentlik saylovlarida yana o'z nomzodini qo'yish imkoniga ega bo'ldi.

2010-yili Qozog'istonning birinchi prezidenti - Elboshi to'g'risida qonun qabul qilindi. Ammo 2011-yili Mangistau viloyatida mehnat sharoiti va oylik maoshidan norozi bo'lgan neft konlari ishchilarining mustaqillik davridagi eng yirik norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Janaozen shahridagi tartibsizliklarda 15 kishi halok bo'ldi, o'nlab namoyishchilar qamoqqa olindi.

2015-yili bo'lib o'tgan navbatdan tashqari prezidentlik saylovlarida N. Nazarboyev g'alaba qozondi.

Turkmaniston — Markaziy Osiyodagi davlat


Ashxobod — mamlakatning poytaxti va eng yirik shahri.

Aholisi — 6 million



1991-yil 26-oktabrda referendum o'tkazilib, unda qatnashganlarning aksariyati Turkmaniston mustaqilligi uchun ovoz berdi. 1991-yil dekabrda mamlakat MDHga a'zo bo'ldi. 1999-yildan Xalq Majlisi qaroriga ko'ra Saparmurod Niyozov davlat boshlig'i lavozimini umrbod egalladi.

S.Niyozov hukumati muxolifatchi partiyalar faoliyatini taqiqladi. U «Turkmanboshi» unvonini oldi. S. Niyozovning «Ruhnoma» nomli kitobi ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib qilinib, o'quv yurtlarida o'qi tildi. S. Niyozov 2006-yili vafot etdi. Turkmaniston prezidenti etib Gurbanguli Berdimuhamedov saylandi.



Gurbanguli Berdimuhamedov

Mustaqillik yillari avvalida Turkmaniston iqtisodiyoti chuqur inqirozda edi. 1998-yili YIM hajmi 1991-yilga nisbatan ikki marta kamayib ketdi. Mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi yuz berdi, aholining yashash darajasi keskin tushib ketdi. Bir qator kundalik iste'mol mollarini fuqarolar o'rtasida bepul

tarqatish va xizmatlarni bepul ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilinishi ahvolni biroz yaxshiladi. Gaz qazib chiqarishning o'sishi ham mamlakat iqtisodiga katta madad bo'ldi.

2000-yillarning boshlaridan Turkmaniston inqirozdan chiqib oldi. Tabiiy boyliklar, birinchi o'rinda tabiiy gazning juda katta zaxiralari ko'plab mamlakatlar va transmilliy korporatsiyalarni o'ziga jalb qilmoqda. Ammo so'nggi yillarda jahonda uglevodorodlarga talabning pasayishi bilan Turkmaniston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari susaydi. 2015-yili mamlakatda boshlangan moliyaviy inqiroz 2016-yili yanada avjiga chiqdi.

2017-yil sentabr oyida Ashxobod shahrida Yopiq inshootlardagi V Osiyo o'yinlari o'tkazildi. Bu o'yinlar Turkmanistonning sayyohlik salohiyatini oshirishga va chet el investitsiyalarining ko'payishiga xizmat qilishi mumkin.

Tojikiston — O'rta Osiyoning janubi-sharqida joylashgan davlat.

Maydoni — 143.100 ming km².

Aholisi — 8,486,300 kishi (2014).

Poytaxti — Dushanbe shahri.



1991-yil 9-sentabr kuni Tojikiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Mustaqillikdan keyin mamlakatning turli mintaqalaridagi mahalliy elitalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash qizib ketdi. Bu kurash 1992-yildan 1997-yilgacha davom etgan fuqarolar urushiga olib keldi. Urushdan mamlakat juda katta iqtisodiy zarar ko'rdi.

1994-yil 6-noyabrda Tojikiston konstitutsiyasi qabul qilindi va shu kuni o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida Imomali Rahmonov Tojikiston Prezidenti etib saylandi.



Imomali Rahmonov

Mamlakatda tinchlik o'rnatilgandan so'ng, hukumat Rossiya, Xitoy, Eron bilan hamkorlik qilib, mamlakat iqtisodiyotini tiklashga kirishdi. Tojikiston tog'li o'lka bo'lganligi uchun uning gidroenergetika imkoniyatlari katta.

Tojikiston 2000-yil Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligini ta'sis qilish to'g'risidagi shartnomani imzoladi. U Shanxay hamkorlik tashkilotiga, Kollektiv xavfsizlik to'g'risida shartnoma tashkilotiga qo'shildi. Tojikiston, Rossiya, Xitoy va Eron bilan hamkorlikda bir necha yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishni boshladi.

Qirg'iz Respublikasi- O'rta Osiyoning shimoli-sharqida joylashgan davlat.

Poytaxti — Bishkek shahri.

Aholisi - 6 550 000 kishi.



1991-yil 31-avgustda Qirg'iziston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shundan so'ng demokratik jarayonlar yanada chuqurlashib bordi, umumxalq prezidentlik saylovlari o'tkazilib, unda Asqar Akayev g'olib chiqdi. U mamlakatda demokratik islohotlarni o'tkazish, xalqaro tashkilotlar ko'z o'ngida Qirg'iz Respublikasini demokratik mamlakatga aylantirish borasida ko'p ishlarni amalga oshirdi. Ammo A.Akayev hokimiyatda turgan 15 yil ichida xalqning ahvoli yetarli darajada yaxshilanmadi. Jamiyatda norozilik va ijtimoiy tanglik ortib bordi.

A. Akayevni hokimiyatdan ag'darib tashlagan 2005-yilgi «Lolalar inqilobi» juda tez va katta yo'qotishlarsiz amalga oshirildi. Hokimiyatga kelgan Kurmanbek Bakiyev kuch ishlatar tizimlarga tayanib, jamiyatda shaxsiy hukmronligini mustahkamlashga, muxolifatni butunlay tugatishga harakat qildi. Ammo bu harakat uzoqqa bormadi. 2010-yili «Aprel inqilobi» deb atalgan ommaviy harakat

natijasida K. Bakiyev hokimiyati ag'darib tashlandi. U oila a'zolari bilan mamlakatdan qochib ketdi. Mamlakatda tartibni saqlash uchun Roza Otunbayeva boshchiligidagi muvaqqat hukumat tashkil qilindi.

Biroq, hokimiyatning kuchsizligidan foydalangan millatchi va ekstremistik kuchlar 2010-yil iyunda Janubiy Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod shaharlarida bu yerdagi o'zbek jamoalariga qarshi fitna uyushtirdi.

2011-yil oktabrda bo'lib o'tgan saylovlarda Qirg'iziston sotsial-demokratik partiyasi yetakchisi Almazbek Atambayev prezident etib saylandi.

Mustaqillik yillarida Qirg'iz Respublikasi og'ir iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. 1996-yili iqtisodiy barqarorlashuv jarayoni boshlandi. Bu davrda bozor iqtisodiga o'tish uchun islohotlar o'tkazilib, ular 2000-yillardan iqtisodiy o'sishga olib keldi. Asosiy sanoat korxonalari xususiylashtirildi, yerga xususiy mulkchilik joriy qilindi. Oltin va simob qazib olish keskin oshirildi. Qirg'iziston oltin qazib chiqarishda MDHda Rossiya va O'zbekistondan keyin uchinchi o'ringa chiqdi. 2017-yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'izistonga, A. Atambayevning shu yil oktabrda O'zbekistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning keskin yaxshilanishiga olib keldi.



Qirg'izistonda iqtisodiyotning o'sishi jamiyatning ham barqarorlashuviga olib keldi. 2017-yil oktabrda o'tkazilgan prezidentlik saylovlari natijasiga ko'ra, hukmron sotsial-demokratik partiya vakili Sooronbay Jeenbekov g'alaba qozondi. U 2017-yil dekabrda O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelib, bir qator shartnomalarni imzoladi.



Sooronbay Jeenbekov



Siyosiy texnologiya - bu siyosiy faoliyatning ma'lum usullari bo'lib, ulardan jamiyatning ongiga ta'sir o'tkazish orqali ma'lum bir siyosiy maqsadga erishish uchun foydalaniladi.

Transmilliy korporatsiya - bu bir nechta mamlakatlarda ishlab chiqarish bo'limlariga ega bo'lgan va faoliyatining asosini xalqaro biznes tashkil qiladigan kompaniya.



I. Bilimlarni sinash

1. Mustaqillik yillarida Qozog'iston iqtisodiyoti asosan qaysi sohalar hisobiga rivojlandi?
2. G.Berdimuhamedov prezident etib saylangandan so'ng Turkmanistonning ichki siyosatida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. Tojikistonda fuqarolar urushi qanday oqibatlariga olib keldi?
4. Nima uchun Qirg'izistonda A. Akayev prezidentligi davri norozilik va inqilobga olib keldi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muammolarini tahlil qiling.

2. Qaysi shaharda 1991-yil dekabrda Markaziy Osiyo rahbarlarining uchrashuvi bo'lib, MDH ta'sischi sifatida ittifoqqa qo'shilishi ma'lum qilindi?

3. 1993-yilda qaysi Markaziy Osiyo davlati yirik neft konsernlari bilan Kaspiy dengizining shimoliy qismida qidiruv o'tkazish to'g'risida kelishuv imzolagan?

III. Guruh muhokamasi uchun


“...Markaziy Osiyo mintaqasi ... Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan”. Ushbu fikrlar muallifi kim?

IV. Geografik xaritalar bilan ishlash

Xaritadan XX asr oxiri – boshlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarini ko'rsating.

V. Ijodiy ish topshirig'i

Siz ham shunga o'xshash grafik chizing va guruhdoshingizni bilimini sinab ko'ring



36-§. Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari

G'arb mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi.

Yevropa ittifoqi va AQSH munosabatlari



Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari. Yevropa integratsiyasi jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy xususiyatga ega edi. 1949-

yilda mustaqil hukumatlararo maslahat organi - Yevropa Kengashi tashkil etilgan. Keyin YEK tashkil topishi bilan Yevropa parlamenti tuzildi.

Dastlab Yevropa Kengashi va Yevropa Parlamenti tavsiyalar berishdan nariga o'tmadi va Yevropa davlatlarining siyosatiga bilvosita ta'sir ko'rsatdi. Ammo 1990-yillarning boshlarida Yevropa parlamentining roli oshdi. Maastrixt kelishuvlari (1993) Yevropa davlatlari tashqi va harbiy siyosatni o'z ichiga olgan ma'lum siyosiy qarorlarni Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashida muvofiqlashtirishi kerakligini ko'rsatdi.

Yevropa Ittifoqi (YI) Maastrixt kelishuvi bilan 1993-yil 1-noyabrda tuzilgan. Yevropa davlatlari o'rtasida a'zolik iqtisodlari, jamiyatlari, qonunlari va ba'zi darajadagi xavfsizlikka nisbatan o'z siyosatini amalga oshiradigan siyosiy va iqtisodiy ittifoqdir.

YXHTning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- mintaqada inson huquqlarini himoya qilish va demokratik institutlarni rivojlantirish.



Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti

1990-yillardan boshlab Yevropa integratsiyasining keyingi rivojlanishi ikki yo‘nalish bo‘yicha bordi. **Birinchidan**, yangi a‘zolari qabul qilish yo‘nalishi bo‘lib, 1996-yili a‘zolar soni 15 taga yetdi. 2002-yili Kopengagenda (Daniya) bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Yevroittifoqqa yangi a‘zolar - Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya qabul qilindi.

Albatta, yangi a‘zolar uchun o‘tish davri ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu davr mobaynida ular o‘z qonunchiligini, moliyaviy va iqtisodiy tizimini yagona Yevropa talablariga moslashtirishi lozim edi. Ularga o‘zlarining ichki muammolarini hal qilish uchun Yevroittifoq budjetidan subsidiyalar berildi.

Ikkinchidan, integratsiyaning chuqurlashuvida Yevropa mamlakatlarida o‘zaro siyosiy munosabatlar sohasini ham qamrab olish yo‘lidan borildi. Yevropa parlamentining maqomi oshdi, Yevroparlamentga to‘g‘ridan to‘g‘ri saylovlar o‘tkaziladigan bo‘ldi.

1987-yili Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotini YIga aylantirish bilan u «ichki chegaralarsiz makon» bo‘lib qoldi. 1993-yili yagona Yevropa fuqaroligini ta‘minlagan Maastricht kelishuvlari kuchga kirdi. YIga kiruvchi mamlakatlar fuqarolari hech qanday vizasiz Ittifoqning istalgan mamlakatida o‘zi xohlagan muddat yashashi va mahalliy saylovlarda ishtirok etishi mumkin bo‘ldi. Qonunchilikni birxillashtirish huquqiy me‘yorlarning yagona Yevropa tizimi shakllanishiga olib keldi.

2002-yil 1-yanvardan Yevropada (Buyuk Britaniyadan tashqari) yagona valuta - yevro joriy qilinishi YI davlatlarini yanada yaqinlashtirdi. Kelishilgan yagona tashqi va mudofaa siyosati olib borilmoqda. Endi Yevropa Ittifoqiga amalda konfederatsiya tipidagi yagona davlat tuzilmasi sifatida qarash mumkin bo‘ldi. Yevroatlantika mamlakatlarining keyingi integratsiyasi G‘arbiy Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlarining yanada yaqinlashuvi asosida yuz bermoqda.



Ammo so‘nggi paytlarda YIga kiruvchi bir qator davlatlar qarzining haddan oshib ketishi katta muammolarni keltirib chiqardi. 2015-yilgi saylovlarda Gretsiyada hokimiyatga kelgan A.Sipras boshchiligidagi so‘llar hukumati mamlakatning qarzini kreditorlar qo‘ygan shartlar bo‘yicha uza olmasligini e‘lon qildi. Shundan so‘ng o‘tkazilgan referendumda Gretsiya aholisining ko‘pchiligi hukumatni qo‘llab ovoz berdi. Gretsiya hukumati qarzlarning bir qismidan voz kechishlarini talab qildi. Gretsiya qarzini restrukturizatsiya qilish to‘g‘risida Yevrokomissiya kelishuvga erishgan bo‘lsa-da, Yevropa markaziy banki va Xalqaro valuta fondi bilan muzokaralar yana davom etdi.

Italiya va Ispaniyaning ham qarzlari juda katta miqdorni tashkil qiladi. Ayni paytda YIida iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan Germaniya va Fransiyaning siyosiy bosimidan ham norozilik kuchayib bormoqda. Bu norozilikning yorqin namoyishi Buyuk Britaniyada 2016-yil iyunda o‘tkazilgan referendum bo‘lib, unda ishtirok etgan aholining yarmidan ko‘pi mamlakatning Yevropa Ittifoqidan chiqishi uchun ovoz berdi. 2016-yil sentabrda Bratislava shahrida bo‘lib o‘tgan YI rahbarlari yig‘ilishida ilk bor Buyuk Britaniya bosh vaziri qatnashmadi. Unda nutq so‘zlagan GFR kansleri A. Merkel YI og‘ir inqirozda ekanligini tan oldi.

Bu inqirozning yana bir namoyishi 2017-yil oktabr oyida Ispaniyaning Kataloniya avtonom viloyatida o‘tkazilgan referendum bo‘ldi. Uning natijalariga ko‘ra Kataloniya mustaqilligi e‘lon qilindi. Ammo Madriddagi markaziy hokimiyat referendum natijalarini tan olmadi, Kataloniya hukumati a‘zolarini qamoqqa oldi va avtonomiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri Madriddan boshqarilishini e‘lon qildi.

YI va AQSH munosabatlari. 1990- yil noyabr oyida Atlantika deklaratsiyasi qabul qilindi, unda Yevropa Ittifoqi va AQSH o‘rtasidagi “umumiy meros va boshqa yaqin tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar”ga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish yo‘llari belgilandi Shu bilan birga, Bryussel va Vashington o‘rtasida doimiy muloqot, jumladan, yillik sammit uchrashuvlarini o‘tkazish, iqtisod va siyosat sohasida turli ishchan aloqalarni o‘rnatish zarurligi to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi.

Birinchi Yevropa Ittifoqi-AQSh sammiti 1993-yil may oyida bo‘lib o‘tgan va 2014-yilning may oyiga qadar 28 ta shunday uchrashuvlar o‘tkazildi. Ularda ikki tomonlama munosabatlarni boshqarishning asosiy vositasi ikki tomonlama munosabatlarning barcha muhim jihatlarini qamrab oluvchi ko‘plab ishchi guruhlar darajasidagi jadal ish bo‘lgani va uchrashuvlarning o‘zi ham tantanali suratga aylangani tufayli sammitlarning ahamiyati pasayib ketdi.



Yevropa Ittifoqi bayrog‘i.

1995-yilda Yevropa Ittifoqi-AQSh Madrid sammitida Yangi Transatlantik xartiyasi Bryussel va Vashington o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichini e‘lon qildi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar qatorida “butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, demokratiyani rivojlantirish”, “global chaqiriqlarga javob berish”, “jahon savdosini kengaytirish va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shish”, “Atlantika okeani bo‘ylab ko‘priklar qurish”, “parlament aloqalarini rivojlantirish” kabi masalalar ko‘rib chiqildi.

2007-yili YI va AQSH Transatlantik iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to‘g‘risida kelishuv imzoladi va Transatlantik iqtisodiy kengash joriy qildi. Ammo tomonlar bu kelishuvni to‘liq amalga oshirishga shoshilmadi. 2000-yillar davomida bir qancha kelishuvlar imzolanib, ular tomonlar o‘rtasidagi aloqalarning turli xususiy jihatlarini tartibga solishga qaratildi.

AQSH va YI dunyoda eng yirik energiya iste‘molchilari bo‘lib, ular atmosferaga eng ko‘p zaharli moddalarni chiqaradi. 2000-yillar boshlarida ikki tomon energetika samaradorligi, xavfsizlik va iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida bayonot,

Iqlim o'zgarishi to'g'risida BMT ning Parij konvensiyasini imzoladi. Ammo 2017-yili AQSH prezidenti D.Tramp mamlakatning bu konvensiyadan chiqishini e'lon qildi. AQSH bilan YI o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum kelishmovchiliklar mavjud. Bu kelishmovchiliklar ayniqsa xalqaro muammolarni hal etishdagi yondashuvlarning farqida keskin ko'zga tashlanmoqda. AQSH xalqaro mojarolarni hal qilishda kuchga tayanish tarafdori, YI esa diplomatik imkoniyatlardan oxirigacha foydalanish lozim deb hisoblaydi. Shunga qaramasdan, ular o'zaro siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy hamkorlik manfaatlari orqali bir-biri bilan uzviy bog'langan. AQSH va YI yagona Yevroatlantik sivilizatsiyaning vakillari bo'lib, bu ular o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.



Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar

Yil	Mamlakat	A'zolar soni
1957	Germaniya, Italiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg	6
1973	Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya	9
1981	Gretsiya	10
1986	Ispaniya, Portugaliya	12
1995	Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya	15
2004	Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya	25
2007	Bolgariya, Ruminiya	27



Kapital - bu qo'shimcha qiymat olishda foydalaniladigan moddiy, intellektual va moliyaviy vositalar yig'indisi.

Subsidiya - davlat yoki boshqa biron-bir muassasa tomonidan boshqa davlat, muassasa, alohida shaxsga ko'rsatiladigan moliyaviy yoki moddiy yordam.

Restrukturizatsiya - bu qarz yoki kreditni to'lash shartlarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish.



I. Bilimlarni sinash

1. 1990-yillari Yevropa integratsiyasi qanday yo‘nalishlar bo‘yicha davom ettirildi?
2. Buyuk Britaniyaning YIdan chiqishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
3. YI va AQSH munosabatlari qanday hujjatga asoslanadi?
4. YI va AQSH o‘rtasida qanday masalalar bo‘yicha kelishmovchiliklar mavjud?

II. O‘quv materialini tizimlashtirish

1. YIda iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan qaysi davlatlarning siyosiy bosimidan ham norozilik kuchayib bormoqda?
2. Qachonga kelib Transatlantik iqtisodiy kengash joriy qilindi ?
3. Qachon Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti Ylga aylantirildi?
4. Yevropada yagona valuta — yevro joriy qilinishini qaysi davlat qabul qilmadi?
5. Yagona Yevropa fuqaroligini ta’minlagan Maastrixt kelishuvlari qachon kuchga kirdi?
6. Qaysi davlat qarzini kreditorlar qo‘ygan shartlar bo‘yicha uza olmasligini e’lon qildi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Sizningcha YI va AQSH munosabatlari nimaga asoslangan?

IV. Geografik xaritalar bilan ishlash

Yevropa ittifoqi davlatlarini xaritadan toping va ularni qachon YI ga qachon a‘zo bo‘lganligini xaritaga yozing

V. Ijodiy ish topshirig‘i.

YI davlatlari haqida viktorina savollarini tuzing va guruhingizda “Kim millioner bo‘lishni xoxlaydi” o‘yinini o‘tkazing.

**37-§.1991-2017-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari. Germaniya
Federativ Respublikasi**

1991 - 2017-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari

Shimoliy Amerikadagi mamlakat.

Poytaxti — Vashington shahri.



Maydoni — 9 373 000 km².

Aholisi — 333 000 000 kishi (2021).

Iqtisodiy rivojlanish. 1992-yilda navbatdagi prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. G'alabani Demokratik partiyadan nomzod Bill Klinton qo'lga kiritdi. U iqtisodiyotni barqarorlashtirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish va ishsizlikni kamaytirishga muvaffaq bo'ldi. Bularning barchasi Klintonning 1996-yilda yangi muddatga qayta saylanishini ta'minladi. Klinton ma'muriyati ijtimoiy dasturlarga sarmoya kiritdi, bu esa ishsizlikning qisqarishiga olib keldi. 20 million ish o'rni yaratildi.

Hokimiyat davrida demokratlar inflyatsiya darajasini deyarli ikki baravar kamaytirishga muvaffaq bo'ldilar. Tashqi siyosatda B.Klinton AQSH uchun jahon yetakchisining rolini kuchaytirishga intildi.

2000-yilda prezidentlik saylovlarida respublikachi Jorj Bush g'alaba qozondi. Respublikachilar asosiy e'tiborni boy fuqarolarning daromadlarini yanada oshirishga qaratilgan soliq islohotiga qaratdilar.

2001- yil 11- sentabr Jorj Bushga xalqaro terrorizmga qarshi kurashni ustuvor vazifa deb e'lon qilish uchun asos berdi. Bush tomonidan "yovuzlik o'qi" deb e'lon qilingan butun mamlakatlar bu tushunchaga tusha boshladi. Terrorizmga qarshi kurashish maqsadida Qo'shma Shtatlar Afg'onistonga qo'shin kiritdi va ommaviy qirg'in qurollarini yo'q qilish bahonasida Iroq bilan urush boshladi. 2004-yilda Jorj Bush ikkinchi muddatga qayta saylandi. Kichik Bush nomi Amerika iqtisodidagi tanazzul, Iroqqa qarshi ikkinchi urush, Saddam Husayn rejimining ag'darilishi bilan belgilanadi.

Demokratik partiyadan prezidentlikka nomzod Barak Obama 2008-yilning noyabrida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida g'alaba qozongan edi. Yangi ma'muriyatning dastlabki qadamlari moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish va Amerika iqtisodiyotining jahon maydonidagi mavqeini tiklashga qaratilgan edi.

B. Obama prezidentligining ikkinchi muddatida Iroq va Suriyadagi vaziyatning og'irlashuvi, Yevropa mamlakatlari va AQSHning o'zida ham

terroristik xavfning kuchayishi kabi bir qator muammolar prezident va uning ma'muriyati obro'yini tushirib yubordi.

2016-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida demokratlar partiyasidan nomzod Xillari Klinton yutqazib qo'ydi. AQSHning navbatdagi prezidenti etib respublikachilar partiyasidan nomzod Donald Tramp saylandi.

D. Tramp ichki siyosatda Amerikaning buyukligini tiklash, tashqi siyosatda esa boshqa davlatlar ishlariga aralashmaslikni e'lon qilgan edi. Ammo prezidentlik saylovlariga rossiyalik xakerlarning aralashganligi to'g'risidagi gumonlar hamda prezident yordamchilarining Rossiya elchisi bilan xufiya uchrashuvlari D. Trampning obro'yini tushirib yubordi. Bu esa unga o'zining saylovoldi va'dalarini bajarish imkoniyatini bermadi. 2021-yil 20-yanvardan boshlab AQShning amaldagi prezidenti demokratik partiya vakili Jo Bayden xisoblanadi.



Obama Barak (1961-yilda Illinoys shtatida tug'ilgan) - Amerika Qo'shma Shtatlari Demokratik partiyasi 44-prezidenti. Garvard universitetining huquq fakultetini tamomlagan. 1996-yilda Obama Senatga saylandi.

2009-yilda AQSh prezidenti Barak Obamaga "xalqaro diplomatiya va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdagi ulkan sa'y-harakatlari uchun "Nobel" tinchlik mukofoti bilan taqdirlangan

Tashqi siyosat. 1990-yillari AQSH tashqi siyosatining asosiy tamoyillari o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Yuqori darajada rivojlangan sanoat mamlakati bo'lgan AQSH turli mintaqalarda o'zining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun nafaqat harbiy vositalarga ega. Sanoat, savdo, moliyaviy, ilmiy-texnik, madaniy va boshqa vositalar ham jahon siyosatida juda katta



Jo Bayden.

ahamiyat kasb etadi. AQSH xalqaro maydonda shu vositalarning barchasidan unumli foydalanmoqda.

B.Obama prezidentligining birinchi davrida dunyoda zo‘ravonlikka, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, AQSHning dunyodagi yetakchilik pozitsiyasini tiklash hukumat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e‘lon qilindi. 2009-yili dunyoni yadro qurolidan xalos qilish, xalqlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish yo‘lida qilgan harakatlari uchun B. Obamaga Nobel tinchlik mukofoti berildi. Ammo ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash Afg‘onistonda to‘liq tugallanmay turib, Yaqin Sharqda keskinlikning yangi o‘chog‘i paydo bo‘ldi.

Iroqda Saddam Husayn rejimi ag‘darilgandan so‘ng Suriyadagi Bashar Asad rejimiga qarshi kurashda mo‘tadil muxolifatchilarni qo‘llab-quvvatlagan AQSH hukumati ISHID ko‘rinishi dagi yangi terroristik guruhning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada AQSHning dunyodagi yetakchi davlat sifatidagi obro‘yiga putur yetdi. D. Tramp ma‘muriyatiga bir qator tashqi siyosiy muammolar meros qoldi. Ular avvalo xalqaro terrorizmga qarshi kurash hamda Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi ahvol bilan bog‘liq. Shuningdek, Xitoy va Rossiya bilan munosabatlarda ham taranglik mavjud bo‘lib, ular ham D. Trampdan diplomatik faollikni talab qilmoqda.

2017-yil noyabr oyida D. Tramp Xitoyga qilgan rasmiy tashrifi davomida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning iliqlashuviga, juda katta miqdordagi savdo va investitsiya kelishuvlariga erishdi.

Germaniya Federativ Respublikasi

Rasmiy nomi — Germaniya Federativ Respublikasi.

Poytaxti — Berlin.

Hududi — 357041 km.kv.

Aholisi — 81 mln.dan ortiq kishi (2012).



Gelmut Kol neokonservativ to'liqlarning boshida turgan siyosatchilardan biri edi. U o'z faoliyatini federal byudjetga tuzatish kiritishdan boshladi. Uy-joy qurilishiga investitsiyalar va byudjet sohasi xodimlarining ish haqi xarajatlari qisqartirildi. Bolalar nafaqalari oilaning daromadiga qarab qat'iy farqlashdan o'tdi. O'rta maktab stipendiyasi bekor qilindi va talabalar uchun stipendiya kreditga o'tkazildi.

GFR iqtisodiyotining tiklanishi XX asrning 80-yillarda jahon iqtisodiy ahvolarining yaxshilanishi, neft narxining pasayishi va Yevropa hamjamiyatida integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan bog'liq edi. Bularning barchasi davlat byudjeti taqchilligining qisqarishiga va YaIM o'sishining oshishiga olib keldi, bu Kol hukumatiga pensionerlar, bolalar va nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni oshirish imkonini berdi.

Tashqi siyosat. G.Kolning tashqi siyosati ko'p **vektorli** xususiyatga ega edi. Hukumat Fransiya-G'arbiy Germaniya munosabatlariga ustuvor ahamiyat berib, Yevropani yanada qayta qurish siyosatini davom ettirdi. GFR hukumati Argentina bilan Folklend orollari uchun mojaroda Buyuk Britaniya bilan birdamligini bildirdi. G.Kol Amerikaning SDI dasturini qo'llab-quvvatladi va AQSHga NATO yadro qurolini GFRda joylashtirishga ruxsat berdi.

1980-yillarning o'rtalaridan boshlab xalqaro munosabatlar xarakterining o'zgarishi GFR tashqi siyosatida o'z ifodasini topdi. Jahon siyosatining asosiy muammolari bo'yicha GFR va SSSR pozitsiyalarining sezilarli darajada yaqinlashishi kuzatilmoqda. G. Kol nomi 1990- yil oktabr oyida Germaniyaning birlashishi bilan bog'liq. Bu uning obro'sini sezilarli darajada oshirdi, buning natijasida u 1994-yilgi saylovlarda yana g'alaba qozondi. Biroq, yangi vakolat muddati bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu Germaniyaning birlashishi va davlat qarzining ko'payishi, inflyatsiyaning o'sishi va ishlab chiqarishning pasayishi bilan bog'liq edi. Bularning barchasi 1998-yilgi saylovlarda Sotsial-demokratik partiya rahbari Gerxard Shrederning g'alaba qozonishiga olib keldi. Yangi hukumat soliqlarni qisqartirishni boshladi, mehnat bozorining moslashuvchanligini ta'minlash choralari ko'ra boshladi. 1999-yilda G.Shreder

hukumati ta'lim islohotini boshlash niyatini e'lon qilib, bu sohaga sarflanadigan mablag'larni ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishni taklif qildi.

Tashqi siyosatda G.Shreder Yevropadagi integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda davom etdi. 2002-yilgi Bundestag saylovlarida g'alaba qozonganidan so'ng, u GFR tashqi siyosatining strategik yo'nalishi nizolarning oldini olish va tinch yo'l bilan hal qilish ekanligini aytdi. Germaniya hozirgi rivojlanish bosqichida.

2005-yil noyabr oyida Bundestagga bo'lib o'tgan saylovlar raqib fraksiyalarning hech biriga kerakli ovoznı to'play olmadi va ular murosaga kelishga qaror qilishdi. Kelishuvlarga erishilgandan so'ng XDI raisi Angela Merkel kansler bo'ldi.

Yangi hukumat dasturida ishsizlikka qarshi faol kurash olib borish, byudjetni barqarorlashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etish vazifasi qo'yildi. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning barcha qatlamlariga yaxshi ta'lim olish, yuqori maoshli ish o'rinlarini egallash, munosib turmush darajasini, birinchi navbatda, ko'p bolali oilalar va kam ta'minlangan nafaqaxo'rlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash, aholi daromadlaridagi tafovutni kamaytirishdir. Merkel hokimiyatdagi faoliyati davomida saylovoldi va'dalarini ma'lum darajada bajardi. Savdo solig'i oshirildi, byudjet xarajatlari qisqartirildi, ishsizlikka qarshi kurash choralari ko'rildi, bandlik bozori faolroq rivojlana boshladi. Germaniya yalpi ichki mahsuloti 3,3 trln. dollarga yetdi. 2007-yilning birinchi yarmida Germaniya 12-marta "Yevropa birlikda muvaffaqiyatga erishadi" shiori ostida YeIga raislik qildi.

2008-yilda A. Merkel G-8 mamlakatlari rahbarlarini YeI Konstitutsiyasining yangi loyihasini imzolash zarurligiga ishontira oldi. U nemis kompaniyalarining xorijiy investorlar tomonidan egallab olinishini blokirovka qilish rejalarini qo'llab-quvvatladi. 2009-yil 27-sentabrda Germaniyada navbatdagi parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Angela Merkel mamlakat kansleri lavozimida qoldi. Yevropa yo'nalishi Germaniya tashqi siyosatida ustivor yo'nalish bo'lib qolmoqda, garchi u asta-sekin ko'p **vektorli** xususiyatga ega bo'lsa ham.

Biroq, 2008 - 2009-yillardagi inqiroz boshqalar qatori Germaniya iqtisodiga ham katta zarar yetkazdi. Faqat 2014-yilga kelib Germaniyaning iqtisodiy o'sish sur'atlari inqirozdan oldingi ko'rsatkichlarga yetib oldi.

2015-yili A. Merkel hokimiyatga kelganligining o'n yilligi nishonlandi. «Merkel davri» mamlakat tarixidagi muhim davr bo'lib, unda Germaniya Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatiga aylandi.

2014-yil Ukrainada yuz bergan hokimiyat almashinuvi ortidan Germaniya Rossiyaning Qrimni qo'shib olishiga qarshi qat'iy pozitsiyani egalladi va boshqa Yevropa mamlakatlari qatori Rossiyaga qarshi sanksiyalar e'lon qildi. A. Merkelning Rossiya rahbarlari bilan munosabati murakkabligicha qolmoqda. Shunga qaramasdan, 2015-yil may oyida Yevropani fashizmdan ozod qilganlarni xotirlash uchun A. Merkel Moskvaga keldi. 2015-yil oxiriga kelib, uning obro'yi biroz pasaydi. Bunga Suriyadan va urush harakatlari davom etayotgan boshqa mamlakatlardan kelayotgan qochoqlar muammosi sabab bo'ldi. Qochoqlarning nemis jamiyatiga ko'nikish jarayoni ancha og'ir kechmoqda.

Ularning ko'pchiligi uchun bu juda katta psixologik inqirozga aylanyapti. Masalan, 2016-yili kelib chiqishi eronlik bo'lgan 18 yoshli Ali Sonboli Myunxen shahridagi savdo markazida «Men nemisman!», degan qichqiriqlar bilan odamlarga qarata o'q otdi. Natijada 9 kishi halok bo'ldi, o'nlab odamlar yaralandi. A. Sonboli o'zini o'zi otib o'ldirdi.

Bu jarayonlar A. Merkel va u boshchilik qilayotgan XDI partiyasi obro'yining pasayishiga olib keldi. GFR tarkibiga kirgan yerlarda o'tkazilgan mahalliy saylovlarda bu aniq namoyon bo'lmoqda.

Shunga qaramasdan, zamonaviy Germaniyaning ijtimoiy va madaniy muvaffaqiyatlari ancha katta. Bularning barchasi turmushning yangi, XXI asr da'vatlariga javob bera oladigan yuqori sifatini yaratish imkonini berdi.

2017-yil sentabrda bo'lib o'tgan parlament saylovlarida A. Merkel boshchiligidagi koalitsiya 33% ovoz oldi. Bu hukumatni shakllantirish uchun yetarli bo'lmadi. Bir qator



Olaf Sholz

partiyalar bilan koalitsiya tuzish uchun o'tkazgan muzokaralar shu yil noyabr oyida natijasiz yakunlandi.

2021-yil Mamlakat kanslerligini sotsialist Olaf Shols egalladi, Yakunda Merkelning kanslerligi 16 yil-u 15 kun davom etdi. Agar yangi koalitsiya bo'yicha muzokaralar yana 12 kunga cho'zilganida, u Germaniya kansleri lavozimida Otto fon Bismarkdan keyin eng ko'p vaqt davomida bo'lgan Gelmut Kolning rekordini yangilagan bo'lardi.



Federal kansler G. Kolning "10 ball dasturi" dan (1989- yil 28- noyabr)


... Qayta birlashish, ya'ni yana davlat birligini qo'lga kiritish, Germaniya federal hukumatning siyosiy maqsadi bo'lib qolmoqda.

... Biz Germaniya birligiga olib boradigan yo'lda juda ko'p qiyin savollar borligini tushunamiz ...


Nemis masalasini hal etishni umumiy Yevropa taraqqiyoti va G'arbiy-Sharq munosabatlari bilan bog'lash... organik rivojlanishga imkon beradi. Bu barcha ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga oladi va bu bizning maqsadimiz - Yevropada tinch va erkin rivojlanish uchun yo'l ochadi ...



Bu hujjatni mazmuni haqida fikr yuruting G.Koll nima demoqchi?



Qochoqlar soni
2013-2015 yillarda
Yevropaga.



Qochqoqlar soni
2015-yilda kelib chiqqan
mamlakat bo'yicha



Yevropa davlatlari qanday muammolarga duch kelmoqda? Bu muammolar qanday hal qilinadi?



Iqtisodiy konyunktura - bu pulning harakati, foiz stavkalari, valuta kursi, ish haqi, shuningdek, ishlab chiqarish va iste'molning dinamikasi bilan xarakterlanuvchi iqtisodiyotning holati, uning faollik darajasini bildiradi.

Makrotexnologiya - bu belgilangan parametrlarga ko'ra, ma'lum mahsulot turini yaratish bo'yicha barcha texnologik jarayonlar (ilmiy-texnik izlanishlar, konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarishni tayyorlash, ishlab chiqarish, sotish va loyihani servis qo'llab-quvvatlash) majmuyi.

Pozitsiya - holat, ma'lum voqea yoki hodisaga nisbatan munosabat.

Retsessiya - bu iqtisodiyotda ishlab chiqarishning nisbatan mo'tadil, unchalik xavfli bo'lmagan pasayishini yoki iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvini anglatadi.



I. Bilimlarni sinash

1. Tarixdagi birinchi qora tanli AQSh prezidenti kim bo'ldi?
2. Urushdan keyingi xalqaro vaziyatning qanday tendentsiyalari Germaniyaning bo'linishiga yordam berdi?
3. GFR va GDR qachon tashkil topgan?
4. Germaniyaning birlashishiga qanday ichki va tashqi omillar yordam berdi?
5. Sizningcha, 1940-yillar oxirida Germaniyaning bo'linishi muqarrarmidi?
6. G.Kol islohotlarining mohiyati nimadan iborat edi?
7. Birlashgan Germaniya qanday muammolarga duch keldi? Amalda ular qanday hal qilinadi?
8. Hozirgi davrda Germaniya va O'zbekiston munosabatlarini tavsiflab bering.
9. Germaniya "iqtisodiy mo'jizasi" uchun qanday sharoitlar mavjud edi?
10. 1960-1990 yillardagi GFR va GDRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ichki siyosiy hayotining xarakterli belgilari va xususiyatlarini aniqlang.

11. Germaniyaning asr boshidagi asosiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlang.

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Klinton ma'muriyatining ichki va tashqi siyosatini tavsiflab bering.
2. XXI asr boshlarida Amerika iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalarini aniqlang.
3. XXI asr boshidagi AQSHning harbiy-strategik ustuvorliklarini ayting.
4. B. Klintonning «yangi iqtisodiy siyosati» AQSHda qaysi sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan edi?
5. B.Obama prezidentligining ikkinchi muddatida yuzaga kelgan qanday muammolar prezidentning obro'yini tushirib yubordi?
6. AQSH dunyoda o'zining hayotiy manfaatlarini himoya qilish uchun qanday vositalardan foydalanadi?
7. B.Obama prezidentligi davrida AQSH qanday xalqaro muammolarga duch keldi?
8. Gerxard Shryoder hukumati iqtisodda va ijtimoiy sohada qanday chuqur islohotlar o'tkazdi?
9. «Merkel davri» mamlakat tarixida qanday o'rin tutadi?
10. Germaniyada A. Merkel davrining tashqi siyosati haqida nimalar bilasiz?
11. Zamonaviy Germaniyada bugun qanday muammolar mavjud?

III. Guruh muhokamasi uchun



1. «Yangi ijtimoiy falsafa»ning asosiy mazmuni nimadan iborat va uning ijobiy tajribasidan bugungi kunda foydalanish mumkinmi?
2. Bill Geyts shunday degan edi: «Muvaffaqiyat - bu yomon o'qituvchi. Bu aqlli odamlarni yutqazib bo'lmaydi, deb o'ylaydi». Amerikalik milliarderning so'zlarini qanday tushunasiz? Ular bugungi kunda dolzarbm?

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. «Vektorli», «yangi ijtimoiy falsafa» atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritada AQSH harbiy xizmatchilari jang qilayotgan joyni ko'rsating.
3. Xaritadan GFR va GDR chegaralarini, hozirgi Germaniya chegaralarini ko'rsating.

V. Ijodiy vazifalar

1. Sizningcha, AQShning zamonaviy dunyoda boshqa mamlakatlar va xalqlar tomonidan tan olingan ma'lum bir missiyasi bormi?
2. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, GFR ning 1980-yillar-1990-yillarning boshlarida birlashgan Germaniya davlatini shakllantirishga qaratilgan siyosatini tahlil qiling.

38-§.1991-2017-yillarda Buyuk Britaniya va Fransiya.

1991- 2017-yillarda Buyuk Britaniya



Buyuk Britaniya XX asr oxirida. 1990-yili Buyuk Britaniya bosh vaziri etib saylangan Jon Meyjor siyosati M.Tetcher davridagi neokonservatizm kursini davom ettirishga, ayni paytda «tetcherizm»ning avtoritar boshqaruvga og'ish hollari dan va boshqa qoldiqlaridan asta-sekin voz kechishga qaratilgan edi. Ammo uning ko'plab saylovoldi va'dalari amalga oshmasdan qolib ketdi. Shunga qaramasdan, 1992-yil bahor oyida bo'lib o'tgan parlament saylovlari J. Meyjorning taktikasi to'g'riligini ko'rsatdi. Konservatorlar partiyasi saylovlarda g'olib bo'ldi.

XX asrning 90-yillari birinchi yarmida Buyuk Britaniya iqtisodiyoti uzoq muddatli retsessiya davrini boshdan kechirdi. Inflatsiya juda yuqorilab ketdi. Soliq tizimini isloh qilishga urinish muvaffaqiyat keltirmadi, aksincha, konservatorlar partiyasining obro'yiga salbiy ta'sir qildi. 1990-yillarning ikkinchi yarmidan iqtisodiy o'sishning boshlanishi ham konservatorlar partiyasining obro'yini ko'tarmadi. J.Meyjor «tetcherizm»dan qat'iy uzoqlashib, o'zining mustaqil kursini ishlab chiqa olmadi.

1997-yilda leyboristlar g'alaba qozondi va Entoni Charlz Bler (1997–2007) bosh vazir bo'ldi. U boshchiligidagi Leyboristlar partiyasi partiya dasturini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqdi. Leyboristlar partiyasining yangi siyosiy kursi “Yangi leyboristlar” deb nomlandi. Leyboristlar partiyaning asosiy maqsadi sifatida sotsializm qurishdan voz kechdilar.

"Yangi leyboristlar"- "demokratik sotsializm va liberalizm qadriyatlarining uyg'unligini, ya'ni ijtimoiy adolatni ta'minlashda davlat rolini saqlashning shaxs erkinligi va bozor iqtisodiyoti ustuvorliklari bilan uyg'unligini" anglatadi. Boshqacha aytganda, partiyaning maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratish deb e'lon qilindi. Blerning o'zi ham o'zining siyosiy yo'nalishiga ishora qilish uchun **"uchinchi yo'l"** atamasini tez-tez ishlatgan.

E. Bler va uning safdoshlari fikricha, islohotlar Shotlandiya va Uelsga avtonomiya, Angliya mintaqalariga ko'proq mustaqillik berishni, saylov haqidagi qonunni isloh qilishni, yuqori palatani qayta tashkil qilish va uning saylanishini joriy qilishni va boshqa bir qator tadbirlarni ko'zda tutardi. Ammo bu islohotlarni amalga oshirish ancha og'ir kechdi. Faqat 1999-yilga kelib dastlabki yutuqlarga erishildi.

Shotlandiya va Uels milliy assambleyalariga saylovlar o'tkazildi. Tashqi siyosatda leyboristlar siyosati an'anaviyligicha qoldi. E.Bler hukumati tashqi siyosatdagi barcha masalalarda AQSHning eng yaqin hamkori bo'ldi.

Buyuk Britaniya XXI asr boshlarida. XXI asr boshlarida Buyuk Britaniya G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlari singari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Mamlakatda favqulodda qulay holat vujudga keldi. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari yuqori, ishsizlik va inflatsiya esa so'nggi o'n yillar ichida eng past bo'ldi.

E.Bler hukumati ijtimoiy ehtiyojlar uchun davlat xarajatlarini oshirish siyosatini yuritdi, bu mablag'larning katta qismi ish o'rinlarini yaratishga sarflandi. Hukumat ishsizlikni ancha qisqartirishga erishdi. Ammo ijtimoiy ta'minot sohasida hukumat bir qator qat'iy qadamlar qo'yishga majbur bo'ldi. Bler sog'liqni saqlash va ta'limga davlat sarmoyasini oshirdi, pensiyalar, bolali oilalar uchun nafaqalar miqdorini oshirdi va eng kam ish haqini joriy qildi.

Tashqi siyosatda Buyuk Britaniyaning 2003-yili Iroqqa qarshi koalitsiyada ishtiroki jamiyatda qizg'in bahslarni keltirib chiqardi. Buyuk Britaniya ushbu «antiterror» koalitsiyada AQSHning asosiy ittifoqchisiga aylandi. Ammo ko'pchilik inglizlar bu urushga qarshi edi. Leyboristlarning so'l qanoti ham

urushga keskin qarshi chiqdi. E. Bler siyosatidan norozilik ramzi sifatida tashqi ishlar vaziri Robin Kuk iste'foga chiqdi. Shunga qaramasdan, 2005-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida kichik farq bilan leyboristlar partiyasi g'olib chiqdi. Natijada E. Bler uchinchi muddatga bosh vazir etib saylandi.

2005-yil Londonda to'rtta terrorchilik akti amalga oshirildi, natijada o'nlab kishilar halok bo'ldi. Javobgarlikni «Al-Qoida» xalqaro terrorchilik tashkiloti o'z zimmasiga oldi.

2006-yilgi Isroil-Livan urushi yakunlangandan so'ng, AQSH ortidan Isroilning yonini olgan Britaniya bosh vaziri E. Blerning iste'fosi talab qilindi. E. Blerning muddatidan oldin iste'foga chiqishini ko'pchilik britaniyaliklar ham qo'llab-quvvatladi, ular bosh vazirning amerikaparast siyosatidan norozi edi.

2007-yil iyunda E. Bler iste'foga chiqdi. Leyboristlar partiyasining ichki saylovlarida partiyaning yangi yetakchisi va bosh vazir lavozimlarini Gordon Braun egalladi. G. Braun jahon iqtisodiyotining globallashuvi tarafdorlaridan edi. Tashqi savdoda proteksionizm siyosatiga qarshi chiqdi.

Faoliyatining dastlabki davrida G.Braun bir qator tashabbuslar bilan chiqdi va ular jamoatchilik tomonidan ijobiy qabul qilindi. 2008-yili boshlangan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida G. Braunning bank tizimini xonavayron bo'lishdan saqlab qolishga, biznesni qo'llab quvvatlashga qaratilgan qat'iy harakatlari uning obro'yini oshirdi. Shunga qaramasdan, 2010-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi. Konservatorlar yetakchisi Devid Kameron(2010-2016) Buyuk Britaniya bosh vaziri lavozimini egalladi.

D. Kameron hukumatining davlat xarajatlarini tejash uchun qilgan bir qator harakatlari natijasida YIMga nisbatan budget tanqisligi qisqardi. Shunga qaramasdan, bu muammo hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bu davrdagi iqtisodiy qiyinchiliklar davlatning butunligiga ham raxna sola boshladi. 2014-yil sentabrda Shotlandiyada Buyuk Britaniyadan ajralib chiqish masalasida umumxalq referendumini o'tkazilib, unda 45% aholi mustaqillik uchun ovoz berdi.

2015-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida konservatorlar partiyasi yana g'alaba qozondi. Saylovoldi kampaniyasi davrida bosh vazir D. Kameron agar

konservatorlar g'alaba qozonsa, Buyuk Britaniyaning Yevroittifoqdan chiqishi masalasini ko'tarishga va ushbu masala bo'yicha referendum o'tkazishga va'da berdi. 2016-yil iyun oyida bo'lib o'tgan referendumda ishtirok etgan Buyuk Britaniya aholisining 50 % dan ortig'i mamlakatning Yevropa Ittifoqidan chiqishi uchun ovoz berdi. Shundan so'ng bosh vazir D. Kemeron iste'foga chiqdi. Buyuk Britaniya bosh vaziri lavozimini Tereza Mey egalladi.



Boris Jonson

XX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya mustamlaka imperiyasi to'liq tugatildi. Ammo Buyuk Britaniya uncha osonlik bilan bo'lmasa-da, jahonda o'zining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini saqlab kelmoqda. 2016-yil Yevropa Ittifoqidan chiqish uchun ovoz bergan ko'pchilik inglizlar ham buni mamlakat mustaqilligini qadrlashlari bilan izohladi. Nima bo'lganda ham, Buyuk Britaniya XXI asrda jahon hamjamiyatining eng muhim a'zolaridan biri bo'lib qolmoqda.

1991 - 2017-yillarda Fransiya



Fransiya — G'arbiy Yevropadagi davlat.

Maydoni — 547,03 ming km².

Aholisi — 67,5 million kishi (2021).

Poytaxti — Parij shahri.

XX asr oxirlarida Fransiya. 1980-yillar oxirida Fransiya hukumati korxonalar, banklar va sug'urta kompaniyalarini ommaviy xususiylashtirish siyosatini e'lon qilgan edi. Xususiylashtirish yo'llaridan biri-korxonaning uning ishchilari tomonidan sotib olinishi bo'ldi. Ishchilar soni 500 dan 1 ming nafargacha bo'lgan korxonalarning chorak qismi shu yo'l bilan sotib olindi. Iqtisodiy taraqqiyotning 1989 - 1992-yillarga mo'ljallangan rejasi pul aylanishi barqarorligini ta'minlashni,

inflatsiyaning pasayishini va iqtisodning raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutardi.

Fransiyaning sotsialistlar boshqargan 1980-1990-yillar boshlarida xalqaro hayotda eng muhim voqealar sodir bo‘ldi: «sovuq urush» yakunlandi, Germaniya birlashdi, Sovet Ittifoqi va Yugoslaviya tarqalib ketdi, G‘arbiy Yevropa birlashdi. Fransiya prezidenti Fransua Mitteran va uning hukumati Germaniya bilan yaqinlashish va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining birlashishini o‘zining asosiy vazifasi deb bildi. Germaniya bilan birga Fransiya G‘arbiy Yevropani birlashtirishning eng faol ishtirokchisi bo‘ldi. 1990-yil yanvarda Lyuksemburgning Shengen shahrida Fransiya hukumati Shengen kelishuvini imzoladi. Unga binoan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YIH) mamlakatlari fuqarolari vizasiz va bojxona nazoratisiz bir-biriga bemaol o‘tishi mumkin bo‘ldi.

So‘llar hokimiyatda turgan yillarda ular tarafdorlari kutgan natijalarga erishilmadi. Iqtisodiy o‘rish sur‘atlari juda past bo‘ldi. 1993-yili ishlab chiqarish hajmi qisqardi. Ishsizlik mislsiz darajaga yetdi. Sotsialistlarning obro‘yi tushib ketdi. Markaziy va Sharqiy Yevropada kommunistik rejimlarning qulashi, SSSR va Yugoslaviyaning tarqalib ketishi, Rossiya hukumati tomonidan rasman kommunizmning qoralanishi nafaqat kommunistlarni, balki butun sotsialistik g‘oyalar va qadriyatlar tizimini obro‘sizlantirdi.

1993-yili Milliy majlisga bo‘lib o‘tgan saylovlarda o‘ng kuchlar parlamentda mutlaq ko‘p o‘ringa ega bo‘ldi. Fransiyaning urushdan keyingi tarixida so‘l kuchlar ilk bor shunday qaqshatqich mag‘lubiyatga uchradi. So‘l kuchlar bunday mag‘lubiyatdan so‘ng uzoq vaqt inqirozdan chiqa olmadi.

Jak Shirak 1995-yilgi prezidentlik saylovlarida g'alaba qozondi (1995–2007), 2002-yilda u ikkinchi muddatga, endi besh yilga qayta saylandi, chunki Shirak prezidentlik muddatini besh yilga qisqartirdi. Shirak Fransiya neokonservativ islohotlarni yakunladi. U davlat rejalashtirishdan butunlay voz kechdi va moliyaviy tartibga solish amaliyotiga o‘tdi, xususiylashtirishni yakunladi, narxlarni nazorat qilishni butunlay bekor qildi, soliqlarni kamaytirdi.

Tashqi siyosatda uning asosiy faoliyati Fransiya Yevropa Ittifoqining «yetakchisi» va butun dunyo uchun «erk mayog'i» rolini qaytarishga qaratildi. Yangi hukumat davlat budjeti kamomadini kamaytirish, bandlikni ta'minlash rejasini e'lon qildi. 1996-yildan YIMning o'sish sur'atlari, kapital kiritish va shaxsiy iste'mol hajmi oshdi.

Postindustrial jamiyat. 1990-yillari Fransiya postindustrial jamiyatning shakllanish jarayoni davom etdi. Ilmiy-texnik inqilobning shiddat bilan rivojlanishi Fransiyaning qiyofasini o'zgartirdi. Parij va boshqa yirik shaharlarda osmono'par binolar paydo bo'ldi. Butun mamlakatni avtomobil yo'llari va soatiga 250-300 km tezlik bilan yuradigan temiryo'l trassalari qamrab oldi. Angliya bilan hamkorlikda qurilgan La-Mansh bo'g'ozi ostidan o'tgan temiryo'l tuneli (Yevrotonnel) - XX asrning eng buyuk muhandislik yutuqlaridan biri 1994-yil may oyida tantanali ravishda ochildi.

Boshqa rivojlangan mamlakatlardagi singari Fransiya ham elektronika, informatika va ular bilan bog'liq sanoat sohalari jadal rivojlandi. Industrial jamiyatning ramzi bo'lgan sanoat sohalari - metallurgiya, ko'mir qazib chiqarish kabi sohalar asta-sekin tushkunlikka yuz tutdi.

XXI asrda Fransiya. XX - XXI asrlar chegarasida Fransiya barcha muhim ko'rsatki bo'yicha dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kirdi. Ammo 2008 - 2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi Fransiya iqtisodiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2007-yili Fransiya prezidenti etib saylangan Nikolya Sarkozi (2007-2012) o'ng konservativ «Xalq harakati uchun ittifoq» partiyasining yetakchisi edi.

Dastlab, Sarkozi Shirak siyosatini davom ettirishga harakat qildi: u yana soliqlarni kamaytirdi, tadbirkorlar huquqlarini kengaytirdi, ammo 2008-yilda boshlangan iqtisodiy inqiroz iqtisodni davlat tomonidan tartibga solish choralarini faol qo'llashga va davlat xarajatlarni qisqartirishga majbur qildi.

2012-yilgi saylovlarda Fransiya prezidenti lavozimiga saylangan FSP (Fransiya sotsialistik partiyasi) yetakchisi Fransua Olland Fransiyaning Yevroittifoqdagi rolini yanada oshirish, Yevropa siyosatida yetakchi davlatlardan

biri sifatidagi o'rnini saqlab qolish uchun harakat qildi. U 2012-yili boylar uchun qo'shimcha soliq o'rnatish tashabbusi bilan chiqdi. Bu tashabbus konstitutsion sud tomonidan bekor qilindi. So'ng bir jinsli shaxslar o'rtasida nikohni yoqlab chiqib, uni qonunlashtirdi. Bu katolik cherkovining noroziligiga sabab bo'ldi.

Suriya va boshqa urush harakatlari bo'layotgan Sharq mamlakatlaridan kelayotgan muhojirlar oqimi ham Fransiyadagi ijtimoiy holatni keskinlashtirdi.

2015-yil noyabr oyida Parijda sodir etilgan terroristik akt oqibatida yuzdan oshiq kishi halok bo'ldi, uch yuzdan oshiq odam yaralandi. Bu terrorchilik aktlarini ISHID terrorchi guruhi o'z zimmasiga oldi.

Hukumat tomonidan barcha ehtiyot choralari ko'rilishiga qaramasdan, terroristik aktlar yana takrorlandi.



Emmanyuel Makron

F.Olland Fransiya tarixidagi eng nufuzsiz prezident bo'lib tarixga kirdi. U 2017-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlariga o'z nomzodini qo'ymadi. Aprel oyida bo'lib o'tgan saylovlarning ikkinchi turida «Olg'a!» harakatining vakili Emmanyuel Makron g'alaba qozondi. Ayni paytda bu saylovlar Fransiyada ham Germaniyadagi singari multikulturalizm siyosatining barbod bo'lganligini ko'rsatdi. Muhojirlar sonining oshishi, terrorizm xavfining kuchayishi sharoitida o'ng Milliy front partiyasining obro'yi oshib bordi. Milliy front vakili Marin Le Pen ilk bor prezidentlik saylovlarida ikkinchi turga chiqib, qariyb 34% ovoz oldi.

Mamlakatdagi ko'plab muammolarga qaramasdan, XXI asr boshlariga kelib, Fransiya ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan dunyoning yetakchi davlatlaridan biri bo'lib qolmoqda.



Proteksionizm - ichki bozorni ma'lum cheklovlar (import va eksport boj to'lovlari, subsidiyalar va boshqa tadbirlar) orqali chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosat.

Taktika - bu ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan usul va vositalar yig‘indisi.

Multikulturalizm - bu bitta mamlakatda va butun dunyoda madaniyatlar xilma-xilligini saqlab qolishga yo‘naltirilgan siyosat hamda bu siyosatni asoslovchi nazariya va mafkura.



I. Bilimlarni sinash

1. 1990-yillar oxirida konservatorlar partiyasining mag‘lubiyati sabablari nimada?
2. E. Bler kabineti faoliyatining asosiy yo‘nalishi nimalardan iborat bo‘ldi?
3. D. Kameron kabinetining iste‘foga chiqishining sabablari nimada edi?
4. Buyuk Britaniyaning YIdan chiqishida nimalar asosiy omil bo‘ldi?
5. 1990-yillar boshlarida Fransiyada qanday sabablar so‘l kuchlarning mag‘lubiyatiga olib keldi?
6. Fransiyada postindustrial jamiyatning shakllanishi nimalarda namoyon bo‘ldi?
7. 2010-yillar boshlarida qanday sabablar Fransiyada ijtimoiy holatni keskinlashtirdi?
8. XXI asrda Fransiya oldida qanday muammolar paydo bo‘ldi?

II. O‘quv materialini tizimlashtirish

1. Buyuk Britaniya 2003-yili qaysi davlatga qarshi koalitsiyada ishtirok etdi?
2. Qaysi bosh vazir davrida Buyuk Britaniya YIdan chiqishi to‘g‘risida referendum o‘tkazildi?
3. Qachon Shotlandiyada Buyuk Britaniyadan ajralib chiqish masalasida umumxalq referendumini o‘tkazildi?
4. B. Britaniyada 1992-yil bahor oyida bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida qaysi partiya g‘alaba qozondi?
5. Qachon Shotlandiyada Buyuk Britaniyadan ajralib chiqish masalasida umumxalq referendumini o‘tkazildi?
6. Qaysi yili bo‘lib o‘tgan Fransiyadagi prezidentlik saylovlarida Nikolya Sarkozi prezidentlikka saylangan edi?

7. Fransiyaning qaysi prezidenti ishsizlikka qarshi kurashni, jamiyatning boylar va qashshoqlarga bo‘linishini bartaraf qilishni asosiy vazifa deb e‘lon qildi?
8. Yevrotonnelni Fransiya qaysi davlat bilan hamkorlikda qurgan edi?
9. Fransiya­dagi nechanchi yilgi prezidentlik saylovlari Fransiya­da ham Germaniya­dagi singari multikulturalizm siyosatining barbod bo‘lganligini ko‘rsatdi?
10. Qaysi Fransiya prezidenti davrida va qachon YIMning o‘shish sur‘atlari, kapital kiritish va shaxsiy iste‘mol hajmi oshdi?

III. Guruh muhokamasi uchun

Siz Buyuk Britaniya fuqorosi bo‘lsangiz, 2016-yilgi referendumda qanday ovoz bergan bo‘lar edingiz

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

“Yevrotonnel” “tetcherizm” atamalarini izohlang.

V. Ijodiy vazifa

1. Internet vositasida Folklend oroliga sayohat uyushtiring.
2. Guruhda kichik referendum o‘tkazing: mavzu “ Siz Buyuk Britaniyaning YI tarkibidan chiqishiga rozimisiz” referendum natijalarini tahlil qiling o‘z ovozingizni izohlang

**39-§.1991-2017-yillarda Italiya. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi
mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy
yo‘nalishlari**

1991 - 2017-yillarda Italiya



Italiya Respublikasi— Yevropa janubida, O‘rta dengiz havzasida joylashgan davlat.

Maydon— 301,2 ming km².

Aholisi — 60,92 mln. kishi (2012).

Poytaxti — Rim shahar.

1990-yillarda Italiya. Italiyada postindustrial jamiyatning asoslari o'tgan asrning 80-yillarida shakllandi. Keng miqyosda sanoat ishlab chiqarishining texnik bazasi va texnologiyasini yangilash jarayoni - ishlab chiqarishga kompyuter boshqaruv tizimini joriy qilish, robotlardan keng foydalanish boshlandi. Eng asosiysi, bu jarayonning oldingi safida kichik korxonalar bordi.

Jamiyatning ijtimoiy strukturasi ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Jadval rivojlanayotgan xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni tez o'sdi.

Siyosiy hayotda beqarorlik va hukumatning tez-tez almashishi Italiyaning o'ziga xos an'anasiga aylandi. Italiyada davlat institutlarining chuqur inqirozi, shuningdek, mafiya tizimlarining faoliyati bilan ham bog'liq edi. Hokimiyatning yuqori organlarida misli ko'rilmagan korrupsiya Italiya siyosiy mexanizmining o'ziga xos tomonlari bo'lib qoldi.

1990-yillarning boshlarida Italiyaning partiyaviy-siyosiy tizimi inqiroz holatida edi. Bu an'anaviy siyosiy partiyalarning bo'linishi va yo'q bo'lib ketishi bilan boshlandi. 1991-yilda SSSR va sotsialistik mamlakatlarda sodir bo'layotgan voqealar ta'sirida IKP bo'lindi. Buning ortidan korrupsiya janjallari tufayli XDP ham qulab tushdi. Referendumlarda italiyaliklar mamlakat saylov tizimini o'zgartirish tarafdori bo'lgan. Ularni ko'plab mayda partiyalar parlamentga kirgan proporsional tizim qoniqtirmadi, bu esa hukumatlarning beqarorligiga olib keldi. Partiya ro'yxatlari bo'yicha ovoz berish amaliyoti ham tanqid qilindi, bu esa saylovchilarning tanlovini cheklab qo'ydi va korrupsiyaga yo'l ochdi. 1993-yilgi referendumda Italiya aholisi bunday saylov tizimidan voz kechish uchun ovoz berdi.

1992-yil fevral oyida mamlakatda «Halol qo'llar» kampaniyasi boshlanib, hokimiyatning yuqori qatlami va asosiy partiyalar rahbariyatida ommaviy korrupsiya holatlari aniqlandi. Pora olish bilan bog'liq yangi siyosiy janjal avj oldi. Yirik tadbirkorlar, Xristian-demokratlar partiyasi (XDP) va Italiya sotsialistik partiyasi (ISP) yetakchilari, deputatlar va senatorlar, bir necha vazirlar tergovga tortildi. Italiya prezidenti F.Kossiga iste'foga chiqdi. Jami 20 ming kishi tergov

ro'yxatiga kiritildi. 1992-yil fevraldan boshlab ikki yil ichida poraxo'rlikda ayblanib uch mingga yaqin kishi, jumladan, sobiq bosh vazirlar, parlament deputatlari, vazirlar qamoqqa olindi. Hokimiyatning oliy rahbariyati bilan mafiya o'rtasidagi aloqani ochib tashlagan sud jarayoni butun jamiyatni hayratga soldi. Qarshilik harakati to'liqida shakllangan partiyaviy-siyosiy tizimning qulashi boshlandi.

Bu 1992-yilgi voqealar Italiyada Birinchi Respublikaning tugashi, Ikkinchi Respublikaning boshlanishi deb hisoblanadi. Natijada paydo bo'lgan siyosiy bo'shliq to'ldirila boshlandi.

Silvio Berluskoni dastlab sof populistik dasturni ilgari surgan "Olg'a, Italiya!" partiyasini yaratdi. U bilan koalitsiya ikkita yangi o'ta o'ng partiyani o'z ichiga oldi: Shimol Ligasi va Milliy Alyans. 1994-yilda bu uch partiya o'ng markazchi "Ozodlik qutbi" blokini tuzib, parlamentda ko'pchilikni qo'lga kiritdi. Berluskoni bosh vazir bo'ldi, biroq uning hukumati bir yil ham davom etmadi. 1996-yilda parlament saylovlarida o'zini "Zaytun daraxti" deb atagan so'l-markaziy blok g'alaba qozondi. Unga o'n uchta so'l partiyani o'z ichiga olgan.

"Zaytun daraxti" 2001-yilgacha hokimiyatda qoldi. Ushbu koalitsiya asoschisi 1996-1998 yillarda Bosh vazir bo'lgan Romano Prodi edi.

Biroq, bosh vazir Romano Prodi hukumati ichki kelishmovchiliklarni bartaraf qila olmadi va parlamentdagi ustunlikni yo'qotib, 1998-yili iste'foga chiqdi. Massimo D'Alema bosh vazir lavozimini egalladi. M. D'Alema shu paytgacha yuqori darajada saqlanib kelayotgan ishsizlikni qisqartirishni taklif qildi.

2000-yil aprel oyida bo'lib o'tgan mahalliy saylovlarda barcha shimoliy viloyatlarda o'ng kuchlar g'olib chiqdi. Ijtimoiy fikrga «Halol qo'llar» operatsiyasi katta ta'sir ko'rsatdi, katolik cherkovi ham o'nglarni qo'llab-quvvatladi. M.D'Alema iste'foga chiqdi.

2001-yilgi parlament saylovlarida Berluskoni (2001-2006) boshchiligidagi o'ng-markaziy koalitsiya yana ko'pchilikni qo'lga kiritdi. Endi u "Ozodlik uyi" deb ataldi. Berluskoni tadbirkorlik erkinligini kengaytirish uchun "Zaytun daraxti" kursini davom ettirdi: soliqlar yana qisqartirildi, hukumat kichik va o'rta

tadbirkorlarni rag'batlantirdi. Biroq, bu siyosat ham tanqidga sabab bo'ldi, chunki hukumat o'zini daromaddan mahrum qildi va Italiyaning tashqi qarzi YaIMning 107% darajasida qoldi, bu Yevropa Ittifoqi tomonidan tavsiya etilganidan sezilarli darajada oshadi.

Berluskoni Italiya iqtisodiyotining past o'sish sur'atlari (o'rtacha 0,6%) va Italiya tovarlarining past raqobatbardoshligi kabi muammolarni ham hal qila olmadi, bu ularning yuqori narxining natijasidir. Berluskoni immigratsiya qonunlarini kuchaytirdi. U giyohvand moddalar savdosiga qarshi faol kurashgan birinchi Italiya bosh vaziri bo'ldi. Tashqi siyosat sohasida Berluskoni AQSHni, shu jumladan Iroqdagi muhim Italiya kontingentini qo'llab-quvvatladi.

Italiya XXI asrda. Zamonaviy Italiya - yuqori darajada rivojlangan industrial mamlakat. XX asrning so'nggi yillarida va XXI asr boshlarida u o'z taraqqiyotida sezilarli natijalarga erishdi. Inflatsiya ancha pasaydi, ishsizlik kamaydi, yangi korxonalar soni tez o'sdi. Puxta o'ylangan yoshlar siyosati olib borilmoqda. Faqat 1998-yili 12 ming kichik va o'rta biznes korxonalari yaratilgan bo'lib, ularning asosiy qismini yoshlarga qarashli firmalar tashkil qiladi. Ayni paytda Italiya yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan ortda qolmoqda.

So'nggi o'n yil ichida Italiyada YIM o'sishi o'z beqarorligi bilan ajralib turadi. Bu faqat 2008 - 2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi bilan bog'liq bo'lmasdan, Italiya iqtisodining o'ziga xos tuzilishi bilan ham bog'liq. YIM kichik bo'lsa-da, doimiy o'sish xarakteriga ega. Ammo davlatning qarzi ham juda katta, hozir u YIMga nisbatan 130% ni tashkil qiladi.

2014-yil fevral oyidan boshlab Italiya hukumatini boshqargan Matteo Renzi soliqlarni pasaytirish evaziga italyanlarning daromadini oshirish maqsadini e'lon qildi. U 2015-yildan ta'lim tizimini isloh qilishni ham boshladi. 2016-yil dekabrda bosh vazir lavozimini egallagan Paolo Gentiloni shu siyosatni davom ettirmoqda.



Sergio Mattarella

Shuningdek, 2015-yil fevralidan beri Italiya prezidenti Demokratik partiya a'zosi Serjio Mattarella hisoblanadi.

XXI asrga kirib kelgan Italiya dunyoning yetakchi mamlakatlariga nisbatan texnologik qoloqlikni bartaraf etishga, o'z iqtisodining raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini, iqtisodning noan'anaviy sohalari - bank faoliyati, turizm, sport va sog'liqni saqlash industriyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Modernizatsiyalashning murakkab yo'li. XX asr oxiriga kelib Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida modernizatsiya muammolari chuqurlashib bordi. Bunda «sovuq urush»ning yakunlanganligi ham ma'lum rol o'ynadi. SSSRdan yordam olib turgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi mamlakatlar u tarqalib ketgandan so'ng og'ir sharoitga tushib qoldi. Vyetnam, Laos, Angola, Mozambik, Kuba, Nikaragua kabi SSSR yordamiga tayangan davlatlarda tuzumlar almashti yoki rivojlanishning muqobil yo'llariga o'tildi.

XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan modernizatsiyaning ijobiy natijalari ham rivojlanayotgan mamlakatlarda bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Ulardan biri demografik muammo bo'lib, hozir Yer yuzi aholisi o'sishining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hayot kechirish manbalarining cheklangani holda aholi sonining jadal o'sishi dolzarb muammolarni yanada ko'paytirmoqda. Jumladan, aholining eng boy qismi bilan eng kambag'al qismi daromadi o'rtasidagi farq juda yuqoriligicha qolmoqda.

Janubiy Osiyo mamlakatlarining o'ziga xosligi. Modernizatsiyalashni maqsad qilgan Osiyoning eng yirik mamlakatlari (Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Filippin, Tailand va boshqalar) o'zlari uchun yagona to'g'ri yo'lni topishga harakat qildilar. Bu yo'l ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda ehtiyotkorlikni,

asosan ijtimoiy hayotning eng qoloq shakllarini bartaraf qilish bilan cheklanishni talab etardi. Chet el kapitalini jalb qilishning sharti bo'lgan ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor berildi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu mamlakatlarda umumiy hayot darajasi ancha past bo'lgan holatda eng boylar bilan eng kambag'allarning daromadlari o'rtasidagi farq uncha yuqori bo'lmasdan, rivojlangan mamlakatlardagi ko'rsatkichga yaqin. Hukumat jamiyatda norozilikning o'ta kuchayishiga yo'l qo'ymasdan, modernizatsiyalash ning puxta o'ylangan strategiyasini olib bormoqda. Uning asosini davlat investitsiyalarini iqtisodiyotning istiqbolli sektorlariga yo'naltirish, proteksionizm siyosati, chet el kapitalini mahsuloti xaridorgir bo'lgan sohalarga kiritish tashkil qildi. Janubiy Osiyo mamlakatlarida Yevropa tipidagi gigant-shaharlar, postindustrial zonalar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, ilg'or mamlakatlardagi zamonaviy fan yutuqlari darajasida faoliyat yurituvchi ilmiy markazlar paydo bo'ldi. Ammo hal qilinmagan muammolar ko'p. Masalan, katta yoshdagi aholining qariyb yarmi savodsiz. Aholi o'qishni ham, yozishni ham bilmaydigan bu mamlakatlarda modernizatsiya o'choqlari qishloqlardagi natural xo'jalik bilan yonma-yon faoliyat yuritmoqda.

Islom dunyosi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida islom mamlakatlari modernizatsiyaning murakkab bosqichini boshdan kechirmoqda. Erondagi 1979-yilgi islom inqilobi butun musulmon olamiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab mamlakatlarda mutaassib guruhlar paydo bo'ldi yoki borlari faollashdi, ko'plari maqsadga erishishning vositasi sifatida terrorni tanladi.

Bu jarayonda islom fundamentalizmi alohida rol o'ynamoqda. Aslida fundamentalizm faqat islomga xos emas. Masalan, so'nggi yillarda Hindistonda hinduizmning dastlabki qadriyatlariga qaytishni talab qilayotgan kuchlar faollashib qoldi. Ammo hozir ko'proq «islom fundamentalizmi» haqida gapirilmoqda. Hatto u XXI asrda xalqaro munosabatlarning ham asosiy muammosi bo'lishi haqidagi taxminlar hozircha o'zini oqlamoqda. Islom fundamentalizmi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, 1990-yillarning boshlarida arab mamlakatlari va Shimoliy Afrikada «Musulmon birodarlar» kabi terrorchi guruhlar faollashdi. Ular

ayrim arab davlatlari tomonidan moliyalashtirildi. Ba'zi islom davlatlaridagi ekstremistik guruhlar Usoma bin Lodin yetakchiligida «Jihod xalqaro fondi»ni tashkil qildi, bu tashkilot butun dunyo bo'ylab terroristik aktlarni rag'batlantirdi.

XXI asr boshlarida AQSH «demokratiya o'rnatish» bahonasida Iroq va Liviya kabi suveren davlatlarda hokimiyatni qurol kuchi bilan ag'darib tashladi. Natijada mintaqada terroristik oqimdagi mutaassib tashkilotlar kuchayib, bo'shab qolgan hokimiyatni egallash uchun kurash boshladi. Iroq, Liviya, Suriya urush alangasida qoldi. ISHID terrorchilik tashkiloti atrofida dunyoning barcha qismidan terrorchilar yig'ilib, islom bayrog'i ostida jang olib bormoqda. Islom fundamentalizmi – bu oddiy terrorizm emas, u favqulodda ko'pqirrali va xavfli hodisa. Unga juda ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lmoq lozim. Haqiqiy dinni uning nomidan terror uyushti rayotgan, jahonda tinchlikka xavf solayotgan guruhlardan ajrata olishda odamlarga yordam ko'rsatish, islom dinining tinchliksevar din ekanligini asoslash bugungi kunda islom nazariyotchilarining dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

XX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan modernizatsiyalashning uchta– inqilobiy, neokonservativ va islohotchilik variantlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo Lotin Amerikasi mamlakatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilish uchun qo'llagan barcha variantlari kutilgan natijalarni bermadi.

Lotin Amerikasi jamiyatlari bir vaqtda uchta muammoni: samarali, barqaror rivojlanuvchi iqtisodni yaratish; o'tmishdan qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilish; industrial rivojlangan mamlakatlar, avvalo AQSHga qaramlikni bartaraf qilishning umumiy yo'lini topa olmadi. Lotin Amerikasida 1990-yillardagi neoliberal islohotlarning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish jarayonida so'l yo'nalishdagi hukumatlar saylov yo'li bilan hokimiyatga keldi. Bu butun dunyoning e'tiborini o'ziga jalb qildi va «so'l burilish» nomini oldi.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari o'z tarixida birinchi marta diktaturalarsiz rivojlandi, deyarli barcha mamlakatlarda saylovlar orqali konstitutsion rejimlar hokimiyatga keldi. Ammo 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi va 2014-yili boshlangan energetika inqirozi oqibatida Lotin

Amerikasida vujudga kelgan og'ir sharoit bu mamlakatlarning islohotlarga muhtojligini ko'rsatmoqda.



Proporsional saylov tizimi - bunda mandatlar partiyalar o'rtasida ular olgan ovozlar soniga proporsional ravishda bo'linadi.

Neofashizm - bu 1920-1940-yillardagi fashistik tashkilotlarning g'oyaviy-siyosiy davomchisi bo'lgan o'ng radikal tashkilotlar.

Neokonservativizm – bu konservativ g'oyaviy-siyosiy oqimning an'anaviy ijtimoiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan turi.

Neoliberal islohot – davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar. Neoliberalizm vakillari bozor o'zini o'zi tartibga soladi deb hisoblaydi.



I. Bilimlarni sinash

1. 1980 - 1990-yillarda Italiya jamiyatida qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berdi?
2. «Halol qo'llar» kompaniyasi Italiyada qanday natijalarga olib keldi?
3. XXI asr boshlarida Italiya iqtisodiy rivojlanishda qanday yutuqlarga erishdi?
4. Yangi asrda Italiyada qanday muammolar saqlanib qolmoqda?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari modernizatsiyalash jarayonida qanday muammolarga duch kelmoqda?
2. Janubiy Osiyo mamlakatlari rivojlanishidagi o'ziga xos tomonlar nimalardan iborat?
3. Islom mamlakatlaridagi modernizatsiyalash jarayonida islom fundamentalizmi qanday rol o'ynamoqda?
4. Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asr oxirlarida o'z oldida turgan qanday muammolarni hal qilish yo'llarini topa olmadi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Inqilobiy, neokonservativ va islohotchilik variantlaridan qaysi biri mukammalroq deb o'ylaysiz? Fikringizni izohlang.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

“Mafiya”, “proporsional saylov tizimi” va “inqilobiy” atamalariga izoh bering.

V. Ijodiy vazifa

Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, Osiyo va Lotin Amerikasining XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi taraqqiyoti mavzusida portfolio tayorlang

40-§. 1991-2017-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi. Yaponiya

1991 - 2017-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi

Xitoy, Xitoy Xalq Respublikasi — Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat.

Maydoni — 9,6 mln. km².

Aholisi — 1 mlrd. 394mln. kishi (2003).

Poytaxti — Pekin shahri

Xitoy Xalq Respublikasining siyosiy rivojlanishi. Sotsialistik tizim va SSSR tarqalib ketgandan so'ng Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) eng yirik sotsialistik davlat sifatida saqlanib qoldi. Bu yerda Xitoyga xos sotsializm qurish davom ettirildi. Hokimiyatni yagona Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) egallab turibdi.

1989-yil Tyananmen maydonidagi tinch namoyish bostirilgandan so'ng uch yilga yaqin Xitoy siyosatida jiddiy o'zgarish yuz bermadi. Faqat 1992-yili Den Syaopin mamlakatning janubiy provinsiyalariga qilgan safari paytida bir qator bayonotlar berib, iqtisodiy islohotlar siyosatini to'xtatib bo'lmaydi, dedi. Islohotlar boshlangandan so'ng qo'lga kiritilgan yutuqlar tanlangan yo'lning to'g'riligiga odamlarni ishontirdi. Den Syaopin o'z safari davomida yana bir muhim qarorni qabul qildi: u o'z shahrida namoyish larni tinch yo'l bilan to'xtata olgan Shanxay shahri meri Szyan Szeminni o'zining vorisi deb e'lon qildi.

Shu davrda davlat apparati ham yarmiga qisqartirildi. Samarasiz ishlayotgan keksa amaldorlar o'rniga yoshlar keldi. XKPning Bosh kotibi iste'foga chiqib, o'rniga nisbatan yosh Xu Szintao saylandi.

2012-yili hokimiyatga kelgan Si Szinpin boshchiligidagi XKP va XXR rahbarlarini «Xitoy orzusi»ni amalga oshirish g'oyasi birlashtirib turibdi. «Xitoy orzusi» deganda eng umumiy ma'noda «xitoy millatini tiklash» yo'lida ikki qadam - XKPning yuz yilligiga (2021yil) «o'rtacha farovonlik» darajasiga erishish, XXRning yuz yilligiga (2049-yil) esa jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olish tushuniladi.

Iqtisodiy islohotlar. 1989-yili Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi shafqatsiz bostirilgandan so'ng Xitoyga qarshi ma'lum sanksiyalar e'lon qilinishiga qaramasdan, mamlakatda islohotlar davom ettirildi. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Mao Szedun davridagi bir qator tadbirlardan voz kechishga to'g'ri keldi. Avvalo, jamoa xo'jaliklari tugatildi. Dehqonlar hosilning bir qismini erkin bozorda sotish imkoniyatiga ega bo'ldi, shaharlar va qishloqlarda kichik mahalliy korxonalarni tuzish rag'batlantirildi. «Boy bo'lish - bu juda yaxshi» - deya ta'kidladi Den Syaopin. U tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida Xitoyning qirg'oq bo'yidagi to'rtta viloyatini maxsus iqtisodiy zonalar deb e'lon qildi. Bu iqtisodiy zonalarda chet el investorlari uchun qulayliklar yaratildi.

1997-yil fevral oyida Xitoy «islohotlarining otasi» Den Syaopin vafot etdi. Shu yil sentabrda XKP «Davlat sektorini modernizatsiya qilish dasturi»ni qabul qildi. Zarar keltirib ishlaydigan davlat banklari va korxonalaridan voz kechishga qaror qilindi.

Islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida XX asrning oxirgi yigirma yilida XXRning YIMi olti martadan ko'proqqa oshdi. XXR rahbariyati XXI asrning dastlabki yigirma yilidan ham o'ta samarali foydalanishni maqsad qilib qo'ydi. Bu davr iqtisodiy, harbiy, tashqi siyosiy qudratni oshirish va jahonda sifat jihatidan yangi o'rinni egallash uchun «strategik imkoniyatlar bosqichi» sifatida qaraldi.

Xitoy 2001-yili Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lgandan so'ng jahon bozorining imkoniyatlaridan va mamlakatning Yer yuzidagi «eng yirik fabrika» sifatidagi ustunligidan unumli foydalanib, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qoldi hamda o'zining jahon iqtisodidagi mavqeyini yanada oshirishga erishdi.

2017-yil oktabrda bo'lib o'tgan XKPning 19-Umumxitoy syezdida Si Szinpin Xitoy kommunistlarining azaliy maqsadi xitoy xalqining baxti uchun kurash va xitoy millatini tiklash ekanligini ta'kidlab, XXI asr o'rtalariga kelib Xitoy zamonaviy buyuk sotsialistik davlatga aylanadi, deb e'lon qildi.

Ijtimoiy muammolar. Iqtisodiy o'sishning muntazam yuqoriligiga qaramasdan, XXI asr boshlariga kelib, Xitoy bir qator jiddiy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarga duch keldi: boylar bilan kambag'allar daromadi o'rtasidagi farq keskin oshdi.


Xitoyning eng dolzarb muammolari qatoriga aholining tez keksayib borishi va ishlab chiqarishning ekologiyaga yetkazayotgan zararini kiritish mumkin. Xitoyda uzoq yillar olib borilgan «bitta oila - bitta farzand» siyosati natijasida mamlakatda yoshlar soni keksa avlod soniga nisbatan kamayib bormoqda.

XXI asr boshlarida industrilashtirish, urbanizatsiya va xalqaro savdo ta'siri ostida energiya sarfi yuqori bo'lgan og'ir sanoat keng miqyosda jadal rivojlandi. Oqibatda zaharli gazlar Xitoy shaharlarida juda og'ir ekologik sharoitni vujudga keltirdi. Qishloqlarda esa suvning ifloslanishi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu aholi sog'lig'idan tashqari milliy iqtisodiyotga ham katta zarar yetkazmoqda. Xitoy hukumati yaqin kelajakda ekologik holatni yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiq- qan. Unda ekologik sof muhitni yaratish XXI asrning asosiy vazifasi sifatida qaraladi.

XX asrning oxiridagi islohotlardan farqli ravishda yangi asrning boshlaridagi islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiy o'zgarishlar bo'lmay qoldi. XXI asr boshida e'tibor faqat iqtisodiy yuksalishga emas, islohotlar jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga qaratildi. Bu muammolar asosan shahar bilan qishloq, mamlakat g'arbiy qismi bilan sharqiy qismi

rivojlanishi o'rtasidagi farq bilan bog'liq. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida davlatning asosiy e'tibori bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tashqi siyosat. Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari Xitoy tashqi siyosatini Koreya Xalq Demokratik



Si Szinpin.

Respublikasini qo'llab-quvvatlagani uchun tanqid qilib keladi. XXR hukumati jahon siyosatida Xitoyning rolini oshirishga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda va ayni paytda, ko'plab xalqaro masalalar bo'yicha neytral pozitsiyani

egallab turibdi.

AQSH Xitoyning asosiy savdo hamkori bo'lib qolmoqda. Ammo ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda bir qator muammolar ham mavjud. Bu avvalo AQSHning Osiyo-Tinch okean mintaqasida o'z ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosati oqibatida paydo bo'lgan ziddiyatlardir. AQSHning bu siyosati mintaqadan Xitoyni siqib chiqarishga qaratilgani uchun Pekinning jiddiy qarshiligiga uchramoqda. Bu mintaqada keskinlikning oshishiga olib keldi. Xitoy va AQSH o'rtasida boshlangan qurollanish poygasi ham keskinlikni yanada kuchaytirmoqda.

Shunga qaramasdan, tomonlar o'rtasida XXI asr boshidan iqtisodiy masalalar bo'yicha strategik kelishuv mavjud bo'lib, muntazam uchrashuvlarda asosiy muammolar muhokama qilinadi. Masalan, 2017-yil noyabr oyida AQSH prezidenti D. Tramp Xitoyga rasmiy tashrif bilan kelib, bir qator iqtisodiy hamkorlik masalalarini hal qilishga va 250 mlrd dollardan oshiq summaga savdo kelishuvini imzolashga erishdi.

XXR tashqi siyosatining asosiy maqsadi Osiyo va Afrika mamlakatlarida o'z ta'sirini oshirishga qaratilgan. Buning uchun Xitoy yetarli iqtisodiy, harbiy va siyosiy imkoniyatlarga ega.



Yaponiya — Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi orollarda joylashgan davlat.

Maydoni — 377,8 ming km².

Aholisi — 126 mln. kishi (2021).

Poytaxti — Tokio shahri.

1990-yillarda Yaponiyaning rivojlanishi. Bu davrda Yaponiya siyosiy hayotida liberal-demokratik partiyaning (LDP) obro‘yi tiklandi. 1990-yili hokimiyatga kelgan Tosiki Kayfu Yaponiyaning xalqaro obro‘yini oshirishga erishdi. 1990-yili Quvaytning Iroq tomonidan anneksiya qilinishi paytida Yaponiya xalqaro harbiy kontingentga, shuningdek, Misr, Iordaniya va Turkiyaga moliyaviy yordam tarzida bir necha milliard dollar mablag‘ ajratdi.

1990-yillardan iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi kamayib bordi. Shuningdek, sanoatni davlat tomonidan tartibga solish ham susaydi. Bu davrda Yaponiyaning asosiy eksporti chetga kapital chiqarish bo‘lib qoldi. Chet davlatlarda joylashtirilgan investitsiyalar miqdori 1 trln dollardan oshib ketdi. Yaponiya mehnat unumdorligi bo‘yicha ham G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan o‘tib, AQSHga tenglashib bordi. 1990-yillari butun dunyoda ishlab chiqarilgan videoappaturalarning 90% i, sanoat robotlarining 2/3 qismi Yaponiya hissasiga to‘g‘ri kelardi. Ammo tashqi bozorga bog‘liqlik 1997-1998-yillardagi «Osiyo inqirozi» paytida Yaponiya uchun katta qiyinchiliklar tug‘dirdi. Shunga qaramasdan, Yaponiya iqtisodiyoti inqirozlar davrida o‘zining moslashuvchanligi va chidamliligini namoyish qildi.

Ichki siyosatda 1990-yillar hukumat beqarorligi bilan xarakterlanadi. Bu yillari Yaponiyada bir necha koalitsion hukumatlar almashgandan so‘ng ,1996-yildagi saylovlardan so‘ng Liberal-demokratik partiya yetakchilikni tiklaydi va mamlakatni Ryutaro Xasimoto boshqaradi.

Bosh vazir Xasimoto “Islohot va ijod” shiorini ilgari surdi. Xasimoto hukumatining “olti islohoti”: 1) amalga oshirilgan ma'muriy islohot (boshqaruv

tuzilmalarini tartibga solish, qisqartirish); 2) moliyaviy tuzilmani isloh qilish (moliyani takomillashtirish 2003-yilga kelib); 3) ijtimoiy ta'minot tizimini isloh qilish (bolalar va qariyalar uchun) 4) iqtisodiy tuzilmani isloh qilish (kuchli iqtisodiy poydevor yaratish); 5) pul muomalasi tizimini isloh qilish (Tokio bozorini qayta tashkil etish); 6) ta'limni isloh qilish (ijodiy fikrlaydigan kadrlarni tarbiyalash) bo'yicha islohotlar boshlanishini e'lon qildi. Shuningdek, R.Xasimoto yangicha diplomatiyani namoyish qilib, tashqi siyosatda «yevroosiyochilik» konsepsiyasini tatbiq etishga urindi. U Yaponiyada bir qator terrorchilik aktlarini amalga oshirgan «Aum Sinrikyo» sektasi faoliyatiga chek qo'yishda qat'iy harakatlari bilan ham tanildi.

XX asr oxirida Yaponiya ichki siyosatida LDP yetakchilikni saqlab qoldi. 2000-yil Yaponiya bosh vaziri Keydzo Obuti vafot etgandan so'ng bu lavozimni Yosiro Mori egalladi.

Yaponiya XXI asrda. Yaponiya XXI asr boshlarida iqtisodi barqaror rivojlanayotgan mamlakat bo'lib qolmoqda. U 400 mlrd dollardan oshiqroq summaga teng mahsulot eksport qilyapti. Yaponiya kemasozlik, traktorsozlik, metallni qayta ishlash sanoati uchun uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab turibdi. U po'lat, televizorlar va avtomobil ishlab chiqarishda ham jahonda yetakchilardan hisoblanadi. Yaponiya YIM hajmi bo'yicha jahonda AQSH va Xitoydan so'ng uchinchi o'rinni egallab turibdi.

Yaponiya ko'plab orollardan iborat mamlakat. U boshqa mamlakatlarga nisbatan tabiat kuchlari: okean bo'ronlari, tayfunlar, zilzilalarga ko'proq bog'liq. Yaponlar o'z ishlab chiqarish madaniyatida ana shu bog'liqlikni kamaytirishga intilib keldi. Ammo tabiat kuchlaridan to'liq ustun kelishni ing iloji yo'q, ularning zararini kamaytirish mumkin, xolos.

2011-yil mart oyida Xonsyu orolida yuz bergan zilzila Yaponiyaga katta zarar yetkazdi. Minglab kishilar halok bo'ldi, 300 mingdan oshiq kishi boshpanasiz qoldi.

Bir necha atom elektrostansiyalariga zarar yetdi, Fukusima-1 atom elektrostansiyasidan radioaktiv moddalarning atrof-muhitga tarqalishi yuz berdi. Mamlakatga juda katta iqtisodiy zarar yetkazildi.

Ichki siyosatda asosan LDPning yetakchiligi saqlanib qoldi. 2001-yili Yaponiya bosh vaziri lavozimini Junitiro Koidzumi egalladi. U nisbatan yosh, serg'ayrat bo'lib, mamlakatda katta obro'ga ega edi. J. Koidzumi Yaponiya konstitutsiyasining mamlakatga o'z qurolli kuchlariga ega bo'lishini taqiqlovchi moddasini qayta ko'rib chiqish tarafdori bo'lib chiqdi. J. Koidzumi uch muddat hukumatni boshqardi. 2012-yildan LDP yetakchisi Sindzo Abe hukumatni boshqarib kelmoqda.

Shuni aytish lozimki, siyosiy inqirozlar faqat Yaponiya uchun xos bo'lgan hodisa emas. Shunga o'xshash jarayonlar yangi, postindustrial sivilizatsiya shakllanayotgan boshqa mamlakatlarda ham yuz bermoqda. Aholining ijtimoiy tarkibi o'zgarmoqda, jamiyatni tashvishga solayotgan muammolarning ham mohiyati o'zgacha tus olyapti; ko'plab eski partiyalar inqirozni boshdan kechirmoqda - ular juda qiyinchilik bilan yangi sharoitlarga moslashmoqda, har doim ham yangilikni o'z vaqtida ilg'ab ololmayapti. Rivojlangan mamlakatlar siyosiy tizimida ham jiddiy qayta qurish ketyapti. Vakillik demokratiyasining rivojlanishi yaqin kelajakda mutlaqo yangi mazmun kasb etishi mumkin, qandayligini vaqt ko'rsatadi. Ammo hozirdanoq yaponlar muammolarning muvaffaqiyatli hal qilinishiga ishonch bilan harakat qilmoqda.

Yaponiya tashqi siyosatida AQSH bilan munosabatlar asosiy o'rin tutadi. Ikkinchi jahon urushi yakunlangandan beri Yaponiya AQSHning mintaqadagi eng yaqin savdo hamkori va strategik sherigi bo'lib kelmoqda. Yaponiyaning Xitoy bilan munosabatlari ancha murakkab. 2005-yili J.Koidzumi hukumati Tayvan oroli masalasida ilk bor AQSHni ochiq qo'llaganda Xitoy bilan munosabatlari keskin yomonlashdi. Jahonhamjamiyatini tashvishga solib kelayotgan va 2017-yili yanada keskinlashgan Shimoliy Koreya masalasida ham Yaponiya bilan Xitoy o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud.



Urbanizatsiya - shaharlar soni ko'payib, ularda davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti jamlanishi tarixiy jarayoni.

Detsentralizatsiya - bu qarorlar qabul qilish bo'yicha vakolat va majburiyatlarni markazdan boshqa tashkilotlarga o'tkazish.

Sekta - bu kishilarning ko'pincha tor, o'ta mutaassib va ekstremistik qarashlar doirasida birlashishi, umumiy diniy yo'nalishdan chetga chiqish.

Harbiy kontingent - bu ma'lum harbiy vazifani bajarish uchun tashkil qilingan qo'shinlar va harbiy texnika majmuasi.



I. Bilimlarni sinash

1. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida XXRda amalga oshirilgan siyosiy o'zgarishlardan qanday maqsadlar ko'zlangan edi?
2. Xitoyda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
3. XXI asr boshlariga kelib Xitoyda industrlashtirish va urbanizatsiya bilan bog'liq qanday muammolar vujudga keldi?
4. Xitoy tashqi siyosatida AQSH bilan munosabatlar qanday rol o'ynaydi?
5. 1990-yillari Yaponiya iqtisodiyotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
6. Ryutaro Xasimoto qanday islohotlarni e'lon qildi?
7. XXI asrda Yaponiyaning barqaror rivojlanishi qanday omillarga tayanadi?
8. Yaponiya tashqi siyosatida AQSH va Xitoy bilan munosabatlar nima uchun asosiy yo'nalish hisoblanadi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. "Boy- bo'lish juda yaxshi" deb kim ta'kidlar edi?
2. Bugungi kunda Xitoy qishloqlarida sosiy muammo nima?
3. XXI asr boshlarida Xitoyning qaysi hududida 200 dan ortiq terroristik harakatlar amalga oshirdi?
4. XXI asr boshida Xitoyda asosiy vazifa deb nimaga qaratilmoqda?
5. XXI asrning dastlabki yigirma yili Xitoy uchun qanday bosqich sifatida qaraladi?

6. Qaysi bosh vazir davrida Yaponiyada bir qator terrorchilik aktlarni amalga oshirgan “Aum Sinrikyo” sektasi faoliyatiga chek qo’ydi?
7. Yaponiya qaysi davlatning bugungi kunda ham yaqin hamkori sifatida tashqi siyosatini namayon etmoqda?
8. XX asr oxir va XXI asr boshida qaysi partiya Yaponiya ichki siyosatida yetakchilik qilib kelmoqda?
9. Qaysi Osiyo davlati “Osiyo inqirozi ” davrida o’zining moslasuvchanligi va chidamliligini namoyish qildi?

III. Guruh muhokamasi uchun



Xitoy va Yaponiya davlatlarini taraqqiyotiga sabablarni ikkita ustunga yozing. Fikrlaringizni himoya qiling

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. Detsentralizatsiya nima?
2. Xonsuyu orolini xaritadan toping.

V. Ijodiy vazifa



Internet vositasi Xitoy davlatidagi sotsializmni sobiq SSSR dan qanday farqi bo’lganligini aniqlang

41-§.1991-2017-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari.

Hindiston Respublikasi

1991 - 2017-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari



Janubi-Sharqiy Osiyo (JSHO) davlatlari tarixida mustamlakachilikdan xalos bo’lishlari, turli davrlarda yuz berdi. Indoneziya, Birma (Myanma), Filippin, Vetnamning shimoliy qismi uchun bu Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan keyingi dastlabki yillarda bo’lsa, 1954 -yilda Laos, Janubiy Vetnam va Kambodja, 1957 -yilda Malayziya, 1965- yildan Singapur (1959-1965-yilgacha Malayziya Federatsiyasi tarkibiga kirgan), 1984- yildan Bruney va boshqa davlatlar mustaqillikka erishdilar.

Bu mamlakatlarda yarim milliarddan oshiq aholi yashaydi. Taraqqiyotning sotsialistik yo'lini tanlagan Vyetnam, Kambodja, Laos 1990-yillarda juda og'ir ahvolda qoldi. Ular dunyoning eng kambag'al mamlakatlari qatoriga kirardi. Sotsialistik yo'nalishdagi hukmron partiyalar hokimiyatda qolgan bo'lsa-da, ular o'z mamlakatlarida jiddiy islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi.

Tabiiyki, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining bunday notekis siyosiy rivojlanishi har bir davlatning ichki siyosatiga ham alohida, ham umumiy mintaqaviy rejaga ta'sir ko'rsatdi. Aniqki, mintaqani ikki qismga bo'lish mumkin - Hindixitoy va qolgan mamlakatlar, ularning aksariyati 1967- yilda tashkil etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar Uyushmasi (ASEAN) tarkibiga kiritilgan.

Vyetnam, Kambodja, Laos. 1991-yili bo'lib o'tgan **Vyetnam** Kommunistik partiyasining VII syezdi islohotlar kursini e'lon qildi. Syezd erkin tadbirkorl ikka ruxsat berdi, dehqonlar uzoq muddat yerga egalik qilish huquqini oldi.

Bozor islohotlari natijasida barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi, XX asrning so'nggi yillarida bu ko'rsatkich yiliga 9% ni tashkil qildi. Chet el kapitali muvaffaqiyatli o'zlashtirildi, investitsiyalarning o'sishi kuzatildi. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Vyetnamda chet el firmalari ishtirokida bir qator loyihalar amalga oshirildi. Iqtisodiy yutuqlar aholining yashash darajasini oshirish imkonini berdi. Bu esa ko'pmillatli davlatda barqarorlik garovi bo'lib qoldi.

Hozir Vyetnam oziq-ovqat eksporti bo'yicha Osiyo mamlakatlari ichida birinchi, sholi eksporti bo'yicha dunyoda mamlakatlar o'rtasida ikkinchi o'rinni egallab turibdi.

Kambodjada hokimiyatni Oliy milliy kengashga berish to'g'risida 1991-yil oktabrda yakunlangan Parij konferensiyasida qaror qilindi. BMT ning Kambodjadagi Muvaqqat ma'muriyati tuzildi va u umumiy saylovlarga tayyorgarlikni amalga oshirdi.

1999-yili Kambodja ASEANn ing teng huquqli a'zosi bo'ldi. XXI asr boshlarida Kambodja og'ir iqtisodiy holatda bo'lib, xalqaro yordam hisobiga kun kechirardi. Mamlakatda «tirik tovar» savdosi keng avj olgan bo'lib, ota-onalar bolalarini arzimagan pulga sotardi. XXI asr boshlarida ayrim ijobiy o'zgarishlar

ko'zga tashlandi. Sog'liqni saqlash va ta'limga ajratilgan xarajatlar ko'paytirildi, mamlakatda qashshoqlik darajasini pasaytirish tadbirlari amalga oshirildi.

1945-yil 12-oktabrda mustaqil bo'lgan Laosda 1991-yili konstitutsiya qabul qilindi. Parlament - Milliy assambleya ning qonunchilik faoliyati kuchaydi, Laos ASEANga a'zo bo'ldi.

XXI asr boshiga kelib iqtisodning faqat 10 % i davlatga tegishli edi. 1999-yili mamlakat birinchi marta o'zini sholi bilan ta'minladi. Astasekin Laosga chet el kapitali qayt moqda, inflatsiya pasaydi, milliy valuta - kipaning qiymati oshmoqda. Konstitutsiyaga binoan mamlakatda bir partiyali tizim hukmron bo'lishiga qaramasdan, demokratiya elementlari asta-sekin paydo bo'lmoqda. 2016-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida bir o'ringa o'rtacha 1,5 nafar nomzod to'g'ri keldi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari. 1980-1990-yillar Sharqiy Osiyo mamlakatlarining barchasida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari kuzatildi. Bu ularga 1990-yillarning boshidayoq zamonaviy dunyoda jiddiy ta'sirga ega bo'lgan «yangi industrial mamlakatlar» deb ataluvchi guruh qatoridan joy olish imkonini berdi.

Malayziya shiddatli iqtisodiy rivojlanish tufayli korrupsiya va mamlakat shimolida islom fundamentalistlarining faollashuvi bilan bog'liq ichki siyosiy inqirozni yengib o'tdi. 1995-yil aprelda bo'lgan saylovlarda doktor Mahatxir Muhammad boshchiligidagi Malayya birlashgan milliy partiyasi (MBMP) ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi va bu bilan islom fundamentalistlari hokimiyatga kelishining oldini oldi.

Malayziya 1990-yillarda ancha yuqori sur'atlarda rivojlanishda davom etdi. Yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi 8 foizdan oshdi. Mashinasozlik, elektronika, neftni qayta ishlash sanoati, shuningdek, qurilish sanoati jadal rivojlandi. Xorijiy investorlar Malayziya iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, Yaponiya, AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya va boshqalardan bajonidil sarmoya kiritdilar.

Malayziya ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Osiyoning 6 ta yirik eksportchilaridan biri edi va 2020-yilga kelib u eng rivojlangan sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi rejalashtirilgan edi.

1997-yilda Osiyo iqtisodiy inqirozi boshlanganidan keyin vaziyat o'zgardi. YaIM o'sishi darhol 6 foizga tushdi, sanoat ishlab chiqarishining barcha asosiy tarmoqlarida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Tashqi qarz 45 milliard dollarga oshdi. Hukumat yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashlamoqda.

Indoneziyaga 1990-yillardagi «Osiyo inqirozi» juda qattiq ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib ketdi. Bu aholining ommaviy noroziligini keltirib chiqardi. Prezident Suxarto iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Bu paytga kelib mamlakatni islom fundamentalizmi to'liqini qamrab oldi. Musulmonlar orasida g'alayonlar, xristianlarni qirg'in qilish, mamlakatning turli hududlarida ayirmachilik chiqishlari boshlanib ketdi. 2001-yili mamlakat prezidenti etib Megavati Sukarnoputri saylanishi aholi tomonidan iliq qarshi olindi, rupiyaning kursi tezda oshib ketdi, fond bozori ham faol lashdi. 2014-yili bo'lib o'tgan navbatdagi saylovlarda Joko Widodo Indoneziya prezidenti etib saylandi.

Filippinda 1992-yilgi saylovlarda general Fidel Ramos mamlakat prezidenti etib saylandi. U janubdagi musulmon ayirmachilarini tor-mor qilishga urindi, ammo bunga erisha olmadi. Filippinda musulmonlarning bir necha radikal tashkilotlari mavjud. Ularning ixtiyorida o'n minglab yaxshi qurollangan, Afg'oniston va Shimoliy Kavkazda tajriba orttirgan, Iroq va Suriyada ISHID saflariga borib qo'shilgan jangarilar bor. Ichki holatning og'irligiga qaramasdan 1990-yillari iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga erishildi. Filippin elektron va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi eng yirik mamlakatlardan biriga aylandi.




Rodrigo Roa Duterte

2016-yil may oyida bo'lib o'tgan saylovlarda Rodrigo Roa Duterte g'olib chiqib, Filippin prezidenti bo'ldi. U mamlakatda 2006-yili bekor qilingan o'lim jazosini qayta tiklash tarafdori. 2016-yil iyul oyida mamlakatda narkotik savdosi bilan noqonuniy shug'ullanuvchilarga qarshi kampaniya boshlanib, narkotik savdosida gumon

qilingan 2 mingdan oshiq kishi o'ldirildi. Narkotik savdosida gumon qilinganlarning sudsiz o'ldirilishi jahon jamoatchiligini tashvishga solmoqda.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi «yangi industrial davlatlar». XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida jadal modernizatsiyalashni amalga oshirgan **Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong** taraqqiyotning yuksak sur'atlarini ta'minlab, «Osiyo yo'lbarzlari», «yangi industrial davlatlar» deb atala boshlandi. Ularda aholining yashash darajasi keskin yaxshilandi.



Bu mamlakatlarda sanoatning kemasozlik, avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash sohalari va yengil sanoat buyumlari ishlab chiqarish rivojlangan. Ilmtalab yuqori texnologiyalarni joriy qilish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bo'yicha yuqoridagi davlatlar dunyoda eng ilg'orlardan hisoblanadi.



1991 - 2017-yillarda Hindiston Respublikasi

Hindiston Respublikasi — Janubiy Osiyodagi davlat.

Maydoni — 3,3 mln. km².

Aholisi — 1 mlrd. 49,5 mln. kishi (2002).

Poytaxti – Yangi Dehli shahri

1990-yillarda Hindiston. Bu davrda Hindistonning iqtisodiy ahvoli yomonlashdi: jahon iqtisodiyotida yuz bergan tushkunlik Hindistonni ham chetlab o'tmadi. Iqtisodiy o'sish deyarli to'xtadi, inflatsiya kuchaydi, ishsizlik oshdi. Mamlakatda turli etnik va diniy guruhlar o'rtasida ziddiyat, umumiy tanglik holati kuchayib bordi. Shunday holatda 1991-yili tamil terrorchisi tomonidan Hindiston bosh vaziri Rajiv Gandi o'ldirildi.

Hokimiyatga kelgan Narasimxa Rao hukumati bozor islohotlarining yangi bosqichini boshladi. Narasimxa Rao hukumatining iqtisodiy kursi samaradorlikni oshirish va byudjetga moliyaviy tushumlarni ko'paytirish maqsadida davlat mulkining bir qismini davlat tasarrufidan chiqarishni, bir qator davlat sektori korxonalarini xususiylashtirishni nazarda tutgan. Hukumat ichki tuzilmalar bilan chegaralangan va nazoratning turli shakllari bilan bog'langan samarasiz ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan xalqaro miqyosda integratsiyalashgan, jadal rivojlanayotgan, raqobatbardosh va bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadini e'lon qildi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuviga barham berish, yaroqsiz korxonalar faoliyatini to'xtatish va boshqa bir qator chora-tadbirlar davrni qamrab olgan sakkizinchi besh yillik (1992 -1997) ning iqtisodiy strategiyasini belgilab berdi.

1990-yillarda Hindiston jiddiy yutuqlarga erishdi. Shu davrda YIM hajmi bir necha barobar oshdi. Ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari ta'minlandi. Bu davrda Hindiston o'zining oltin-valuta zaxirasini oshirishga intildi, neft qazib olishni ko'paytirdi.

Qishloq xo'jaligi ham muvaffaqiyatli rivojlandi. 1992-yildan Hindiston g'alla eksport qilishni boshladi. Mamlakat ko'plab, jumladan, yuqori texnologiya mahsulotlarini ham eksport qiladi. Masalan, yuqori sifatli kompyuter dasturlarini sotishdan yiliga bir necha milliard dollar foyda olmoqda. Hindiston kompyuter dasturlarini yaratish sohasidagi yuqori malakali kadrlar soni bo'yicha dunyoda AQSHdan so'ng ikkinchi, ilmiy-texnik xodimlar soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Zamonaviy Hindiston. 1998-yil mart oyida bo'lib o'tgan parlament saylovlarida Xalq-demokratik alyansi g'alaba qozonib, uning yetakchisi Atal Bixari Vajpai bosh vazir lavozimini egalladi.

Ko'plab tabiiy qiyinchiliklarga, jumladan, mamlakat g'arbidagi qurg'oqchilikka qaramasdan, A.B.Vajpai huku mati o'zining bir qator rejalarini amalga oshirdi. Kashmirdagi musulmon separatizmini kuchsizlantirish tadbirlari o'tkazildi.

2000-yili mamlakat shimoli-g'arbida uchta yangi shtat tashkil qilindi. Hukumat mamlakatning bu mintaqasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi, shu maqsadda birinchi marta maxsus vazirlik tuzildi.

A.B.Vajpai hukumati ovoz berishning yanada erkinligini, saylovoldi kompaniyasida moliyaviy xarajatlarning oshkoraligini ta'minlash maqsadida bir qator saylov islohotlarini amalga oshirdi.

Iqtisodiy sohada A.B.Vajpai kabineti xo'jalik faoliyatiga hukumatning bevosita aralashuvini qisqartirish choralari ko'rdi. U ko'plab sohalarda davlat monopoliyasini bekor qildi, tadbirkorlar va firmalar faoliyati ustidan nazoratni kamaytirdi, soliqlarni pasaytirdi. Hukumat barqaror iqtisodiy o'sishni, Hindiston sanoatining raqobat bardoshligini, kompyuter texnologiyalari, transport va aloqa sohalari rivojlanishini ta'minladi. Ammo iqtisodiyotning yanada liberallasuvi ayniqsa yoshlar orasida ishsizlikning o'sishiga, qashshoqlik muammosining keskinlashuviga olib keldi. Natijada 2004-yil may oyida bo'lib o'tgan saylovlarda Hindiston milliy kongressi (HMK) so'llar bilan hamkorlikda g'olib chiqdi.

Hukumatni Manmoxan Singx boshqardi. Yangi hukumat mayda ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ishsizlikni kamaytirishga, aholining kamdaromad qismini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilashga, qashshoqlar sonini kamaytirishga, inson manfaatlari yo'lida iqtisodiy islohotlar o'tkazishga va'da berdi.

Hindiston - XXI asrda dunyoning iqtisodiy yetakchilaridan biriga aylanishga da'vo qilayotgan mamlakat. 2006-yili e'lon qilingan Jahon bankining prognozlariga qaraganda, 2025-yilga kelib, Hindiston iqtisodiyoti dunyoda Xitoy va AQSHdan so'ng uchinchi o'ringa chiqishi mumkin. Hindiston hozirdanoq barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan sektorni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo'lidan bormoqda. 2014-yili Hindiston bosh vaziri bo'lgan Narendra Modi ham islohotlar siyosatini davom ettirmoqda.



Narendra Modi.

Hindistonning ichki va tashqi siyosati shakllanishiga, XXI asrda uning iqtisodiy yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan hal qiluvchi omil mamlakatning demokratik yo'ldan rivojlanishi bo'ldi. Unda hokimiyatning rahbar organlarida jamiyatning turli qatlamlari vakillari ishtiroki uchun imkoniyat yaratildi.

Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ancha yuqori sur'atlari aholi katta qismining yashash sharoitini yaxshilash imkonini berdi, bu hind jamiyati va davlati erishgan eng katta yutuq hisoblanadi.

Shunga qaramasdan, keng miqyosdagi ijtimoiy muammolar mamlakatning muntazam rivojlanishiga to'siq bo'lib turibdi. Ulardan eng asosiysi demografik muammo. 2017-yil oxiriga kelib, Hindistonda aholi soni 1 mlrd 350 mln kishidan oshib ketdi. Mamlakatda 400 mln qashshoqlar mavjud, aholining deyarli 1/3 qismi savodsiz. Shuningdek, Hindiston ko'p etnosli, ko'p tilli, aholisi eng tez ko'payayotgan mamlakat bo'lgani uchun etnik muammolar doimiy saqlanib qolmoqda. Ular, masalan, Panjobda sikxlar, Assamda bengallar, Janubiy Hindistonda tamillar, Kashmir muammosi kabilardan iborat. Bularidan tashqari, diniy muammolar ham mavjud. Masalan, hozir Hindistondagi musulmonlar soni 160 mln kishidan oshib ketgan. Ularning hindlar bilan munosabatida kelishmovchiliklar mavjud. Qashshoqlikni bartaraf qilish, ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi yashash darajasini oshirish ham hamon davlat va jamiyatning eng dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan, Hindiston demokratik rivojlanish yo'lidan jadal ketmoqda. Bu mamlakatning yangi davr davlatlariga munosib javob berishi uchun kuchli asos hisoblanadi.

Tashqi siyosatda Hindistonning bosh maqsadi dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylanishdir. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish asosida davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirish, yadro quroliga va zamonaviy texnikaga ega bo'lgan kuchli armiyani yaratish shu maqsadga qaratilgan edi. Hindiston BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lish uchun tinimsiz harakat qilib kelmoqda.

XXI asrda ham Hindiston tashqi siyosati an'anaviy yo'nalishda davom etmoqda. Bu siyosatning asosini jamiyatda demokratik qadriyatlar ustuvor bo'lgan sharoitda mamlakatning tashqi xavfsizligini ta'minlash kursi tashkil qilib, bu kurs jamiyatning katta qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.



I. Bilimlarni sinash

1. Vyetnamda 1991-yili boshlangan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
2. XXI asrda Kambodja va Laosda qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
3. Sharqiy Osiyo mamlakatlari rivojlanishning qanday darajasida turibdi?
4. JSHO mintaqasidagi «yangi industrial davlatlar»da sanoatning qaysi sohalari rivojlangan?
5. Narasimxa Rao hukumati amalga oshirgan islohotlar natijasida Hindiston 1990-yillari qanday yutuqlarga erishdi?
6. A. B.Vajpai hukumati qanday muhim tadbirlarni amalga oshirdi?
7. Hindiston XXI asrda qanday yutuqlarga erishishni maqsad qilib rivojlanmoqda?
8. XXI asrda hind jamiyati oldida qanday dolzarb muammolar turibdi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

- 1.Hindistonning davlat tuzumiga tavsif bering.
- 2.Hindistondagi separatizmning sabablari nimada?

III. Guruh muhokamasi uchun



Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida nega rivojlanishni o'ziga xos yo'lini tanlashgan deb o'ylaysiz

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

Hindistondagi turli xalqlarni joylashgan o'rnini matndan topib,ularni xaritaga qayd eting

V. Ijodiy vazifa

“Hindistonning ichki siyosati” mavzusida taqdimot tayyorlang.

42-§.1991-2017-yillarda Turkiya Respublikasi. Eron Islom Respublikasi

1991 - 2017-yillarda Turkiya Respublikasi



XX asrning 90-yillari - XXI asr boshlarida Turkiyaning siyosiy rivojlanishi.
XX asrning 80-yillari oxiri - 90-yillari boshlarida dunyoda yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar Turkiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

1989-yili taniqli islohotchi Turg'ut O'zol Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylandi. Saylov to'g'risida yangi qonun qabul qilinib, siyosiy partiyalar uchun bir qator yengilliklar yaratildi.

Ammo bu yengilliklardan birinchi navbatda turli islom dini tarafdorlarining partiyalari unumli foydalandi. M.K.Otaturk davridan beri Turkiya Respublikasining dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borishiga o'zini mas'ul hisoblab kelayotgan armiya rahbarlarining ogohlantirishiga qaramasdan, jamiyatda islomchi partiyalarning ta'siri oshib bordi. Shunday sharoitda 1993-yili T.O'zol vafot etdi. Turkiya prezidenti etib Sulaymon Demirel saylandi.

1995-yil oxirida navbatdan tashqari parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Saylov jamiyatda islom dinining ta'siri o'sganligini yana bir bor namoyish qildi. Islom dini tarafdorlarining Nejmiddin Erbakan boshchiligidagi «Refax» (Farog'at) partiyasi hammadan ko'p ovoz oldi.

Shu davrda kurdlar muammosi ham dolzarb bo'ldi. Hukumat siyosatidan norozi bo'lgan Abdulla Ojalon boshchiligidagi Kurd ishchi partiyasi hukumatga qarshi urush e'lon qildi. Ko'zga ko'ringan siyosatchilarga nisbatan terroristik aktlar amalga oshirildi. Faqat A.Ojalon qamoqqa olingandan so'ng Kurd ishchi partiyasi jangovar harakatlarni to'xtatishga, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga qaror qildi.

Mamlakatda islom dini tarafdorlarining mavqeyi kuchayishda davom etdi, ular mahalliy hokimiyat organlarida borgan sari ko'p o'rinlarni egalladi, buning ustiga hukumatni ham boshqardi. Ko'pchilikning fikricha, navbatdagi saylovlarda islom dini tarafdorlari to'liq g'alabaga erishishi lozim edi. Bundan norozi bo'lgan armiya rahbariyati prezident S. Demirelni bir necha bor ogohlantirdi.

2000-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida Demokratik so'l partiya g'alaba qozondi. Mamlakatda islom dini tarafdorlariga nisbatan qat'iy pozitsiya saqlanib turdi. Turkiya prokuraturasi «Nurchilar» tashkilotini konstitutsiyaga xilof deb tan oldi. Bu tashkilot va «Hizbulloh» partiyasining turk filiali faoliyati taqiqlandi. Armiya bosh shtabi boshlig'i agar islomchilar hokimiyatga kelsa, harbiylar konstitutsiyani himoya qilishga tayyorligi to'g'risida yana bir bor ogohlantirdi. Shunga qaramasdan, 2002-yilgi saylovlarda islom dini tarafdorlarining Rejep Tayyip Erdo'g'on boshchiligidagi Adolat va taraqqiyot partiyasi (ATP) parlament saylovlarida g'alaba qozondi. R. Erdo'g'on sud hukmiga ko'ra siyosiy lavozimlarni egallash huquqidan mahrum qilinganligi uchun bosh vazir lavozimini Abdulloh Gul egalladi.

Armiya hushyor bo'lib turdi. Harbiylar holatni diqqat bilan kuzatib bordi va zarur bo'lganda aralashishga tayyor edi. 2003-yili R. Erdo'g'on Turkiya bosh vaziri lavozimini egalladi.

Iqtisodiy rivojlanish. Turkiyada iqtisodiy islohotlar 1990-yillarda ham davom ettirildi. YIMning yillik o'sishi ancha yuqori bo'lib, 1990-yillar oxirida eksportning asosiy qismini sanoat mahsulotlari tashkil qildi. Yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi juda ko'plab xususiy korxonalar paydo bo'ldi. Turkiyaning valuta zaxirasi ko'payib, YIM jon boshiga 3 ming dollardan oshib



Rejep Tayyip Erdo'g'on.

ketdi. Turkiya jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulot yetkazib beruvchi yuqori darajada rivojlangan mamlakatga aylandi. XX asr oxiriga kelib Turkiyaning asosiy sanoat mahsulotlari Yevropa mamlakatlarining shunday

mahsulotlari bilan bemaolol raqobatlasha olardi.

Turkiyaning juda katta muammosi davlatning hamma sohalarini qamrab olgan korrupsiya bo'lib qoldi. Shu masala bo'yicha 2000-yillar boshida prezident bilan bosh vazir o'rtasida ajralish yuz bergandan so'ng moliyaviy inqiroz sodir bo'ldi: mamlakatdan investitsiyalar keta boshladi. Turkiya Markaziy banki aralashishga majbur bo'ldi, bu esa zaxiradagi chet el valutasining keskin kamayishiga olib keldi. Oqibatda erkin qo'yib yuborilgan lira birdaniga keskin qadrsizlandi. Ammo inqirozlar Turkiyaning so'nggi yillardagi iqtisodiy yutuqlarini yo'qqa chiqara olmadi. Turkiya bugun dunyoning eng jadal rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri bo'lib, G-20 klubining a'zosi hisoblanadi.

XXI asrda Turkiya. 2000-yillarda ham harbiylar va islom dini tarafdorlari o'rtasidagi munosabat Turkiya uchun asosiy muammo bo'lib qoldi. 2007-yili o'ta millatchi «Ergenekon» yashirin tashkilotining faoliyati bilan bog'liq tergov va qamoqqa olishlar boshlandi. Turkiya sudi uch nafar iste'fodagi generallarni davlat to'ntarishini amalga oshirishga urinishda aybdor deb topdi va 20 yildan qamoq jazosiga hukm qildi. Turli muddatga qamalanganlar orasida yozuvchilar, jurnalistlar, professorlar va parlament deputatlari ham bor edi. Bu tashkilot a'zolari R.Erdo'g'on hukumatini ag'darib tashlashga tayyorgarlik ko'rishda ayblandi. Tashkilot a'zolari va ularga xayrixoh bo'lgan ayrim jurnalistlarning fikricha, bu sud jarayoni mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlashga intilayotgan hukumat tomonidan uyushtirilgan ig'vo edi.

Shu davrdan Turkiya Suriyadagi voqealarga faol aralasha boshladi. Suriya bilan chegaradosh Diyorbakir aviabazasiga F-16 qiruvchi samolyotlar joylashtirildi. NATO ham Turkiyani qo'llashga tayyorligini bildirdi.

2014-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida R.Erdo'g'on Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylandi. Bu Turkiyada prezident bevosita xalq tomonidan saylangan birinchi saylov edi. Ilgari prezident parlament tomonidan saylangan. Referendumda aholi prezidentning xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanishi uchun ovoz bergandan so'ng 2012-yili bu haqda qonun qabul qilindi.

2015-yilning ikkinchi yarmida Suriyada ISHIDga qarshi antiterrorchilik operatsiyasida ishtirok etayotgan Rossiyaning Su-24 harbiy samolyoti Turkiya tomonidan urib tushirildi. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirdi, Rossiya Turkiyaga qarshi iqtisodiy sanksiyalar e'lon qildi.

2016-yili Turkiya harbiylari navbatdagi davlat to'ntarishini amalga oshirishga urinib ko'rdi. Bir qator harbiy qismlar Anqara, Istanbul, Marmaris, Ko'nya va Malate shaharlarida strategik muhim obyektlarni o'z nazoratiga olishga urindi. Istanbul shahridagi prezident qarorgohi samolyotlardan bombardimon qilindi. Ayni paytda isyonchilar Istanbul va mamlakat poytaxti Anqara shaharlaridagi xalqaro aeroportlarni o'z nazoratiga oldi. R.Erdo'g'on isyonchilar egallashga ulgurmagan telekanal orqali xalqqa murojaat qildi. Aholi prezidentni qo'llab shaharlarda namoyishga chiqdi. To'ntarishga urinish jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoralandi. Isyon bostirildi. 60 mingdan oshiq kishi, asosan armiya ofitserlari qamoqqa olindi. Turkiya armiyasida, davlat apparatida tozalash o'tkazildi. Muxolifatga aloqador deb hisoblangan o'nlab gazetalar, telekanallar yopildi. 2017-yil aprelda referendum o'tkazilib, uning natijalariga ko'ra, Turkiyada prezident boshqaruvi joriy qilindi.

Harbiy to'ntarishga urinishdan keyin muxolifatga qarshi qat'iy harakatlari uchun AQSH va YI tomonidan tanqidga uchragan Turkiya hukumati Rossiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Turkiya prezidenti R. Erdo'g'on Rossiya prezidenti V. Putin bilan bir necha bor uchrashib, ikki mamlakat o'rtasida uzilib qolgan savdo, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni tiklashga kelishib oldi. 2017-yil noyabr oyida Rossiyaning Sochi shahrida V. Putin, R. Erdo'g'on va Eron prezidenti H. Ruhoniy o'rtasida muzokaralar o'tkazilib, unda terrorchilikka qarshi hamkorlikda kurashishga, Suriyada tinchlik o'rnatishga qaror qilindi.

1991 - 2017-yillarda Eron Islom Respublikasi



XX asr oxirlarida Eron. XX asrning ikkinchi yarmi Eron jamiya tida ijtimoiy-

iqtisodiy va siyosiy beqarorlik davri bo'ldi. Ammo aynan shu davrda mamlakat uchun eng muhim voqealar sodir bo'lib, ular ma'lum ma'noda zamonaviy Eronning taraqqiyot yo'lini belgilab berdi.

Shu davrda Eron Islom Respublikasida muhim siyosiy jarayonlar yuz berib, jahon tarixida ilk bor inqilobiy islom XX asrda butun islom sivilizatsiyasi oldida turgan muammolarni hal qilishning vositasiga aylandi. Islom dini Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada juda qudratli ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi va ushbu mintaqalarda G'arb qadriyatlarining joriy qilini shiga faol qarshi turmoqda.

1990-yillar boshlarida Eronning iqtisodi ham barqarorlashib, YIM ning jadal o'sishiga olib keldi. Islom radikalizmi ham biroz susaydi. Eron jahon sport va madaniyat maydoniga qaytdi. 1999-yili Eronning «Osmon bolalari» filmi AQSHda «Oskar» mukofotiga tavsiya qilindi. Mamlakatda chet el musiqasi va internet-kafelarga ruxsat berildi. Ayollar ham faol ijtimoiy hayotga qaytdi.

Eron xalqaro yakkalanishdan qutulish uchun islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi. 1997-yili islohotchilik qarashlarini qo'llab-quvvatlovchi M.Hotamiy prezident etib saylandi. U Eronda demokratik va tolerant jamiyat qurishga qaratilgan islohotlarning boshlanganligini, shuningdek, G'arb mamlakatlari bilan munosabatda ijobiy o'zgarishlar bo'lishini e'lon qildi. Ammo islohotlarni amalga oshirishda Muhammad Hotamiy mutaassiblarning qat'iy qarshiligiga duch keldi.

Zamonaviy Eron. 2001-yil 11-sentabr kuni Nyu-Yorkda amalga oshirilgan terrorchilik aktidan so'ng AQSH Eronni «xalqaro terrorizmning sherigi» deb atadi. Bu tamg'adan qutulish uchun Eron ancha ishlarni amalga oshirdi. «Hizbulloh» rahbarlari Erondan quvib chiqarildi, Sudan, Liviya, Bosniyadagi eronlik diniy maslahatchilar chaqirib olindi.

Ammo, shunga qaramasdan, AQSH Eronni yashirin ravishda yadro quroli yaratish ustida ish olib borayotganlikda aybladi. 2002-yili AQSH prezidenti J.Bush Eronni «yovuzlik tayanchi» mamlakatlari qatoriga qo'shib, terrorizmni moliyalashtirishda aybladi. AQSH Eronni xalqaro izolatsiya qilishga harakat qildi. Ammo bu harakat Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya tomonidan

ma'qullanmadi hamda Eronga harbiy texnika yetkazib berayotgan va atom elektrostansiyasini qurayotgan Rossiyaning qarshiligiga uchradi.

2005-yili ultrakonservator Mahmud Ahmadinajodning prezident etib saylanishi Eronda islohotlarning bori shini, mamlakatning jahon hamjamiyatiga qaytishini biroz susaytirdi. M. Ahmadinajod o'zidan oldingi prezidentlarning bir qator liberal islohotlarini to'xtatib qo'ydi.

Humayniy vafotidan so'ng Eronda saqlanib qolayotgan teokratik rejim yanada kuchaydi. Islom huquqiga (shariatga) asoslangan qonunlar inson huquqlari bo'yicha qator muammolarni vujudga keltirdi. Masalan, shu davrda Eron o'lim jazosini amalga oshirish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda (Xitoydan so'ng) turardi. 2006-yili mamlakatda ikki yuzdan oshiq kishi, jumladan, yetti nafar balog'at yoshiga yetmagan bolalar qatl qilindi. Tashqi siyosatda M. Ahmadinajod konservativ qarashlarga amal qildi. U J. Bush ma'muriyatini keskin tanqid qildi, Eronning arab mamlakatlari va Rossiya bilan hamkorligini kuchaytirish tarafdori bo'ldi.

2009-yili navbatdagi prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. Saylovlarda amaldagi prezidentdan tashqari yana uch nafar nomzod qatnashdi. Asosiy kurash konservator-prezident M. Ahmadinajod bilan islohotlar va'da qilayotgan Mir-Husayn Musaviy o'rtasida kechdi. Ammo birinchi turdayoq M. Ahmadinajod g'alaba qozondi. Muxolifat saylovlar natijasini tan olmadi. Tehron va boshqa bir qator shaharlarda namoyishlar va politsiya bilan to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Ayrim muxolifatchi partiyalarning a'zolari qamoqqa olindi.

Mavjud muammolarga qaramasdan, XXI asrda Eron qashshoqlik, savodsizlik va jaholat botqog'iga botgan mamlakatga mutlaqo o'xshamaydi. Zamonaviy Eron - O'rta Sharqning eng yirik iqtisodiyotiga ega bo'lgan industrial mamlakat. U 2009-yili Semnondagi kosmodromdan Safir- 2 raketasi yordamida o'zining «Umid» nomli sun'iy yo'ldoshini fazoga chiqarib, koinotni o'zlashtirayotgan davlatlar qatoridan o'rin egalladi.

Eronda ta'lim va fan rivojlangan, urbanizatsiya darajasi 70 % ga yaqinlashmoqda, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimi yaxshi yo'lga

qo'yilgan. Eron yoshlar mamlakati, aholisining yarmini 30 yoshdan kichik bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Eronning zamonaviy muammolari ichida eng dolzarblari ishsizlik va inflatsiya darajasining yuqoriligi bo'lib kelmoqda.

2013-yil iyun oyida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida Hasan Ruhoniyni g'alaba qozonishi Eronda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlarni ifoda etadi. Eronning jahon hamjamiyatiga to'laqonli integratsiyalashuviga to'siq bo'lib turgan yadroviy dasturi ham o'n yildan oshiq davom etgan muzokaralardan so'ng 2015-yil iyulda Eron bilan oltita davlat (AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) vakillari tomonidan imzolangan kelishuv orqali hal qilindi. Eron 15 yil ichida boyitilgan uran ishlab chiqarmaydigan, evaziga G'arb davlatlari 2015-yil oxiridan boshlab unga qarshi qo'llanilgan sanksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qiladigan bo'ldi. Shunday sharoitda, 2016-yil fevral oyida Eronda parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Saylovlarda islohotchilar koalitsiyasi konservatorlardan ko'proq ovoz oldi. Bu mamlakatdagi ijobiy o'zgarishlar uchun yaxshi asos bo'lib, prezident Hasan Ruhoniy obro'yining yuqoriligini namoyish qildi.



Tolerantlik - bu o'zgacha dunyoqarash, hayot tarzi, xulq-atvor, axloq va urf-odatlariga nisbatan sabr-bardoshli bo'lish.

Izolatsiya - xalqaro hamjamiyatdan ajratib qo'yish, yakkalesh.

Ultrakonservator - bu keskin konservativ qarashlarga ega bo'lgan mutaassib kishi.



I. Bilimlarni sinash

1. Prezident M. Hotamiy demokratik islohotlarni o'tkazishda qanday qarshiliklarga uchradi?
2. 2001-yil 11-sentabrdan so'ng Eron bilan AQSH o'rtasidagi munosabatlarda muammolarning kuchayishiga nimalar sabab bo'ldi?
3. M. Ahmadinajodning ultrakonservativ siyosati Eron jamiyatida qanday muammolarni keltirib chiqardi?

4. 1990-yillar oxiri-2000-yillari Turkiyadagi siyosiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni nimalardan iborat?
5. Turkiyadagi siyosiy jarayonlarda islom omili qanday rol o'ynaydi?
6. Turkiyaning iqtisodiy rivojlanishida qanday muammolar mavjud?
7. Yaqin Sharqdagi voqealar Turkiyaning tashqi siyosatida qanday rol o'ynamoqda?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1999- 2000-yillari AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar Iroq harbiy obyektlarini bombardimon qildi ular qaysi davlatlar edi?
2. Iroqda 2005-yili qabul qilingan konstitutsiyaga binoan qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. ISHID ning paydo bo'lish sabablarini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun

Turkiya va Eronning o'xshash tomonlarini ven diagrammasiga joylashtiring

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “Diktator”, “ultrakonservator”, “aviabaza” atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan Iroqning Eronning qaysi hududiga bostirib kirganligini ko'rsating.

V. Ijodiy vazifa

Zamonaviy Eronning yutuq va muammolari haqida so'zlab bering.

43-§. 1991-2017-yillarda Pokiston va Afg'oniston



Pokiston. 1990-yillari Pokistonda qizg'in siyosiy jarayonlar va hokimiyatning yuqori pog'onasida korrupsiya bilan bog'liq mojarolar davom etdi. Benazir Bxutto hukumati iste'foga chiqarilgandan so'ng 1990-yili o'tkazilgan saylovlarda g'olib chiqqan Musulmon ligasi partiyasining rahbari Navoz Sharif hokimiyatni boshqardi. Ammo 1993-yili prezident G'ulom Is'hoqxon yangi hukumatni ham korrupsiya va qarindosh-urug'chilikda ayblab, iste'foga chiqardi. Shu yili bo'lib o'tgan saylovlarda g'olib chiqqan B.Bxutto yana bosh vazir lavozimini egalladi. Ammo 1996-yili prezident Sardor Farruk Ahmadxon Legariy Milliy assambleyani

tarqatib yubordi va B.Bxutto hukumatini yana iste’foga jo’natdi. O’tkazilgan parlament saylovlarida Pokiston xalq partiyasi (PXP) qaqshatqich mag’lubiyatga uchradi.

1999-yil kuzda Pokistonda yana harbiy to’ntarish amalga oshirilib, hokimiyatga general Parvez Musharraf boshchiligidagi harbiy qo’mondonlik keldi.

U Pokistonni “mo’tadil, ma’rifatli, demokratik va jadal rivojlanayotgan musulmon davlatiga” aylantirish tarafdori edi.

2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkda yuz bergan terrorchilik aktidan so’ng Pokiston terrorchilikka qarshi AQSH boshchiligidagi tuzilgan koalitsiyaga qo’shildi. Biroq, ko’plab pokistonliklar nazarida AQSH terrorchilarga emas, musulmonlarga qarshi kurashga kirishdi. AQSH bilan yaqinlashish kursini tanlagan P.Musharrafga qarshi suiqasdlar uyushtirildi. U jinoyatlarda terrorchilarni aybladi va mamlakatni ulardan tozalashga va’da berdi.

2003-2005-yillari Pokiston armiyasi AQSH yordamida qo’shni Afg’oniston hududida harbiy operatsiyalar olib bordi. Islom fundamentalislari esa P.Musharrafni dushman deb e’lon qilib, uni ag’darib tashlashga va’da berdi. Ko’pchilikning fikricha, P.Musharraf mamlakatda holatni barqarorlashtirishga erisha olmadi va iste’foga chiqishga majbur bo’ldi. 2008-yilgi saylovlarda PXP hamraisi Asif Ali Zardariy prezident etib saylandi. 2013-yilgi parlament saylovlaridan so’ng Muhammad Navoz Sharif bosh vazir lavozimini egalladi.

Pokiston rivojlanayotgan agrar-industrial mamlakat. U BRIKS davlatlari bilan bir qatorda, XXI asrda dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biriga aylanish imkoniyatiga ega bo’lgan o’n bitta mamlakat qatoriga kiradi.

Hozir aholining katta qismi qishloq xo’jaligi bilan shug’ullanadi. Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlarga to’qimachilik, teri mahsulotlari, sport buyumlari, kimyoviy moddalar va gilamlar kiradi.

Sanoatning qayta ishlash, neft, tog’-kon sohalari rivojlanmoqda. SHHTning 2016-yili Toshkentda bo’lib o’tgan sammitida Pokistonni tashkilotga qabul qilish tartibi va muddatlari to’g’risidagi hujjat imzolandi.

Afg'oniston. SSSR tarqalib ketgandan so'ng Afg'onistonda holat ancha og'irlashdi. 1992-yil aprel oyida Kobul shahriga mujohidlar otryadlari kirib keldi.

Afg'onistonda hokimiyatni Jihod kengashi deb atalgan guruh o'z qo'liga oldi. Mamlakat nomi Afg'oniston Islom Respublikasi deb o'zgartirildi, barcha qonunlar bekor qilinib, shariat qoidalarini joriy qilindi. Ammo mujohidlar o'rtasida boshlangan kelishm ovchilik yangi urush harakatlariga olib keldi, minglab kishilar halok bo'ldi, elchixona va xalqaro missiyalar Afg'onistonni tark etdi. 1994-yili mojaroga yangi siyosiy kuch - islom fundamentalistlarining tolibonlar harakati qo'shildi. Ularning yetakchisi mulla Umar Afg'onistonda fuqarolar urushini tugatib, islomiy tartib o'rnatishini e'lon qildi. Ular 1996-yil sentabrda Kobulni egallab, mamlakatni «Afg'oniston Islom amirligi» deb e'lon qildi. Tolibonlar Afg'onistonda qat'iy islomiy tartiblarni o'rnatishni boshladi. Ayni paytda bu yerda turli xil terrorchilar qo'nim topdi. Tolibonlar rejimi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan xalqaro terrorchi Usoma bin Ladin ham Afg'onistonga keldi. U terrorchilar tayyorlash uchun harbiy bazalar va lagerlar tizimini yaratdi. Tolibonlar rejimi Usoma bin Ladinni xalqaro sudga topshirishdan bosh tortgandan so'ng BMT Xavfsizlik Kengashi (XK) Afg'onistonga qarshi iqtisodiy sanksiyalar e'lon qildi.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishdan umidini uzgan mulla Umar islomgacha bo'lgan barcha e'tiqod obyektlari, tarixiy yodgorliklarni yo'q qilishga buyruq berdi. V asrga oid ikkita noyob yodgorlik-qoyaga o'yib ishlangan Buddaning ulkan haykallari yo'q qilindi. Musulmon bo'lmagan aholining o'z kiyimiga sariq belgi taqib yurishi haqida qabul qilingan dekret jahon jamoatchiligining g'azabini keltirdi. BMT XK tolibonlar hukumatiga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish to'g'risida yangi rezolutsiya qabul qildi.

2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkda uyushtirilgan terrorchilik aktlari uchun javobgarlikni AQSH ma'muriyati «Al-Qoida» tashkiloti bilan Usoma bin Lodinga yukladi va terrorchilarning bazalarini bombardimon qildi. Tolibonlar qo'shinlariga qarshi kuchlarning muvaffaqiyatli hujumlaridan so'ng tolibonlar hukumati ag'darilib, mamlakatga xalqaro harbiy kuchlar joylashtirildi.

2001-yil dekabrda Germaniyaning Bonn shahrida afg'on partiyalarining konferensiyasi bo'lib o'tdi va u mo'tadil siyosatchi Homid Karzay boshchiligida Afg'onistonning muvaqqat hukumatini tuzishga qaror qildi. 2002-yilda **Loya Jirg'a** (qabila yetakchilari va ruhoniylari milliy assambleyasi) uni ikki yilga Afg'oniston prezidenti etib sayladi.

2003-yili Afg'onistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Mamlakat «Afg'oniston Islom Respublikasi» nomini oldi. Yangi konstitutsiya mamlakatda prezidentlik boshqaruvini o'rnatdi, ikki palatali parlament, mustaqil sud tizimi tuzilishini ko'zda tutdi, shuningdek, fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini e'lon qildi. Konstitutsiya kichik millatlarning huquqlarini kafolatladi, barchaning, jumladan, erkak va ayollarning qonun oldida tengligini va e'tiqod erkinligini o'rnatdi. Konstitutsiya saylovlar va siyosiy partiyalar tuzish uchun yo'l ochib berdi. 2004-yilda Afg'onistonda mamlakat tarixidagi birinchi umumiy prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi va unda H.Karzay g'alaba qozondi.

2005-yilda Afg'onistonda parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Parlamentdagi aksariyat o'rinlarni H.Karzay tarafdorlari qo'lga kiritdi. Biroq ular bilan birga parlamentga "Tolibon" harakati vakillari va XDPning sobiq yetakchilari ham saylangan.

Pokiston hududiga chekinishga majbur bo'lgan Tolibon Afg'onistonda hokimiyatni tiklashga urinishlaridan voz kechmadi. 2003-yildan boshlab ular mamlakat janubi va sharqidagi hududlar ustidan nazoratni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi.

2006-yil oktabr oyida prezident Homid Karzay Tolibon rahbariyatiga muzokaralarni boshlash taklifi bilan murojaat qildi. Biroq Tolibon yetakchisi M.Umar bu taklifni rad etib, toliblar mamlakatda xorijiy qo'shinlar turgan paytda hech qanday muzokara olib bormasligini aytdi.

2014-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarining ikkinchi turida Muhammad Ashraf G'ani Afg'oniston prezidenti, Abdulla Abdulla esa hukumat raisi lavozimlarini egalladi.



Ashraf G'ani.

Ammo Afg'onistonda hamon mustahkam tinchlik o'rnatilgani yo'q.

2016 - 2017-yillari bir qator terrorchilik harakatlari amalga oshirilib, oqibatda o'nlab kishilar halok bo'ldi, yuzlab kishilar jabrlandi. Afg'onistonning sobiq prezidenti Homid Karzay bayonot berib, mamlakatdagi beqaror ahvolning sababi sifatida mintaqada AQSH olib borayotgan siyosatni ko'rsatdi va AQSH hukumatini o'z xatolarini tan olishga chaqirdi.



I. Bilimlarni sinash

1. Pokistonda P.Musharrafning qanday siyosati uning iste'fosiga sabab bo'ldi?
2. Pokistonda iqtisodiyotning qaysi sohalari yaxshi rivojlangan?
3. SSSR tarqalib ketgandan so'ng Afg'onistonda qanday siyosiy vaziyat vujudga keldi?
4. Zamonaviy Afg'onistonning asosiy muammolari nimalardan iborat?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng Afg'onistonga xalqaro harbiy kuchlar joylashtirildi ular qaysi davlatlar edi?
2. Afg'onistonda 2003-yili qabul qilingan konstitutsiyaga binoan qanday o'zgarishlar bo'ldi?



III. Guruh muhokamasi uchun

1973-yildan 2003-yilgacha bo'lgan davrda Afg'oniston davlatining nomlarini sanab o'ting va ularning o'zgarishi sabablarini tushuntiring.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "Jirg'a", "islom fundamentalizmi" atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan Kashmir hududini ko'rsating. U yerda qanday muammo mavjud edi?

V. Ijodiy vazifa

Afg'onistondagi mojaroni hal qilishning qanday yo'llarini ko'rasiz? Takliflaringizni slaydda qayd eting va uni himoya qiling.



Suriya. 1943-yili Suriya o'z mustaqilligini e'lon qildi. Bugun u shu qisqa tarix davomidagi eng chuqur siyosiy inqirozni boshdan kechirmoqda.

1970-yili harbiy to'ntarish orqali hokimiyatga kelgan Hafiz Asad Suriyani 2000-yilgacha boshqardi. Shu davrda mamlakat katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Neft va gaz zaxiralari ishga tushirildi, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlandi, aholi soni ko'payib, yashash darajasi yaxshilandi. Ammo 1990-yillarda iqtisodda turg'unlik boshlandi. Buning sabablari shu davrda yuz bergan sotsialistik tizimning inqirozidan tashqari Suriyada Bashar Asadning yangi tarixidagi eng dahshatli qurg'oqchilik bilan ham bog'liq edi.

Shunday holatda 2000-yili H. Asad vafot etdi. Mamlakatda o'tka zilgan referendum natijasida hokimiyatga H.Asadning o'g'li Bashar Asad keldi.

B. Asad otasidan farqli ravishda tashqi siyosatda «yumshoq» kurs olib bordi. Isroil bilan Jo'lan tepaliklari masalasida muzokaralarni tikladi. 30 yildan beri Livanda turgan Suriya qo'shinlarini u yerdan olib chiqdi. Iroq diktatori Saddam Husayn bilan yarashdi.

Ichki siyosatda siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat berdi, korrupsiyaga qarshi juda keskin choralar qo'lladi. Ayni paytda otasi hukmronlik qilgan davrni tanqid qilgan amaldorlarni ham jazoladi.

Iqtisoddagi turg'unlikni B.Asad savdo va moliya sohasini liberallashtirish orqali yengib o'tishga urindi. Ammo bu faqat Damashq va Halab singari yirik shaharlarda iqtisodning jonlanishiga olib keldi. Qishloqlar va kichik shaharlarda esa ishsizlar soni ortib ketdi. Bundan tashqari, shu davrda qo'shni davlatlardan kelgan qochoqlar ham Suriyaning katta muammosiga aylandi. 2011-yili Suriyada yarim millionga yaqin falastinlik va bir milliondan oshiq iroqlik qochoqlar bor edi.

2000-yillari arab mamlakatlarida boshlangan «Arab bahori» nomli inqilobiy jarayonlar Suriyani ham qamrab oldi. 2011-yili mamlakatning janubidagi Dar'ya shahrida juma namozidan so'ng boshlangan g'alayonlar «Juma inqilobi» nomini oldi. Isyonchilar B.Asad rejimini ag'darish, demokratik islohotlar o'tkazishni talab qildilar.

Mojaroda amaldagi prezident B.Asad tarafida Suriya arab armiyasi va unga qarshi bo'lgan Suriya «mo'tadil» muxolifatining Suriya ozodlik armiyasi, kurdlar otryadlari, shuningdek, turli xil terrorchi tashkilotlar - «Iroq va Shom islom davlati» (ISHID), Jibhat an-Nusra va shu kabilar ishtirok etdi. Shu tariqa mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib, arab mamlakatlaridan, butun dunyodan kelgan turli xil terrorchi guruhlar hukumat qo'shinlari bilan jang olib bormoqda.

2013-yili Iroq va qisman Suriya hududida terrorchi guruhlar «Iroq va Shom islom davlati» deb ataluvchi davlatni tuzdi. 2014-yili u «Umumjahon xalifati» deb e'lon qilindi. Bu hol AQSH va uning ittifoqchilarini harbiy intervensiyani amalga oshirishga undadi. Ular 2014-yil sentabrdan boshlab Suriyadagi terrorchilar pozitsiyalarini bombardimon qilmoqda. 2015-yil sentabrdan xuddi shunday harbiy operatsiyani o'tkazishda Rossiya harbiy-kosmik kuchlari ham ishtirok etmoqda. Mojaroda Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Iroq, Livan, Isroil kabi davlatlarning ham manfaatlari namoyon bo'lmoqda. Shu tariqa Suriya hududi juda katta, har biri o'z manfaatini ko'zlagan xalqaro kuchlarning to'qnashuv maydoniga aylandi.

Urush oqibatida 2017-yil sentabr oyigacha mamlakatni 4 mlndan oshiq kishi tark etgan. 2017-yil oxiriga kelib, Suriya armiyasi Rossiya harbiy-kosmik kuchlari va AQSH boshchiligidagi xalqaro koalitsiya yordamida mamlakat hududini jangarilardan deyarli to'liq ozod qildi. Aholining bir qismi o'z uylariga qaytmoqda. Dekabr oyida V. Putin Suriyadagi Rossiya harbiy-kosmik kuchlarining asosiy qismini o'z hududiga qaytarish to'g'risida buyruq berdi.



[Iroq.](#) 1932-yili o'z mustaqilligini e'lon qilgan Iroqda 1968-yili hokimiyatga

Arab sotsialistik uygʻonish (BAAS) partiyasi keldi. Hukumatni prezident Hasan al-Bakr boshqardi, ammo real hokimiyat mudofaa vaziri Saddam Husayn qoʻliga oʻtdi. Bu jarayonlar Iroqqa neftdan keladigan daromadning beqiyos oshishi davriga toʻgʻri keldi. Aholining hayot darajasi sezilarli yaxshilandi.

1979-yili Saddam Husayn rasman Iroq prezidenti etib saylandi. 1980-yil sentabrda Iroq Eronga qarshi urush boshladi. Bu urush XX asrning eng uzoq davom etgan hududiy toʻqnashuvi boʻldi. U koʻplab qurbonlarga olib keldi.

1990-yili Iroq yana bir xalqaro janjalga sabab boʻldi. U Quvaytga bostirib kirib, uning hududini ketilishini talab qildi. Iroqqa qarshi sanksiya eʼlon qilindi. Bir necha oylik diplomatik harakatlardan soʻng 1991-yil yanvarda AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar Quvaytni ozod qilish boʻyicha *«Sahrodagi boʻron»* operatsiyasini boshladi. Iroq armiyasi toʻliq tor-mor qilindi. Kuzatuvchilar S.Husaynning qulashini bashorat qilgandilar, biroq u oʻz hokimiyatini saqlab qoldi.

Hokimiyatni mustahkamlab olib, S.Husayn BMTning Iroq harbiy dasturlarini toʻxtatishga yoʻnaltirilgan urinishlariga qarshilik koʻrsatdi. U BMT inspektorlarini AQSH foydasiga josuslik qilishda aybladi va barcha xalqaro inspektorlarni mamlakatdan quvib chiqardi. Shundan soʻng, 1999 - 2000-yillari AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar Iroq harbiy obyektlarini bombardimon qildi. 2003-yili AQSH va Buyuk Britaniya qoʻshinlari Bagʻdodga bostirib kirdi. S. Husayn hukumati quladi. Amerikaliklar va ularning ittifoqchilari butun mamlakat hududida oʻz nazoratini oʻrnatdi. Ular S.Husaynning ikki oʻgʻli va yosh nabirasini oʻldirishdi. 2003-yil dekabrda S.Husaynning oʻzi ham qoʻlga olindi va osib oʻldirildi.

Diktator oʻldirildi. Ammo vaʼda berilganidek Iroqda demokratiya va tinchlik oʻrna tilmadi. AQSH va uning ittifoqchilari Iroqdagi vaziyatni jilovlayolmadilar. Terrorchilik harakatlari avj oldi. Bularning natijasida koʻplab begunoh odamlar qurbon boʻldi.

2005-yili qabul qilingan konstitutsiyaga binoan Iroq uning xalqini tashkil qiluvchi uchta etnos - arab-sunniylar, arab-shialar va kurdlar kelishuviga asoslangan parlamentar federativ respublika deb eʼlon qilindi.

S.Husayn paytida hokimiyatda bo'lgan sunniylar endi muxolifatga o'tdi. Ammo 2010-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida kutilmaganda muxolifatdagi sunniylar g'alaba qozondi. Biroq, joylarda real hokimiyat turli qurolli guruhlar qo'lida qoldi. Ular o'zlari egallagan hududda shariat qonunlarini joriy qilib, minglab begunoh kishilarni o'rta asrchilik usullari bilan qatl qildi. Millionlab kishilar qochoqqa aylandi.

AQSH hukumati, jumladan, prezident B. Obama AQSHning Iroqqa nisbatan siyosati xato ekanligini tan oldi. Ko'pchilik mutaxassislar aynan Amerika siyosati Yaqin Sharqda vaziyatning keskinlashuviga, ISHID singari terrorchi tashkilotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, deb hisoblashmoqda. 2016-yil dekabrda AQSH prezidenti etib saylangan D. Tramp Yaqin Sharqdagi o'z siyosatini qayta ko'rib chiqishga va'da berdi.



I. Bilimlarni sinash

1. Suriya va Iroq davlatlari tashkil topishi haqida gapirib bering.
2. Suriyada siyosiy inqirozning kelib chiqishi va fuqarolar urushining boshlanishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
3. Suriyadagi urushda qaysi davlatlarning manfaatlari aks etgan?
4. Saddam Husaynning qanday harakatlari Iroqning xalqaro kuchlar tomonidan bombardimon qilinishiga olib keldi?
5. S.Husaynning ag'darilishi nima uchun Iroqqa tinchlik olib kelmadi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. 1999- 2000-yillari AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar Iroq harbiy obyektlarini bombardimon qildi ular qaysi davlatlar edi?
2. Iroqda 2005-yili qabul qilingan konstitutsiyaga binoan qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. ISHIDning paydo bo'lish sabablarini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun



Suriya va Iroqdagi aholini boshqa davlatlarga ko'chib ketish yuqoriligini qanday baholaysiz.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. “diktator”, “«yumshoq» kurs”, “federativ respublika” atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan Suriyadagi urushda qatnashgan davlatlarni ko'rsating.

V. Ijodiy vazifa

Yaqin Sharqdagi mojaroni hal qilishning qanday yo'llarini ko'rasiz?

45-§. 1991-2017-yillarda Isroil davlati va Falastin muammosi

1991 - 2017-yillarda Isroil davlati va Falastin muammosi



Isroilning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. 1947-yili BMT Xavfsizlik Kengashi Falastin bo'yicha rezolutsiya qabul qildi. Unga binoan 1948-yil 1-avgustdan Falastinda ikkita - yahudiylarning Isroil va arablarning Falastin davlatlarini tashkil qilish tavsiya etildi.

Isroil yahudiylarning milliy davlati hisoblanadi. U dastlab yahudiylarning milliy o'chog'i, boshpanasi sifatida tashkil topdi va shunday bo'lib qolmoqda. Vatanga qaytish to'g'risidagi qonunga binoan har qanday yahudiy o'z oilasi, ya'ni turmush o'rtog'i, farzandlari, nabiralari bilan doimiy yashash uchun Isroilga kelish huquqiga ega. Shundan so'ng qabul qilingan fuqarolik to'g'risidagi qonunga ko'ra Isroilga kelgan barcha yahudiylar o'z-o'zidan fuqarolikka ega bo'lishi tartibi o'rnatildi. Bu qonunlar repatriatsiya hisobiga Isroil aholisining tez o'sishiga olib keldi. O'z mustaqil taraqqiyotining bir necha o'n yili ichida Isroil harbiy-sanoat kompleksi nihoyatda rivojlangan mamlakatga aylandi.

Harbiy-sanoat kompleksining rivojlanishi metallga ishlov berish, mashinasozlik, elektrotexnika, elektronika va olmosga ishlov berish singari boshqa turdosh sohalarining ham jadal taraqqiy etishiga sabab bo'ldi.

1990-yillardan Isroil iqtisodi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirdi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bu mamlakatda haqiqiy iqtisodiy yuksalish boshlandi. Isroil xo'jaligi o'z tuzilishiga ko'ra AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarinikiga yaqinlashdi va postindustrial modelga moslashdi.

Bunday muvaffaqiyatlarga erishishga ichki va tashqi holatlarning qulayligi yordam berdi. 1990-yillari sobiq SSSRdan 600 ming kishining Isroilga ko'chib kelishi qurilish, sanoatning ayrim sohalarida jadal rivojlanishni ta'minladi. Yuqori ma'lumot darajasi va iqtisodiy faollikka ega bo'lgan yangi immigrantlar Isroilning qiyofasini o'zgartirib yubordi.

Ayni paytda ko'plab omillar sababli mamlakat iqtisodiyoti tashqi moliyaviy manbalarga kuchli bog'langan (AQSH har yili 3 mlrd dollar miqdorida beminnat yordam ko'rsatadi) va uning uchun yuqori militarizatsiya darajasi xarakterlidir.



XX asr oxirlarida Falastin muammosining hal etilishi. 1948-yili

Isroil va Falastin davlatini tuzish rejasini arab aholisi adolatsiz deb hisobladi va qabul qilmadi. Shu davrdan boshlab Falastin xalqining o'z davlatini tuzish uchun kurashi boshlandi. Bu kurash arab davlatlari va sobiq Ittifoq tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Falastin arablarining kurashiga boshchilik qilish uchun Falastinni ozod qilish tashkiloti (bu tashkilot arabcha FATX nomi bilan mashhur) tuzilib, unga uzoq yillar Yosir Arofat boshchilik qildi.

Ammo faqat 1990-yillarga kelib, Falastin muammosini hal qilish imkoni paydo bo'ldi. 1991-yil oktabrda Madridda Yaqin Sharq bo'yicha xalqaro konferensiya ish boshladi va unda Falastin delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Keyin Norvegiya hukumati taklifiga ko'ra Oslo shahrida Isroil bilan FATX o'rtasida muzokaralar boshlandi. Muzokaralar natijasida 1993-yili Isroil va FATX bir-birini tan olganligi e'lon qilindi.

1994-yilda u sobiq Falastin hududining bir qismida Falastin ma'muriyati tashkil topganini tan oldi.

Falastin davlatini tuzish yo'lidagi dastlabki muvaffaqiyatlar. 1993-yili Vashingtonda Isroil va FATX delegatsiyalari Falastin avtonomiyasini tuzish to'g'risida kelishuvni imzoladi. Avtonomiyani tuzish bosqichma-bosqich 5 yil ichida amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish G'azo sektori va Iordan daryosining G'arbiy sohilini FATXning avtonom boshqaruviga berish to'g'risida kelishuv imzolanishi bilan boshlandi. Bu kelishuv Falastin tashkilotlarida norozilikni kuchaytirib yubordi va FATXda bo'linish yuz berdi. Y.Arofati ekstremistlar tomonidan «xoin» sifatida o'linga hukm qilindi. Radikal islom yo'nalishidagi tashkilotlar - «Xamas», «Jihod» va «Hizbulloh» (bu tashkilotlar O'zbekistonda taqiqlangan) faollashib ketdi. Ular turli yo'llar bilan kelishuvni buzishga harakat qildi. Shunga qaramasdan, kelishuv jarayoni davom etdi.

1995-yili FATX bilan Isroil o'rtasida muvaqqat kelishuv imzolandi. Bu Falastin avtonomiyasini tuzishning keyingi bosqichi bo'lib, Iordan daryosining g'arbiy sohilidagi ko'plab shahar va qishloqlar FATX ixtiyoriga o'tka zildi. Falastin avtonomiyasida saylovlar bo'lib o'tdi va FATX ixtiyori dagi hududlarni nazorat qilish uchun politsiya kuchlari tuzildi.



I.Rabin, B.Klinton va Y.Arofati.

Bu kelishuv Isroil jamiyatida ham ajralishni keltirib chiqardi. 1995-yil noyabrda Isroil bosh vaziri Isxak Rabin mutaassib-yahudiy tomonidan o'ldirildi. Bu falastinliklarga qilingan yon bosishlardan Isroil jamiyati ning bir qismi noroziligini ko'rsatar edi. Shu yili bo'lib o'tgan saylovlarda «Likud» bloki g'alaba qozondi va Falastinga nisbatan qat'iy yo'nalish tarafdori bo'lgan Binyamin Netanyahu bosh vazir lavozim ini egalladi.

1996-yil yanvarda Y.Arofati boshchiligidagi Falastin qonunchilik kengashi saylandi. Falastin davlatini qurish jarayoni qiyinchilik bilan bo'lsa-da, davom etdi.

2006-yili Falastinning o'ziga xos ramziga aylangan Y. Arofat vafot etdi. Uning o'rniga Mahmud Abbas Falastin avtonomiyasining raisi va FATX yetakchisi etib saylandi. 2006-yilda Falastin hukumati parlament saylovlarida XAMAS g'alaba qozondi. U Isroil davlatini tan olmadi va bir qator mamlakatlarda terrorchi deb topildi.

Bu arab-isroil munosabatlarining yangi keskinlashuviga olib keldi. Shunga qaramay, 2014-yilga kelib, Falastin mustaqilligini BMTga a'zo 135 ta davlat tan oldi.

2012-yili Falastin kuzatuvchi-davlat maqomida BMT faoliyatida qatnashish huquqini oldi. Bu jarayon va M.Abbosning BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqi Isroil vakillari tomonidan norozilik bilan qarshi olindi. Shunga qaramasdan, 2017-yilga kelib esa, Falastinni 140 ga yaqin davlat tan oldi.



Repatriatsiya - bu vatanga qaytish. Atama, odatda, harbiy asirlar, ko'chirilgan shaxslar, qochoqlar, emigrantlarga nisbatan qo'llaniladi. Yahudiylarning tarixiy vatani bo'lgan Falastinga qaytishi ham repatriatsiya deb ataladi.

Immigratsiya - aholining bir mamlakatdan boshqasiga vaqtincha yoki doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi.

Militarizatsiya - bu davlat organlarining iqtisod, siyosat va ijtimoiy sohadagi harakati bo'lib, u davlatning harbiy qudratini oshirishga yo'naltirilgan.



I. Bilimlarni sinash

1. Isroil va Falastin davlatlari tashkil topishi haqida gapirib bering.
2. Isroil davlati qanday sharoitlarda vujudga keldi?
3. Falastin muammosining kelib chiqishi nimalardan iborat?
4. Isroil davlati o'z tarixining qisqa davri ichida qanday omillar hisobiga rivojlangan mamlakatga aylandi?
5. Falastin muammosining asosiy sabablari nimada va ular qanday hal etilmoqda?
6. Falastin davlatini tuzish yo'lidagi asosiy to'siqlar nimalardan iborat edi?

7. Isroil va Falastin munosabatlariga xalqaro siyosiy holatning ta'siri nimalarda namoyon bo'ldi?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Falastin ozodlik harakatiga kim boshchilik qildi?
2. Falastinning mustaqiligini nechta davlat tan oldi?
3. Arab-Isroil mojarosining sabablarini aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun



Falastin mamlakati siyosiy mustaqilik harkatini qanday baholaysiz.

IV. Tarixiy atamalar, geografik xaritalar bilan ishlash

1. "FATX", "Likud", "Repatriatsiya" atama va tushunchalarini izohlang.
2. Xaritadan Isroil bilan urushayotgan arab davlatlarini ko'rsating.

V. Ijodiy vazifa

Arab-Isroil mojarosini hal qilishning qanday yo'llarini ko'rasiz?

46-§. 1991-2017-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari. Afrika mamlakatlari

1991 - 2017-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari



XX asr oxirida Lotin Amerikasi mamlakatlari. XX asr oxiriga kelib Lotin Amerikasi mintaqasida 34 ta mustaqil davlat va bir necha qaram hududlar mavjud edi. XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan jadal iqtisodiy o'sishga qaramasdan, Lotin Amerikasi mamlakatlari jahon siyosatining chekka mintaqasi bo'lib qolmoqda. Asr oxiriga kelib mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning neoliberal modeli oldingi o'ringa chiqdi. Aslida bu model Augusto Pinochet davrida **Chilida** muvaffaqiyatli amalga oshirilgan edi. Bugun ham Chili barqaror rivojlanayotgan mamlakat bo'lib, mintaqada yetakchi o'rinni egallaydi. Ammo, umuman, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun neoliberal islohotlarning natijalari ziddiyatli bo'lib chiqdi. Agar bu islohotlarning birinchi bosqichi iqtisodiy o'sishga

turtki bo'lgan, modern izatsiyaga ko'maklashgan bo'lsa, keyinchalik to'siqlar paydo bo'ldi, ayrim hollarda esa islohotlar retsessiyaga, xo'jalikning chuqur tushkunligiga olib keldi.

Mintaqada birinchi bo'lib neoliberal islohotlar yo'liga kirgan **Meksikada** 1994-yil dekabrda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshlandi. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashdi. Shunday sharoitda Meksikadan kapitalning ommaviy ravishda AQSHga ko'chishi boshlandi. Milliy valuta - peso keskin tushib ketdi, amalda milliy moliya tizimi izdan chiqdi, 20 ming korxona xonavayron bo'ldi, mamlakat YIMi keskin tushib ketdi.

1991-yilda Braziliya, Argentina, Urugvay, Paragvay va Venesuela umumiy bozorni yaratish to'g'risida shartnoma imzoladilar.



Lotin Amerikasi umumiy bozorga kirgan davlatlar.

1994-yilda AQSh, Kanada va Meksika o'rtasida Shimoliy Amerika erkin savdo hududi to'g'risidagi bitim kuchga kirdi.

Meksika inqirozi 1990-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarini larzaga solgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlar zanjirining birinchisi edi. Neoliberal islohotlar oqibatida mintaqada davlatlarining tashqi omilga qaram bo'lib qolishi Braziliya va Argentina kabi eng yirik davlatlar iqtisodiga ham og'ir zarba berdi.

Ayniqsa, 1990-yillari «neoliberal islohot yutuqlarining namoyishi» bo'lgan **Argentina** iqtisodiyoti qattiq zarar ko'rdi. 2001-yili Argentinada defolt e'lon

qilinishi jahon tarixidagi eng yirik bankrot holati bo'lib, Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi neoliberal tajribalarga nuqta qo'ydi va mintaqada siyosiy hamda iqtisodiy rivojlanishning yangi davrini boshlab berdi.

Bu jarayonlar ta'sirida iqtisodiy kursdan norozilik, an'anaviy partiyalar va ularning yetakchilariga ishonchsizlik hollari kuchaydi, qarshilik harakati, jumladan, radikal ko'rinishdagi tashkilotlarning (qo'zg'olonchilik, terrorchi tashkilotlar, narkomafiya) faollashuvi uchun sharoit tug'ildi.

XX asrning 90-yillarida **Kolumbiyada** qurollangan so'l radikal harakat avj olib, ularning qo'shinlari mamlakat hududining 40% ini nazorat qilardi. 1992-yili **Peruda** ham «Oydin yo'l» qo'zg'olonchiterrorchilik tashkiloti faol lashdi. 1994-yili Meksikada hindularning ommaviy qo'zg'oloni boshlandi. Hukumat siyosatining ijtimoiy oqibatlariga qarshi Argentina, Meksika, Ekvador va boshqa bir qator mamlakatlarda aholining ommaviy chiqishlari bo'lib o'tdi.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda hindu xalqlarining o'z huquqlari, o'ziga xos madaniyatini saqlab qolish, avtonomiya va yerga bo'lgan huquqi uchun kurashi alohida o'rin egallaydi. XX asr oxiriga kelib hindular Boliviya, Gvatemala, Peru, Meksika, Ekvador kabi mamlakatlar aholisining 25 - 50 % ini tashkil qiladi.

1990-yillarning boshlarida X.Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilganiga 500 yil to'lishi keng nishonlandi. Ammo bu voqea mintaqa aholisi tomonidan bir xilda ijobiy qabul qilinmadi. Sof madaniy muammolardan tashqari neoliberal islohotlar natijasida hindu jamoalarining yerlarini tortib olish hollaridan norozilik kuchaydi. Hukumatlarning hindu aholisiga nisbatan olib borgan adolatsiz siyosati oqibatida mintaqaning ayrim mamlakatlarida hindularning tartibsiz chiqishlari bo'lib o'tdi. Bu harakat Ekvador, Boliviya, Peru, Braziliyada va Meksikaning janubida ayniqsa ommaviy tus oldi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari XXI asr boshlarida. Yangi asr boshiga kelib Lotin Amerikasi mamlakatlari o'z tarixida birinchi marta diktaturalarsiz rivojlanish yo'liga kirdi, deyarli barcha davlatlarda saylov yo'li bilan hokimiyatga konstitutsiyaviy rejimlar keldi. Mintaqa mamlakatlarining mutlaq ko'pchiligida

o'ziga xos jihatida dohiyparastlik va populizm bo'lgan siyosiy tizim hamda prezidentlik boshqaruvi o'rnatildi.

XX asr oxiridan boshlab aholining an'anaviy partiyalarga ishonchi so'nib bordi va buning natijasida XXI asr boshida Braziliya, Peru, Venesuela, Ekvador kabi mamlakatlarda hokimiyatga yangi, mustaqil deb atalayotgan nomzodlar keldi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida mintaqadagi mamlakatlar siyosiy hayotining boshqa bir xarakterli jihatida kommunistik partiyalarning o'z mavqeyini yo'qotishi bo'ldi. Bu, albatta, dunyoda yuz berayotgan global jarayonlar bilan bog'liq edi.

1959-yilgi inqilobdan so'ng o'ziga xos kommunistik siyosiy rejim shakllangan Kubada ham shunday jarayonlar yuz berdi. Sotsialistik tizim barbod bo'lgandan so'ng Kuba tashqi moddiy-texnik va moliyaviy yordamdan mahrum bo'ldi, bu esa, birinchi navbatda, aholining ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ammo bu qiyinchiliklarga qaramasdan, XXI asrda ham Kuba ijtimoiy davlat bo'lib qolmoqda.

XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari kuchaydi. Bu jarayonlarning asosiy yo'nalishi mintaqaviy erkin savdo zonalarini tuzish bo'ldi. Kelajakda Shimoliy va Janubiy Amerika miqyosidagi erkin savdo zonalarini tuzish, savdo va sanoatini rivojlantirish mo'ljallangan.

Ammo yirik rejalar va katta imkoniyatlarga qaramasdan, bu mamlakatlar, hatto Braziliya va Meksika kabi gigantlar ham bugun global siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonida arzigulik ta'sirga ega emas. 2008-yildan mintaqadagi eng yirik uchta davlat - Braziliya, Meksika va Argentina G-20 («Katta yigirmalik») obro'li klubiga a'zo bo'lsa-da, jahon siyosatida hali katta rol o'ynamaydi. Shunga qaramasdan, bu davlatlar katta istiqbolli imkoniyatlarga ega. Masalan, Meksika 1994-yili Shimoliy Amerika erkin savdo zonasiga kirdi va 1994- 2010-yillari Meksikaga kiritilgan chet el investitsiyalari miqdori to'rt marta o'sdi. Shuning 75 % i AQSH ulushiga to'g'ri keladi. Agar yaqin o'tmishda eksportning asosini neft tashkil qilgan bo'lsa, hozir Meksika eksportining 80 % ini sanoat mahsulotlari tashkil qiladi.

Braziliya bugun dunyoning yirik iqtisodiyotlaridan biri, jadal rivojlanayotgan Xitoy, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi va Rossiya bilan birgalikda BRIKS tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Braziliya XXI asrda Lotin Amerikasining tan olingan yetakchisiga aylanish, AQSHning doimiy ta'siridan butunlay qutulish va BMT XKning doimiy a'zolaridan biri bo'lish kabi olamshumul vazifalarni qo'yib, shunga intilmoqda.

Aytish lozimki, Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asrda o'z oldilariga qo'ygan murakkab muammolarni to'liq hal qila olmadi, ammo buning yo'llarini qidirishda davom etmoqda. XXI asrda bu muammolar o'z yechimini qanday topishini hayot ko'rsatadi.

Rivojlanishning neoliberal yo'li Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun qanday ahamiyat kasb etdi va qanday muammolarni keltirib chiqardi?

Shimoliy Afrika. Shimoliy Afrika mamlakatlariga Misr, Sudan, Liviya, Jazoir, Tunis, Marokash, Mavritaniya va G'arbiy Sahroyi kabir kiradi.




Panafrika xarakatlarida qanday talablar ilgari surilgan edi?

Misr sivilizatsiyaviy jihatdan ko'proq Sharqiy O'rtayer dengiziga mansub bo'lsa-da, Afrikaning arab mamlakatlari hayotida katta rol o'ynaydi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Misr iqtisodiy rivojlanishda, qishloq xo'jaligi, madaniyatda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi, rivojlangan sayyohlik industriyasini yaratdi, mamlakatning valuta zaxirasi to'xtovsiz ortib bordi. Bu yutuqlar Misrga arab va musulmon dunyosining yetakchisi bo'lish imkonini berdi.

M. X. Muborak siyosati mutanosiblik va mutanosiblik bilan ajralib turardi. Milliy iqtisodiyotning mavqeini mustahkamlash xorijiy investitsiyalarni (birinchi navbatda, ishlab chiqarish sohasiga) rag'batlantirish bilan birlashtirildi. Prezident ichki barqarorlikka intilib, muxolifat, ayniqsa, ekstremistik musulmon tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirdi.

Misrning 1980-1990-yillardagi moslashuvchan tashqi siyosati unga arab dunyosida tan olingan yetakchi va xalqaro obro‘-e’tiborni qayta tiklashga imkon berdi.



Abdul Fattoh as-Sisi.

Ammo 2000-yillarga kelib, Misrda ham islom fundamentalizmi faollashib qoldi. Ular bosimi ostida Misr prezidenti Husni Muborak 2011-yili iste’foga chiqdi. Shundan so‘ng bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlarida «Musulmon birodarlar» radikal tashkilotidan nomzod Muhammad Mursi g‘alaba qozondi. M. Mursi mamlakat prezidenti «inqilob himoyasiga yo‘naltirilgan har qanday dekretni» imzolashi va u sudda rad etilishi mumkin emasligini belgilab qo‘ydi. Bu harakati uchun muxolifatchilar M. Mursini hokimiyatni egallab olishda, diktaturani tiklashda aybladi. Armiyada norozilik boshlandi. Natijada 2013-yili M. Mursi harbiylar tomonidan ag‘darildi va qamoqqa olindi. Hokimiyatga mudofaa vaziri general Abdul Fattoh as-Sisi keldi. U 2014-yili bo‘lib o‘tgan saylovlarda Misr prezidenti etib saylandi. «Musulmon birodarlar» terrorchi tashkilot deb e’lon qilindi, uning faollari qatag‘onga uchradi. M. Mursi va tashkilotning yana bir qator faollari o‘lim jazosiga hukm qilindi. Ammo Misrda terroristik xavf yuqoriligicha qolmoqda.

2017-yil 24-noyabrda ISHID tarkibiga kiruvchi «Viloyat Sinay» terrorchi tashkiloti vakillari Sinay yarimorolidagi masjidda juma namozi paytida portlash uyushtirib, namozxonlarga qarshi avtomatlardan o‘t ochdi. Oqibatda 235 kishi, jumladan, bolalar halok bo‘ldi, 100 dan oshiq kishi yaralandi.

Sudan XX asr oxiri – XXI asr boshlarida mintaqaning eng qoloq mamlakati bo‘lib qolmoqda. Mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida band. Sanoat juda sust rivojlangan, mamlakat aholisining faqat 5%i bu sohada band. Sudanning chegarasi mustamlaka davrida sun’iy bo‘lingan bo‘lib, bu ko‘plab etno-konfessional mojarolarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Liviyada M. Kaddafiyning uzoq hukmronligi davrida neftdan olingan daromad yirik ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. Liviyaliklar Shimoliy Afrikada eng ta'minlangan aholiga aylandi.

Ammo tashqi siyosatda M.Kaddafiy hukumati inqilobiy va terrorchi tashkilotlariga, ayniqsa, islom dini bayrog'i ostida harakat qiluvchilarga yordam ko'rsatdi. M. Kaddafiyning nomi bir qator terroristik aktlar bilan bog'landi va bu xalqaro jamoatchilikning noroziligiga sabab bo'ldi.

2011-yili Liviyada ham hukumatga qarshi g'alayonlar boshlandi. Qo'zg'olonchilar muvaqqat hukumat tuzib, yordam so'rab NATO ga murojaat qildi. NATO kuchlari Liviyani bombardimon qildi, M. Kaddafiy o'ldirildi, ammo turli guruhlar o'rtasida to'qnashuvlar to'xtamadi.

2016-yili mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Bu urushda turli turli diniy tashkilotlar ishtirok etmoqda. Urush Liviyani iqtisodiy halokat yoqasiga olib keldi. Millionlab kishilar mamlakatni tark etib, qochoqqa aylandi.

Mintaqaning Jazoir, Tunis, Marokash va Mavritaniya kabi mamlakatlarda ham shu davrda yuz bergan inqiloblar va to'ntarishlar murakkab ko'rinishga, ko'pincha diniy asosga ega bo'lib, bu jamiyatlarning moderni zatsiyaga muhtojligini ko'rsatmoqda.

Tropik va Janubiy Afrika. 1990-yillari Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarda ham muhim va o'ta murakkab o'zgarishlar yuz berdi. Bular Afrika mamlakatlarning o'zidagi rivojlanish tendensiyalari va umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan voqea – «sovuq urush»ning yakunlanishi bilan bog'liq edi. Ikki qarama-qarshi bloklar o'rtasida Afrikaga ta'sir uchun kurash yakun topdi. Afrika mamlakatlarda demokratlashtirish tendensiyalari, fuqarolik jamiyatini tuzishga intilish paydo bo'ldi. Bir partiyali tizimdagi davlatlarning ko'pchiligi ko'p partiyali tizimga o'tdi. Dasturida marksizm-leninizm haqidagi nizom saqlanib qolayotgan hukmron partiyalar bu yo'riqlardan voz kechdilar, marksizmga sodiq qolgan Efiopiyadagi Mengistu Xayle Mariam hukumati 1991-yili ag'darib tashlandi. Ammo bu jarayonlar mintaqadagi siyosiy holatni keskinlashtirib yubordi. 1989-yili Liberiyada etnik asosda boshlangan fuqarolar urushi ko'plab qurbonlar va 1 mln

aholining qo'shni davlatlarga ommaviy qochishiga olib keldi. Mamlakat xarob ahvolga keldi. Faqat Liberiya xalqaro harbiy kuchlarni kiritish ahvolni biroz tartibga keltirdi. Syerra-Leoneda ham harbiy to'ntarishlar va qurolli mojarolar fuqarolar urushiga olib keldi. Faqat BMT aralashuvi keskinlikni biroz yumshatdi, ammo mamlakat iqtisodi vayron bo'lgan edi. Ruanda va Burundida ham qonli mojarolar bo'lib o'tdi. 1990-yillar o'rtalariga kelib tutsi va xutu xalqlari o'rtasidagi kurash keskinlashib, genotsidga olib keldi. Natijada Ruandaning 1 mln ga yaqin aholisi halok bo'ldi, Burundida 1 mln ga yaqin kishi qochoqqa aylandi.

1997-yili Kongo Demokratik Respublikasida Mobutuning diktatorlik rejimi ag'darildi. Ammo yangi hukumat uzoq yillar davomida to'planib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni yengib, etnik ziddiyatlarni yumshata olmadi. BMT Kongo Demokratik Respublikasini dunyoning eng qashshoq mamlakati deb tan oldi. Kongo inqiroziga Afrikadagi qator davlatlar: Janubiy Afrika Respublikasi, Angola, Namibiya, Uganda, Ruanda, Zimbabve ham u yoki bu darajada hissa qo'shdi. Ularning barchasi mojaroni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risida bayonot bersalar-da, bir guruhi markaziy hokimiyatni, boshqalari isyonchilarni qo'llab-quvvatladi.

Hozirgi kunda qashshoqlik va korrupsiya bilan birga mamlakatning eng katta muammolaridan biri gender tengsizlik bo'lib qolmoqda. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik oddiy hol bo'lib, eng dahshatlisi, aholining katta qismi buni oddiy hol sifatida qabul qiladi. Boshqa bir muammo Afrika mamlakatlarida zamonaviy qullikning saqlanib qolayotganligi bo'lmoqda. Ayniqsa, bolalarning qullik holati jahon jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Bugun Afrika mamlakatlarida millionlab bolalar qullik holatida hayot kechirishayotir.

Bu kabi kulfatlar Tropik va Janubiy Afrikaning katta qismidagi holatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz borgan sari kuchayib bordi. Aholi o'sish darajasining yuqoriligi ishsizlik muammosini yanada keskinlashtirdi. Jahon bozorida Tropik va Janubiy Afrika xomashyosiga bo'lgan talabning kamayishi mintaqa mamlakatlari iqtisodiga katta zarba bo'ldi. Afrikaning ko'plab mamlakatlarida aholi jon boshiga yillik daromad 1960-yildagidan ham pastga tushib ketdi. Faqat XXI asr boshlarida ijobiy tomonga o'zgarish boshlandi. Ammo

XXI asrda afrikaliklar oldida katta muammolar turgani aniq. Bulardan eng kattasi demografik muammo. Qashshoqlik, dahshatli kasalliklarga qaramasdan, XXI asr boshlarida Afrikaning ko'plab mamlakatlarida aholining yillik o'sishi juda yuqori. BMTning hisob-kitobiga ko'ra, Afrika aholisi 2050-yilga kelib 2 mlrd kishiga yetadi. Bu yangi asrda Afrika juda katta muammolar oldida turganligidan dalolat beradi.



Etno-konfessional mojaro – bu etnik mojaroning shakllaridan biri bo'lib, unda etnik ziddiyat diniy ziddiyat bilan qo'shilib ketadi.

Gender tengsizlik – bu ijtimoiy tizimning muhim belgisi bo'lib, unga binoan turli ijtimoiy guruhlar, ayni holatda – erkaklar va ayollarning jamiyatdagi imkoniyatlari bir-biridan keskin farq qiladi.



I. O'quvchilarning ta'lim yutuqlarining boshlang'ich darajasi

1. Quyidagi davlatlardan qaysi biri Lotin Amerikasi va Afrika tarkibiga kirmaydi? Boliviya, Birma, Peru, Tailand, Venesuela, Paragvay, Liviya, Gonduras, Gvatemala, Gvineya, Saudiya Arabistoni, Argentina, Urugvay, Angola, Ekvador?

II. O'quvchilarning ta'lim yutuqlarining yetarli darajasi

1. 1991-2017 yillarda Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va ichki siyosiy taraqqiyotni tavsiflab bering
2. Lotin Amerikasi va Afrika davlatlarining XXI asrning boshida ular boshdan kechirayotgan eng dolzarb muammolari mohiyatini ochib bering.



III. O'quvchilar muvaffaqiyatining yuqori darajasi

1. Lotin Amerikasi va Afrikadagi ko'plab davlatlarning tizimlari zaif, iqtisodiy rivojlangan davlatlarga qarammi? Agar shunday deb hisoblasangiz buni o'zgartirish uchun ular darhol qanday choralar ko'rishlari kerak fikringiz?
2. BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari doirasini kengaytirish zarurati to'g'risida tobora ko'proq savol tug'ilmoqda. Sizningcha, Lotin Amerikasi va Afrikaning qaysi davlatlari bu ro'yxatga qo'shilishi mumkin? Tanlovingizni asoslang.

47-XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Globallashuv muammolari.

Ilmiy-texnik taraqqiyot. Madaniyat.

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida barqaror rivojlanish va etno-ijtimoiy muammolar



Barqaror xavfsiz rivojlanish muammolari. Barqaror rivojlanish - bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, unda tabiiy resurslardan foydalanish, investitsiyalarni yo'naltirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning yo'nalishini belgilash, shaxsning rivojlanishi va institutsional o'zgarishlar bir-biri bilan moslashtiriladi, inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun bugungi va istiqbolli imkoniyatlar kuchaytiriladi. Bulardan maqsad, albatta, kishilarning sifatli yashash darajasini ta'minlashdir.

Insoniyatning barqaror xavfsiz rivojlanishi ko'p jihatdan xalqaro hamkorlikka ham bog'liq. Sanoatni energiya va resurslar sarfini kamaytiruvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan postindustrial tizimga o'tkazish hozirgi sivilizatsiya zimmasiga tushayotgan yukni ancha kamaytirishi mumkin. Masalan, so'nggi 50 yil ichida ilm-fan yutug'i natijasida dunyoda yonilg'i sarfining keskin kamayishi tabiatdan oshiqcha boyliklarni olmasdan, atrof-muhitni iflos qilmasdan yuqori texnologiyalar asosida mahsulot olish mumkinligini isbotladi.

Tabiatni himoya qilish bo'yicha alohida davlatlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlar bilan bir qatorda, bu sohadagi xalqaro hamkorlik ham rivojlanmoqda. Atrof-muhitni himoya qilish va barqaror taraqqiyot bo'yicha 1992-yili Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan konferensiyada XXI asrdagi harakat, jumladan, butun insoniyat uchun barqaror-xavfsiz rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish dasturi qabul qilindi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni atmosferaga chiqarishni kamaytirish va keyinchalik butunlay to'xtatish

majburiyatini oldilar. Yadro texnologiyalaridan foydalanuvchi davlatlar atom elektrostansiyalari xavfsizligining xalqaro standartlariga rioya qilmoqdalar.

Ko'pgina ekologik muammolarni hal qilish, terrorizm va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi kurashning muvaffaqiyati dunyoning turli mintaqalari rivojlanishidagi notekislikni bartaraf etishga bog'liq.

Aynan rivojlanayotgan mamlakatlar Yer aholisining tez sur'atlar bilan ko'payishi natijasida yuzaga kelgan demografik muammolarning manbaiga aylandi. Ochlik, qashshoqlik, kasallik dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarning doimiy hamrohiga aylandi. Ularning aholisi taxminan 2 milliard kishini tashkil qiladi va bir kishi boshiga o'rtacha daromad kuniga 1 dollardan kam. Bu davlatlarda aholini oziq-ovqat, suv, dori-darmon bilan ta'minlash muammosi hal etilmagan, ichki nizolar avj olmoqda.

BMT ekspertlari turli mamlakatlardagi o'zgarishlar dinamikasini keng qamrovli ko'rsatkich – Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) asosida baholaydi. Inson taraqqiyoti indeksini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi, insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati va boshqalar. Kanadada bu ko'rsatkich eng yuqori, Nigeriya esa eng past hisoblanadi.

Ko'pgina g'arb siyosatchilari rivojlanayotgan mamlakatlarda ilg'or axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlash orqali qashshoqlik va qashshoqlikdan qutulish mumkin, deb hisoblaydi.

2001-yilda to'plangan tajribani hisobga olgan holda BMT huzurida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha ishchi guruh tashkil etildi.


Shunga qaramasdan, global, umumjahon miqyosida barqaror-xavfsiz taraqqiyot modeliga o'tish muammosini yechish uchun hozircha sharoit yaratilgan emas. Ammo insoniyat shu yo'nalishda rivojlanmoqda, hamkorlik qilishda davom etmoqda. Bu insoniyatning ertangi kuniga ishonchini mustahkamlaydi.

Irqchilik va irqiy kamsitilishga qarshi kurash. Jamiyatdagi irqiy keskinlikni yumshatishga qaratilgan tadbirlar etnik ozchilikning teng huquqlarini, jumladan, ijtimoiy sohadagi huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul

qilinishini o'z ichiga oladi. Shunday qonunlar dastlab SSSRda, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qabul qilindi. Ayniqsa, Yevropada irqiy kamsitilishga qarshi qonunlarni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Etnik ozchilikning ijtimoiy muammolari va siyosiy maqomiga fuqarolik jamiyatining nodavlat tizimlari ayniqsa katta e'tibor qaratdi. Masalan, kasaba uyushmalarida etnik ozchilik vakillari manfaatlarini ifoda etuvchi bo'limlar paydo bo'ldi. Yetakchi siyosiy partiyalar ham etnik ozchilik vakillari uchun o'z bo'limlarini ochdi. Parlamentga, mahalliy hokimiyat organlariga etnik ozchilik vakillaridan nomzodlar ko'rsatildi. 1987-yili Buyuk Britaniyada ilk bor jamoa palatasiga etnik ozchilik vakillaridan to'rt nafari saylandi. Keyin qora tanli Devid Dinkins Nyu-York shahar meri, afro-amerikalik Barak Husayn Obama AQSH prezidenti, kelib chiqishi belujlardan bo'lgan Sodiq Omonxon London shahrining meri etib saylandi.

Ammo 2015-yili AQSHning bir necha shaharlarida politsiyachilar va irq chilar tomonidan qora tanli amerikaliklarning o'ldirilishi ortidan prezident B. Obama AQSH uchun irqchilik hamon dolzarb muammo ekanligini tan oldi.



Dunyo mamlakatlari bo'yicha aholining o'sishi ming kishi hisobida. (2017)



Statistik ma'lumotlarga tayanib, O'zbekistonning aholisi hozirgi kunda necha ming kishi ekanligini aniqlang?

XX asr oxiri - XXI asr boshlaridagi etno-ijtimoiy muammolar. XX asr oxiriga kelib katta moddiy resurslarga ega bo'lmagan davlatlar ham etno-ijtimoiy muammolar bilan to'qnash kela boshladi. Zotan, XXI asrda etno-ijtimoiy mojarolar o'tgan asrdagi sinfiy kurashlarga nisbatan ham jiddiyroq muammolar manbayi bo'lishi mumkinligini bugungi voqealar ko'rsatmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognozlariga ko'ra, 2000-yilda 6,1 milliard kishi bo'lgan bo'lsa, 2050-yilga borib Yer aholisi 9,3 milliard kishiga yetadi. Albatta bu demografik muommalarni keltirib chiqarishi aniq.

Jahonda aholisi 1 milliondan ziyod bo'lgan 164 ta davlatning yarmidan kamrog'i nisbatan bir millatli, ya'ni asosiy aholisi bitta millatga mansub davlatlardir. Qolgan davlatlar ko'p millatli hisoblanadi.

Aholining ko'p millatli tarkibi shu davlatda etno-ijtimoiy mojarolar kelib chiqishini muqarrar qilib qo'ymaydi. Ko'pmillatli mamlakatlar, masalan, O'zbekistonda turli millatlarning tinch-totuv yashash an'anasi shakllangan. Ammo dunyoning ayrim hududlarida etnik mojarolarning keskinlashuvi yuz bermoqda. XX asrning 80-yillari oxiriga kelib, yuz bergan jami harbiy mojarolarning yarmidan ko'pi bir davlat ichkarisida, etnoslararo mojarolar edi. O'sha paytda bu mojarolarning asosiy maydoni Osiyo va Afrika mamlakatlari bo'ldi.

Ammo SSSR tarqalib ketishi bilan uning sobiq hududida o'nlab etnoslararo keskinlik o'choqlari vujudga keldi. SSSRda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgan XX asrning 20-yillarida sovet respublikalari o'rtasidagi chegaralarni belgilashda etnik omil yaxshi inobatga olinmagan, natijada ko'plab aholi o'z milliy respublikalari hududidan tashqarida qolib ketgan. Bu muammo ayniqsa Kavkazorti respublikalari va O'rta Osiyoda SSSR qulagandan so'ng yaqqol sezilib qoldi. Bu hududlarda ko'plab etnoslararo mojarolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Sovet davrida barcha respublikalarning sanoat potentsiali bir xil rivojlantirilmaganligi ham SSSR parchalangandan so'ng bir qator etno-ijtimoiy muammolar manbayiga aylandi. Ayniqsa, 2000-yillardan boshlab sobiq sovet respublikalaridan mehnat muhojirlarining ommaviy ravishda Rossiya Federatsiyasiga kelishi bu yerda etno-ijtimoiy holatni keskinlashtirib yubordi.

Xullas, XX asrdagi juda katta siyosiy va harbiy to'qnashuvlarning mah suli bo'lgan etno-ijtimoiy muammolar asr oxirida Yevropada yuz bergan siyosiy bo'hronlar, SSSR va sotsialistik lagerning tarqalib ketishi natijasida yanada avj oldi. XXI asrga kelib, kishilarni irqiy va diniy mansublik asosida kamsitishlar kamaygan bo'lsa-da, ijtimoiy tengsizlik, migratsiya jarayonlari bilan bog'liq muammolar hamon saqlanib qolmoqda.



Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan konferensiya kun tartibidan

1992-yil 3-14 iyun

Insoniyat o'z tarixida hal qiluvchi pallada. Biz mamlakatlar o'rtasida ham, mamlakat ichida ham nomutanosiblikni davom ettirish, qashshoqlik, ochlik, sog'liq va savodsizlik kabi muammolarning kuchayishiga va bizning farovonligimiz bog'liq bo'lgan ekotizimlarning yomonlashishiga duch kelamiz.

Biroq, atrof-muhit va rivojlanish masalalariga integratsiya va e'tiborni qaratish asosiy ehtiyojlarni qondirishga, butun aholining turmush darajasini yaxshilashga, ekotizimlarni yanada samaraliroq himoya qilish va boshqarishga yordam beradi, shuningdek, xavfsizroq va farovon kelajakni ta'minlaydi. Hech bir davlat bunga yolg'iz erisha olmaydi; ammo biz barqaror rivojlanish uchun global hamkorlik orqali bunga birgalikda erisha olamiz.



Qaysi masalalar insonyatni tashvishga solmoqda? Bu muammolarni qanday hal qilish mumkin? Insoniyatning maqsadi nima?

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida ilmiy-texnik taraqqiyot.

Ilm-fan, adabiyot, san'at

ITI va uning natijalari. XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik inqilob so'nggi yuz yil davomida ilm-fan rivojlanishining qonuniy natijasi bo'ldi. Bu

inqilobning asosiy belgilari tabiiy va sintetik materiallardan mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish, mashinalardan keng foydalanish, ishlab chiqarishning konveyerli liniyalarini, zavod-avtomatlarni va sanoat robotlarini yaratish bo'ldi. ITI jahonning ilg'or mamlakatlarini sivilizatsiyaning industrial bosqichidan postindustrial davriga olib chiqdi.

Axborot va yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi, XX asrning so'nggi 30 yilida yuz bergan yangi texnologik inqilob, umumiy kompyuterlashtirish va jamiyatning axborotlashuvi, ishlab chiqarishning intellektuallasuvi kabi jarayonlar rivojlangan mamlakatlarda jamiyatning mutlaqo yangi holatini keltirib chiqardi. Buni olimlar «axborot jamiyati» deb atamoqdalar. Olimlarning fikricha, «axborot jamiyati» industrial jamiyatdan keyin keladigan, jamiyatning ancha yuqori bosqichidir. Hozir industrial rivojlangan mamlakatlarda intellektual mehnat bilan band bo'lgan aholi soni butun ishchi kuchining yarmiga yaqinlashmoqda.

AQSH va Yaponiyada bu ko'rsatkich yanada yuqori. Agar Afrikada aholining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lsa, AQSHda bu ko'rsatkich 3% dan oshmaydi. AQSHda axborot texnologiyalari sohasida 80% aholi mehnat

Aholi bandligi(1990-yillar) foiz hisobida.			
Hududlar	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmat ko'rsatish
Dunyo bo'yicha	48	23	29
Yevropa	12	40	48
Shimoliy Amerika	3	31	66
Janubiy Amerika	37	28	35
Osiyo	64	17	19
Afrika	73	11	16
Avstraliya	8	35	57

qilmoqda.



Nima deb o'ylaysiz, nega Osiyo va Afrika davlatlarida qishloq xo'jaligi bilan band aholi ko'pchilikni tashkil etgan?

Tabiiy fanlar va tibbiyot. XX asrning ikkinchi yarmida biologiya, biokimyo va tibbiyotning rivojlanishi inson hayotining keskin o'zgarishiga, industrial

jamiyatning yangi sifat bosqichiga o'tishiga olib keldi. XX asrda qorachechak, ispan grippi, o'lat, vabo, terlama, sil, bezgak kabi kasalliklar Yer yuzida 1 mlrdga yaqin kishining o'limiga olib keldi. Asr oxiriga kelib yangi yuqumli kasallik - OITS paydo bo'ldi. Shunga qaramasdan, aynan XX asrda tarixda birinchi bor yuqumli kasalliklar odamlar o'limining asosiy sababi bo'lmay qoldi. XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, asr oxirlariga kelib, yurak-qon tomir tizimi va saraton kasalliklari kishilar o'limining bosh sababchilariga aylandi. Biologiya, qishloq xo'jaligi va tibbiyot fanidagi inqilobiy yutuqlar natijasida Yer yuzi aholisi asr boshidagi bir yarim milliard kishidan asr oxiriga kelib olti milliard kishigacha ko'paydi. Juda ko'plab kasalliklarga qarshi vaksinalar yaratildi. Tibbiyot texnikasi sohasidagi yutuqlar kishilarning hayot farovonligini yaxshiladi va umrini uzaytirdi.

Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar. Ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi uni kishilarning ongiga, yurish-turish va kayfiyatiga ta'sir o'tkazuvchi qudratli vositaga aylantirdi. XX asrning ikkinchi yarmida sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvlarni namoyish qilish, global kompyuter tarmog'ini yaratish orqali insoniyatning ma'naviy hayotini baynalmilallashtirish uchun sharoit tug'ildi. Shu munosabat bilan odamlarda savol tug'ila boshladi: aynan qaysi qadriyatlar, g'oyalar, timsollar, tasavvurlar endi universal xarakter kasb etadi, barcha uchun umumiy bo'ladi? Aytish mumkinki, hozir g'oyalar, madaniy qadriyatlarning o'ziga xos jahon bozori paydo bo'ldi. Unda kuchli davlatlar o'zining siyosiy va madaniy ta'sirini ta'minlash uchun kurashmoqda.

Hamma joyda radioeshittirish va televideniyeining keng tarqalishi, ko'pchilik mamlakatlarda aholi savod darajasining o'sishi tez foyda keltiradigan, ommaviy iste'molchiga mo'ljallangan badiiy mahsulotlarga ehtiyojni keltirib chiqardi.

Ommaviy madaniyat nafaqat ko'ngil ochadigan, balki ma'lum mafkuraviy maqsadni ham ko'zlagan ommaviy vaqtichog'likning audio va video mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi butun boshli sanoatning paydo bo'lishiga olib keldi. Jahonning yetakchi korporatsiyalari bunda o'z mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri va bilvosita reklama qilishning kuchli imkoniyatlarini ko'rdilar. Kino, estrada va sport «yulduzlari»ning mashhurligi ularning hayot tarzini, kiyinish uslubini, hayotiy va

siyosiy qarashlarini ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar taqlid qilishi uchun namunaga aylantirdi.

So'nggi paytda ko'plab xalqlarning taqlid obyektiga aylangan G'arb sivilizatsiyasi texnik va texnologik innovatsiyalar, demokratiya va inson huquqlari kabi tushunchalar bilan birga madaniy tolerantlikning yangidan yangi jihatlarini namoyon qilmoqda. Bir qator G'arb mamlakatlarida bir jinsli kishilar o'rtasida oila qurishning qonunlashtirilishi, urf-odatlar va dinning qarshiligiga qaramasdan, bu odatni boshqa joylarda ham ommalashtirishga urinishi ko'pchilik tomonidan bugungi G'arb jamiyatining ma'naviy inqirozi sifatida qaralmoqda. Shu sababli G'arb ning o'zida ham ommaviy madaniyat ko'pchilik faylasuflar, jamiyatshunos va madaniyatshunoslar tomonidan juda tashvishli hodisa sifatida qaralmoqda. U olamni o'ta jo'n qabul qilishga chorlagani uchun intellektual buzilish manbayi sifatida ta'riflanmoqda.

Ommaviy madaniyatni alohida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tahlil qilib, olimlar quyidagi xususiyatlarni qayd etadilar:

- bir hil auditoriyaga e'tibor qaratish;
- hissiy, irratsional, jamoaviy, ongsizga tayanish;
- hayotdan qochish;
- tez foydalanish imkoniyati;
- tez unutish;
- an'anaviylik va konservatizm;
- o'yin-kulgi.

Adabiyot. XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib adabiy jarayonlar tez o'zgardi, har o'n yilda adabiyotda yangi yo'nalish paydo bo'lyapti, yangi maktablar shakllanyapti. Bu davr adabiyotida intellektual izlanish jarayonini davom ettirmoqda, u zamonaviy jamiyatning ehtiyojlarini va rivojlanish usullarini anglashga intilmoqda.

Yangi asr boshida ko'plab tillarda nashr qilingan va katta shov-shuvga sabab bo'lgan shunday asarlardan biri afg'onistonlik Xolid Husayniyning «Shamol ortidan yugurayotgan odam» deb nomlangan romani bo'ldi. Roman voqealari

Kobulda «tolibon» harakati avjiga chiqqan davrda yuz beradi. Bu - Amir va Hasan o'rtasidagi do'stlik tarixi. Unda odamlar o'rtasidagi do'stlik va majburiyatning ma'naviy asoslari haqida fikr yuritiladi. Asar 2001-yil sentabr voqealaridan keyin nashr etilgani uchun ham katta qiziqish uyg'otdi.

XXI asrda o'zbek kitobxoniga yetib kelgan yana bir mashhur asar braziliyalik yozuvchi Paulo Koelyoning «Alkimyogar» romanidir. Asar yoshlik, orzu va unga intilish haqida. «O'z Taqdiriga erishish - mana insonning haqiqiy burchi», deb yozadi P. Koelyo.

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida jahon jamoatchiligining e'tiborini qozongan eng mashhur asarlardan biri ingliz yozuvchisi Joan Rouling qalamiga mansub «Garri Potter» haqidagi romanlar bo'ldi. Olimlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega deb hisoblaydigan bu romanlar o'limni ham yengib o'tgan xudovash o'spirin Garri Potterni sarguzashtlariga bag'ishlangan. Asar bugungi dunyo har qachongidan ham ezgulikka, odamlarga yaxshilik eltuvchi ulug' zotga muhtoj ekanligi, ezgulik yo'li hozir har qachongidan og'ir va ziddiyatli bo'lsa-da, Garri Potterdek sof qalbli insonlar ularni yengib o'tishi mumkinligi haqida hikoya qiladi. An'analarni saqlab qolishga intilgan yozuvchi bu asarlarda betakror obrazlar yordamida o'zining o'ta ishonchli badiiy olamini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Amerikalik yozuvchi Xelen Devittning «So'nggi samuray» (2000) asari kitobga muhabbat, ota-ona tarbiyasi va baxt haqidagi roman bo'lib, undan yolg'iz ona Sibil o'zi va o'g'li uchun eski kitoblarni qayta chop etish orqali kun kechiradi. Bu vaqtda uning uch yoshli o'g'li pianino chalishni yaxshi biladi va yunon tilini o'rganishga o'tadi. Keyin ibroniy, arab va yapon tillari, aerodinamika va qattiq jismlar fizikasini o'rganadi.

Bu turdagi asarlarning ko'pligiga qaramasdan, bugungi adabiyotning ko'p qismini asosan tijoriy va reklama xarakteridagi asarlar tashkil etmoqda.

Zamonaviy jamiyat o'z rivojlanishining muhim intellektual qismi bo'lgan adabiyotning ahamiyati va muammolarini, jamiyat adabiyotsiz mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emasligini to'liq anglab yetishi lozim. Televideniye, radio va Internet tarmoqlari orqali beriladigan kunning muhim yangiliklari qatorida nashr

etilgan kitoblarni taqdim etish, ularni reklama qilish odatiy holga aylanmog‘i lozim. Bu aslida zamonaviy jamiyat madaniyatining muhim qismi, uni inobatga olmaslik mumkin emas.

San‘at. Zamonaviy san‘at XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan an‘analar asosida tashkil topdi. Bu davr san‘ati modernizmga muqobil, ba‘zan unga keskin qarama-qarshi yo‘nalishlarni izlash, yangi san‘at tilini yaratishga urinish bilan xarakterlanadi. U yangi obrazlarni, ifodalashning yangi, nomoddiy vosita va materiallarini izlash jarayonida aks etdi.

Axborot davrining yangi texnologiyalari, axborotning haddan ziyodligi, inson bilan mashina o‘rtasida ziddiyatga olib keldi. Bu ziddiyatni hal qilish yo‘li sifatida telekommunikatsiyaga estetik asoslarni olib kirish, uni axborot yetkazish funksiyasidan ozod qilish, xususan, ko‘rsatuvlar mazmunini sharqona mistitsizm, irratsional negiz bilan to‘ldirish taklif qilinadi. Intellektni «ishga solmasdan», bevosita insonning ichki olamiga murojaat qilish - bu tamoyil kompyuter grafikasi, videokliplar yaratish kabi san‘atning yangi turlarida, qisman zamonaviy kino san‘atida qo‘llanilmoqda.

Telekommunikatsiyalarning global tarmog‘i, ommaviy madaniyat paydo bo‘lishining eng muhim natijasi badiiy san‘atning ijtimoiy-siyosiy roli oshganligida namoyon bo‘ldi. Endi san‘at faqat hayotning in‘ikosi bo‘lmasdan, ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi omilga ham aylandi. Shundan kelib chiqib, bir qator rassomlar «postdemokratik jamiyat»da san‘at hokimiyat qo‘lidagi qurolga aylanadi, deya xavotir bildirishmoqda.



Vaksina - yuqumli kasalliklarga qarshi emlashda qo‘llaniladigan vosita.

Mistitsizm - bu mistikaga moyillik, mistikaga asoslangan diniy-idealistik dunyoqarash shakli.

Irratsionallik - bu voqelikni bilishda ongning imkoniyatini rad etuvchi yoki uni juda cheklangan deb biluvchi falsafiy konsepsiya.

Ommaviy madaniyat - bu zamonaviy jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga kirib kelgan maishiy, ko‘ngilochar va axborot madaniyati.



I. Bilimlarni sinash

1. Zamonamizning global muammolarining mohiyati nimada?
2. Globallashuvga qarshi harakat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari nimadan iborat?
3. Adabiyotning hozirgi jamiyat hayotida tutgan o‘rni qanday?
4. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida ijod qilgan mashhur adiblarni ayting.
5. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida yashagan qanday mashhur kinorejissorlarni bilasiz?
6. “Ommaviy madaniyat” nima?

II. O'quv materialini tizimlashtirish

1. Jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy shartlari nimalardan iborat globallashuv?
2. Zamonaviy terrorizmning asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
3. XX asr 2-yarmi adabiyotidagi realistik va modernistik yo‘nalishlarni tavsiflab bering.
4. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida turli mamlakatlar adabiyotining xususiyatlarini aniqlang.
5. AQSH va G‘arbiy Yevropa dramaturglari ijodiga ta’rif bering.
6. Tasviriy san’at taraqqiyotidagi ikkita asosiy yo‘nalish: sotsrealizm va modernizm o‘rtasidagi farqni aniqlang.

III. Guruh muhokamasi uchun

1. Zamonamizning asosiy global muammolarini aytib bering.
2. Sizningcha, insoniyatning qaysi global muammolari ko'proq zamonaviy dunyoga tahdidmi?
3. Kino san'atining alohida ijtimoiy roli nimada? Turli mamlakatlar kinosining eng xarakterli xususiyatlarini aniqlang.

IV. Tarixiy atamalar bilan ishlash

1. “Globallashuv”, “terrorizm”, “shariat” atamalarini tushuntiring.
2. "Sotsialistik realizm", "neorealizm", "estrada san'ati" atamalarini tushuntiring.

V. Ijodiy vazifalar

1. Sizningcha, terrorizmni butunlay yo'q qilish mumkinmi? Qanday buning uchun zarur shartlar mavjudmi?
2. "Zamonamizning global muammolari" tushunchasiga ta'rif bering. XXI asrda insoniyat qanday global muammolarni hal qilishi kerak?
3. Insoniyatning global muammolarini tasniflang.
4. "Insoniyatning global muammolari" jadvalidagi ma'lumotlarni to'ldiring:


Siyosiy Muammolar	Ijtimoiy Muammolar	Ekologik Muammolar

5. Ilmiy-texnika taraqqiyoti muammolari va global muammolar qanday bog'liq? Insoniyat global muammolarni hal qilish uchun qanday choralar ko'rmoqda?
6. Nima uchun fan va texnika taraqqiyotiga qaramay, olimlar sivilizatsiya inqirozi haqida gapirishadi? Sivilizatsiya inqirozini qanday yengish mumkin?
7. Hududingizga xos qanday muammolar borligini aniqlang. Ularni hal qilish yo'llarini muhokama qiling.
8. "Dunyoni o'zgartirgan san'at" mavzusida insho yozing.

UMUMLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon tartibi tizimida ikkita tomon ajratiladi: G'arb va sharq mamlakatlari har birining asosiy muammolari nimada? Ularning rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlarini tavsiflang. Qanday muammolar hal etilmayapti?
2. Urushdan keyingi davrda mamlakatlarning uchta "dunyo"ga bo'linishi o'zini namoyon qildi. Qanday davlatlar "dunyolar" ning har biriga kiritilgan? Bo'linish mezonini nima?
3. "G'arblashtirish" tushunchasi nimani anglatadi? G'arblashuvning qanday ko'rinishlariga duch kelyapsiz? Shu munosabat bilan qanday muammolar yuzaga keladi? Ularni hal qilish yo'llarini taklif qila olasizmi?

4. Sovuq urush davrida dunyoning turli mamlakatlarida qanday voqealar sodir bo'ldi? Qiyosiy jadval yarating.
5. “Mustamlakachilik” tushunchasi ma’nosini aniqlang. Nima uchun XX asr mustamlakachilik barham topdi tushuntiring.
6. Agar XX asr boshlari ommaviy madaniyatning shakllanishi va tarqalishi bilan tavsiflangan bo’lsa, XX asr oxirida globallashuv jarayoni bilan izohlanadi. Ushbu hodisalar uchun qanday shartlar mavjud? Fan-texnika taraqqiyoti tufayli qanday yangi san’at turlari paydo bo’ldi?
7. Mavzulardan biriga insho yozing: “Jahon iqtisodiy inqirozi” “Dunyo yadro urush yoqasida”, “SSSR parchalanishi: tarix saboqlari”.
8. XX asrning 2-yarmi — XXI asr boshlari tarixini aks ettiruvchi badiiy filmlardan namunalar keltiring.
9. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida davlat va uning rahbarlari bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 3, 5
- B) 2, 5
- C) 4, 7
- D) 3, 6
10. Insoniyat XX asrdan qanday saboq olishi kerak? Zamonaviy dunyo taraqqiyotida tarixiy bilimlar qanday rol o'ynaydi?

TARIXIY ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR

Avtoritarizm - bu fuqarolar uchun qandaydir iqtisodiy, fuqarolik, ma'naviy erkinliklarni saqlab qolgan holda, barcha hokimiyatlarning bir shaxsga yoki kichik guruhga bo'ysunishi.

Anneksiya - bir davlat tomonidan boshqa davlat hududini zo'rlik bilan qo'shib olish, bosib olish .

Aparteid – 1948-yildan 1994-yilgacha Janubiy Afrikada amalga oshirilgan irqiy segregatsiyaning rasmiy siyosati (yashash, ta'lim, jamoat joylari va boshqalarda aholini irqiy va milliy belgilar bo'yicha majburiy ajratish).

Genotsid - har qanday milliy, etnik guruhni yo'q qilishga qaratilgan harakatlar.

Geosiyosat - siyosiy tushuncha, davlat tashqi siyosatining uning geografik joylashuvi bilan bog'liqligi haqidagi ta'limot; davlat harakatlarining geografik omillarga bog'liqligini o'rganuvchi nazariya .

Davlat byudjeti - bu davlat daromadlari va xarajatlarining yillik smetasidir .

Fuqarolik jamiyati -rivojlangan davlat hokimiyatidan nisbatan mustaqil bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar va institutlar majmuini ifodalaydi .

Qo'shilmaslik harakati - bu harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etishni rad etgan mamlakatlarni birlashtiruvchi harakat .

Devalvatsiya - milliy valyutaning oltinga yoki boshqa mamlakatlar valyutasiga nisbatan kursini pasaytirish.

Diskriminatsiya - bu aholining ayrim toifalarining huquqlarini irqiy, milliy, ijtimoiy, diniy va boshqa sabablarga ko'ra cheklash yoki ulardan mahrum qilishdir.

Dominion- Britaniya imperiyasi tarkibidagi davlat bo'lib, uning boshlig'i ingliz monarxidir, lekin ayni paytda u ichki siyosiy va ma'muriy o'zini o'zi boshqarishga ega .

Imperializm - hududlarni bosib olish va ularni mustamlaka qilishga, boshqa davlatlar ustidan iqtisodiy va siyosiy o'rnatishganazorat qaratilgan davlat siyosati .

Investitsiyalar - bu korxonalarni yaratish va modernizatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, yangi texnologiya va uskunalarni ishlab chiqish uchun kapital qo'yilma .

Iqtisodiy integratsiya - turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o'rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'natilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xo'jalikning shakllanishi jarayoni.

Inflyatsiya - qog'oz pullarning iqtisodiyotning muomala sohasiga to'lib ketishi, qog'oz pullarning oltinga nisbatan qadrsizlanishi .

Axborot jamiyati - bu axborot texnologiyalari jamiyat turi. "Axborot jamiyati" tushunchasining sinonimi postindustrial jamiyatdir .

Infratuzilma - ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi (sanoat - yo'llar, kanallar, suv omborlari , portlar, ko'priklar, aerodromlar, omborlar, transport, aloqa va boshqalar) va jamiyat hayoti uchun sharoitlarni (ijtimoiy - ta'lim, sog'liqni saqlash) ta'minlaydigan iqtisodiyot tarmoqlari majmui. g'amxo'rlik, ilm-fan va boshqalar).).

Komintern (Kommunistik Internasional) - Yevropadagi bir birlashmasi bo'lib, 1919-yil mart oyida Moskvada tuzilgan. Kominternning asosiy maqsadlari jahon proletar inqilobini amalga oshirish, SSSRni kapitalistik davlatlarning tajovuzidan asrash bo'lgan. 1943-yil may oyida tarqatib yuborilgan.

Konservatizm - jamiyatning an'anaviy qadriyatlari va asoslarini, tartib va ijtimoiy barqarorlikni saqlash, himoya qilish istagiga asoslangan siyosiy qarashlar va faoliyat.

Qarama-qarshi madaniyat - bu G'arb jamiyatining rasmiy qadriyatlariga qarshi norozilik bildiruvchi turli xil yoshlar guruhlarining umumiy ta'rifi .

Ommaviy madaniyat - XX asrda paydo bo'lgan, madaniy mahsulotlarni ("madaniyat sanoati") ommaviy ishlab chiqarish bilan tavsiflangan va ommaviy iste'molga mo'ljallangan madaniyat turi. Ommaviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari standartlashtirish , soddalashtirish, o'yin-kulgi hisoblanadi.

Jahon tartibi - bu xalqaro xavfsizlik darajasini tavsiflovchi, aniq ifodalangan shartlarni ifodalovchi ko'p tomonlama, va har qanday sohadagi xatti-

harakatlarning belgilaydigan o'zaro maqbul normalarga asoslangan dunyoning siyosiy tuzilishi.

Modernizatsiya- biror narsani talablarga muvofiq yangilash, o'zgartirish ; so'zning tor ma'nosida modernizatsiya sanoat jamiyatiga o'tish.

Modernizm - bu XX asr san'atidagi oqim va yo'nalishlarning umumiy belgisi bo'lib, yangi badiiy shakllar va ifoda vositalarini izlash bilan tavsiflanadi.

Monopoliya - 1) har qanday faoliyat yoki mulkka bo'lgan mutlaq huquq ;
2) sanoatda - sanoat yoki bir nechta tarmoqlar doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish ustidan nazoratni jamlagan korxonalar yoki kompaniyalar birlashmasi .

Xalq fronti - muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun mamlakat aholisining keng qatlamlari birlashgan siyosiy ommaviy ijtimoiy-siyosiy harakatlar shakli .

Natsizm (milliy sotsializm) - Germaniyada nemislarning irqiy va ustunligini ta'minlovchi milliy siyosiy harakat .

Millatchilik - bu milliy o'ziga xoslik va ustunlik g'oyalariga asoslangan mafkura va siyosat.

«Yaxshi qo'shnichilik»-1929-1933-yillarda AQSHni qamrab olgan iqtisodiy inqirozdan (Buyuk depressiya) chiqish maqsadida AQSH prezidenti F.Ruzvelt tomonidan 1933-yildan boshlab olib borilgan iqtisodiy siyosatning nomi.

Pasifizm -urushga qarshi harakat bo'lib, uning ishtirokchilari maqsadlari va tabiatidan qat'i nazar, o'zlarining qoralanishini urushlarning oldini olishning asosiy vositasi deb bilishadi. Pasifistlar har qanday urushni qoralaydilar, urushlarning qonuniy, ozodlik va hokazo bo'lish ehtimolini rad etadilar. Ular urushlarni faqat ishontirish va tinch namoyishlar bilan oldini olish mumkinligiga ishonishadi.

Pop-art - bu 1950-1960 yillardagi tasviriy san'atdagi tendensiya bo'lib, u mavhum ekspressionizmga reaksiya sifatida paydo bo'lib , iste'mol tovarlari tasvirlaridan foydalanadi.

Populizm - 1) aholining keng qatlamlariga qaratilgan siyosat yuritish, ularning ehtiyojlarini qondirish; 2) asossiz va'dalar yordamida mashhurlikni ta'minlash maqsadida aholi bilan muloqot qilish va hokazo.

Postmodernizm- XX asrning birinchi o'n yilliklaridagi badiiy ijodning klassik an'analarini san'at oqimlarini qamrab oluvchi umumiy tushunchadir . Modernizmga qarama-qarshilik sifatida paydo bo'lgan, faqat ozchilikning tushunishiga ochiq, postmodernizm hamma narsani o'ynoqi shaklda kiyintirib , ommaviy va elita iste'molchi o'rtasidagi masofani yashirmaydi.

Xususiylashtirish - bu davlat mulki ob'ektlarini xususiy mulkka berish yoki sotishdir.

Beshinchi Respublika- 1958-yilgi konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan tashkil etilgan Fransiya respublikasi rejimi.

Radikalizm - eng hal qiluvchi, shu jumladan inqilobiy usullar yordamida mavjud tartibni tubdan ta'minlaydigan qarashlar va harakatlar .

Irqchilik - xalqlarni irqiy va etnik jihatdan "yuqori" va "pastki", " to'liq " va "noraso" ga ajratuvchi qarashlar va siyosat.

Reparatsiya - tajovuzni sodir etgan davlat tomonidan hujum qurboni bo'lgan davlat to'lashi kerak bo'lgan tovon.

Separatizm - qoida tariqasida, ko'p millatli davlatlardagi etnik guruhlar o'rtasida namoyon bo'ladigan izolyatsiyaga, bo'linishga, mustaqil davlatlar yaratishga intilish.

"G'alati urush" ("O'tirib urushish") - G'arbiy frontda 1939- yil 3- sentabrdan 1940-yil maygacha bo'lgan Ikkinchi Jahon urushi davri bo'lib, harbiy harakatlar deyarli yo'qligi bilan tavsiflanadi.

Transmilliy korporatsiya (TMK)- boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish bo'linmalariga ega bo'lgan , o'z mahsulotlarini xorijda ishlab chiqaradigan va sotuvchi yirik korxonadir.

"Uchinchi dunyo" - rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ishlatiladigan atama. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari ijtimoiy -siyosiy tuzilmasi bo'yicha tafovutli bo'lishiga qaramay, ularning aksariyati iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya va eng rivojlangan mamlakatlarning sanoat davlatlari bilan solishtirganda pastroqdir.

Fashizm — Italiyada birinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan ommaviy g'oyaviy-siyosiy harakat ; u millatchilik, kuchli, totalitar hokimiyat va antikommunizm g'oyalariga asoslangan edi ; fashistlarning taktikasi ijtimoiy demagogiya va terror usullarini Italiyada bo'lgani kabi boshqa mamlakatlarda ham iqtisodiy va ijtimoiy qo'zg'olon yillarida fashistik tipdagi harakatlar vujudga keldi va faollashdi.

Xunta — Lotin Amerikasi mamlakatlarida— davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan harbiylar guruhi.

Shovinizm - millatchilikning ashaddiy ko'rinishi bo'lib , boshqa xalqlar vakillariga nisbatan murosasizlik.

Ekstremizm - qabul qilingan me'yor va qoidalarni inkor etuvchi qarashlar va harakatlarga sodiqlik ; Siyosatda ekstremizm ko'pincha radikal ijtimoiy , milliy va diniy oqimlar vakillari orasida namoyon bo'ladi.

Etatizm - davlatning jamiyat hayotining turli sohalarida, birinchi navbatda, iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirishga intilish.

JAMOAT VA SIYOSIY ARBOBLARNING BIOGRAFIK LUG'ATI.

Adenauer Konrad (1876-1967) nemis siyosatchisi. 1933-yilda fashistlar hokimiyatga kelganidan so'ng, u Gitlerni va milliy sotsializm falsafasini murosasiz rad etgani uchun qatag'onga uchragan. 1949-1963-yillarda Germaniya Federativ Respublikasining birinchi kansleri bo'lgan.

Mustafo Kamol (1881-1938) - Turkiyaning XX asrning eng buyuk siyosatchisi. Birinchi jahon urushidan so'ng grek qo'shinlariga qarshi kurashgan turk armiyasiga boshchilik qildi va 1923- yilda Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti bo'ldi. Hokimiyatga kelgach, u Turkiyani zamonaviy Yevropa davlatiga aylantirgan tub iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirdi. Otaturk (so'zma-so'z - "turklarning otasi") nasabini olgan.

Bler Entoni (1953-yilda tug'ilgan) — britaniyalik siyosatchi. 1994-yildan - Leyboristlar partiyasi rahbari. 1997-yilgi saylovlar natijalariga ko'ra bosh

vazirlikka saylangan. Blerning tarixiy qarori markazlashtirishga qarshi qaratilgan kurs edi: Uels va Shotlandiya parlamentlari tuzildi, London meri lavozimi qayta tiklandi . 2007-yilda u o'z xohishi bilan iste'foga chiqdi.

Brejnev Leonid (1906-1982) - 1964-1982 yillarda sovet davlat va partiya arbobi. 1960-1964 va 1977-1982 yillarda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi. Brejnev bosh kotib bo'lgan davrda mamlakatda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiyot va ma'naviy sohalarida konservativ tendensiyalar hukm surdi, Chexoslovakiyaga intervensiya boshlandi (1968), Sovet qo'shinlari Afg'onistonga yuborildi (1979).

Valensa Lex (1943-yilda tug'ilgan) - polshalik siyosatchi, faol va inson huquqlari himoyachisi. Duradgorning o'g'li. Gdansk kemasozlik zavodida elektrik bo'lib ishlagan. 1980-yilda Sharqiy Yevropada birinchi erkin kasaba uyushmasi "Birdamlik"ni tuzdi. 1990-1995 yillarda - Polsha prezidenti. Tinchlik uchun Nobel mukofoti laureati (1983).

Vilson Vudro (1856-1924) - amerikalik siyosatchi, Demokratik partiyadan AQShning 28- prezidenti. Ruhoniy oilasida tug'ilgan. U Prinston universitetida uzoq vaqt dars bergan. U Qo'shma Shtatlarning Birinchi Jahon urushida ishtirok etish tashabbusi bilan chiqdi, shundan so'ng Buyuk Britaniya va Fransiya rahbarlari bilan birgalikda liberalizmning Amerika modelini tarqatishga intilib, Parij tinchlik ishiga rahbarlik qildi.

Gavel Vatslav (1936-yilda tug'ilgan) — chexoslovak dramaturgi va siyosatchisi. 1968-yildagi "Praga bahori" ishtirokchisi.

"Fuqarolar forumi" jamoat harakati rahbari (1989). Chexoslovakiya (1989-1992) va Chexiya Respublikasi (1993-2003) prezidenti.

Gandi Indira (1917-1984) - hind siyosatchisi , Hindistonning birinchi Bosh vaziri J. Neruning qizi. 1959-yilda u Hindiston Milliy Kongressi hukmron partiyasi raisi etib saylandi. Hindiston Bosh vaziri (1966-1977 va 1980-1984). Terrorchilar tomonidan o'ldirilgan.

Gandi Mohandas (1869-1948) - XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi milliy ozodlik harakati rahbari va Hindiston Milliy Kongressi partiyasi

yetakchilaridan biri. Kasbi huquqshunos. Janubiy Afrikada xususiy amaliyot bilan shug'ullanib, 1915-yilda Hindistonga qaytib keldi. Gandizm mafkurasining asoschisi diniy aqidaparast tomonidan o'ldirilgan. Odamlar uni Mahatma ("Buyuk ruh") deb atashgan.

Gorbachev Mixail (1931 yilda tug'ilgan) — 1985-1991-yillarda KPSS Markaziy Komiteti Bosh kotibi.

1991-yil SSSRning birinchi va oxirgi prezidenti. Gorbachyovning KPSS va davlat rahbari sifatidagi faoliyati SSSRda keng ko'lamli islohotlar urinishi - jahon sotsialistik tizimining qulashi va SSSRning parchalanishi bilan yakunlangan qayta qurish, shuningdek, SSSRning tugashi bilan bog'liq.

De Goll (1890-1970) - Fransiyaning taniqli harbiy va siyosiy arbobi. Birinchi jahon urushi qatnashchisi. 1940-yildan "Ozod Fransiya" vatanparvarlik harakatiga rahbari edi. 1958-yilda u bosh vazir, 1959-1969-yillarda esa Fransiya prezidenti bo'lgan. Beshinchi respublikaning asoschisi. U Fransiyaning jahon siyosatidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan qat'iy harakatlar tarafdori edi.

Den Syaopin (1904-1997)- Xitoy siyosatchisi. U Fransiya o'qigan. 1924-yildan Kommunistik partiya a'zosi. Kommunistlarning Chan Kayshi tuzumiga va yapon bosqinchilariga qarshi kurashida faol qatnashgan. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan keyin turli davlat lavozimlarida ishlagan. 1970-yillarning oxiridan boshlab Xitoyning jadal rivojlanishiga imkon bergan iqtisodiy islohotlarga rahbarlik qildi.

Yelsin Boris (1931-2007) - Sovet partiya va rus siyosat va davlat arbobi. U Rossiyaning birinchi saylangan prezidenti bo'lib, davlatni iqtisodiy tuzilmasini tubdan islohot qilish tarfdori sifatida tarixga kirdi. Shuningdek, u Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasini taqiqlash to'g'risidagi qarorlari, sotsializmdan voz kechish yo'li, Oliy Kengashni tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlari bilan mashhur.

Kastro Fidel (1926-yilda tug'ilgan)- Kubaning kommunistik rahbari. Badavlat oiladan chiqqan, Gavana universitetining yuridik fakultetini tamomlagan. 1953-1959-yillarda u orolda harbiy diktaturaga qarshi partizan kurashiga rahbarlik qildi, bu uning qulashiga va kommunistik tuzumning o'rnatilishiga olib keldi. SSSR

ko'magida mamlakatda totalitar tuzum o'rnatdi. 2006-yilda kasallik tufayli u faol siyosiy faoliyatdan chiqib, butun hokimiyatni ukasi Raul Kastroga topshirdi.

Kennedi Jon (1917-1963) - AQShning 35-prezidenti (1961-1963). Kennedining ikki yillik prezidentligi, sirli suiqasd tufayli uzilib qolgan. Uning davrida eng muhim voqealar- Karib inqirozi, qora tanlilarning huquqlarini tenglashtirish uchun jiddiy qadamlar va AQShning Apollon kosmik dasturining boshlanishi bilan ajralib turdi.

Kol Gelmut (1930-yilda tug'ilgan) -nemis siyosatchisi. Amaldor oilasida tug'ilgan.1950-yillarning o'rtalaridan siyosiy faoliyatini Xristian-demokratik partiyasi a'zosi sifatida boshlagan. 1982-1998-yillarda Germaniya Federativ Respublikasi Federal kansleri lavozimida ishlagan. U Germaniyani tinch demokratik yo'l bilan birlashtirishga hal qiluvchi hissa qo'shdi.

Lloyd Jorj (1863-1945) - ingliz siyosatchisi , liberal partiyadan (1916-1922). Uelslik oiladan bo'lib, Londonda advokat bo'lib ishlagan. Urushdan oldin Lloyd Jorj bir qator liberal islohotlarni amalga oshirdi: u yuqori palatani quyi palata tomonidan qabul qilingan qonunlarni bekor qilish huquqidan mahrum qildi va ovoz berish huquqini kengaytirdi. U Germaniya bilan muzokaralarda Britaniya delegatsiyasiga boshchilik qildi , Versal shartnomasini imzoladi. 1921-yilda Irlandiyaga mustaqillik berdi.

Mao Szedun (1893-1976) - Xitoyning XX asrdagi eng buyuk siyosatchisi. Badavlat dehqon oilasida tug'ilgan. Xitoy Kommunistik partiyasini tashkil etishda qatnashgan. 1946-1949-yillarda XKPning gomindan rejimiga qarshi kurashiga boshchilik qildi. 1966-1976 yillarda mamlakat ichida siyosiy muxoliflarga qarshi ommaviy repressiya kampaniyasini boshlab yubordi, bu "madaniy inqilob " deb nomlandi.

Angela Merkel (1954-yilda tug'ilgan)- nemis siyosatchisi, 2000-yildan Xristian-Demokratik ittifoq (XDI) partiyasi yetakchisi. 2005-yildan Germaniya federal kansleri bo'lgan. Tashqi siyosatda u Amerika kursini so'zsiz qo'llab-quvvatlashi bilan tanilgan. Ichki siyosatda u mashhur "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti" deb nomlangan siyosatini yuritishga harakat qildi.

Mussolini Benito (1883-1945) - Italiya fashistik partiyasining asoschisi va rahbari (Duche). Rimga yurush natijasida u ijroiya hokimiyati boshlig'i lavozimini egalladi (1922). U 1945-yilda italyan partizanlari tomonidan asirga olingan va urushdagi jinoyatlari uchun otib tashlangan.

Jomal Abdul Nosir (1918-1970) - Misrdagi eng yirik siyosiy arbob. Harbiy maktabni tugatgach, u monarxiyaga qarshi "Ozod ofitserlar" tashkilotining rahbari sifatida 1952-yilda harbiy to'ntarish amalga oshirdi, natijada monarxiya tuzumi tugatilib, respublika e'lon qilindi. 1956-yildan J.Nosir uning prezidenti bo'ldi. U amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar Misrdagi xorijiy kompaniyalar faoliyatini cheklab qo'ydi. Uning davrida Suvaysh kanali milliylashtirildi.

Neru Javoharlal (1889-1964) - Hindiston milliy ozodlik harakatining chap qanoti va Hindiston milliy kongressi a'zosi.

Nikson Richard (1913-1994) - Amerika Qo'shma Shtatlarining 37-prezidenti (1969-1974). Respublikachilar partiyasidan saylangan. Uning prezidentligi davrida amerikalik astronavtlar Oyga qo'ndi. Nikson davrida AQSH va XXR o'rtasida alohida aloqalar o'rnatildi va SSSR bilan munosabatlarda keskinlik siyosati boshlandi.

Pinochet Augusto (1915-2006) Chili diktatori. Bojxona xodimining katta oilasida tug'ilgan. 1973-yilda u harbiy to'ntarishga rahbarlik qildi, natijada Xalq birligining chap hukumati ag'darildi. 1974-1990 yillarda - Chili Prezidenti, 1998- yilgacha quruqlikdagi qo'shinlar bosh qo'mondoni bo'lib qoldi. 1998-2005 yillarda u Chili rahbari bo'lib ishlagan paytda jinoyatlar sodir etganlikda ayblanib sudlangan.

Ruzvelt Franklin (1882-1945) - AQShning 32-prezidenti. Prezidentlik davrida u iqtisodiyotni faol davlat tomonidan tartibga solish va ikkinchi jahon urushi davrida Gitlerga qarshi koalitsiyaning barcha davlatlarining hamkorligini yoqladi.

Tito Broz (1892-1980) - Yugoslaviyaning harbiy va siyosiy rahbari. 1941-1945-yillarda Yugoslaviya Xalq Ozodlik Armiyasi Oliy qo'mondoni. 1953-yildan Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi prezidenti lavozimida ishlagan. U 1961-yilda qo'shilmaslik harakatining asoschilaridan biri bo'lgan.

Margaret Thatcher (1925-yilda tug'ilgan) — britaniyalik siyosatchi. Baqqol oilasida tug'ilgan. 1979-yil may oyida bo'lib o'tgan parlament saylovlarida konservatorlar g'alaba qozonganidan keyin u Buyuk Britaniyada birinchi ayol bosh vazir bo'ldi. (1990-yil dekabrighacha). Uning davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash haqidagi g'oyalari amalda muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Franko Fransisko (1892-1975) - 1939-1975-yillarda Ispaniyadagi avtoritar rejim rahbari . Harbiy ta'lim olgan . 1936-yilda u respublika hukumatiga qarshi isyon ko'tardi va 1939-yilda o'zini davlat rahbari (kaudillo) deb e'lon qildi.

Xiroxito (1901-1989) –1926-yildan Yaponiya imperatori, "Osiyo xalqlarining birgalikdagi gullab-yashnashining buyuk sohasini" yaratish uchun kurashda xalqning timsoliga aylandi. 1946-yildan mutlaq hokimiyatdan voz kechdi. 1950-1970 yillarda mamlakatni modernizatsiya qilishni jadallashtirishga faol hissa qo'shdi.

Xrushchev Nikita (1894-1971) - 1953-1964 yillarda KPSS Markaziy Komitetining Birinchi kotibi, Ministlar Sovetining raisi. SSSRda 1958-yildan 1964-yilgacha Stalinning "shaxsiyatga sig'inishini" barbod qildi, jamiyatni ma'lum darajada liberallashtirishga va siyosiy mahbuslarni ozod qilishga hissa qo'shdi.

Husayn Saddam (1937-2003) -Iroq davlat arbobi . Yoshligida u mamlakatda xorijiy monopoliyalarning hukmronligiga qarshi chiqqanlar safiga qo'shildi. Bir necha harbiy to'ntarishlarda qatnashgan. 1979-yildan-Iroq Prezidenti. Tajovuzkor tashqi siyosati tufayli mamlakatning Eronga (1980-1989), keyin esa G'arb davlatlari koalitsiyasiga (1990-1991) qarshi urushda ishtirok etishiga to'g'ri keldi. 2003-yil bahorida AQSh-Britaniya kuchlarining operatsiyasi natijasida u ag'darilib, Bag'dodda qatl etilgan.

Chan Kayshi (1887-1975) - Xitoydagi harbiy va siyosiy arbob , 1925- yilda Sun Yatsen vafotidan keyin Gomindanga rahbarlik qilgan.

1949-yilda Gomindan mag'lubiyatidan so'ng Tayvandagi Gomindan hukumatni boshqargan. Xitoy Respublikasi Prezidenti (1950-1975) va Qurolli Kuchlarining Oliy Qo'mondoni (Tayvan).

Cherchill Uinston (1874-1965) XX asrning eng mashhur Buyuk Britaniya davlat arbobi edi. Marlboro gersoglarining eski aristokratik oilasidan kelib chiqqan. 1908-yildan hukumatda turli lavozimlarda ishlagan. 1940-1945 va 1951-1955-yillarda bosh vaziri bo'lgan. U yorqin, atoqli shaxs sifatida o'z avlodlariga bir necha jildlik tarixiy asarlari uchun adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori bo'lgan (1953).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2011.
2. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q – T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. 10-sinf uchun darslik. Jahon tarixi. – T.: 2017.
5. Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. 11-sinf uchun darslik. Jahon tarixi. – T.: 2018.

II. QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. M.Lafasov, U.Jo‘rayev. Jahon tarixi Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik – T.: 2011
2. Q. Rajabov v.b. Jahon tarixining muhim sanalari – T.: 2014.
3. M. Lafasov. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari – T.: 1995.
4. M.Lafasov. Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati – T.: 2008.
5. E.Nuridinov, E.Kichkirov, M.Lafasov. Eng yangi tarix (1918-1945), «Nasaf», 2010.

III. ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI:

[www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

www. edu.uz

www. kitob.uz

www. mustaqillik.uz

www.openscience.uz

www.videouroki.net

www.foxford.ru

www.bigenc.ru

www.sov-europe.ru

www.mediateka.zn.uz

www.Aim.uz

www.arxiv.uz

www.youtube.com

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

I BOB IKKI JAHON URUSHI ORALIGʻIDA DUNYODA IJTIMOIIY SIYOSIY VAZIYAT

1-§. Kirish. 1918-1939-yillarda xalqaro munosabatlar.....	5
2-§.1918-1939-yillarda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi,ilm-fandagi yutuqlar.....	13

II BOB. IKKI JAHON URUSHI ORALIGʻIDA YEVIROPA VA AMERIKA DAVLATLARI

3-§.1918-1939-yillarda Buyuk Britaniya.....	18
4-§.1918 - 1939-yillarda Fransiya.....	23
5-§.1918 - 1939-yillarda Amerika Qoʻshma Shtatlari.....	28
6-§.1918 - 1939-yillarda Germaniya.....	33
7-§.1918 - 1939-yillarda SSSR.....	39
8-§.1918 - 1939-yillarda Italiya va Ispaniya.....	46
9-§.1918 - 1939-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari.....	52
10-§.Takrorlash. Xaritalar bilan ishlash.....	57

III BOB. IKKI JAHON URUSHI ORALIGʻIDA OSIYO VA AFRIKA DAVLATLARI

11-§. 1918 - 1939-yillarda Yaponiya.....	60
12-§. 1918 - 1939-yillarda Xitoy va Hindiston.....	66
13-§. 1918-1939-yillarda Turkiya va Eron.....	72
14-§. 1918-1939-yillarda Afrika mamlakatlari.....	78

IV BOB. IKKINCHI JAHON URUSHI VA URUSHDAN KEYINGI XALQARO MUNOSABATLAR

15-§. Ikkinchi jahon urushi.....	84
16-§. Ikkinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari.....	92
17-§. Oʻzbekistonning fashizmga qarshi kurashda faol ishtiroki.....	96
18-§.Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlar:«Sovuq urush»ning boshlanishi.....	100

V BOB. 1946-1991-YILLARDA JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY-IQTISODIIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI

19-§.1946-1991-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari.....	107
20-§.1946-1991-yillarda Sovet Ittifoqi.....	112
21-§.1946-1991-yillarda Buyuk Britaniya va Fransiya.....	119
22-§.1946-1991-yillarda Germaniya va Italiya.....	126
23-§.1946-1991-yillarda Yaponiya va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari.....	133
24- §.1946-1991-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi.....	139
25-§. 1946-1991-yillarda Hindiston va Pokiston.....	144
26-§.1946-1991-yillarda Turkiya, Eron va Afg‘oniston.....	149
27-§.1946-1991-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari.....	155
28-§.XX asrning ikkinchi yarmida fan va madaniyatning rivojlanishi.....	160
29-§.XX asrning ikkinchi yarmida fan va madaniyatning rivojlanishi.....	165

VI BOB. XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHLARIDA DUNYO MAMLAKATLARI

30-§.XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar.....	170
31-§. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi.....	178
32-§.Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e‘lon qilinishi.....	186

VII BOB 1991-2017-YILLARDA DUNYO MAMLAKATLARI

33-§ 1991-2017-yillarda Rossiya Federatsiyasi. Ukraina, Belarusiya va Moldova respublikalari.....	192
34-§.1991-2017-yillarda Boltiqbo‘yi va Kavkazorti davlatlari.....	203
35-§.1991-2017-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari.....	212
36-§.Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari.....	219
37-§.1991-2017-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari. Germaniya Federativ Respublikasi.....	225
38-§.1991-2017-yillarda Buyuk Britaniya va Fransiya.....	235
39-§.1991-2017-yillarda Italiya. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.....	243
40-§.1991-2017-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi. Yaponiya.....	251
41-§.1991-2017-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Hindiston Respublikasi.....	259
42-§.1991-2017-yillarda Turkiya Respublikasi.Eron Islom Respublikasi.....	268
43-§.1991-2017-yillarda Pokiston va Afg‘oniston.....	275
44-§.1991-2017-yillarda Suriya va Iroq.....	280
45-§.1991-2017-yillarda Isroil davlati va Falastin muammosi.....	284
46-§.1991-2017-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari. Afrika mamlakatlari....	288
47-§.XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Globallashuv muammolari. Ilmiy-texnik taraqqiyot. Madaniyat.....	297

UMUMLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.....	308
TARIXIY ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR.....	310
JAMOAT VA SIYOSIY ARBOBLARNING BIOGRAFIK LUG'ATI.....	314
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	321